

A. I. ALIKULOV, U. T. ESHMURADOV, B. T. SHODIEV

# TARMOQ IQTISODIYOTI VA BUXGALTERIYA HISOBI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

ALIKULOV ABDIMO'MIN ISMATOVICH  
ESHMURADOV ULUG'BEK TASHMURADOVICH  
SHODIEV BEKZOD TO'LQINOVICH

## TARMOQ IQTISODIYOTI VA BUXGALTERIYA HISOBI

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 dekabrdagi noyabrdagi 537-sonli buyrug'iga asosan 60810900-Agronomiya (yem-xashak ekinlari) 60812200-

O'simlikshunoslik (yaylov cho'l o'simlikshunosligi) ta'lif yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent - 2023  
“Fan ziyozi” nashriyoti

UO'K: 435.432.134.5

KBK: 65.052(5O'zb)7

657  
A 49

### TARMOQ IQTISODIYOTI VA BUXGALTERIYA HISOBI.

60810900-Agronomiya (yem-xashak ekinlari) 60812200-

O'simlikshunoslik (yaylov cho'l o'simlikshunosligi) ta'lim

yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. A.I.ALIKULOV,

U.T.ESHMURADOV, B.T.SHODIEV / – Toshkent, "Fan

ziyosi" nashriyoti, 2023, 264 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma Davlat ta'lim standartiga asosan tuzilgan bo'lib, Oliy ta'limning 60810900-Agronomiya (yem xashak ekinlari) 60812200-O'simlikshunoslik (yaylov cho'l o'simlikshunosligi) ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va buxgalteriya hisobi masalalari yoritilgan.


O'quv qo'llanma "Qishloq va suv xo'jaligi" bilim sohasining 60810900-Agronomiya (yem xashak ekinlari) 60812200-O'simlikshunoslik (yaylov cho'l o'simlikshunosligi) ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan qishloq xo'jaligi korxonalar buxgalterlari hamda iqtisodchilari, oliy ta'limningda ta'lim olayotgan bakalavriat va magistratura talabalari, o'rta maxsus o'quv yurtlari va kollej o'quvchilari hamda boshqa qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

#### Taqrizchilar:

i.f.d., prof. Mirzaev K.J. (SamISI)

i.f.d., dots., Kudratov R.T. (SamVMChBU)

ISBN: 978-9910-743-8-5-6



## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	<b>7</b>
<b>I-BOB Qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati</b>	<b>9</b>
1.1. Qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati	9
1.2. Qishloq xo‘jaligining tarmoq va sohalari, ularning rivojlanishi, bozirgi ahvoli va istiqboli.	12
1.3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan o‘ziga xos xarakterdagи xususiyatlari.	16
1.4. Respublikada agrar islohotlarning zaruriyati, mohiyati va huquqiy mosullari. Agrar islohotlarning maqsadi va tamoyillari. Agrar islohotlarning bosqichlari va asosiy yo‘nalishlari.	17
<b>I-BOB Qishloq xo‘jaligining rivojlanishida klasterlarning o‘rni va ahamiyati</b>	<b>22</b>
2.1. Klaster tushunchasi, uning rivojlanishida nazariy yondashuv va qarashlar. Klasterlarning iqtisodiy mohiyati.	22
2.2. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad. Mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida klasterlarning o‘rni va ahamiyati.	30
2.3. Klasterlarni shakllantirish va rivojlanirish bo‘yicha jahon mamlakatlari tajribasi.	40
2.4. Innovatsion iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirish va rivojlanirish.	42
<b>I-BOB Qishloq xo‘jaligida yer-suv resurslari va ulardan foydalanish immaradorligi</b>	<b>43</b>
3.1. Qishloq xo‘jaligida yer resurslari va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Yer resurslarining tarkibi va sifati.	43
3.2. Yerdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.	45
3.3. Yer monitoringi va davlat yer kadastro.	52
3.4. Suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ularni aniqlash tartibi.	58
<b>I-BOB Qishloq xo‘jaligida moddiy resurslar va ulardan foydalanish immaradorligi</b>	<b>60</b>
4.1. Moddiy-tehnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati.	60
4.2. Qishloq xo‘jaligini moddiy-tehnika resurslari bilan ta’milanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.	64
4.3. Hozirgi bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo‘jaligining moddiy-tehnika resurslarini shakllantirish	67
4.4. Chorvachilik tarmog‘idagi innovatsion texnologiyalar, ularning ko‘lamini kengaytirish masalalari.	71
<b>I-BOB Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari va ulardan foydalanish immaradorligi. Mehnat unumdarligi</b>	<b>74</b>
5.1. Mehnat resurslari va qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati, bu borada hukumatning siyosati. Qishloq xo‘jaligining mehnat resurslari, ularni shakllantirishda davlatning roli.	74

5.2.	Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.	76
5.3.	Mehnat unumдорligи darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.	80
<b>6-BOB</b>	<b>Qishloq xo'jaligida investitsiyalar va ularning samaradorligini oshirish</b>	<b>86</b>
6.1.	Investitsiyalar (kapilal qo'yilmalar) haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati.	86
6.2.	Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)ning manbalari, ularning sarflanish yo'nalishlari.	90
6.3.	Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash.	92
6.4.	Investitsiya (kapital qo'yilma)lar ko'lamenti rivojlantirish va samaradorligini yaxshilash yo'llari.	95
<b>7-BOB</b>	<b>Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni; umumiy masalalari. Rentabellik va uni oshirish imkoniyatlari</b>	<b>100</b>
7.1.	Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi, uning ko'rsatkichlari va mezoni.	100
7.2.	Iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari.	101
7.3.	Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslublari. Rentabellikni oshirish omillari va imkoniyatlardan oqilona foydalanish.	103
<b>8-BOB</b>	<b>Buxgalteriya hisobining mohiyati, predmeti va metodi</b>	<b>106</b>
8.1.	Xo'jalik xisobi to'g'risida umumiy tushuncha va unga qo'yilgan talablar. Xo'jalik hisobining turlari: tezkor (operativ), statistik va buxgalteriya hisobi.	106
8.2.	Buxgalteriya hisobi fanining predmeti va metodi. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari	110
8.3.	O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri)" Qonuni va uning ahamiyati	115
<b>9-BOB</b>	<b>Buxgalteriya balansi</b>	<b>118</b>
9.1.	Balans to'g'risida tushuncha va uning ahamiyati.	118
9.2.	Balansning tuzilishi va uning moddalari mazmuni.	120
9.3.	Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida balansda bo'ladigan o'zgarishlar.	124
<b>10-BOB</b>	<b>Buxgalteriya hisobining schytłari va ikkiyoqlama yozuv</b>	<b>129</b>
10.1.	Schotlar to'g'risida tushuncha va ularning tuzilishi	129
10.2.	Ikkiyoqlama yozuv va uning ahamiyati	134
10.3.	Buxgalteriya schotlarini iqtisodiy mohiyatiga ko'ra turkumlanishi.	137
10.4.	Schotlarni tayinlanishi va tarkibiga ko'ra turkumlanishi.	140
10.5.	Buxgalteriya hisobi schotlarining rejasi.	143
10.6.	Schotlar bilan balans o'rtaqidagi bog'liqlik	147
<b>11-BOB</b>	<b>Hujjatlashtirish va invertarizatsiya.</b>	<b>151</b>
11.1.	Buxgalteriya hujjatlar haqida tushuncha va rasmiylashtirishga qo'yilgan talablar	151

11.1	Hujjallarni turkumlanishi va xo'jalik operatsiyalarini bujjatheddirish.	154
11.2	Hujjatlar aylanishi va ularni saqlash.	157
11.3	Inventarizatsiya haqida tushuncha va uning turlari.	160
11.4	Inventarizatsiyani o'tkazish va natijalarini aniqlash.	162
11.5	Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish tartibi.	163
<b>11.6</b>	<b>Pul mablag'lari hisobi</b>	<b>166</b>
11.1.	Pul mablag'larining qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotidagi o'mi va hisobning vazifalari	166
11.2.	Qishloq xo'jalik korxonalarida kassa operatsiyalari hisobi.	169
11.3.	Qishloq xo'jalik korxonalarining bankdagi hisob-kitob schoti operatsiyalarining hisobi.	173
11.4.	Qishloq xo'jalik korxonalarining bankdagi valyuta schoti operatsiyalarining va boshqa pul mablag'laringin hisobi.	176
11.5.	Qishloq xo'jalik korxonalarida qimmatli qog'ozlar hisobi.	181
<b>11.6.</b>	<b>Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarini, o'stirishdagi va boquvdagi mollarni hisobga olishning tuzusiyatlari.</b>	<b>186</b>
11.1.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarining iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va baholash. Ombor xo'jaligi hisobini tashkil etish.	186
11.2.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarining dastlabki hisobi.	189
11.3.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarining sintetik va analitik hisobi	190
11.4.	O'stirishdagi va boquvdagi mollarning iqtisodiy mohiyati, baholash va hisobning vazifalari. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning dastlabki hisobi.	193
11.5.	O'stirishdagi va boquvdagi mollarning sintetik va analitik hisobi.	196
<b>11.6.</b>	<b>Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi</b>	<b>199</b>
11.1.	Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi, baholash va hisobning vazifalari	199
11.2.	Asosiy vositalar kelishining hisobi.	202
11.3.	Asosiy vositalar eskirishi hisobi.	204
11.4.	Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va tugatishning hisobi.	208
11.5.	Nomoddiy aktivlar hisobi	211
<b>12. BOIB</b>	<b>Mehnat va unga haq to'lashning hisobi</b>	<b>215</b>
12.1.	Mehnat va unga haq to'lashni hisobga olishning asosiy vazifalari	215
12.2.	Mehnat haqi shakllari va tizimlari, mehnat haqi fondi va uning tarkibi. Mehnat haqining dastlabki hisobi.	217
12.3.	Mehnat va unga haq to'lashning sintetik va analitik hisobi.	221
12.4.	Mehnat haqidan ushlanmalar va mehnat haqiga nisbatan ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi.	224

<b>16-BOB</b>	<b>Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblash tartibi</b>	<b>226</b>
16.1.	O'simlikchilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulotlari tannarxini aniqlash.	226
16.1.	Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini hisoblash.	237
<b>17-BOB</b>	<b>Moliyaviy natijalar hisobi va moliyaviy hisobot.</b>	<b>244</b>
17.1.	Moliyaviy natijalarning iqtisodiy mohiyati va uchyotning vazifalari.	244
17.2.	Foya va zararlarning sintetik va analistik hisobi. Taqsimlanmagan foya (zarar) hisobi.	246
17.3.	Moliyaviy hisobotning mohiyati, ahamiyati va topshirish muddatlari.	249
17.4.	Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni tuzish tartibi.	253
	<b>Adabiyotlar ro'yxati</b>	<b>258</b>

## KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy maqundi aholi turmush faravonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bunga mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, aholiga munosib turmush sharoitini yaratish, bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini ta’minlash muhim shart ega. Bunda qishloq xo‘jaligining alohida o‘rnii bo‘lib, mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda qishloq xo‘jaligining ahamiyati va o‘rnii katta.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatining asosiy maqsadi, bosh funksiyasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni tayyorlash, qayta ishlash hamda iste’molchilarga yetkazib berish bilan o‘zaro bog‘langan tizoming maqsadga muvofiq, bir me’yorda barqaror ishlashini ta’minlash, provardida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilishdan iborat. Qishloq xo‘jaligida zamon talablariga javob bera oladigan iqtisodiy mezonimlarni yaratish, mahsulotlar miqdori va sifatini oshirish, ishlab chiqarishning eng samarali va maqbul shakllarini vujudga keltirish, mahsulotlar tannarxini arzonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb o‘sralardan hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy quvvatini, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli mamlakat qishloq xo‘jaligini rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e’tibor berilib kelinmoqda. Muo’toziborning natijasi o‘laroq, qishloq xo‘jaligi hamda tarmoq koronalari faoliyatini yuritish uchun zarur huquqiy baza yaratildi va ular muttasil takomillashtirilib borilmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mulkiy munosabatlarni takomillashdi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish fermer va dehqon xo‘jaliklari, MChJ shaklida tashkil etilgan agroklasterlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida malakatda qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan chorvachilik tarmog‘i ham rivojlantirilmoqda. Jumladan chorvachilik tarmog‘ini yem-xashak bazasini mustahkamlashda yem-xashak ekinlarini yetirtirish va tabiiy yaylovlardan samarali boydalinishda, ushbu soha bo‘yicha tayyorlanadigan ta’lim yo‘nalishlari

O'quv rejasidagi "Tarmoq iqtisodiyoti va buxgalteriya hisobi" fani oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Chunonchi chorvachilik tarmoqlarini, o'simlikchilik tarmog'i bilan imkon darajasida bir-biriga mutanosib rivojlantirish, ularning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirish masalalari yanada kuchaymoqda. Shu bilan birga, talabalarni iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, shartnomaviy munosabatlar kabi ko'plab iqtisodiy masalalarni chuqur o'rganishi talab qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida faoliya yuritadigan xo'jalik sub'ektlarda yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, mulkni hisobga olish, ular saqlanishini ta'minlash maslalariga e'tibor berilmoxda.

"Tarmoq iqtisodiyoti va buxgalteriya hisobi" fanining asosiy maqsadi talabalarda mamlakat qishloq xo'jaligining mohiyati, tarkibi, uni barqaror va jadal rivojlantirish muammolari, resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlari to'g'risida hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulkini saqlash, ular harakatini nazorat qilish bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish uchun yetarli darajada nazariy va amaliy bilimlar majmuasini shakllantirish hisoblanadi.

# I - BOB. QISHLOQ XO'JALIGINING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

## 1.1. Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i muhim ahamiyatga ega. "Mamlakat aholisining qariyb 16,4 millioni (jami aholining 49,4 foizi) qishloq hududlarida istiqomat qiladi (2018-y.). Mamlakatda tug'ilish darajasi yuqori (23,3 promille) va shunga mos ravishda qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchi mavjud. 25 yoshgacha bo'lgan odamlar aholining 45,5 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 55 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi"<sup>1</sup>. Bundan tashqari mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida ham qishloq xo'jaligi tarmog'i sezilarli salmoqqa ega.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmoqda.

Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Natijada 2008-2017-yillar mobaynida 1,7 mln gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti hamda 2,5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi.

Biroq, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sug'oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan.

Respublikada yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv kanalalaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatlari

<sup>1</sup> Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini oshirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-2019-01 Farmoni, 23.10.2019. <https://lex.uz/docs/4567334>

investorlar ishtirokini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonning 1-ilova "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi"ga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami yerlar 44892,4 ming gektarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra 8 ta toifaga bo'linadi, jumladan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar; aholi punktlarining yerlari; sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar; tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar; tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; o'rmon fondi yerlari; suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar unumdon yerlarga taalluqli bo'lib, umummilliy boylik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlah chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerkarning umumiyligi maydoni 20236,3 ming gektarni, shundan haydaladigan yerlar 3988,5 ming gektarni, ko'p yillik daraxtzorlar 383,1 ming gektarni, bo'z yerlar 76 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 11028,3 ming gektarni, boshqa yerlar 4760,4 ming gektarni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash, er-suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublika aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerkarning boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqardi.

Uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi yerlaridan nooqilona foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar bo'shdorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, shioz mullit illoslanishi ortib bormoqda.

Jumladan, sug'oriladigan ekin yerlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida al mashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori o'rta chadan past darajaga tushib qolgan.

Milliy daromadi O'zbekiston bilan deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun davlat budjetining 4-5 foizi yo'naltiriladi yoki YIMga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda 1 foizdan ortiqroqni, daromadi yuqori bo'lgan davlatlarda esa 1 foizdan kuniroqni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik suv sarfi 45696 mln metr kub yoki iqtisodiyot tarmoqlarida iste'mol qilingan suv resurslarining 90 foizini tushkil etib, yuqoriligicha qolmoqda.

Yer va suv resurslari tobora tanqis bo'lib borayotgan sharoitda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda ekinlarni iqtisodiy samaradorligi va bozor konyunkturasi inobatga olinmasdan hamda intensiv qishloq xo'jaligi joriy etilmaganligi sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda.

Jumladan, rivojlangan davlatlarda 1 metr kub suv bilan 4-6 AQSh dollarlik mahsulot yetishtirilayotgan bo'lsa, respublikamizda bu haqimizch 0,15 AQSh dollarini tashkil etmoqda.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish yirik kapital yo'ylmalar talab etishi, ushbu maqsadlar uchun yo'naltiriladigan budjet mablag'lari hajmining cheklanganligi, to'g'ridan-to'g'ri to'voni tayalarni, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jo'li qilish masalasiga e'tibor qaratilmayotganligi oqibatida qishloq xo'jaligi yerlarining foydalanishdan chiqib ketishi, hududlarning resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan nooqilona foydalanish kabi holatlar yuzaga kelmoqda, bu esa o'z navbatida mamlakat oziq-ovqat sovuzligini ta'minlash va tarmoq eksport salohiyatini oshirishga salbiy idar ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiysi qishloq xo'jaligi yerlaridan hamda suv va qidirotnashotlardan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi yerlarining maksimal mahsuldarlik salohiyatiga erishish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini ko'paytirish, tuproq

unumidorligini tiklash, davlat-xususiy sheriklik doirasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish, ilg‘or dehqonchilik tizimlarini va qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishning yuqori va intensiv agrotexnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha agrotexnik, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, zamonaviy irrigatsiya va melioratsiya texnologiyalari hamda yerlarni sug‘orish usullarini keng joriy etish, ekinlar seleksiyasi va urug‘chiliginini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash va sotish, logistika va marketing tizimlarini rivojlantirish, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini jadallashtirish maqsadida quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

### **1.2. Qishloq xo‘jaligining tarmoq va sohalari, ularning rivojlanishi, hozirgi ahvoli va istiqboli.**

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini oqilonqa joylashtirish asosiy turdag'i mahsulotlarni va hajmini oshirish va barcha agrosanoat majmuining iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi sifatida, alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarishning ustuvorligi sifatida, ba‘zan esa tayyor mahsulot ishlab chiqarishdagi alohida bosqichining bajarilishi sifatida ifodalananadi. Bu eng avvalo, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan obyektiiv dinamik jarayondir.

Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega birinchidan, moddiy va moliyaviy resurslarni raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga jamlash (konsentratsiyalash) imkonini beradi; ikkinchidan, ilmiy-texnika taraqqiyoti, tarmoq rivojlanishining sanoat yo‘liga o‘tishi uchun zarur sharoit yaratadi; uchinchidan, mehnatni tashkil etish shaklini mukammallashtirishga imkon beradi; to‘rtinchidan, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi oshishiga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish tarmoqlar xususiyatlari - bog‘liq: takror ishlab chiqarishning iqtisodiyot va biologik qonunlarini qo‘sib yuborish, ishlab chiqarishning mavsumiy va hududiy xarakteri, mahsulotlarning ko‘p turlarining qisqa muddatlarda kelib tushishi, tez buziladigan mahsulotlarning katta hajmi, mahsulotlar va boshqa ayrim narsalarning bir tekisda iste‘mol etilishi. Bu xususiyatlari ixtisoslashuvning shakllariga sur‘ati va umuman butun jarayoniga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligida mehnatning bo‘linishi sanoatdagidek chuqur bo‘lishi mumkin emas, chunki unda ixtisoslashuv bilan bir qatorda,

mahsulotlarning alohida turlari bo'yicha, texnologik jarayonlar bo'yicha ham mehnatni bo'lish amalga oshiriladi. Uncha ko'p bo'lмаган qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishgina tor doirada ixtisoslashgan korsonlarga jamlanib, butunlay mustaqil sifatida ajratilishi mumkin. Bunga parrandachilik fabrikalari, mol va qo'y go'shti yetishtirish uchun bo'resiqiga boqish komplekslari, issiqxona, uzumchilik va bog'dorchilik xo'jaliklari kabilalar kiradi.

Oishloq xo'jaligi korxonalarini ixtisoslashtirish uning rivojlanishiga yordam beruvchi yoki rivojlanishini to'xtatib qo'yishga olib keluvchi ko'plab omillar ta'siri ostida yuz beradi.

Ixtisoslashuvning chuqurlashuviga ilmiy-texnika taraqqiyotini yutuqlarini joriy etish asosida texnikalar, texnologiyalarni modifikatsiyallashtirish va shu asosda ishlab chiqarishni tashkil etish, yo'nalish yo'l transport kabilarning mavjudligi yordam beradi. Korxonalar yuqori darajada ixtisoslashgandagina qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kompleks mexanizatsiyalashni amalga oshirish, ishlab chiqarish va mahsulotlarni qayta ishlashning intensiv va tejamkor texnologiyalarini joriy etish, mehnatning tashkil qilishning ilg'or shodlariidan foydalanish mumkin bo'ladi.

Ixtisoslashishni kechiktiradigan omillar – bu yerdan, suvdan, texnik va mehnat resurslaridan oqilona foydalanmaslik, o'zini-o'zi te'minlashga intilish, qo'shimcha mahsulotlardan foydalanish, xo'jalikning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash zarurati kabilardir. Hunday tashqari, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlarda ixtisoslashuvning chuqurlashtirishning zarur texnik asoslari yo'qligi ham ta'sir ko'rsatadi.

O'simlikechilikda tor doirada ixtisoslashuv samarasiz, chunki ko'plab dala ekinlari mavjud agrotexnika qoidalariga ko'ra, biologik shartlariga ko'ra, har yili bir joyga ekilavermaydi. Ularni almashlab olib maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga yer massivlarining tabiiy maydalaniishi, tuproq tarkibi, relyefi va boshqa belgilari bo'yicha ularning bir uchastkadan turlicha xo'jalik yuritishda foydalanishni talab qiladi va bu ma'lum ekin va tarmoqlar yig'indisiga ega bo'lish zaruratini keltirib chiqaradi.

Oishloq xo'jaligi korxonalarini ixtisoslashtirish asosiy yoki yetakchi tarmoqni ajratish va ularning ustuvor rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Ixtisoslashuvning chuqurlashuvi quyidagilar hisobida amalga oshirilishi mumkin:

• tovar ishlab chiqarish tarmoqlari sonining qisqarishi;

-intensivlashtirish asosida asosiy tarmoqda ishlab chiqiladigan mahsulotlar hajmini oshirish;

-asosiy tarmoq tovarliligin oshirish.

Qishloq xo'jaligida ixtisoslashuvning quyidagi shakllari mavjud: mintaqalar bo'yicha, xo'jaliklararo, xo'jalik ichidagi va tarmoq ichidagi.

Mintaqalar bo'yicha ixtisoslashuv - bu mehnatning geografik bo'linishi. U qishloq xo'jaligining hududiy joylashuvini aks ettiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish natijalarining iqlim va tuproq sharoitlariga bog'liqligi mehnatning geografik bo'linishi zaruratini keltirib chiqaradi. Yirik hududlar (iqtisodiy tumanlar, xo'jaliklar, viloyatlar) tabiiy-iqlim sharoitga moslashuvi yetarli bo'lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

Xo'jaliklararo ixtisoslashuv - bu o'zida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar orasida mehnatning ijtimoiy taqsimlanishini aks ettiradi. Bozor sharoitida xo'jaliklar iqtisodiy jihatdan foydali mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashadilar.

Xo'jalik ichidagi ixtisoslashuv - bu mehnatning xo'jalik ichidagi bo'limlar (bo'linmalar, sexlar, fermalar) orasida bo'linishi. Bo'limlar mavjud resurslarni hisobga olib, bitta yoki bir nechta turdag'i mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Xo'jalik ichidagi ixtisoslashuv qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining strukturasi bo'yicha belgilanadi.

Tarmoq ichida ixtisoslashuv - turli korxonalarga jamlangan bii bosqichdagi yakuniy mahsulot keyingi bosqichdagi ishlab chiqarish uchun dastlabki bo'ladigan texnologik sikllarni alohida bosqichlarga bo'lib tashlashga asoslanadigan ixtisoslashuv. Ixtisoslashuvning bu shakli ko'proq chorvachilikda keng tarqalgan. Masalan, parrandachilikda tuxum ishlab chiqarish inkubator xo'jaligi, go'shi broyler xo'jaliklari bo'yicha korxonalar bor. Xo'jalik ichida ixtisoslashuv bo'yicha yaratilgan hamma xo'jaliklar odatda tor doirada ixtisoslashgan bo'ladi. Korxonalarning xo'jaligi ichida ixtisoslashuvni ishlab chiqarishning intensivlashtirish va konsentratsiyalash sharoitlaridagina muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Ixtisoslashuv xo'jaligi ishlab chiqarishining bosh yoki asosiy tarmoqlari yo'nalishlari bo'yicha aniqlanadi (paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, chorvachilik va boshqalar). Korxonaning ishlab chiqarish yo'nalishi oxirgi uch yildagi qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlari strukturasi bo'yicha aniqlanadi.

Xo'jalikdagi yer, suv, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida bir nechta tarmoqning rivojlanishiga erishiladi.

Oishloq xo'jaligi mehnatining ijtimoiy taqsimotini boshang'ich bo'qichida faqat ikki tarmoq-dehqonchilik va chorvachilik mavjud bo'lgan. Keyinchalik o'simlikchilik va chorvachilik turidagi mahsulot ishlab chiqarishning mustaqil tarmoqlari paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, qo'ychilik kabilar ham ajralib chiqdi.

Iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra, qishloq xo'jaligi tarmoqlari asosiy, qo'shimcha va yordamchi tarmoqlarga bo'linadi.

Asosiy tarmoqlar deyilganda xo'jalik iqtisodiyotida muhim rol o'yinaydigan va tovar mahsulotda eng ko'p taqqoslama og'irlikka ega bo'lgan tarmoqlar tushuniladi. Ularning orasidan tovar strukturasidagi ulushi 50% dan oshgani asosiy tarmoq sifatida ajralib chiqishi mumkin.

Qo'shimcha tarmoqlar - asosiy tovar mahsulotiga o'xshaydi, lekin ulur xo'jalik iqtisodiyotida kamroq ahamiyatga ega, u asosiy tarmoqlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bu tarmoqlar mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalanish va qo'shimcha foya olib imkonini beradi.

Yordamchi tarmoqlar - notovar, asosiy va qo'shimcha tarmoqlar rivojlanishiga yordam beradi, masalan, ozuqa ishlab chiqarish.

Oishloq xo'jaligi korxonalarida qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan boshqa yordamchi ishlab chiqarish (ta'mirlash ustaxonalar, suv va energiya ta'minoti va boshqalar), qo'shimcha sanoat ishlab chiqarish (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qurilish materiallari, taralar va boshqalar) bo'lishi mumkin. Yordamchi ishlab chiqarishning vazifasi shundaki, u butun tarmoq va bo'linmalarning to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydi. Yordamchi ishlab chiqarish qish davrida mehnat resurslaridan to'liqroq foydalanish va qo'shimcha foya olib ham yordamlashishdir.

Oishloq xo'jaligi korxonalarini tarmoqlarining oqilona ixtisoslashishi iquyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- minimal mehnat va mablag' sarfi bilan maksimal daromad olish
- tufayli raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarish;
- tuproq-iqlim sharoitini hisobga olish;
- texnologiya va tashkiliy tomondan bir-biriga bog'liq tarmoqlarni ushuvor rivojlantirish, paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik va chiqarishilik, issiqxonalar va ochiq tuproqdagi sabzavotchilik ishlab chiqarishi (parrandachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik, ikkala tarmoq ham sermehnat lekin bularning qo'shib olib borilishi iqtisodiy jihatdan oqlangan);

- qishloq xo‘jaligi ekinlarining tarkibiy o‘zgarishlaridan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini oshirish;
- mehnat, suv resurslari va texnika vositalaridan samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishning mavsumiyligini yengillashtirish va yil davomida pul mablag‘larining maqbul holda tushishini ta‘minlash.

### **1.3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan o‘ziga xos xarakterdag‘ xususiyatlari.**

Korxona ixtisoslashuvining asosiy ko‘rsatkichlari - uning darajasi va ixtisoslashuv koeffitsiyenti hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashtirish yo‘nalishi ularda yetishtirilgan tovar mahsulotining strukturasiga qarab aniqlanadi.

Ixtisoslashtirish darajasiga ko‘ra, xo‘jaliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Tor ixtisosli xo‘jalik;
2. Ixtisoslashgan xo‘jalik;
3. Ko‘p ixtisosli (tarmoqli) xo‘jalik.

Birinchi guruhga qoidaga asosan tarkibida bitta tarmog‘i bo‘lib, uning tovar mahsulot strukturasidagi ulushi 90-100 foizni tashkil qilgan xo‘jaliklar kiradi (parrandachilik fabrikasi, bug‘doychilik komplekslari, baliqchilik, issiqxona, meva ko‘chati yetishtirish va shunga o‘xshash xo‘jaliklar).

a) tarkibida bitta asosiy tarmoq bo‘lib, uning tovar mahsulotidan nisbati 50 % dan yuqori bo‘lgan xo‘jaliklar kiradi (paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, parrandachilik xo‘jaliklari);

b) tarkibida ikkita asosiy tarmoq bo‘lib, ularning har biri tovar mahsulotidagi nisbati 20 % dan kam bo‘lmay, birgalikda tovar mahsulotining yarmidan ko‘proq qismini tashkil qilgan xo‘jaliklar kiradi (don-paxtachilik, don-chorvachilik, sabzavot-sutchilik, bog‘dorchilik-uzumchilik);

v) tarkibida uchta asosiy tarmoq bo‘lib, ular xo‘jalik tovar mahsulotini to‘rtadan uch qismini tashkil qilgan hamda tarkibida bir nechta yordamchi tarmoqlar bo‘lgan xo‘jaliklar kiradi (don-paxtachilik, don-kartoshka-chorvachilik va hokazo).

Istisloshtirishning rivojlanishi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotli ishlab chiqarishi samaradorligi oshishining asosini tashkil etdi.

#### **1.4. Respublikada agrar islohotlarning zaruriyati, mohiyati va huquqlary asoslari. Agrar islohotlarning maqsadi va tamoyillari. Agrar islohotlarning bosqichlari va asosiy yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan agrar sohani rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlardan biri - tarmoqda yer va suv resurslaridan unumli foydalanish muosabatlari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Chunonchi, yer va suv resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularda respublikamizda yer va suvgaga egalik qilish, ulardan muqadqa muvoqiq hamda samarali foydalanish borasidagi munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish tartibi ko'rsatilgan. Yer-suv resurslariga qilishning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylidir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat shahzadasidadir"<sup>22</sup> - deb belgilab qo'yilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloq qilish, surʼun sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor muosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yutishuvchi, qayta ishlovchi va sotuvechi subyektlar o'rtasidagi muosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish boʼsi qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini zamonaviy iannikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb qilishiga, ishlab chiqaruvchilarining yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrda qo'shilgan 5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonning 1-ilova O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasiga muvofiq Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan 20,2 mln hektar yerlarning atigi 20,7 foizi sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. So'nggi 15 yil mobaynida aholi jon boshiga sug'oriladigan yerlar 24 foizga (0,23 ga dan 0,16 gacha) kamaygan.

Mazkur holat aholi sonining o'sishi, suv ta'minoti hajmining qisqarishi va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning boshqa yer fondi toifalariga o'tishi natijasida yuzaga kelgan.

Prognozlarga ko'ra, kelgusi 30 yil mobaynida sug'oriladigan yer maydonlari yana 20-25 foizga qisqarishi mumkin.

Yerdan foydalanish huquqining yetarli darajada kafolatlanmaganligi xo'jaliklarni boshqarish samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda va investitsiyalarni jalb qilishni cheklamoqda.

Hozirgi vaqtida yer uchastkalarini taqsimlashning hamda yerdan foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilishning aniq va shaffot mexanizmlari to'liq yaratilmagan.

Shuningdek, yer uchastkalarini ikkilamchi ijara berish nazarda tutilmaganligi qishloq xo'jaligi yerlarini nisbatan salohiyatli yerdan foydalanuvchilarga o'tishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mamlakat suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi. Mazkur holat Markaziy Osiyoda xususan O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini barqaror boshqarish uchun mintaqaviy hamkorlikning muhimligini belgilaydi. Mamlakatda irrigatsiya tarmoqlarining 70 foizi filtratsiyaga qarshi qoplama ega emas, oqibatda suvning bir qismi dalagacha yetkazish jarayonida yo'qtilmoqda.

Mavjud irrigatsiya infratuzilmasi, nasos stansiyalarining katta qismi  
10 — 40 yildan ortiq foydalanilmoqda va rekonstruksiya yoki kapital  
ta'mirga muhtoj.

Hozirgi vaqtida sug'oriladigan yerlarning faqatgina 1,7 foizida  
tumchilatib sug'orish joriy etilgan.

Dehqonchilikning irrigatsiyaga yuqori darajada bog'liqligi sababli  
mavjud sug'orish uslublarini qo'llashning davom etayotganligi hamda  
tijlim o'zgarishi natijasida qurg'oqchilikning keskin kuchayishi bilan  
variyat yanada murakkablashishi mumkin.

Jahon resurslari institutining prognoziga ko'ra, 2040-yilga borib  
O'zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan 33 ta mamlakatning biriga  
yanadi. Hosildorlikning kamayishi oziq-ovqat xavfsizligi va to'lov  
baloni uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, bu esa suv  
resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo'jaligi ekinlarini  
yetishтирishda resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash zaruratinu yuzaga  
keltiradi.

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xarajatlarini  
qoplash mexanizmining mavjud emasligi suv tejovchi texnologiyalarni  
eng joriy qilishga to'sqinlik qilmoqda.

Evropa Ittifoqi Parlamentining suv bo'yicha direktivasiga  
(2000/60/YI) mos yangi zamonaivy suv qonunchiligining joriy qilinishi,  
helpusida suv siyosatini tartibga soladigan zarur normativ-huquqiy baza  
chiqilishini va suv resurslarini boshqarishning uyg'unlashgan  
uslublari joriy qilinishini ta'minlaydi.

Mamlakat tabiiy resurslarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri  
o'rmon fondi yerlari bo'lib, 11,1 mln gektarni yoki umumiy  
maydonning 25 foizini tashkil etadi. O'rmon bilan qoplangan maydonlar  
o'rmon 3,2 mln gektarga (29 foiz) teng.

Bo'nggi yillarda Hukumat tomonidan o'rmon resurslarini  
bosqichishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-yilda O'rmon xo'jaligi  
davlat qo'mitasi tashkil etildi, o'rmonlar maydonini 2,3 mln gektarga  
engaytirish, 12 ta yangi o'rmon xo'jaliklarini tashkil etish va moddiy-  
teknik bazasini mustahkamlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga  
oshirildi.

Nuningdek, Orol dengizining qurigan sathida o'rmonlar barpo  
qilib, himoya o'rmonzorlar maydonlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi  
yerlarda shamoldan himoyalovchi yashil yo'laklarni ko'paytirish,  
monitoring tizimini yaratish va ekologik ta'lif dasturlarini  
takomillashtirish ishlari olib borildi.

Shu bilan birga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish natijasida atrof-muhit va iqlim uchun yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi uchun tabiiy resurslarni samarali boshqarish asosiy ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatda minimal agroekologik standartlar mavjud bo'lsada, ularning asosiy qismi eski texnologiyalarga asoslangan. Qishloq xo'jaligi amaliyotlarini ishlab chiqishda ekologik omillar hisobga olinmaydi.

Agroekologik amaliyotlarni yaxshilash va tabiiy resurslarni muhofaza qilish standartlari va mexanizmlarini ishlab chiqishda ekologik omillarga integratsiya qilish talab etiladi.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

maqbul qishloq xo'jaligi va ekologik amaliyotni (GAEP) ishlab chiqish va joriy etish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga mo'ljallangan maqbul qishloq xo'jaligi va ekologik amaliyot (GAEP) tamoyillariga rioya etish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga maqbul qishloq xo'jaligi va ekologik amaliyoti (GAEP), shuningdek, agrar tadbirkorlikka maqbul ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) hamda boshqa sifat standartlarini joriy etishga ko'maklashish choralarini ko'rish;

qishloq xo'jaligida ekologiya va iqlim uchun xavfsiz amaliyotni targ'ib qilish;

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga yerdan foydalanish huquqini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini saqlab qolgan holda dehqon xo'jaliklari yerlarini vaqtincha foydalanish uchun berish tartibini joriy etish hamda belgilangan tartibda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar bekor qilinganda tutash hududdagi yerdan foydalanuvchilarning tomonidan dastlabki rad etish huquqini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish;

2030-yilga qadar bir gektar maydonni sug'orish uchun ishlatiladigan SUV sarfini 20 foizga kamaytirish;

mahalliy suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar va xaridolarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish;

o'rmon resurslarini boshqarish sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

iqlim o'zgarishi ta'sirini oldini olish bo'yicha harakatlar milliy rejasimi qabul qilish;

tuproqni tahlil qilishning mobil laboratoriyalarini xarid qilish orqali tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'g'itdan foydalanishning samarali amaliyotini joriy etib, tuproq unumdarligini anqlash va oshirish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni hisobga olishning kadastr tizimini takomillashtirish hamda yerdan foydalanish va mulk huquqlarining hisobini yuritish uchun ko'chmas mulkka egalik huquqini hisobga olish tizimi bilan yagona axborot tizimini birlashtirish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning kadastr bahosini aniqlash tizimini qayta ko'rib chiqish;

suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;

smart texnologiyalaridan (mini o'lchov stansiyalari va "aqliyayloqcha") foydalangan holda qishloq xo'jaligida suv bilan ta'minlash surʼiyatlarini qoplash tartibini ishlab chiqish;

o'rmon resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;

o'rmon resurslarini baholash va uning monitoringini yuritishning amonaviy usullarini joriy etish;

bozor bahosida o'rmon resurslarining hisobini yuritishni ta'minlovchi mezonlar va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;

biologik xavfsizlikni ta'minlash, qishloq xo'jaligida tabiiy resurslar, positiividlar va kimyoviy vositalardan foydalanishni nazorat qilish borasida institutsional salohiyatni mustahkamlash;

ekotizim va biotoplarning holatiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ta'sirini monitoring qilish uchun Maqbul qishloq xo'jalik va ekologik amaliyot (GAEP) asosida minimal ekologik standartlar va qalaburni ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning kadastr tizimini yuvorlantirish, yer resurslarini boshqarish sohasidagi muassasalarining inkoniyatlari va infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda qishloq xo'jaligiga xususiy investitsiyalarni jaib etish maqsadida

sug‘orish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish va tajriba sinov tariqasida joriy etish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Respublika qishloq xo‘jaligi jahon iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi?
2. Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi?
3. Qishloq xo‘jaligining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
4. Hukumatning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlari nimalardan iborat?
5. Qishloq xo‘jaligida rivojlangan davlatlarning tajribasini qo‘llash imkoniyatlari nimadan iborat?
6. Qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘ringa ega?
7. Agroekologik amaliyotlarni yaxshilashda qanday ekologik omillarga integratsiya qilish talab etiladi?

## **2- BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHIDA KLASTERLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

### **2.1. Klaster tushunchasi, uning rivojlanishida nazariy yondashuv va qarashlar. Klasterlarning iqtisodiy mohiyati.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarda shu jihatdan alohida kasb etadi.

O‘zbekistonda agrar sohani isloq qilishda, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Buning yaqol isboti sifatida prezidentimiz tashabbusi ostida qabul qilinayotgan klaster sohasiga oid qaror va farmonlar bunga misol bo‘la oladi. Xususan, klaster usuli yo‘lga qo‘yishda, bu esa bozor tamoyillariga o‘tishda, sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirishda muhim omil bo‘lib kelmoqda. Birgina qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-son farmoni ijrosini ta’minlash, mevni-

**sabzavot** va uzumchilik sohasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tijribasi chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va salmi yerlarni o'zlashtirish, paxta, g'alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish, shuningdek, bog', tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yildi.<sup>3</sup> Buning natijasida oxir-oqibat hosildorlik ham daromad ham oshmoqda.

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanishdagi roli va max'uliyatini oshirish, mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishllovchilarining manfaatdorligini ta'minlashga doir bozor tamoyillarini keng joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-14 son farmoni qabul qilindi<sup>4</sup>.

Farmoniga muvofiq uning dolzarbligi paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan joylarda bosqichma-bosqich zamonaviy qishloq xo'jaligi teknikalari parkini yaratib, sohani mexanizatsiya darajasini oshirib, yetishtirilgan hosilni chuqur qayta ishslashni yo'lga qo'yib, mahsulot yetishtirishda band bo'lgan aholini sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga o'tkazib, qolaversa, bu bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirish sanaladi.

Dundan asosiy maqsad, qishloq xo'jaligida sifatli paxta yetishtirilib, komashyo o'z vaqtida va sifati yo'qotilmasdan sanoat korxonasiga yetkazib berilsagina undan raqobatdosh mahsulot ishlab chiqariladi. Hunda esa dala mehnatkashlari va korxona ishchilari ham birdek munflant ko'radi.

Umuman olganda, klasterga oid nazariyalarni yaratilishi va ularning ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti tadbirkardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni tutgan holda quyidagi adabiyotlar, misol uchun klasterlar rus olimlari klasterga oid ilmiy taqdiqot ishlari horijlik olimlari tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan keng o'rganilib kelinmoqda. J.Ashenbroyx, S.Aleksandr, A.Barabolina, V.Baburin,

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada qo'shilgantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" PF-14 son farmoni "O'Q-4549" qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4641164>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-14 son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5731033>

I.Bortnik, S.Zemtsov A.Marshall, F.Moisey, N.Rudneva, S.Slavyanova, S.Sokolenko, V.Tarasenko<sup>5</sup>lar tomonidan muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Shuningdek, klaster mohiyati, uni rivojlantirish masalalari O'zbekistonlik olimlar tomonidan hamilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, professor M.Rahmatovning "Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida" nomli kitobida bu klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlari haqida masalalar yoritilgan.

O'zbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkiletishning ilmiy asoslari M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar "Klaster integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o'sish" risolasi tomonidan ko'rsatib bergen.

"Klaster" nazariyasining asosi bo'lib, A.Marshallning XIX asr oxirida yozilgan "Iqtisodiyot prinsplari" nomli asarida ixtisoslashgan tarmoq sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risidagi fiki mulohazalari yoritib bergen. Skoch Aleksandr klasterni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqib, A.Barabolina esa o'z tadqiqodlarida klasterning evolyutsion rivojini bir qator bosqichlarini ko'rsatib bergen.

Bu kabi ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moliyalashtirish masalalari va muommolari hamda ularda qo'llaniladigan usullar tahlillar masalalariga kengroq urg'u berilgan.

O'zbekistonda keyingi yillarda ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo'jaligida klaster usulini joriy etishga

<sup>5</sup> Жак Ашенбройх. Революционные фундаментальные инновации. Состояние инноваций в 2016. Stateofinnovtijp. com, Скоч, Александр. Международный опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс) // Режим доступа: [www.intelros.ru](http://www.intelros.ru). А.Бараболина. Формированиеавтомобильного кластера в Китае (Электронный ресурс) // Проблемы современной экономики.2008№ 4(24) Режим доступа:<http://www.m-economy.ru>. В.Бабурин., Земцов С.П.(Инновационный потенциал регионов России. Москва: КДУ, 2017. 358 с.ISBN 978-5-91304-721-2.), В.Бабурин, Земцов С.П. (Инновационный потенциал регионов России. Москва: КДУ, 2017, 358 с.ISBN 978-5-91304-721-2.), И.Бортник , Земцов С.П., Сорокина А.В., Павлов П.Н., Иванова О.В., Кусенко Е.С.(Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки // Инновации. 2015, № 7. С., A.Marshall, principlesof Economics,1890., Ф.Моисей, Славянова Светлана(Кластер номер один // Эксперт Юг №48 (137), 2010.), Н.Руднева Опыт создания структурированных кластеров в развитых странах (Электронный ресурс) // Экономика регионов.2007,№11 Ч.2(декабрь) Режим доступа: <http://journal.vlsu.ru>. С.Соколинко О кластеризации в странах ОЧЭС (Электронный ресурс) // Режим доступа: <http://www.ucci.org.ua>. Владислав Тарасенко (Территориальные кластеры: Сем инструментов управления.-М.: Альянс Паблишер, 2015.-201c.

iddiy e'tibor qaratilyapti. Klasterlar faoliyati, ularning moliyaviy boshqaruvning xususiyalari va qonuniyatları ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib bir qator samarali tadqiqot metodologiyasidan foydalanishni taqpozo etadi. Albatta bunda avvalo nazariy mushohada hamda mantiqiy yondoshuv asosida klasterlar faoliyatini moliyalashtirish va unda moliyaviy boshqaruvning yondoshuvlarni ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Ulgi asoslangan holda ilmiy adapbiyotlar ilmiy tahlil qilindi, muammoga oid ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislarining ilmiy-nazariy qarashlari bunda umumlashtirish va guruhlashtirish metodga asoslandi. Rasmiy va amaliy materiallarga asoslangan holda sintez va tahlil usullarga asoslanib ilmiy xulosalar olindi, deduktsion yoki induktsion yondoshuvga asosan klasterlar moliyalashtirish jarayonida moliyaviy boshqaruvga ta'sir etadigan omillarni quyidan yuqoriga va aksincha turibda tadqiq etish imkonini tug'ildi. Mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullarni qo'llash orqali kompleks tabillarga asoslanib ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirildi.

Bo'nggi besh yilda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy hayotida klaster atamasi tez-tez ishlatila boshlandi. Klaster tizimi bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi "Klaster" atamasi o'zi nima? Klaster to'g'risidagi nazariyalar bu savolning javobini ochib beradi. Klaster nazariyasining bo'lib, Alfred Marshalning XIX asr oxirida yozilgan "Iqtisodiyotning prinsiplari" nomli asarlarida (1890) ixtisoslashgan turmoq-sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risida fikr-mulohazalarini yuritib klaster atamasini ochib bergen.

"Klaster" nazariyasini o'rganish jahon hamjamiyatida tez suratlarda o'shib bormoqda va uni amaliyotda qo'llash esa milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda.

"Klaster" atamasi franzuscha so'z bo'lib, o'zbekcha tarjimasi "bog'lam", "guruh", "to'plam" ma'nolarini beldiradi. Klaster-bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan agrar, sanoat va boshqa izdosh hujaynalar majmui bo'lib, u ilm-fan, ta'lim hamda agrar sanoat sohalarida ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, fan-texnika yengililiklarini, innovatsion g'oyalarni, yangi texnika va texnologiyalarini amaliyotiga jadal joriy etib, mehnat unumdarligini, qo'shimcha mahsulot yaratishini oshirish imkoniyati beruvchi xo'jalik tizimidir.<sup>6</sup>

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan klasterlar faoliyatidagi islohatlar natijasining birdan bir maqsadi yerdan samarali foydalanishdir. Klasterlar faoliyati tashkil etilgach, sohalarda qanday ijobiy o‘zgarishlar, uning afzaliklari nimada namoyon bo‘ladi degan savollarga javob olish uchun avvolo quyidagi misollarga e’tibor qaratish joiz. Ana shunday innovatsion loyihalardan birini Buxoro viloyatida amalga oshirilmoqda. Jumladan, “BCT Cluster” davlatimiz rahbarining 2017-yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamонавиј paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tashkil etilgan bo‘lib, paxta yetishtirishdan tortib uni chuqur qayta ishslashgacha bo‘lgan barcha texnologik zanjirni to‘liq birlashtirgan majmuadir.

Klasterning ahamiyati shundaki, mazkur usulda paxta yetishtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki tolani birlamchi holatidan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgachaklasterning o‘zi shug‘ullanadi. Boshqacha aytganda, qishloq xo‘jaligi va sanoat integratsiyalashadi, dala mehnatchilari va korxona ishchilarining manfaatlari mushtaraklashadi. Eng asosiysi, chekka qishloqlarga sanoat salohiyati ortadi, eksport imkoniyati kengayadi. Bugungi kunda paxta maydonlari yil sayin qisqartirilib, uning o‘rniga yangi bog‘lar barpo etilyapti. Bu shuni anglatadiki, qanday mahsulot ko‘p daromad keltirsa, tashqi va ichki bozorda qaysi mahsulotga talab yuqori bo‘lsa o‘sha mahsulot ekilishi kerak deb o‘layman. Yurtimizning bir qancha viloyatlardagi tumanlarda xususan, Asaka, Kitob, Qibray, Parkent, Jomboy, Zangiota tumanlarida paxta ekilmay, uning o‘rniga meva poliz ekinlari kartoshka yetishtirilib ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorga katta qismi eksport qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda Paxta-to‘qimachilik yo‘nalishida bir qator tashabbuslarilgari surilmoqda. Bular quyidagilar:

- paxta hosilini moliyalashtirishshudgor davridan boshlanishi, klasterlar paxta yetishtirish (paxta qiymatining 60 foizi) uchun Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi tomonidan joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan 24 oyga kredit ajratilib, uning imtiyozli davri 11 oydan 18 oygacha uzaytiriladi;

- klasterlarga paxta terimini (paxta qiymatining 20 foizi) moliyalashtirish uchun ham Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi mablag‘laridan imtiyozli-10 foiz stavkada kredit ajratiladi;

- paxta yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar faqat klasterlar orqali moliyalashtiriladi; yakuniy hisob-kitob uchun (paxta qiymatining 20

foizi) olingen kredit foizining Markaziy bank stavkasidan (14 foiz) qismin qismi Qishloq xo'jaligi jamg'armasi hisobidan qoplab beriladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan integratsiya jarayonlari uning baynalminallashuvi va globallashuvi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi bir tomonidan qo'shimcha qiymat yaratishning transmilliy "zanjurini" ko'zda tutgan xolda, ikkinchi tarafdan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ham raqobatni huqiqitirmoqda. Globallashish asosida logistika va tovarlar hamda xizmatlar sifatini ham standartlashtirishni ta'minlovchi umumjahon kommunikasiya tizimi ham rivojlanib bormoqda.

Integrasiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlardan iqtisodiyotida yangi xo'jalik yuritish tizimini shakllantirish yo'li hisoblanib, o'zaro provyad maxsulot ishlab chiqaradigan va geografik yaqin bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni o'z ichiga olgan "Klaster"lar yaratishdir. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashtigan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik sahnorda bo'lgan ta'lif, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish – innovasion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat.

"Klaster" atamasi fransuzcha so'z bo'lib o'zbekcha tarjimasi "panja", "bosh", "bog'lam", "guruh", "to'planish", "turg'un" ma'nolarini beradi. Shuningdek, "klaster" tanlanma tadqiqotlarning bir uniqli nafatida ham ifodalananadi.

"Klaster" nazariyasining asosi bo'lib, Alfred Marshallning XIX asr osirida yozilgan "Iqtisodiyot prinsiplari" nomli asarida (1890) iqtisodlashgan tarmoq sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Uning ilmiy xulosalari hujaycha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi sub'ektlarni hududiy o'yng'unlashuvi:

- malakaviy mehnat resurslarining borligi;
- ta'minotchi va qo'shimcha sohalarning o'sishi;
- har-xil firmalarni ishlab chiqarish jarayonining turli bo'g'inlariga iqtisodlashuvining mavjudligiga asoslanganligi.

Maykl Porter nazariyasiga ko'ra, **klaster** geografik jihatdan qo'shni bo'lgan o'zaro bog'liq kompaniyalar (etkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) va muayyan sohada faoliyat yurituvchi

tashkilotlar (ta'lim muassasalari, davlat organlari, infratuzilma korxonalar) guruhidir. va qo'shimcha.

M. Porter mamlakat raqobatdoshligini xalqaro kompaniyalarning raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak, deb hisoblaydi, biroq turli tarmoqlardagi firmalarning birlashmali - bu klasterlarning ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyatları juda muhimdir. Shuningdek, u "raqobatbardosh olmos" (yoki "olmos") deb nomlangan mamlakatlarning raqobatbardoshlik afzalliklari tizimini ishlab chiqdi. Bu kabi afzalliklarning asosiy guruhlari soni bo'yicha Bunga quyidagilar kiradi:

faktor omillari: inson va tabiiy resurslar, ilmiy axborot salohiyati, kapital, infratuzilma, shu jumladan hayot sifatining omillari;

ichki talabning shartlari: talabning sifati, jahon bozorida talabning rivojlanish tendensiyalariga rioya qilinishi, talabning hajmini oshirish.

(tarmoqlarning klasterlari): xom ashyo va yarim tayyor mahsulotni olish joylari, asbob-uskuna sotib olish joylari, xom ashyo, texnika va texnologiyalardan foydalanish.

firmalarning strategiyasi va tuzilishi, tarmoq ichidagi raqobat maqsadlar, strategiyalar, tashkil qilish usullari, kompaniya boshqaruvi, tarmoq ichidagi raqobat.

Bundan tashqari, mamlakatdagi vaziyatga katta ta'sir ko'rsatadigan ikkita qo'shimcha parametr mavjud. Bu *tasodifyi hodisalar* (ya'ni firmalarning boshqaruvini nazorat qila olmaydigan narsalar) va *hukumat siyosati*.

Etimol, Portering asosiy g'oyasi shundaki, istiqbolli raqobat afzalliklari tashqi bozorda emas, balki ichki bozorlarda yaratilgan.

Tadqiqot davomida Maykl Porter o'nta mamlakatda 100 dan ortiq sanoatning raqobatbardosh imkoniyatlarini tahlil qildi. Eng raqobatli transmilliy kompaniyalar ko'pincha mamlakatlar bo'ylab tez-tez tarqalib ketmagan, bir mamlakatga, ba'zan esa mamlakatning bir mintaqasida to'planishga intilgan. Bu jahon bozorida raqobatbardoshlikka ega bo'lgan bir yoki bir nechta firmanın yaqin atrof muhitga ijobiylar ta'sir ko'rsatayotgani: yetkazib beruvchilar, iste'molchilar va raqobatchilar. Va atrof-muhitning muvaffaqiyati, o'z navbatida, kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Natijada, "klaster" shakllanmoqda - firmalarning birlashmasi, yaqin sanoat bilan bog'liq bo'lgan va bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga o'zaro yordam beradi. Butun davlat iqtisodiyoti uchun klasterlar ichki bozorda o'sish nuqtalarining rolini o'ynaydi.

Hinchidan, yangi klasterlar tez-tez shakllantiriladi va mamlakatning taqsimlari raqobatdoshligi ortadi. Bu alohida guruhlarning kuchli pozitsiyalariga asoslangan bo'lsa-da, ularning tashqarisida hatto eng rivojlangan iqtisodiyot nafaqat o'rtacha natijalarga olib kelishi mumkin. Klasterda manfaatlar munosabatlarning barcha sohalarida taqsimlanadi:

- Boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan yangi ishlab chiqaruvchilar tadqiqotlarni va rivojlanishni rag'batlantirish va yangi strategiyalarni joriy etish uchun zarur mablag'lar ajratish orqali rivojlanishni jadallashtiradi.

- Ko'plab raqobatchilar bilan aloqada bo'lgan yetkazib beruvchilar yoki iste'molchilar kanallari orqali axborot almashinuvni va innovatsiyalarning tez tarqalishi mayjud.

- Klasterdagi munosabatlar, odatda umuman kutilmagan, raqobatdagi yangi yo'llarning paydo bo'lishiga olib keladi va butunlay yangi imkoniyatlar yaratadi.

- Inson resurslari va g'oyalari yangi kombinatsiyalarni shakllantiradi.

Umuman, guruhlarning uchta keng ta'rifi mavjud bo'lib , ularning har biri o'z faoliyatining asosiy xususiyatiga urg'u beradi:

- ular, odatda, bir yoki bir nechta ilmiy muassasaga bog'langan, tarmoqlar ichidagi iqtisodiy faoliyat turlari cheklangan (Tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqalar).

- ular vertikal ishlab chiqarish zanjirlari; ishlab chiqarish hujayonining qo'shni bosqichlari klasterning yadrosini (masalan, "yetkazib beruvchi-ishlab chiqaruvchi-sotuvchisi-mijoz" zanjiri) tashkil etadigan amcha tor bo'limlari. Asosiy kompaniyalar atrofida shakllangan tarmoqlar ushbu toifaga kiradi.

- bu yuqori darajadagi agregatlarda (masalan, "kimyoiy guruhi") birlashmalarning yanada yuqori darajasida (masalan, "agrosanoat klasteri") tarmoqlar majmuasida aniqlangan sanoatdir.

Klasterlar haqida bir-birini to'ldiradigan 2 ta strategiya mavjud:

- mavjud klasterlardagi bilimlardan foydalanishni oshirish strategiyasi;

- klasterlar ichida yangi hamkorlik tarmoqlarini yaratishga qaratilgan strategiyalar.

## **2.2. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad. Mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida klasterlarning o'rni va ahamiyati.**

Bugungi kunda mamlakatimiz agrar sohasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va ko'paytirishning bozor tamoyillariga mos tuzilmalarini shakllantirish maqsadida ixtisoslashgan klasterlarni tashkil qilishga ustuvor yo'naliш sifatida e'tibor qaratila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining so'nggi to'riйil ichida maxsus qarorlariga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 2020 yil yakuni bo'yicha jami 96 ta paxta-to'qimachilik<sup>7</sup>, 47 ta meva-sabzavotchilik klasterlari<sup>8</sup> faoliyat ko'rsatmoqda va ularga 60 foizdan ortiq qishloq xo'jaligi maydonlari biriktirilgan<sup>9</sup>.

Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish va klasterlari tomonidan 2020 yilda 906313 hektar yer maydoniga paxta xom ashyosi yetishtirildi yoki bu Respublikadagi paxta xom ashyosi yetishtiradigan umumiy yer maydonining 87,7 foizini tashkil etdi.

Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish va klasterlari paxta xom ashyosi yetishtirish davrida ilg'or zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda paxta hosildorligini qo'shimcha 10 sentnerga oshirishga erishilmoqda.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida yuqori sifatli paxta hosilini olish maqsadida:

chigit ekiladigan yer maydonlarini sifatli va samarali oziqlantirish uchun xorijdan (Rossiya, Qozog'iston) fosforli o'g'itlar, ekinlarni parvarishlash vaqtida zararkunandalarga qarshi kurashda kimyoviy preparatlar Xitoy, Turkiya, Rossiya, AQSH, Avstraliya, Shvetsiya va boshqa davlatlardan xarid qilinmoqda;

chigit ekish uchun Xitoy, AQSH, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya davlatlarida ishlab chiqarilgan va xarid qilingan zamonaviy

<sup>7</sup> Paxta-to'qimachilik klasterlari. <https://uzts.uz/uz/pahta-toqimachilik-klasterlari/>

<sup>8</sup> Xodjayev J. 9 ta ustuvor yo'naliшlilar bo'yicha 30 dan ortiq normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. <http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-naliшlilar-bo-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>

<sup>9</sup> Xayitov A. klaster tizimi haqida: «Bizda bu borada aniq qonunning o'zi yo'q» <https://kun.uz/news/2019/09/11/aktam-xayitov-klaster-tizimi-haqida-bizda-bu-borada-aniq-qonunning-ozи-yoq>

(6, 8, 10, 12 qatorli) pnevmatik chigit ekish seyalkalari yordamida amalga oshirilmoqda;

sug'orilishi qiyin bo'lgan g'o'za ekilgan yer maydonlarida zamonaviy tomchilatib sug'orish texnologiyalari yordamida amalga oshirilib, gektaridan 50-60 sentnerdan paxta yetishtirishga erishilmoqda;

yetishtirilgan paxta hosili AQSH (John Deere), Germaniya (Case), Xitoy va boshqa davatlarda ishlab chiqarilgan zamonaviy paxta terish maydonalarida terib olinishi yo'lga qo'yilmoqda.

Meva-sabzavot klasterlariga 13,5 ming hektar yer maydoni ajratib berilib, ular ixtiyorida 15,9 ming tonna sig'imidiagi muzlatkich omborkonalar, 7810 tonna saralash, 800 tonna kalibrash, 4 ta zamonaviy laboratoriya, 119,8 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, 23201 tonna meva-sabzavotni saralab-qadoqlash sexlari mavjud bo'lib, 1046 doimiy, 1085 ta mavsumiy ish o'rinnari tashkil etilgan<sup>10</sup>.

Qishloq xo'jaligi sohasida samarali boshqaruvi tizimini shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilayotgan vaqtida chorvachilik sohasining eng yirik va murakkab tarmog'i hisoblanadigan qorako'chlilik tarmog'ida bozor munosabatlari va tamoyillariga mos bo'lgan klasterlar tuzilmalari tashkil qilinmoqda.

Qorako'chlilik klasterlarining faoliyati tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan ustuvor yo'nalishlardan tashkil topishi zarur.

Qorako'chlilik klasterlarining **tashkiliy yo'nalishi** quydagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- \* qorako'chlilik yo'nalishidagi yirik naslchilik mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek chorvachilik bilan shug'ullanib, qishloqlar atrofidagi yaylov yerlaridan foydalanadigan tomorqa yer egalari chorvachilik yo'nalishidagi huquqiyatlarni ixtiyorilik va teng manfaatlarda birlashtirish;

- \* klasterga a'zo xo'jalik subektlari tomonidan yaylovlarning tabiiy resurslaridan, jumladan o'simlik va hayvonot dunyosi, yer osti va usti suylaridan uyg'unlashgan holda samarali foydalanish va kelishilgan rejalarni ishlab chiqish;

<sup>10</sup> Xamshidov J. 9 ta ustuvor yo'nalishlar bo'yicha 30 dan ortiq normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. <http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-bo-yicha-30-dan-ortiq-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.

- klaster faoliyatining pirovard natijalari bo'yicha a'zo xo'jalik subektlarining vazifalari va majburiyatlari, pirovard natija bo'yicha manfaatdorlikni ta'minlash mexanizmlari va boshqalar.

Qorako'lchilik klasterlarining **iqtisodiy yo'nalishi** quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- naslchilik qorako'lchilik xo'jaliklari, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini o'zaro hamkorlik asosida birlashtirgan holda sifatli va raqobatbardosh tovar mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida mustaqil bo'lish;

- qorako'lchilik tarmog'ida tovar mahsulot yetishtirish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish, sotish va boshqalar) jarayonlarida "muvaffaqiyatlar uchun iqtisodiy rag'batlantirish va aksincha, muvaffaqiyatsizlik uchun iqtisodiy javobgarlik" tamoyilini joriy qilish;

- qorako'lchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, buning uchun "ishlab chiqarish – tayyorlash – saralash – qayta ishlash – sotish" va boshqa yo'nalishlarni samarali yo'lga qo'yish;

- faoliyat davomida tashqi iqtisodiy aloqani hamkorlikda tiklash va rivojlantirishga ustuvor hamda strategik barqaror yo'nalish sifatida e'tiborni qaratish;

- qorako'lchilikda innovatsion ishlanmalar va resurstejamkor texnologiyalarni uyg'unlashgan holda joriy qilish, chet el investitsiyasini jalb etish uchun shaffof va jozibador muhitni yaratish, tarmoqda iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlashga qaratilgan samarali xo'jalik yuritish siyosatini izchil joriy qilish;

- klasterlarga a'zo bo'lgan xo'jalik subektlarida yakuniy pirovard natijalar uchun kuchli moddiy manfaatdorlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va boshqa iqtisodiy masalalar.

Qorako'lchilik klasterlarining **huquqiy yo'nalishi** quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

muayyan yaylov yerlari, tasarrufidagi mulk, yetishtiriladigan xom ashyo mahsuloti, ularni saqlash, tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimida huquqiy manfaatdorlikni mustahkamlash;

klasterga a'zo xo'jalik subektlarini (yuridik va jismoniy shaxslar) huquqiy jihatdan teng sharoitlarda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

xo'jalik subektlaridagi ishchi-xodimlar, mutaxassis kadrlar mehnatini huquqiy jihatdan himoya qilish;

Qorako'lchilik klasterlarining **ekologik yo'nalishi** quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

• yaylovlarni hamkorlikda tiklash va tanazzulga uchragan maydonlar hajmini kamaytirish, bioxilma-xilligini saqlash va ekotizimni yaxshilash;

• klaster balansidagi yer maydonlaridan, jumladan yaylov yerlari, yer osti va usti suv manbalaridan foydalanishda har bir xo'jalik subektlining javobgarligi, mas'uliyati va vazifalarini huquqiy jihatdan uniq belgilash;

• klaster a'zolarida tabiiy resurslardan foydalanishni huquqiy mos ravishda tizimli va tartib asosida foydalanishni yo'lga qo'yish;

Qorako'lchilik klasterlarining **ijtimoiy yo'nalishi** quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

• zo xo'jalik subektlarining ishchi xodimlari va mutaxassislar uchun zamonaviy yangi ish joylari, dam olish va sog'likni tiklash uchun yangi sharoitlarni yaratish;

• mehnat qilish qobiliyatiga ega qishloq fuqarolari uchun maqbul yangi ish joylarini tashkil qilish;

• o'z a'zolari uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obektlarni qurish va ishga tushirish;

klasterlarda ishlab chiqariladigan tovarlar (mahsulotlar) ni sotish uchun suvdо shoxobchalarini ishga tushirish va boshqalar.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ko'lamdagи islohotlar natijasida qorako'lchilik klasterlari tomonidan chorvachilikda ishlab chiqarishni erkinlashtirish va modernizatsiyalashtirish tadbirlari tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini barqaror o'sishini ta'minlashi zarur.

Qorako'lchilikni jadal rivojlantirishni ta'minlash, qorako'lchilik klasterlarini tashkil qilgan holda xom ashyoni chuqur qayta ishlashni etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bazaarlarga olib chiqishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, joylarda yangi ish o'rinnarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6059-son Farmoni<sup>11</sup> va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pillachilik va qorako'lchilikni

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6059-sonli Farmoni, 09.09.2020 <https://lex.uz/docs/4980311>

rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 705-son qarori<sup>12</sup> qabul qilindi.

Mazkur Farmon va qarorga ko'ra, respublikamiz bo'yicha yaqin yillarda 50 ta qorako'lchilik klasterlarini tashkil qilish, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 11 ta, Navoiy viloyatida 18 ta, Buxoroda 7 ta, Jizzaxda 2 ta, Samarqandda 3 ta, Qashqdaryoda 5 ta va Surxondaryo viloyatida 4 ta qorako'lchilik klasterlarini tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Yangidan tashkil qilinadigan qorako'lchilik klasterlarida jami 186,6 ming nafar, shu jumladan, 80 ming nafar doimiy va 106,6 ming nafar mavsumiy ishchi xodimlar uchun ish joylari tashkil qilinishi rejalashtirilgan.

Qorako'lchilik klasterlariga jami 17,3 mln. hektar yaylov (bir bosh qorako'l qo'yi uchun o'rtacha 2,8 hektar yaylov to'g'ri keladi) va 7000 hektar sug'oriladigan yer maydoni biriktiriladi.

Qorako'lchilik klasterlari uchun 6,2 mln hektar yaylov yerlarini qayta tiklash uchun mablag' ajratish rejalashtirilgan.

Qorako'lchilik klasterlarida 100 mln. AQSH dollari miqdorida jami 231 ta loyihani amalga oshirish va buning natijasida jami 6,2 mln qorako'l qo'ylarini boqish, jami 3850 ta quduq qazish ham rejalashtirilgan.

Amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida joriy yilda 14 ming tonna jun, 1202 ming dona qorako'l teri va 15 ming tonna go'sht yetishtirish (tirik vazn) rejalashtirilgan.

Qorako'lchilik klasterlarida yetishtirilgan mahsulotlarni tayyorlash, saralash va qayta ishlashni yo'lga qo'yilishi natijasida 8,4 ming tonna jun qayta ishlanadi, 6,7 ming tonna ip-kalava, 855 ming kv.m. kigiz va 219 ming tonna granula ishlab chiqarish va pirovard natijada tayyor mahsulotlarni salkam 60 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilish imkoniyatlari yaratiladi.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, №705, 10.11.2020. <https://lex.uz/docs/5090474>

**2.2-[azdav]**  
**Qorako'chilik klasterlariда mahsulotlarni tayorlash, qayta ishlash va sotish tizimida qo'shilgan qiymat zanjiri dinamikasi**

№	Mahsulot turlari	1-zanjir	2-zanjir	3-zanjir	4-zanjir	5-zanjir
1.	Qo'y-echki go'shti, shu jumladan: go'sht va go'sht mahsulotlari	Qo'y go'shti - 1 kg, 60-65 ming so'm	Tojalarga taqsimlangan qo'y go'shti - 1 kg, 70-75 ming so'm	Qiyima qo'y go'shi (farsh) - 1 kg, 85 ming so'm	Qo'y go'shitidan rulet, kolbasa - 1 kg, 90-95 ming so'm	Qo'y go'shitidan tandir, yaxna va boshqalar - 1 kg, 120-160 ming so'm.
2.	Jun, shu jumladan: jundan yigirligan ip kalava, kigiz bosish, jun-etik chiqarish, lo'qish.	1 kg jun-0,3 AQSH dollari	1 kg ip kalava (1,25 kg jun) - 1,7 AQSH dollarlari	1m <sup>2</sup> (5 kg jun) kigiz-7,5 AQSH dollari	Jun-etik-20 AQSH dollari	1 m <sup>2</sup> (6 kg jun) gilam-35 AQSH dollarlari
3.	Qorako'1 teri, shu jumladan: qorako'1 asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilish; qayta ishlangan qorako'1 teri; "Vet-blyu" teri; tayyor mahsulot.	1 dona xom qorako'1 teri - 8 AQSH dollarlari	1 dona qayta ishlangan qorako'1 teri - 17 AQSH dollarlari	1 dona "Vet- blyu" teri - 29 AQSH dollarlari	Tayyor mahsulotlar: 1). Bosh kiyim (2 dona qorako'1 teri) - 50-200 AQSH dollarlari; 2). Ayollar jaketi (4 dona qorako'1 teri) - 250-600 AQSH dollarlari; 3). Ayollar ustki yengil paitosi (8-10 dona qorako'1 teri) - 700-2000 AQSH dollarlari	

Respublikamizda qorako‘lchilik klasterlari faoliyatini tashkil etish istiqbollari ulkan tadbirlarni amalga oshirilishini o‘z ichiga oladi. Ipakchilik va jun sanoatini rivojlanтирish qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rtacha bir klaster uchun o‘rtacha 250-400 ming hektar yaylov va 100 hektar sug‘oriladigan yer maydoni biriktirish rejalashtirilgan.

Qorako‘lchilik klasteriga o‘rtacha 100 ming bosh qorako‘l qo‘y va echkilar biriktirish (bir bosh qo‘y-echki uchun o‘rtacha 2,5-4,0 hektar yaylov maydoni) rejalashtirilgan.

Qorako‘lchilik klasterlarida jun yetishtirish – o‘rtacha 240 tonna (har bir qo‘ydan-2,4 kg) qorako‘l teri yetishtirish – 9700 dona (97% mahsuldorlik, shundan 20% qorako‘l teri) go‘sht yetishtirish (tirik vazn) – 300 tonna (15% qari qo‘ylarni bo‘rdoqiga boqish), shuningdek yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash, jumladan, junni qayta ishslash – 144 tonna (yetishtirilgan junning 60%) ip kalava ishlab chiqarish – 115 tonna (qayta ishlangan junning 80%) kigiz ishlab chiqarish – 12 800 kv.m. granula ishlab chiqarish – 3500 tonna (xar bir qo‘y uchun 35 kg) rejalashtirilgan.

Qorako‘lchilik klasterlari bo‘yicha har yili o‘rtacha 2 mln. AQSH dollarida investitsiya jalb qilish, tayyor yoki yarim tayyor mahsulotlardan 1,2 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilish rejalarini tuzilgan.

Tahlillarga ko‘ra, qorako‘lchilik klasterlarida qorako‘lchilik mahsulotlarini tayyorlash, saralash, qayta ishlash va sotish bilan bog‘liq har bir bosqichda qo‘shilgan qiymat miqdorini, shuningdek ushbu “zanjirda” xo‘jalik subektlari daromadlarini har bir bosqichda ko‘payib borishini ko‘rish mumkin (2.2-jadval).

Ushbu iahlillar ko‘rsatib turibdiki, yetishtirilayotgan mahsulotlarni yangi, sof toza (xom ashyo) xolida sotish eng past bahoni egallasa, bu mahsulotlarni qayta ishlab, keyingi bosqichda iste’molchilarga yarim tayyor (tayyor) holda yetkazib berilishi mahsulot narxini 25 foizdan boshlab bir necha baravarga ko‘payishiga zamin yaratishi, agarda u oxirgi bosqichda iste’molyai uchun tayyor holda taqdim qilinganida mahsulot narxi uning boshlang‘ich bahosiga nisbatan bir necha o‘n martaga ko‘p daromad keltirishi mumkin.

Qorako‘lchilik klasterining rivojlanish prognози (istiqboli) SWOT tahlili asosida baholandi (2.3- jadval).

### 2.3- jadval

#### Qorako'lchilik klasterlarining rivojlanish prognozining SWOT-tahlil natijalari

KUCHLI TOMONLARI (Strengths)	ZAIF TOMONLARI (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> <li>- klasterlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha huquqiy-meyoriy anollar mavjud;</li> <li>- tarmoq rahbarlari tomonidan aniq biznes-rejalari ishlab chiqilgan;</li> <li>- xo'jaliklar tomonidan tarmoqda islohotlar bo'yab-quvvatlanadi;</li> <li>- klasterlar faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar qabul qilingan;</li> <li>- klasterlar qorako'lchilik xo'jaliklarini iqtisodiy samaradorligini mustahkamlaydi;</li> </ul> <p>yetishirilayotgan mahsulotlarga ichki bazonda talab yuqori;</p> <p>yaylov yerlarining tanazzulligini olish, idorilma-xilligini saqlash va rivojlantirish muqqadida hamkorlikda tadbirlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilmoqda.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- malakali mutaxassis kadrlarni yetishmasligi;</li> <li>- tuman darajasidagi davlat boshqaruvi organlarida yaylov yerlaridan foydalanish va qorako'lchilik xo'jaliklari bo'yicha turli topshiriqlar va rejalarini mavjudligi;</li> <li>- aholi tasarrufidagi chorva mollarini turlari bo'yicha aniq sonini belgilanmaganligi;</li> <li>- xo'jaliklarning moliyaviy imkoniyatlarini cheklanganligi.</li> </ul>
IMKONIYATLAR (Opportunities)	XATARLAR (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> <li>- qorako'lchilikka ixtisoslashgan klasterlar faoliyatiga tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilishi;</li> <li>- klasterlarni tashkil qilinishi va faoliyat ko'rnatilishida innovatsion texnologiyalar va resurstejamkor asbob-uskunalarini olib kiritilishida imtiozchlarni qo'llanilishi;</li> <li>- klasterlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha davlat tomonidan muddatli imtiozlar berilishi;</li> <li>- qorako'lchilik xo'jaliklarining sarf-korajatlarini qisman qoplash maqsadida subsidiyalarni ajratilishi;</li> <li>- qorako'lchilik klasterlari faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish bo'yicha imtiozchlarni yaratilayotganligi va boshqalar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- surunkali iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik yillarini ko'p bo'lishi;</li> <li>- yaylov hududlarida tanazzulga uchragan yer maydonlari hajmining ko'pligi;</li> <li>- surunkali suvsizlikni yuz berayotganligi;</li> <li>- yaylov o'simliklarini ekish va qo'riqlash ishlariga to'liq amal qilinmasligi;</li> <li>- turli resurslarni zarur vaqtlardarda yetishmasligi.</li> </ul>

Bugungi kunda iqtisodiyotni taraqqiyoti, global sharoitda hamkorlik munosabatlarini rivojlanayotganligi, investitsiya jalb qilishda shaffof va adolatli muhitni yaratishni hisobga olib, zamonaviy qorako‘lchilik klasterining tashkiliy tuzilmasida ushbu tarmoq faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadigan vazirlik va idoralar (ularning hududiy boshqarmalari yoki bo‘limlari) kirishi; klaster faoliyatini rivojlantirishga amaliy yordam ko‘rsatadigan korxona va tashkilotlar, ilmiy muassasalar, savdo shoxobchalari va boshqalar bilan shartnoma asosida mustahkam va barqaror aloqalar o‘rnatalishi; klaster esa o‘z navbatida o‘zida yetishtirilayotgan tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga sotilishi uchun “iste‘molchilarни jalb qiladigan” muhit va obektlarni tashkil qilishi maqsadga muvofiq.

Qorako‘lchilik klasterlarini faoliyatini tahlil qilib, ularning SWOT tahlil asosda ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisobladi (2.4-jadval ).

#### 2.4- jadval

#### **Qorako‘lchilik klasterlari faoliyatini SWOT-tahlil natijalari**

KUCHLI TOMONLARI (Strengths)	ZAIF TOMONLARI (Weaknesses)
<ul style="list-style-type: none"> <li>- klaster faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha huquqiy-meyoriy asoslar mavjud;</li> <li>- tarmoq rahbariyati tomonidan shart-sharoitlar yaratilgan;</li> <li>- xo‘jaliklar tomonidan tarmoqda islohotlar qo‘llab-quvvatlanadi;</li> <li>- klasterlar faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar qabul qilingan;</li> <li>- klasterlar qorako‘lchilik xo‘jaliklarini iqtisodiy samaradorligini mustahkamlaydi;</li> <li>- yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxi arzonlashadi;</li> <li>- mahsulotlar milliy brend asosida sotilishi yo‘liga qo‘yiladi;</li> <li>- qorako‘lchilik xo‘jaliklari o‘rtasida kooperatsiya munosabatlari rivojlanadi;</li> <li>- yaylov yerlarining tanazzulligini olish, bioxilma-xilligini saqlash va rivojlantirish maqsadida hamkorlikda tadbirlar amalgalashiriladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-malakali mutaxassis kadrlarini yetishmasligi;</li> <li>-yaylov yerlarining haddan tashqari tanazzulga uchragan hududlarini ko‘pligi;</li> <li>-klasterlar darajasida moliyaviy imkoniyatlarni cheklanganligi;</li> <li>-mahalliy darajada chorvachilik bilan shug‘ullanayotgan aholi sonining ko‘pligi;</li> <li>-yaylov yerlaridan o‘zboshimchalik bilan shug‘ullanadigan aholi borligi.</li> </ul>

IMKONIYATLAR (Opportunities)	XATARLAR (Threats)
<ul style="list-style-type: none"> <li>- klasterlarni tashkil etilishini hukumat, tarmog vazirliklari va mahalliy hokimliklar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;</li> <li>- tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashgan klasterlarni tashkil qilish tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilishi;</li> <li>- klasterlarni tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatishida innovatsion texnologiyalar va resursejamkor asbob-uskunalarini olib kutilishida imtiyozlarni qo'llanilishi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-surunkali qurg'oqchilik va suvsizlikni yuz berayotganligi;</li> <li>-aholi tasarrufidagi chorva mollarini turlari bo'yicha aniq sonini belgilanmaganligi;</li> <li>-yaylov o'simliklarini ekish va qo'riqlash ishlariga to'liq amal qilinmasligi;</li> <li>-xo'jaliklarning moliyaviy imkoniyatlarini cheklanganligi;</li> <li>-turli resurslarni zarur vaqtarda yetishmasligi.</li> </ul>

Tadqiqot jarayonida davlat tomonidan qorako'lchilik tarmog'ini moliyaviy, tashkiliy, institusional va boshqa yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinib, alohida quyidagi tizimga solinib, quyoniy baho berildi:

1. Qorako'lchilik tarmog'ida institusional islohotlarni izchil davom etish, ya'ni tarmoqni boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va uni sonarali faoliyat ko'rsatishini qo'llab-quvvatlash;
2. Qorako'lchilik tarmog'ida yangi, zamonaviy mulkchilik shakllari sifatida klasterlar tuzilmalari tashkil qilinishini qo'llab-quvvatlash;
3. Qorako'lchilik tarmog'ida sifatli va barqaror tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ularni ichki bozorga sotish, xorijiy bozorlarga eksport qilinishini qo'llab-quvvatlash;
4. Qorako'lchilik tarmog'ida cho'l-yaylov hududlari asosiy o'rinni qaytashini hisobga olib, yaylov hududlarini suv ta'minotini yaxshilash, hududning bioxilma-xillikni saqlash va tiklash, cho'l-yaylov o'simliklarini barqaror rivojlanishini qo'llab - quvvatlash;
5. Qorako'lchilik tarmog'ida mehnat qilayotganlarning mashaqqatli ishlashi faoliyatlarini hisobga olib, ularni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish haqlarini ko'paytirish, maxsus koeffitsiyentlar belgilash, qo'shimcha to'lovlardan hisoblash;
6. Qorako'lchilik tarmog'ida mahalliy tadbirdorlik va xorijiy inventoriyalarni jaib qilinishinini qo'llab - quvvatlash;
7. Maqsadli jamg'armalar tashkil qilish orqali tarmoqni rivojlanadirishni ta'minlash;

8. Qorako‘lchilik tarmog‘i faoliyat ko‘rsatayotgan hududlarda chorvachilikni boshqa noan’anaviy tarmoqlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash.

Yuqoridagi tadbirlarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan tarzda amalga oshirilishi qorako‘lchilik xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarishni baraqaror o‘sishini ta’minlash, sohani texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash va eng asosiysi, qorako‘lchilik sohasida mehant qilayotgan chorvadorlar, mutaxassis-ishchilarning daromadlarini ko‘paytirish hamda ular yashayotgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga muhim poydevor hisoblanadi.

### **2.3. Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha jahon mamlakatlari tajribasi.**

Qorako‘lchilik klasterining asosiy yo‘nalishi – qorako‘l qo‘ylarini intensiv parvarish qilish, yaylovlar hosildorligini oshirish va tartibli foydalanishni yo‘lga qo‘yish hisoblanadi.

Qorako‘lchilik klasterlarining samarali faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlashda eng asosiy omil – klaster faoliyatini bugungi va istiqboldagi faoliyat yo‘nalishlarini, strategik rejalarini, mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni aniq hamda to‘g‘ri belgilash muhim rol o‘ynaydi.

Turkmaniston Respublikasining qorako‘lchilik bo‘yicha olimi SH.Xerremovning fikriga ko‘ra<sup>13</sup>, Turkmanistonda qorako‘lchilik davlat xalq xo‘jaligida alohida o‘rinni egallab turuvchi, an‘anaviy, tarixan shakllangan soha bo‘lib hisoblanadi. Bu soha o‘zaro texnologik va iqtisodiy bog‘liq bo‘lgan qator birlamchi ishlab chiqaruvchilar (dehqon birlashmalari, davlat va xususiy sektor), qo‘ychilik mahsulotlarini qayta ishlovchi tashkilotlar (qorako‘l zavodi, mo‘yna tashkilotlari, jummi birlamchi qayta ishlash fabrikalari), qator xizmat ko‘rsatish tashkilotlari va korxonalarining majmuasini o‘zida namoyon qiladi. Shuning uchun sohaning keyingi rivojlanishi masalalari barcha pog‘onalarda – mahalliy, mintaqaviy va mamlakat darajalarida hal qilinishi lozim deb hisoblanadi. Bunda birinchi navbatda qo‘ychilik majmuasining boshqaruv tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish va uning barcha bo‘linmalarini yagona markazga Turkmaniston davlat chorvachilik birlashmasiga bo‘ysundirish maqsadga muvofiq deb hisoblangan.

Turkmaniston davlat chorvachilik birlashmasining tuzilmasida maxsus prognozlashtirish xizmatini yetishmasligi ta’kidlanadi. Ushbu

<sup>13</sup> Херремов Ш.Р. Концепция развития караулводства в Туркменистане.  
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=18975767>

omatning bosh vazifasi - kutilayotgan meteorologik sharoitlar va cho'l yaylov ozuqa o'simliklarining hosilini, o'sayotgan o'simliklarning turdarini, hech bo'Imaganda, bir yil oldindan aniqlash va chorvadorlarga yetib berish haqiqatda duch kelinayotgan tabiat injiqliklarining salbiy tariflerini minimal darajaga yetkazish hamda ularning oldini olish chorlarini o'z vaqtida ko'rish imkonini yaratishi mumkinligi to'kidlanadi.

Shuningdek, qorako'lchilik xo'jaliklari uchun ularning iqtisodlashuvi va faoliyatining maqsadga muvofiq, tabiiy-xo'jalik sharoitlar va iqtisodiy samaradorlikni hisobga olgan holda har bir modagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun ilmiy asoslangan texnologiyalar va meyorlar ishlab chiqilishi lozimligi ko'rsatilgan<sup>14</sup>.

Yaylovlarni hosildorligini oshirishda quyidagi omillarni hisobga olish mumkin:

1. Yaylov yerlarining barqaror maydonini mavjudligi;
2. Yaylovlarni rekultivatsiya qilish, fitomeliorativ tadbirlarni oshirish va yangi turdag'i cho'l-ozuqa ekinlarini ekish, yaylov ishlab foydalanish, zagon-uchastka tizimida qo'ylarni boqilishini yo'liga qo'yish va boshqa tadbirlar hisobiga tabiiy yaylovlarni hosildorligini oshirish;
3. Yaylovlarni hosildorligini ilg'or xo'jaliklar va yaxshi holatdagi yaylovlarning hosildorligiga erishish, ya'ni har bir gektar yaylov yeridan ozuqa birligida hosildorlikka erishish;
4. Oldindan sug'oriladigan, ammo keyinchalik turli obekтив-обектив sabablar natijasida foydalanilmasdan qolongan sug'oriladigan yerlarni qorako'lchilik klasterlariga ham biriktirish va bu yerlarda suv chiqarib, ozuqa ekinlarini yetishtirishni yo'liga qo'yish;
5. Qorako'lchilik mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini sug'oriladigan yerlarda chorva mollari uchun kuchli ozuqa ekinlarini ekilishini rag'batlantirish va aksincha, paxta hamda boshqa ekinlar ekilishini qat'yan ta'qiqlash;
6. Xarid qilinadigan kuchli konsentrat ozuqalarni haqiqiy meyor darajasida ta'minlanishini, shu jumladan tashqi bozordan import yo'lli qurali xarid qilinishini moliyaviy qo'llab – quvvatlash;
7. Bir yil davomida har bir bosh qo'y bosh soni hisobiga ozuqa ekinini meyor darajasida – 4,96 sentner ozuqa birligida belgilash va shu

miqdorda ozuqa jamg'arilishiga erish uchun tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

8. Istiqbolda ona qorako'l qo'yalar bosh sonini 75 foizga yetkazish maqsadga muvofiq. Bu esa qorako'l qo'yulari bosh sonini barqaror ko'paytirib borish, yosh ona qo'yalar va qo'chqorlarni saqlab qolib, qari qo'yularni go'sht uchun bo'rdoqiga boqish hisobiga otarni doimiy yangilab borish imkoniyatini yaratadi.

#### **2.4. Innovatsion iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish.**

So'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ko'paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirildi. Shuningdek, tumanlarni meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirish, mahsulot yetishtiruvchilarni meva-sabzavotchilik klasterlari hamda kooperatsiyalarga birlashtirish kabi amaliy choralar ko'rilmoxqda.

Jahon bozorlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlarni ixtisoslashtirish to'g'ri yo'l ekanligini ko'rsatmoqda.

Shu sababli, dastlabki bosqichda respublika bo'yicha 55 ta tuman meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirildi. Biroq, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan hududlarning salohiyatidan samarali foydalanish tizimi yo'lga qo'yilmagan.

Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, tumanlar hududlarini tuproq-iqlim sharoitlariga mos bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish orqali ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishni ko'paytirish hamda ilm-fan yangiliklarini keng joriy etish va mahsulot ishlari chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydag'i PQ-4709-sonli "Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Klaster tushunchasiga ta’rif bering.
2. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad nima?
3. Klasterlarining faoliyati tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan qanday ustuvor yo‘nalishlardan tashkil topishi zarur?
4. Innovatsion iqtisodiyotda klasterlarni qanday shakllantirish va rivojlanish mumkin?

## I BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA YER-SUV RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

### 3.1. Qishloq xo‘jaligida yer resurslari va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Yer resurslarining tarkibi va sifati.

Yer tabiat mahsuli bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim ahamiyatga ega. Chunki u mazkur tarmoqning eng asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yerga urug‘, ko‘chat ekib, ishlov berish natijasida turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi. Demak, tarmoqda yetishtiriladigan barcha turdagи mahsulotlar yerdan, suvdan foydalangan holda olimadi. Ingliz iqtisodchisi Uilyam Petti yer resursiga “yer barcha boyliklarning onasidir” - deb ta’rif bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o‘z samarasini kormoqda”<sup>15</sup>.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Yer Kodeksining 8-moddasiga bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning kelgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar — qishloq xo‘jaligi shahiyotlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar sug‘oriladigan va eng orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, maylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo‘linadi;

<sup>15</sup> Buningizim bunyodkori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi xodimlari mehnatini ulug‘lash, soha yangi bosqichga ko‘tarish — asosiy vazifamizdir [https://kknews.uz/oz/docs/\\_/documents/zbekcha-riz-r-zimiz-bunjodkori-b-lga](https://kknews.uz/oz/docs/_/documents/zbekcha-riz-r-zimiz-bunjodkori-b-lga)

- 2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari — shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;
- 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar — ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;
- 4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar — muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar;
- 5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar — moddiy madaniy meros obektlari joylashgan yerlar;
- 6) o‘rmon fondi yerlari — o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;
- 7) suv fondi yerlari — suv obektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;
- 8) zaxira yerlar.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi 837-XII-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-noyabr, O‘RQ-733-son “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida qonuni suv resurslaridan foydalanishni tartibga solib boruvchi asosiy meyoriy hujjatlardan bini hisoblanadi.

Suvdan foydalanish tartibi suv xo‘jaligi organlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, suv maxsus foydalanish ruxsatnomasi bo‘lganlarga limit bo‘yicha beriladi. Suv olish va uning hisob-kitobini qilish uyu xo‘jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi. Sug‘orish va suv bilan ta‘minlashni magistral kanallar, suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi obektlari bajaradi. Suvdan foydalanish ishlari ichki xo‘jalik va suv tizimi rejalariga asosan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligidagi foydalaniladigan suvni monitoring qilish orqali salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlari o‘rganilib, ularni bartaraf etish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirishiga erishiladi. Suvdan samarali foydalanishda suvning aniq hisob-kitobini yo‘lga qo‘yish, suv o‘lchash qurilmasi, ya’ni gidropostlar qurishi

ishkil etish, xo'jalik ichki ariqlarini tozalash, suv sarfi isrof garchiligidini burtaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Oishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvlarning sifati ham barcha viloyatlarda bir xilda bo'lmay, bir-birlaridan farq qiladi. Masalan, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining aksariyat hududlarida suvlarni sug'orishda foydalaniladigan suvlarning sifati yaxshi, ya'ni ularning tarkibida hosildorlikka salbiy ta'sir etuvchi turli xildagi minerallar kam, lekin Qoraqalpogiston Respublikasi, Xorazm viloyati hududlarida foydalanilayotgan suvlarning tarkibida xlor va boshqa maddalalar ko'p. Shuning uchun ham ularning sifati nihoyatda yomon. Bunday hol qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmiga, sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajakda yerlarning unumdorligini oshirish, suvlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasini umumali amalga oshirish orqali zarur qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorini ko'paytirishga va sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

### **3.2. Yerdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'ntichilar, ularni aniqlash tartibi.**

Foydalanishdan chiqib ketgan sug'oriladigan va foydalanishga kiritiladigan hamda o'rmon fondi yerlarining meliorativ holati, unumdorligi va suv ta'minotini yaxshilash texnologiyasini joriy qilgantlik uchun qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga imtiyozlar berish tizimini yaratish.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan lalmi, yaylov va boshqa yerlarni foydalanishga kiritish maqsadida investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-sheriklik shartlari asosida foydalanishga kiritgan, yaroqsiz suv quriluglari, sug'orish nasoslari, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini mo'ljallagan yoki ularni yangidan barpo etgan tadbirkorlik subyektlariga davlat tomonidan kafolatlar berish.

Oishloq xo'jaligi yer uchastkalarini ajratishning shaffof va tezkor hujumin yaratgan holda yanada takomillashtirish.

Oishloq xo'jaligi yerlarining aniq hisobi yuritilishini va yangilab borilishini ta'minlash, har bir dala konturi kesimida ma'lumotlar shakllantirish maqsadida barcha hududlarni yomkadan o'tkazish.

Davlat yer kadastro ma'lumotlarining haqqoniy va to'liq shakllantirishini ta'minlash.

Xalqaro moliya institutlarining grant mablag'larini jalb qilish hamda investitsiya loyihalari orqali davlat yer kadastrini yuritishda ko'p

maqsadli yer ma'lumotlarining avtomatlashtirilgan yagona tizimi yergeoportal.uzni ishga tushirish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish agrotexnikasi, yer va suv resurslaridan foydalanish holatini geoaxborot tizimi orqali monitorinq qilish, erni masofadan zondlash tizimlaridan keng foydalanish.

Foydalanilmayotgan yerlar haqidagi ma'lumotlarni viloyat, tuman (shahar) hokimliklari, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish amaliyotini joriy etish.

Qishloq xo'jaligi yerlarining tuproq unumidorligi, konturi, ularga ekinlarni joylashtirish, hosildorlikni belgilash to'g'risidagi ma'lumotlarni viloyat, tuman (shahar) hokimliklari va manfaatdor tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish amaliyotini joriy etish.

Davlat yer kadastrini yuritishda ko'p maqsadli yer ma'lumotlarining avtomatlashtirilgan yagona tizimi yergeoportal.uzni yaratish maqsadida Koreya Respublikasi xalqaro "KOICA" jamg'armasining grant mablag'lari doirasida investitsiyaviy loyihasini ishlab chiqish.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan lalmi, yaylov va boshqa foydalanishga kiritilgan yerlarda barpo etiladigan infratuzilma obyektlarini (dala shiypon, mahsulotlar saqlanadigan omborxonalar, sug'orish inshootlari va boshqalar) qurish uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini belgilash.

Foydalanishga kiritiladigan yerlarda barpo etiladigan infratuzilma obyektlari minimal me'yorlarining namunaviy loyihasini ishlab chiqish.

Infratuzilma obyektlarini qurish uchun yer maydonlaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomani Adliya vazirligi tomonidan berish amaliyotini joriy qilish.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ikkilamchi ijaraga berish, shuningdek, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalarida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini saqlab qolgan holda yer uchastkasini vaqtincha foydalanish uchun berish shaklini amaliyotga joriy qilish.

Rentabelligi past bo'lgan paxta, g'alla va boshqa ekinlar yer maydonlarini to'liq xatlovdan o'tkazib, unumidorligi va foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini, shuningdeki ushbu maydonlarda yuqori daromadli ekinlarni joylashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish tizimini tubdan takomillashtirish. Bunda hududlarning tuproq, iqlim sharoitlari va suv

bitan ta'minlanganlik darajasi, ichki va tashqi bozorda mahsulotga bo'lgan talab, daromadliligi asosiy mezon bo'lishini ta'minlash.

Suv tunqis hududlarda kam suv talab qiladigan, suvsizlikka bishamli va suv to'plash xususiyatiga ega bo'lgan ekinlarni joylashtirish.

Tarmoqlarni intensiv rivojlantirish talabidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish sxemalarini takomillashtirish, maydon tizimini hisobiga ko'chat sonini maqbul darajagacha oshirish.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerdardan bir mavsumda boshida ikkita hosil olish choralarini ko'rish, ushbu maqsadga erishish uchun tezpishar ekinlar urug'i, ko'chatlar, mineral o'g'it, yonilg'i-moylyk materiallari va boshqa turdag'i resurslar bilan barqaror ta'minlash tizimini yaratish.

Hog' oriladigan ekin yerlaridan yanada samarali foydalanish, tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maydonida ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimini joriy qilish.

Xalqaro tajribalarga muvofiq qishloq xo'jaligining yangi yonalishlarini (Organic, Global G.A.P. va shu kabilar) joriy qilish va hujjatotirish.

Qishloq xo'jaligi yerkari degradatsiyasining oldini olish va uni kamaytirish hisobiga tuproq unumdorligini oshirish.

Yaylovlardan samarali foydalanish tartibini belgilash, yaylov va yerdardan foydalanishning ilmiy asoslangan samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish.

Former xo'jaligi yoki boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar tugatilayotganda yoki qishloq xo'jaligida ishlab chiqish va joriy etish.

Hog'lar, tokzorlar, baliq hovuzlarini va issiqxonalar tashkil qilishga ajratish tartibini belgilash, foydalanishdan chiqib ketgan yerdarda qur'onika, vertikal fermalar usulida issiqxonalar qurishni qo'llab-tintash.

Suv tunqis, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va foydalanishga imkoniyati qiyin bo'lgan yerdarda tayyor zamонавиyyat qorulularni xorijiy investorlar hamda xorijiy moliya institutlarini jaib holda qurib, tayyor holda lizingga berish tizimini yaratish.

Qishloq xo'jaligida tuproqdan unumli foydalanish texnologiyalarini joriy etish. Bunda erga ishlov berish va ekinlarni parvarishlashning

ilg'or innovatsiya (Mini till, No till va boshq.) texnologiyalarini amaliyotga izchillik bilan tatbiq etish hisobiga agrotexnik tadbirlar sonini minimallahtirishga alohida e'tibor qaratish.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, unumidorligi va suv ta'minotini yaxshilash texnologiyalarini joriy qilish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish tartibini ishlab chiqish.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning unumidorligi va hosildorligi oshirilishini ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilash.

Yer uchastkalarini egalarining tuproq unumidorligini saqlash va oshirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni nazarda tutgan holda tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini joriy qilish.

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlardan samarasiz foydalanganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish.

Yer va suv resurslaridan samarasiz foydalanishning oldini olishni, yerlarning unumidorligini oshirish va suvni tejovchi agrotexnik tadbirlarning amalga oshirilishini (agrotexnik reglament) huquqiy jihatdan tartibga solish.

Iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosilli bog' va uzumzorlarni yaroqsiz deb topish va ekin yerlar toifasiga o'tkazish tartibini belgilash.

Har 5 yilda bir marotaba davlat budgeti mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida tuproqning agrokimyoviy tahlillari asosida agrokimyoviy xaritalarni ishlab chiqish.

Shahar va shahar atrofidan chiqayotgan oziq-ovqat, xo'jalik, chorva hamda boshqa organik chiqindilarni to'plash hamda zamonaviy texnologiyalarini qo'llagan holda organik o'g'itlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga yetkazib berish.

O'rmon fondi yerlaridan foydalanishda davlat-xususiy sherikli mexanizmini yo'lga qo'yish.

Har bir hududning qishloq xo'jaligi imkoniyatlaridan kelib chiqib, mahalliy va xorijiy kompaniyalarga taqdimot qilish maqsadida "qishloq xo'jaligi bo'yicha investitsiya xab"larini yaratish.

Rentabelligi past bo'lgan paxta va g'alla maydonlari 50 soizdan yuqori bo'lgan tumanlardagi barcha ekin maydonlarini irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish shartlari bilan paxta va g'allani to'liq qayta ishlashni tashkil etuvchi klasterlarga berish.

Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tomonidan qishloq xo'jaligi o'kinlarini sug'orishga yaroqli bo'lgan yer osti suvlari zaxirasini aniqlash ishlarini amalga oshirish uchun davlat budgeti hisobidan zarur mablag'larni ajratish.

Foydalanilmayotgan o'rmon fondi yerlarida yangi o'rmonzorlar va dorivor o'simliklar plantatsiyalarini barpo etish maqsadida foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga davlat-xususiy shartlari asosida o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan 50 yilgacha muddatga ijara berishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlariga o'rnatirish va qo'shimchalar kiritish.

Tuproq eroziyasi va degradatsiyasi, shamol va garmseldan muhofaza qilish maqsadida biomeliorativ tadbirlar qo'llashni hajoytirish, ixotazorlar barpo etish va qayta tiklash hamda o'rmon fuoli yerlarida cho'l-ozuqabop o'simliklar plantatsiyalari va ularni boshqa ekologik omillardan muhofaza qiluvchi yaylovlarni yaratish.

Orytu tiklanadigan va foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarining manzilli ro'yxatini shakllantirish.

Yer va suvning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyatini mobatqa olib, ulardan foydalanishning holati va samaradorligi ustidan maydon qilib borish zarur. Bunda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsiyenti (foizi). Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga taqsimlash bo'lim. Buni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$YFK = \frac{FY}{FMY} \text{ yoki } YFK = \frac{FY}{FMY} * 100$$

Bunda: YFK - umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsiyenti (foizi);

FY - qishloq xo'jaligida foydalanilgan yer maydoni, ga;

FMY - foydalanilishi mumkin bo'lgan yer maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich koeffitsiyentda yoki foizda aniqlanishi mumkin. Uni aniqlash natijasida yerdan foydalanishning to'liqlik darajasi aniqlanadi. Uni haqiqiy darajasi, ya'ni koeffitsiyenti 1 dan yoki 100 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bu ko'rsatkichni aniqlash natijasida tarmoqda (xo'jalikda) qancha yerdan foydalanilgan va qanchasidan foydalanimaganligi aniqlanadi. Shundan so'ng bunday holning ulabslari aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

b) suvdan foydalanish koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkich haqiqatda maydoni maydonni shu suv bilan sug'orilishi mumkin bo'lgan

maydonga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$SFK = \frac{SM}{SMM} \text{ yoki } SFK = \frac{SM}{SMM} * 100$$

Bunda: SFK - suvdan foydalanish koeffitsiyenti yoki foizi;

SM - haqiqatda sug'orilgan maydon, ga;

SMM - sug'orilishi mumkin bo'lgan maydon, ga.

Buni aniqlash natijasida suvdan foydalanish darajasi belgilanadi. Bu kaisatkichni aniqlashda ekinlarga suv berish meyoriga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki unga rioya qilinsa, albatta, suvdan foydalanish darajasi yuqori bo'ladi. Demak, uning darajasi, ya'ni koeffitsiyenti 1 ga yoki 100 foizga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. Agarda past yoki yuqori bo'lsa, unda ekin maydonlari sifatlari sug'orilmagan bo'ladi.

d) yer maydonidan foydalanishlar soni. Uni aniqlash uchun haqiqatda urug' ekilgan maydonni mavjud ekin maydoniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$YFS = \frac{UEM}{UM}$$

Bunda: YFS - yerdan foydalanishlar soni, ya'ni 1 ga maydonдан necha marta foydalanilganlik soni;

UEM - bir yil mobaynida urug' ekilgan maydon, ga;

UM - umumiy ekin maydoni, ga;

Bu ko'rsatkich yordamida bir maydonga necha marta ekin ekib foydalanilganlik darajasi, ya'ni soni aniqlanadi. Demak, uning soni birdan ko'p bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mavjud bo'lgan yerlardan bir necha marta ekin ekib, hosil olishga intilish lozim.

e) ekin maydonlarining mahsulдорлиги. Bu ko'rsatkich asosan ekin turlari hamda umumiy maydon bo'yicha, natural hamda qiymat ko'rinishlarida aniqlanadi, ya'ni ular 1 hektar foydalanilgan maydonдан qancha miqdorda (sentner, tonna) hamda necha so'mlik mahsulot yoki foyda olinganligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EMM = \frac{YH}{EM}$$

Bunda: EMM - ekin maydonlarining mahsulдорлиги, sentner/ga.

YH - ekin maydonidan olingan yalpi hosil miqdori, sentner yoki tonnada;

EM - ekin ekilgan haqiqiy maydon, ga.

Itu ko'rsatkich yordamida 1 hektar ekin ekilgan maydondan qancha miqdorda hosil olinganligi ekin turlari bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Jami ekin maydonlari mahsulorligini aniqlashda quyidagi qiyomat ko'rsatkichlaridan ham foydalanish mumkin:

$$YM = \frac{YMQ}{QXY}; \frac{YD}{QXY}; \frac{SF}{QXY};$$

Bunda: YM - foydalanilgan yerlarning mahsulorligi, ya'ni, bir qishloq xo'jalik yer maydonidan necha so'mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad hamda sof foyda olinganligi aniqlanadi;

YMQ - olingan yalpi mahsulot qiymati, ming so'mda;

QXY - qishloq xo'jalik yerlari, ga;

YD - olingan yalpi daromad summasi, ming so'mda;

SF - olingan sof foyda summasi, ming so'mda.

D) suvdan foydalanish samaradorligi. Bu ko'rsatkich yordamida har 1 m<sup>3</sup> suv evaziga olingan yalpi mahsulot miqdori, qiymati, daromad va sof foyda summasi quyidagi tengliklar yordamida aniqlanadi:

$$SFS = \frac{YH}{FSM}; \frac{YMQ}{FSM}; \frac{YD}{FSM}; \frac{SF}{FSM};$$

Bunda: SFS - suvdan foydalanish samaradorligi;

FSM - foydalanilgan suv miqdori, m<sup>3</sup>

E) natural hamda qiyamat ko'rinishida aniqlanadi. Bunda 1 m<sup>3</sup> suvdan foydalanish natijasida qancha miqdorda mahsulotlar yordamida olinganligi hamda necha so'mlik yalpi mahsulot va yalpi daromad, sof foyda olinganligi aniqlanadi.

F) sug'orish tizimidan foydalanish koeffetsiyenti. Uning darajasini uchun shu tizimning oxirida ekinlarni sug'orish maqsadida berilgan suv miqdorini shu tizim boshida olingan suv miqdoriga tengishlasi zarur. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$TOS = \frac{TFS}{TBS}$$

Bunda: STfk - sug'orish tizimidan foydalanish koeffetsiyenti;

TOS - sug'orish tizimining oxirida ekinlarga berilgan suv miqdori;

TOS - sug'orish tizimining boshida olingan suv miqdori.

G) ko'rsatkich sug'orish tizimining holatini ham ifodalaydi va uning darajasi yoki koeffetsiyenti 1 ga intilishi kerak. Chunki sug'orish tizimining boshida olingan suv ekin maydonlariga to iiq yetkazilishi kerak. Agar uning darajasi past bo'lsa, demak, suvning m'a'lum miqdori davomida yerga singib ketgan yoki samarasiz foydalanilgan bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan

xo'jaliklararo sug'orish kanallarining eskirganligi hamda ayrim xo'jaliklarda ariqlarning o'z vaqtida va sifatli tozalanmasligi sababli ularda suv resursining bir qismi behuda yerga singib ketmoqda. Bu esa suv resursidan samarasiz foydalanishga va yerlarning meliorativ holati yomonlashishiga olib kelmoqda. Shu sababli sug'orish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim.

### **3.3. Yer monitoringi va davlat yer kadastrı.**

Yer va suv umummilliy boylikdir. O'zbekiston Respublikasi xalqining hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida ulardan oqilona hamda samarali foydalanish zarurligi Yer Kodeksida, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunda alohida ta'kidlangan Respublika hududidagi barcha korxonalar, fuqarolar bu qonuniy talabni bajarishlari shart. Shuning uchun ular tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga, suvni iflos qilmaslikka, shuning negizida ulardan talab darajasida samarali foydalanishga katta e'tibor berishlari lozim. Shu mas'uliyatni his etgan holda qishloq xo'jalik korxonalari uni ijobjiy hal etishga, foydalanish mumkin bo'lgan maydonlardan to'liq va samarali foydalanishga intilmoqdalar. Eng asosiy maqsad aholining oziq-ovqatga, sanoatning esa xomashyoga bo'lgan talabini qondirishdir.

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan agrar iqtisodiy islohotlar natijasida yangi tamoyillarga asoslangan yer munosabatlari shakllanmoqda. Uning asosiy qoidalari qonunchilik hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Bosh qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" - deb belgilab qo'yilgan.

1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi qabul qilingan. Ushbu Kodeks 14 bob, 91 moddadidan iborat bo'lib, yer resursining toifalari va undan faydalanish bo'yicha barcha qoidalari yoritib berilgan. Ushbu Kodeksning 1-moddasida "Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi" - deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Qishloq xo'jaligi yerlarning unumdorligini yanada oshirish maqsadida 2013-2017 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish

iboylat dasturini amalga oshirish doirasida 2016 yilda uzunligi 856,3 kilometrik kollektor, 322,6 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 111 vertikal drenaj qudug'i, 12 ta meliorativ nasos stansiyasi, 357,4 km baron, 70,8 km sug'orish latok tizimi barpo etildi va rekonstruksiya qilindi.

Bu muammoni yechishda davlatning bevosita ko'magi lozim. Bu muhim tadbirdi qishloq xo'jalik korxonalarining o'zlarini bajara olmasligi munajat, chunki ularning texnik-iqtisodiy quvvati yetmaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarini yerlarining meliorativ holatini yaxshilashda umummilliy va melioratsiya davlat hissadorlik tashkilotlarining ma'lum hujjat evaziga xizmat qilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Maxsus roba bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning hujjatini asoslari yaratilgan bo'lib, ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrdagi «Sug'oriladigan yotlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan umummillashtrish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3932 sonli Farmoni va boshbqlarni kiritish mumkin.

Yer - xalqimiz hayoti, faoliyati va farovonligining asosidir. Undan foydali bugunni emas, kelajak avlodlarning ham manfaatlarini ko'zlab, ilmiy asoslangan holda, oqilona, samarali foydalanish, uni muhofaza etish umummilliy dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatimiz hujudidagi barcha boyliklardan, shu jumladan, yer va suv resurslaridan ham oqilona, samarali foydalanish lozim. O'ta muhim bu vazifa hal hujudidagi to'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkomasini 2000-yilning 23-dekabrida «Yer monitoringi to'g'risidagi Nizomoni tasdiqladi va shu kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkomasining «O'zbekiston Respublikasida yer monitoringi to'g'risidagi 496-soni Qarori qabul qilindi. Yer monitoringi respublika hujudidagi barcha o'zgarishlarni o'z vaqtida ilmiy asoslangan holda hisoblash, yerlarga to'liq baho berish (sifat hamda iqtisodiy jihatdan), ulagan ta'sir etuvchi salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini to'chit hujatish maqsadida yerning holatini kuzatib borish bilan bog'liq monitoring obekti hisoblanadi. Respublikamizning barcha yerlari monitoring obekti hisoblanadi.

Nizomda vazirliklar va idoralar faoliyatini va yer monitoringi ma'muratlarini umumillashtirishdek muhim vazifa O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartograflya va davlat kadastrosi zimmasiga yuklatilgan. Demak, yuksak davlat ahamiyatiga bo'lgan vazifani muvaffaqiyatlari hal etishda qo'mita tarkibidagi

barcha idoralar, tashkilotlar faol qatnashishlari zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda “O‘zdaverloyiha” instituti yer monitoringi amalga oshirilishini ta’minlashga quyidagi yirik masalalarni hal etish bilan hissa qo‘sishi rejalashtirilgan: qishloq xo‘jalik yerlari tuproq monitoringini amalga oshirish uchun tuproqshunoslik tadqiqotlariga oid to‘plangan barcha ma’lumotlarni umumlashtirib, monitoring tadqiqotlarini olib borish maqsadida respublika, viloyatlar hamda tumanlar hududida asosiy maydonlarni tanlash va ularni asoslash; vaqt o‘tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari o‘zgarganligini isbotlovchi ma’lumotlarni teran va to‘liq tahlil etish; tadqiqot olib boriladigan asosiy hamda ekologik maydonlarda tuproqlarning holatini isbotlovchi ko‘rsatkichlari majmuasini asoslash, tuproqning holatini kuzatish, unga oid ma’lumotlarni sifatli to‘plash hamda ularga o‘zgartirishlar kiritishi kerak. Buning uchun qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlarini suv va shamol erroziyasini ta’siri oqibatida o‘zgarishi monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlari sho‘rlanganlik darajasining o‘zgarish jarayoni monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlari og‘ir metallar bilan zararlanganlik darajasining o‘zgarishi monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlarining texnogen o‘zgarishi monitoringi; neft mahsulotlari salbiy ta’siri natijasida tuproqlarning ifloslanishi monitoringi; barcha o‘simliklarning og‘ir metallar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlarining gerbitsid va pestitsidlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; mineral o‘g‘itlardan foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi o‘zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Respublikamiz bo‘yicha yerlar sifatini tavsiflovchi ma’lumotlar 3.1 jadvalda keltirilgan.

### 3.1-jadval

#### Respublikamiz bo‘yicha sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlaringin sifat bahosi

Viloyatlar	O‘rtacha ball boniteti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	41
Andijon	57
Buxoro	50
Jizzax	51
Qashqadaryo	51
Navoiy	52
Namangan	59

Namangan	57
Jizzax	56
Andijon	51
Toshkent	59
Farg'ona	56
Sirdaryo	53
<b>Respublika bo'yicha:</b>	<b>55</b>

**Manba:** Ozbekiston Respublikasi yer resurslari va Davlat kadastro qo'mitasi ma'lumotlari.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, respublikamizda viloyatning o'rtacha ball boniteti 55 ballni tashkil etadi. Namangan, Toshkent, Andijon va Samarqand viloyatlari yerlarining o'rtacha ball boniteti boshqa viloyatlar ko'rsatkichiga nisbatan yuqori ko'rsatkichiga ega. Mamlakatimizda eng past ball bonitetga ega yerlar Qoraqalp'iston Respublikasi, Buxoro, Sirdaryo, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan.

Qishloq xo'jalik yerlarining sifati 10 ta klassga ajratilib, 100 ballik dasturda baholanadi. Bunda 1-2-klasslarga holati yomon yerlar kiradi va ular 0-20 ball bilan baholanadi, 3-4-klasslarga holati o'rtachadan past yerlar kiradi va ular 21-40 ball bilan baholanadi, 5-6-klasslarga holati o'rtacha yerlar kiradi va ular 41-60 ball bilan baholanadi, 7-8-klasslarga holati yaxshi yerlar kiradi va ular 61-80 ball bilan baholanadi va nihoyat 9-10-klasslarga holati eng yaxshi yerlar kiradi va ular 81-100 ball bilan baholanadi. Mamlakatimizda 10-klassga kiruvchi, ya'ni 91-100 ballga ega yerlar saqat Andijon (35 ga), Namangan (1301 ga), Samarqand (547 ga), Toshkent (29 ga) va Farg'ona (452 ga) viloyatlarida mavjud.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, qurʼoniy, kartografiya va davlat kadastro qo'mitasi, ushbu qo'mitaga qarabli viloyatlardagi Yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalarini, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, respublikadagi boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va oshimilotlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Yer monitoringi - yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerkarta baho berish, salbiy jarayonlarining oldini olish va qaytbatlarni tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish haqida iborat. Davlat yer kadastro yuritishni, yerdan foydalanishni, yeri tozishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilonaga foydalanish

ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastro - yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o'lchamlari, ularni yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat.

1998-yil 28-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat Yer kadastro to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan. Davlat yer kadastro yetun munosabatlарини тартибга солиш, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzishni tashkil etish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berish maqsadida barcha tashkilot, korxonalarda fuqarolarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan. Davlat yer kadastro yerning qiymat bahosini aniqlashni taqozo etdi va uni tarkibiga olgan bo'ladi. Davlat yer kadastrining ma'lumotlari yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda, yer uchastkalari berish va ularni olib qo'yishda, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini belgilashda, yer tuzish ishlarini o'tkazishda, xo'jalik faoliyatiga baho berishda hamda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda majburiy tartibda tafbiq etiladi. Davlat yer kadastro butun respublikani uchun yagona tizim asosida davlat byudjeti mablag'lari hisobidan davlat yer kadastro va yer tuzish xizmati organlari tomonidan yuritiladi.

Davlat yer kadastro quyidagilardan tashkil topadi:

- yerdan foydalanuvchilar;
- yer maydoni, uning tarkibi, sifati;
- yerni iqtisodiy baholash.

Yerlarni iqtisodiy baholash bir qancha iqtisodiy muhim masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Eng avvalo, yer umumxalq, davlat mulki sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir. Shunda mamlukat railliy boyligining tarkibi - yerning qiymatini, ulushini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuning bilan birgalikda yerning asosiy vonita sifatida baholanishi ham hal etilishi lozim.

Respublikamizda qishloq xo'jalik yerlarining qiymatini baholash tartibini belgilash maqsadida iqtisodchi olimlar F.Q.Qayumov, A.Abdug'aniyev, V.T.Frolov, J.M.Maqsudov, G.G.Nagayev, I.A.Akramov va A.A.Tursunovlar tomonidan « O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarini sifatiy, iqtisodiy va qiymat bahosini aniqlashning muvaqqat uslubii» ishlab chiqildi va u

Yer resurslari davlat qo'mitasining ilmiy-texnik Kengashi tomonidan 1999 yil 6-avgustda tasdiqlangan. Bu muvaqqat uslubiyatda qishloq xo'jaligiga mo'ijallangan yerlarning qiymat bahosini (meyoriy bahosini) aniqlash tartibi ko'rsatilgan. Bunda sug'oriladigan yerlar, bahorikor yerlar va yaylov yerlarning meyoriy bahosini aniqlash tartiblari ko'rsatilgan.

Sug'oriladigan yerlarning meyoriy bahosini aniqlashning negizida qishloq xo'jalik ekinlari rivojlanishi uchun yerlarning ahamiyatiroq bo'lgan tabiiy xususiyatlari (tuproq bonitirovkasi) va meyoriy sof foydasi qiymatini ko'rsatuvchi sifatlari bo'yicha shu yerlarning aniqlashma bahosi yotadi. Bonitirovkalashda tuproqning quyidagi asosiy xususiyatlari va tabiiy sharoitlari hisobga olinadi: tuproqning tipi, ilovchilik turkibi, sug'orib kelinayotganlik muddati, termik resurslar bilan munisiplanligi, tuproq hosil qiluvchi jins, yer osti suvining chiqib ketishi, aho'rланish, erroziyalanish, tosh va gipslanish darajalari. Eng yuqori baho 100 bail bilan eng yuqori mahsuldorlikka ega, eng yaxshi tuproqlar baholanadi.

Tuproqning tabiiy unumdorligini, mahsuldorligini va uning qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqliligini hisobga olib respublikamizdagi sug'oriladigan yerlarning ball bonitetlari bo'yicha 10 ta klassi aniqlanadi. Bunda, 1-klassga 10 ballgacha, 2-klassga 11 balldan 20 ballgacha, 3-klassga 21 balldan 30 ballgacha, 4-klassga 31 balldan 40 ballgacha, 5-klassga 41 balldan 50 ballgacha, 6-klassga 51 balldan 60 ballgacha, 7-klassga 61 balldan 70 ballgacha, 8-klassga 71 balldan 80 ballgacha, 9-klassga 81 balldan 90 ballgacha va 10-klassga 91 balldan 100 ballgacha bo'lgan ball bonitetiga ega sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari kundi.

Agronomiya nuqtai nazaridan bonitet ballari baholashning 100 ballik shaklasi bo'yicha 1 ball bahoga qabul qilingan har bir gektardan sug'oriladigan hosildan kelib chiqib, aniq bir qishloq xo'jalik ekini uchun hisoblangan hosildorlikda namoyon bo'ladi. Ball bonitetlari bo'yicha asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining kadastrli hisoblangan hisildorligi 3.2-jadvalda keltirilgan.

Nabzuvot-poliz ekinlari bo'yicha kadastrli hisoblangan hosildorlik shakuga ixtisoslashgan aniq bir xo'jalik yoki uning biron himmalarning amaldagi hosildorlik ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

### 3.2-jadval

#### Ball bonitetlari bo'yicha asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining kadastrli hisoblangan hosildorligi, sentner/ga

Ball bonitetlari	Paxta	Don	Beda	Don uchun makka	Bir yillik o'tlar	Ildiz-mevalilar
10	4	6	20	7,5	30	90
20	8	12	40	15,0	60	180
30	12	18	60	22,5	90	270
40	16	24	80	30,0	120	360
50	20	30	100	37,5	150	450
60	24	36	120	45,0	180	540
70	28	42	140	52,5	210	630
80	32	48	160	60,0	240	720
90	36	54	180	67,5	270	810
100	40	60	200	75,0	300	900
1 ballga to'g'ri keluvchi hosil, sentner	0,4	0,6	2,0	0,75	3,0	9,0

#### 3.4. Suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ularni aniqlash tartibi.

Yer va suv resurslaridan to'liq va samarali foydalanish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- yer-suv islohotlarini doimiy takomillashtirib borish;
- meliorativ holati yomonlashgan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish;
- zamonaviy, samarali texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etish;
- ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan ahnashlab ekishni yo'lga qo'yish;
- ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda mahalliy va mineral o'g'itlardan oqilona foydalanish;
- agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish;
- ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma'nnaviy rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish;
- yer va suv munosabatlарини takomillashtirish va erkinlashtirish.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish tadbirlarini quyidagi to'rtta guruhga ajratish mumkin:

- 1) ishkiliy tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- imiy asoslangan yer tuzish;
  - hududlar bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish;
  - yagona yer monitoringi tizimini olib borish;
  - davlat yer kadastrini to'liq amalga oshirish;
  - davlat va jamoat ekspertizasini yo'lga qo'yish;
  - yerdan foydalanish va uni muhofazalash nazoratini kuchaytirish va hokazo.
- 2) huquqiy tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi normalarini takomillashtirish;
  - tabiiy resurslar qonunchiligi normalarini takomillashtirish;
  - yerdan foydalanish normalarini takomillashtirish;
  - ekologik huquqiy mexanizmni takomillashtirish;
  - yer huquqbuzarligiga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlash va hokazo.
- 3) iqtisodiy tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- holati yomon yerlarni imtiyozli soliqqa tortish;
  - tifroq muhofazasi tadbirlarini kreditlash;
  - qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning yer va tifloq namarali foydalanish bo'yicha manfaatdorligini oshirish;
  - yerlarni rekultivatsiya qilish(qayta tiklash) va meliorativ holatini yaxshilashga davlat tomonidan beriladigan ko'makni takomillashtirish va hokazo.
- 4) texnologik tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- yerlarni tubdan rekultivatsiyalash va meliorativ holatini yaxshilash texnologiyalarini ishlab chiqish;
  - almashlab ekish tizimini joriy etish va unga qat'iy amal qilish;
  - noqishloq xo'jalik va sanoat o'zlashtirishning yagona texnologiyasini yaratish;
  - avvalarni muhofaza qilish texnologiyasini joriy etish;
  - yerlarni qayta tiklash texnologiyalarini joriy etish;
  - tiflab etiladigan joylarda ixotazorlar tashkil etish;
  - orroziyaga qarshi kurash tadbirlari va sellarning salbiy oqibatlari shuning olib inshootlarini barpo etishni yanada rivojlantirish va hokazo.

### Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Respublika yer-suv fondiga nimalar kiradi?

2. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslarining iqtisodiy-iijtimoiy ahamiyatni bayon eting.
3. Yer-suv resurslari, ularning miqdori, turlari va tarkibi nimalardan iborat?
4. Yer-suv munosabatlarining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
5. Yer kadastro, qishloq xo‘jaligi yerlarini baholash qanday amalga oshiriladi?
6. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli qanday?
7. Yer-suv resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi qanday aniqlanadi?
8. Yer-suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning qanday yo‘llari bor?
9. Yangi sug‘orish usullarini, ilg‘or texnologiyalarni, texnikalarni joriy etish qanday amalga oshiriladi?
10. Yer-suv islohoti qanday amalga oshirilmoqda?
11. Yer-suv monitoringi nimalardan iborat?

#### **4- BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MODDIY RESURSLAR HAMDA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI**

##### **4.1. Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati.**

Mehnat predmeti va mehnat vositalari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi. Mahsulot ishlab chiqarishda mehnat predmetlariga ta’sir ko‘rsatuvchi buyumlar mehnat vositalari deyiladi. Inson mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy elementlariga qaratilgan bo‘lsa, u mehnat predmeti deb ataladi.

Boshqa tarmoqlarda bo‘lgani singari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining moyoriy hajmda mavjud bo‘lishi taqozo etiladi.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari tarmoqdagi burcha resurslarning eng muhim qismi hisoblanadi va unga quyidagilar kiradi:

- ajratib berilgan yer maydoni;
- bino-inshootlar, texnikalar, mashinalar va boshqa ish qurollari;
- ko‘p yillik mevali daraxtlar va uzumzorlar;
- mahsuldor va ishchi hayvonlar;

nylasma mablaglar (urug'lik, o'g'itlar, YMM, kimyoviy vositalar, hisob nizqimidagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar);

xo'jaliklarning ta'sischiligi asosida tashkil qilingan MTP, nizqimlar hisobidagi mol-mulki.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, quyidagicha guruhlarga bo'linadi:

ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashadigan moddiy-texnika resurslari;

ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan moddiy-texnika resurslari.

Ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan moddiy-texnika resurslari yordamida turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar va shartlar bajariladi. Ularga ekin ekilgan yerlar, yaylov va pichanzorlar, shinlarni sug'orish uchun sarflanayotgan suvlar, mashina, yer hozirdigan va ekinlarga ishlov beradigan traktorlar, kombaynlar, kimyoviy vositalar, o'g'itlar, hayvonlarga berilayotgan yem-xashaklar, chorva hayvonlari, mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. Korxonalarning imbor, idora binolari, ayrim inshootlari, aloqa vositalari, kompyuterlari ishlab chiqarish jarayonida bilvosita qatnashadilar.

Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika bazasi iqtisodiyotning boshqa nizqimidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy ol o'yndi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining foydalaniishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq.

Dikinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi har doim sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hududiy xarakterga ega bo'lib, har bir hududda tabiiy-iqlim sharoitlari bo'lib bo'lishi tufayli har xil turdag'i ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun turli hududlarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mavsumiy o'sishiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etadi. ishlab chiqarish mavsumiy bo'lishi urug'lik, yem-xashak, yoqilg'i-moyiash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi. bundan tashqari, moddiy-texnika resurslaridan yil davomida samarali foydalanishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'ninchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir nizqi jori organizzmlardan (ish hayvonlari, mahsuldor mollar, ko'p

yillik mevali daraxtlar va hokazo) ibo.rat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ularning biologik xususiyatlarini bilish talab etiladi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika bazasini yaratish va saqlash ko'p miqdorda sarf-xarajatlar qilishni taqozo etadi.

Moddiy-texnika resurslarning mahsulot yetishtirishda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ahamiyati ulkan. Ular mehnatning xarakterini o'zgartirib, unumdorligi yuksalishini ta'minlaydi. Masalan, ilmiy asoslangan ma'lumotlarga ko'ra, paxta yig'im-terin.iida 1 kishi-soat mexanizator mehnati 26 kishi-soat qo'l mehnati o'rmini bosadi.


Fan-texnika taraqqiyoti moddiy-texnika resurslarining sifatini, holatini yaxshilash, yangilarini yaratishga xizmat qiladi. Shuning natijasida o'simliklarning serhosil, tezpishar navlari, chorva mollarning mahsuldor zotlari, har tomonlama qulay va samarali, yuqori unumli va tejamkor texnikalar, ilg'or texnologiyalar yaratiladi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari quyidagi belgilari bo'yicha turkumlanadi:

- barpo etilishi bo'yicha;
- ishlab chiqarishda qatnashishiga ko'ra;
- takror ishlab chiqarilishi bo'yicha.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari mulk sifatida tarmoqning, korxonalarning iqtisodiy negizini, asosini tashkil etadi. Korxonalarning moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos mavjudligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini ularning iqtisodiy mazmuni, barpo etilishi va foydalilishi bo'yicha 4.1-chizmadagi tartibda turkumlash mumkin.



4.1-rasm. Moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi

Moddiy-texnika resurslarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi o'mi va ahamiyati juda ulkan. Chunki takror ishlab chiqarish jarayonida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari talab darajasida yetishtirilishi hamda ish va xizmatlar talab darajasida boshirilishi barcha resurslarning miqdoriga hamda sifatiga bog'liq. Tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarning amalga oshirilishi asosan moliyaviy resurslar bilan bog'langan. Shnnday ekan, kelajakda qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari talab darajasida barpo etilishiga alohida e'tibor berish surʼur.

Xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam, ya'ni mashinalar, traktorlar, kombaynlar, mexanizmlar bilan yaroqchi ta'minlangan bo'lsa, barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida bajarilishi ta'minlanadi. Mehnatning mehanizatsiyalashganligini ko'rsatuvchi bunday sharoit natijasida qo'1 chebi bilan bajariladigan ishlar kamayadi. Mehnat unumдорлиги ошади та махсулот танарси пасайшига, пировардат натижада даромадлarning ошбистига оlib keladi. Bu mehnatning xarakteri o'zgarayotganligidan ололот берди, айни paytda ishchi-xizmatchilarning bilimi, malakasi ошхиритилими ham talab etadi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari tarkibida chorva huyvonlari va mevali daraxtlarning ham kirishi tarmoqning muhim osoniyati ekanligiga alohida e'tibor berish, shuningdek, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika vositalari, traktorlar, mashinalar, mexanizmlar, dastgohlar, kimyoiy vositalar, yoqilg'i, yog'lovchi materiallar va boshqalarning ishtirokini ham e'tiborga olish lozim. Ulardan foydalanish samaradorligiga tarmoq ishlab chiqarishining mavsumiyligi ham ta'sir etadi.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarni e'tiborga olish, shuningdek, ishlab chiqarishning joylashganligi hamda joylashganligiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvoqifiqdir. Shu bilan birga ilg'or texnologiyalarning joriy etilishini hamda texnologik joyvonlarda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish, joylashirish imkonini yaratish lozim.

Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslari asosan quyidagi janubalar hisobiga barpo etiladi:

- korxonaning o'z mablag'lari;
- chetdan jalb etiladigan mablag'lar.

Birinchi manbaga korxonaning mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondi mablag'lar, foydalanilmayotgan ayrim asosiy vositalarini sotishdan, ijara ga berishdan tushgan pul tushumi va boshqa manbalardan olingan mablag'lar kiradi.

Ikkinchi manbaga irrigatsiya-melioratsiya tadbirdari, ekologiyu hamda ijtimoiy sohalar uchun davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar, banklarning kredit mablag'lar, korxona tomonidan aholi va boshqa korxonalar ixtiyoridagi bo'sh pul mablag'larini jalb etish maqsadida qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarib sotishdan tushgan tushum, turli manbalardan jalb etilayotgan investitsiyalar va boshqa manbalardan jalb etiladigan mablag'lar kiradi.

Bu manbalardan jalb etilgan mablag'lar hisobiga qishloq xo'jalik korxonalari moddiy-texnika vositalarini ishlab chiqaravchilarning bevosita o'zlaridan yoki birjalardan, ko'rgazmalardan, auksionlardan shartnomalar asosida sotib olib, moddiy-texnika bazalarini mustahkamlashlari, ay rim hollarda foydalanish uchun ijara olishlari mumkin. Qishloq xo'jalik korxonalari moddiy-texnika resurslarini shakllantirishda lizingdan ham keng foydalanishlari lozim. Shunday tartibda shakllantirilgan moddiy-texnika resurslaridan xo'jaliklar yil mobaynida to'liq va samarali foydalanishsa, barcha turdag'i tadbirdarini vaqtida, sifatli amalga oshirishga erishadilar.

#### **4.2. Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.**

Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlashga doimo katta e'tibor berilmoqda. Chunki bu sarflanadigan mehnat hamda mablag' xarajatlari kamayishi, mehnat unumдорлиги yuksalib, foya summasi ko'payishi uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanganlik holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qiüb borish talab etiladi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi. Uning darajasini quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MTR_{td} = \frac{MTR_q}{Q_{xy}}$$

Bunda: MTR<sub>td</sub> - moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm/tekta;

MTR<sub>q</sub> - xo'jalikdagi moddiy-texnika resurslarining qiymati, ming so'm.

Bu ko'rsatkich yordamida har bir xo'jalik ixtiyoridagi foydalilanayotgan 1 hektar qishloq xo'jalik yeriga yoki ekin maydoniga necha so'mlik moddiy-texnika resurslari to'g'ri kelishi aniqlanadi. Uning miqdori meyor darajasida bo'lishi lozim. Bu umumiy ko'rsatkich miqdor va vazifalardan kelib chiqqan holda boshqa aniq ko'rsatkichlar yordamida yanada aniqlashtiriladi.

Ma'lumki, xo'jaliklar o'z faoliyatida amalga oshiradigan ishlarni tez va sifatlari bajarishga intiladi, bu jarayonda texnika vositalari o'rtasida munosabatlikni ta'minlashga alohida e'tibor berilishi lozim. Chunki, traktorlar ko'p, ularga tirkaladigan mexanizmlar kam yoki aksi bo'lsa, butiljan samaraga erishib bo'lmaydi. Chorva hayvonlari ko'p bo'lib, yem-xashak kam bo'lishi ham foydasizdir. Demak, korxonalar samarali muvozanatdagi moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlangan bo'lishlari kerak.

b) korxonalarning energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi. Uning miqdori xo'jalikdagi jami energetik resurslar quvvatini (ot kuchi hujubida) foydalilanayotgan qishloq xo'jalik yerlari yoki ekin maydoniga taqsimlab aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$ER_t = \frac{ER_q}{Em(Q_{xy})}$$

Bunda: ER<sub>q</sub> - jami energetik resurslar quvvati (ot kuchida);

Em (Q<sub>xy</sub>) - jami ekin maydoni (qishloq xo'jalik yerlari).

c) mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi. Uning energetik resurslar quvvatini (ot kuchida) xodimlarning o'rtacha yillik soniga taqsimlab aniqlanadi. Bunda ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$ER_q = \frac{ER_q}{X_s}$$

Bunda: X<sub>s</sub> - xodimlarning o'rtacha yillik soni (kishi).

d) ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun traktor, mexanizmlar, mashinalar yordamida bajarilgan ishlarni korxona bo'yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga taqsimlanadi

va natija 100 ga ko'paytiriladi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Md = \frac{Mi}{Ji} * 100$$

Bunda: Md - ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

Mi - mashina, traktorlar, mexanizmlar yordamida bajarilgan ish;

Ji - jami bajarilgan ish miqdori.

Bu ko'rsatkich umumiy yoki ayrim ish, ekin turlari bo'yicha aniqlanishi mumkin. Masalan, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, hosilini yig'ishtirib olish, sigirlarni sog'ish va hokazo.

f) yangi texnikalardan, texnologiyalardan foydalanish natij asida xarajatlarning tejalishi. Uning darajasini aniqlash uchun yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avval qilingan xarajatlardan ular joriy etilganidan so'ng qilingan xarajatlar miqdori, summasi aynilib, aniqlangan raqam dastlabki xarajatlarga taqsimlanadi va natija 100 ga ko'paytiriladi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$Xt = \frac{X_1 - X_2}{X_1} * 100$$

Bunda:  $X_1$  - yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi xarajatlar (so'm);

$X_2$  - yangi texnika, texnologiya joriy etilgandan keyingi xarajatlar (so'm).

g) mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti. Buni hisoblash uchun xo'jalikda foydalanilgan mashina-traktorlar miqdori unda mavjud bo'lgan mashina-traktorlar miqdoriga taqsimlash lozim. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$MTPfk = \frac{Fs}{Ms}$$

Bunda: MTPfk - mashina-traktor parkidan foydalanishkoeffitsiyenti Fs - foydalanilgan mashina-traktorlarning soni (dona).

Ms - mavjud bo'lgan mashina-traktorlarning soni (dona).

h) moddiy-texnika resnrslaridan foydalanish samaradorligi. Bunda 1 etalon gektarning, 1 tonna-kilometming, 1 kilovat-soatning tannarsi aniqlanadi. Ular quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$EGt = \frac{Mx}{Ji}$$

Bunda: EGt - 1 etalon gektar tannarsi;

Mx - mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlarga qilingan jami sanajat (ming so'm);

Jl - jami bajarilgan ish hajmi (éetalon ga, tonna-kilometr, kilovat-minut).

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni hisoblab, moddiy-texnika resurslarining holati, darajasi, foydalanish samaradorligi aniqlanadi va tahlil qilinadi. Natijada ulardan foydalanish holatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari belgilanadi.

### **4.3. Hozirgi bozor iqtisodi haroitida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini shakllantirish**

Qishloq xo'jaligini ustuvor darajada rivojlanтирish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak. Tarmoqning moddiy-texnika resurslari shakllantirilishi, rivojlanтирilishi, ulardan samarali foydalanish masalalari fan-texnika taraqqiyotiga va uning darajasiga bevosita bog'liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutish lozim. Uning uchun ta'lif va ixtirochilik tizimini yangi bosqichga ko'tarish labi etiladi. Ular qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan qulay va ommalni mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishini, mavjudlari takomillashtirilishini, serhosil, tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva sotlari, ilg'or texnologiyalarni yaratadigan fanlarning rivojlanishini etminlaydi. Natijada moddiy-texnika resurslarining miqdori oshadi, urutti yaxshilanadi.

Mamlakatimizda fan yutuqlarini qishloq xo'jaligiga joriy etishga olibdi o'tibor berilmoqda. Jumladan, qishloq xo'jalik mashinasozlik ommati korxonalarida zamonaviy, tejamli, unumli haydov, ishlov beruvchi traktorlar, mashina va mexanizmlar ishlab chiqarilmoqda. Yurug'irlatib, tomchilatib, tuproq ostidan sug'orish uchun yangi ommalni texnikalar barpo etilmoqda. Bu hol qishloq xo'jaligida ommalni, ilg'or texnologiyalar joriy etilishini ta'minlaydi.

Fan-texnika taraqqiyotini joriy etishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Isroilda suv tanqis bo'lgan adirlarda quyosh batareyalari u'mutligan bo'lib, unung yordamida elektr energiyasi hosil qilinadi va yekun elektr energiyasi bilan ishlovchi nasoslar orqali yer osti suvlari etiboriladi. Ushbu suv yordamida ekinlar va bog'lar sug'oriladi.

Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida kechishi, bu jayayonda qatnashuvchilarning tashabbuskorligi, tadbirkorligi ham uyg'unlashishi lozim.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy maqsadi yangi, samarali qishloq xo'jalik texnikalarini, ekologik talablarga javob beradigan kimyoq vositalarni, yangi navlarni, zotlarni yaratish, mavjud vositalarni takomillashtirish, mehnatning xarakterini o'zgartirib, uning unumdorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, ularni qayta ishlab, iste'molchilarga yetkazib berish orqali aholi, korxonalar va nihoyat, davlatning iqtisodiyotini yuksaltirishdir.

Fan-texnika taraqqiyoti qishloq xo'jaligida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- yangi yerlarni kompleks o'zlashtirish, zax va sho'rlangan yernarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta'minlanish tadbirlarini ta'minlaydigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, takomillashtirish;

- tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatlari va serhosil uniga navlarni, sermahsul chorva zotlarini yaratish;

- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida amalga oshiriladigan barcha ish jarayonlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda mexanizatsiyalashtirishni ta'minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligiga servis xizmatlarini ko'rsatish, tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning zarur miqdorini qayta ishlab, sifatlari saqlab, iste'molchilarga vaqtida, yaxshi holatda yetkazib berishni ta'minlashtirish;

- qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining erkinlashtirilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarini yaratish va ularni hayotga izchillik bilan joriy etish;

- fan-texnika taraqqiyoti natijalarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o'z vaqtida joriy etish qobiliyatiga bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotganlarning malakasini oshirish va rag'batlantirishni takomillashtirish.

Fan-texnika taraqqiyotining shu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta'minlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini, samarali texnologiyalarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etib borish maqsadga maysofiqdır. Bu texnologiyalar ish jarayonlarining belgilangan muddatda, sifatli bajarilishiga, mehnat unumдорligi oshishiga va tajjbatlar kamayishiga olib keladi. Bu borada ham mamlakatimizda ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, g'o'zalarni «Andijon texnologiyasi» asosida pylonka ostiga ekish. Pylonka ostiga g'o'zani ishlida mahsulotni yog'inli kunlarga qolmasdan erta yig'ishtirib olish, soy resurslarini tejash, begona o'tlarga qarshi kurashishda ayrim ustunliklari mavjud. Shu usuldan foydalanish natijasida 1 hektar paxta maydoniga 4-5 marta kam suv berish ta'minlanadi. Gollandiyadan belgilan kartoshka urug'i ekilib, seleksiya ishlari orqali mahalliy sharoitlarga moslashtirildi. Bu jarayonda mahalliy tajribalardan ham bo'lgan foydalanildi. Natijada respublikada kartoshkachilik rivojlandi, qolli ehtiyoji uchun chetdan kartoshka sotib olishga barham berildi. Chorvachilik tarmoqlarida ham ilg'or texnologiyalar joriy etilmoqda. Polsha, Gollandiya kabi mamlakatlardan mahsuldar chorva mollari olib belimoqda haimda mahalliy sharoitlarda ularni ko'paytirishga e'tibor berilmoida.

Zamonaviy texnologiyalar vaqtini, mehnatni, mablag'ni tejash tundoniyatini beradi. Natijada mahsulot hajmi, mehnat unumдорligi oshishi, tannarx pasayishi va nihoyat, sof foya summasi ko'payishini ta'minlaydi. Shuning uchun samarali texnologiyalarni yaratishga, ularni haydor qilishga taqdim etishga doimo katta e'tibor berish lozim.

Mamlakatimizda infratuzilma sohalaridan biri bo'lgan elektr energiyasi ta'minotini yanada yaxshilash, tannarxini pasaytirish mu'oddida quyosh nuridan elektr energiyasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish lozimi. Hozirgi vaqtida mamlakatimiz olimlari tomonidan quyosh nuridan elektr energiyasi oluvchi batareyalar yaratilgan va uni ishlab chiqaruvchi korxonalar ham mavjud. Ushbu usulda elektr energiyasi ishlabi keng joriy etish, ayniqsa, chekka qishloq joylarda quyosh batareyalarini o'rnatish va ta'llim muassasalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi muassasalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash juda yuqori samara beradi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash mu'oddida kimyoiv vositalarni, jumladan, mineralai o'g'itlarni sotib olishiga alohida e'tibor berilmoida. Chunki ular tuproq unumдорligini qidirib, ekinlar hosildorligi yuksalishini, yovvoyi o'tlar hamda

zararkunandalarni kamaytirib, mehnat va mablagl sarflari tejalishini, mahsulot sifati yaxshilanishini ta'minlaydi.

Korxonalar o'zlariga kerak bo'lgan moddiy-texnika resurslarini sotib olishlari, o'zlar qurishlari hamda ta'mirlashlari mumkin. Masalan, bino-inshootlarni o'zlar qurishlari yoki pudratchilar orqali qurishi, mashina, traktor, kombaynlarni o'zlarida yoki ixtisoslashgan korxonalarda ta'mirlashlari mumkin. Yangi qishloq xo'jalik texnikalari, kimyoviy vositalar, yoqilg'i va ozuqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalardan bevosita o'zlar yoki bijalar, auksionlar orqali sotib olishlari mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonalari o'z mablag'lari hamda chetdan jahb etilgan sarmoyalar hisobidan moddiy-texnika resurslarining ba'zi turlarini qurishlari, ta'mirlashlari, sotib olishlari, ijara qilishlari, ayrimlarini esa parvarish qilib, barpo etishlari mumkin.

Qishloq xo'jaligini rivojlantrish uchun uning moddiy-texnika bazasini talab darajasida shakllantirish lozim. Bu masalaga bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaning o'zi katta e'tibor berishi kerak.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratish bilan birgalikda ulardan to'liq va samarali foydalanishga erishish lozim. Demak, tarmoq korxonalarida ulardan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Lekin o'tish davrining hozirgi bosqichida ulardan foydalanish talab darajasida emas. Chunki mashina, traktor, kombaynlarning ishga yaroqlilik holati yuqori darajada emas. Bunday holat mashina, traktor hamda kombaynlarning yaroqliliginini ta'minlash uchun zarar bo'lgan butlovchi vositalar yetishmasligi, baholarining yuqoriligi, ularni sotib olish uchun qishloq xo'jalik korxonalari moliyaviy resurslarining kamligi tufayli sodir bo'lmoqda.

Qishloq xo'jalik texnikalarini yangilash bo'yicha avvalo chet ilg'or kompaniyalari bilan hamkorlikni mustahkamlash talab qilindi. Hukumatimiz bu borada Germaniyaning «Klaas» kompaniyasi bilan zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar, g'alla olish kombaynlari va boshqa qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga e'tibor qaratmoqdagi Xorijdagi boshqa mashhur finnalar bilan ham aloqalarni yo'lga qo'yish, birinchi navbatda, zamonaviy melioratsiya texnikasini ishlab chiqarish

va ta'mirlashni tashkil qilish masalalarida hamkorlik qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilashning asosiy yo'naliishlari quyidagilar:

- har bir qishloq xo'jaligi mintaqasiga mos keladigan, iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan texnikalar bilan kompleks mezonitatsiyalashtirishga asoslangan tizimni yaratish;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish vositalaridan keng ko'lamda foydalanish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'g'itlardan foydalanishni to'g'ri tashkil etish va ekologik jihatdan qulay bo'lgan biologik vositalarga yondashish;
- bududda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bozor hujudiyoti talablariga mos keladigan qayta ishlash korxonalarini boshqaytirish;
- ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurishni keng ko'lamda avj oshirish va qurilishni takomillashtirish;
- yetarning meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo'jaligining ilg'or bilan to'liq ta'minlanishiga erishish hamda sug'orishning ilg'or texnologiyalarini qo'llash;
- chorvachilikda mahsuldor zotli hayvonlar bilan ta'minlanganlik surʼajini oshirish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining kasalliklarga chidamli, yuqori hujudi, tezpishar urag' navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

#### **4.4. Chorvachilik tarmog'idagi innovatsion texnologiyalar, ularning ko'lamini kengaytirish masalalari.**

Respublikamizda chorvachilik sohasini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ilmiy-amaliy ishlarni yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish, qishloq joylarining rivojlantishi hamda aholi farovonligini oshirishda, shuningdek, oziq-qavqarli xavfsizligi va qishloq joylarda aholi bandligini ta'minlashda former va dehqon xo'jaliklarining o'rni muhim rol o'ynaydi.

Ilu tadbirlar nafaqat aholi manfaatlarini oshiradi, balki, qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim qadam bo'ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Agrar sohada eng katta muammo - fermerlarning qishloq xo‘jaligi sohasida yetarli bilimga ega emasligidir. To‘g‘ri, ularda kuch-g‘ayrat, tashabbus, yerga mehr bor, ko‘pchiligining ko‘zi yonib turibdi. Lekin, afsuski, birgina xohish bilan biz yuqori hosildorlikka va pirovard natijaga erisha olmaymiz. Bizga qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur” deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 29 yanvar kungi PQ-4576-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Naslchilik xo‘jaliklari maqomining berilishi tartibi to‘g‘risida”gi 2020 yil 19 fevral 100-sonli qaroriga asosan naslchilik xo‘jaliklari toifasidagi fermer xo‘jaliklarida oliy ma’lumotli zootexnik mutaxassislarini ta’milanishi ko‘rsatib o‘tilgan, shunga asosan, ayniqsa, qoramolchilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklarga zooinjeneriya mutaxassisi shart va zarur deb belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil iyun oyidagi Farg‘ona viloyatiga tashriflarda Farg‘ona davlat universitetida “Zootexniya” fakultetining ochilishi hamda “Asalarichilik” va “Anorchilik” yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavriatlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda to‘la ilmiy salohiyatga ega professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar.

Shuning uchun kelajakda ushbu sohani yanada rivojlantirish, ilmiy salohiyatni yanada oshirish va chorvachilik sohasini oliy ma’lumotli, yetuk zooinjeneriya mutaxassislarini bilan ta’minalash maqsadida Farg‘ona davlat universitetida “Xususiy zootexniya” chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha yo‘nalishlar ochish va qo‘srimcha kvotalar olish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Bu esa chorvachilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklarida oliy ma’lumotli zooinjeneriya mutaxassislarining vazifasi qoramollarning mahsuldarlik xususiyatlarini yaxshilash, ularni to‘la qiymatli oziqlantirish, asrash sharoitlarini yaxshilash, pushtdorlik xususiyatlaridan unumli foydalanish, yiliga har bir bosh sigirdan bir bosh buzoq olish, sun‘iy urug‘lantirish usulidan keng foydalanish, buzoqlarni maqsadga muvofiq o‘stirishni tashkil etish va qoramol

zotlarining mahsuldorlik salohiyatidan to‘la foydalanishni taqozo etadi. Ohirgi yillarda Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi, chorvachilik fermer xo‘jaliklariga katta e“tibor qaratilayotganligi, chorvachilikda ozuqa bazasini mustaxkamlashda sug‘oriladigan yerlardan oqilona foydalanib, ozuqabop ekinlardan yuqori hosil olish hisobiga ozuqa ishlab chiqarishni ko‘paytirish, hamda yangi innovatsion texnologiyalar asosida qo‘srimcha jadal usulda gidropnik texnologiyasi asosida yashil ozuqasini yetishtirish masalalarini yechish chorvachiilik sohasi hodimlari zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Respublikada va Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatgan chorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligiklarida yuqori mahsuldorlikka erishish ko‘p jihatdan ozuqa zahirasining mustahkamligiga bog‘liq, bunda kuz, qish va bahor mavsumlarida ekin maydonlarida yetarli ozuqabop ekinlar bo‘limgan davrda yangi innovatsion yuqori samarali jadal (intensiv)usulda avtomatlashtirilgan gidropnik texnologiyasi asosida yashil chorva ozuqasini yetishtirish va chorva hayvonlarini mahsulotligini oshirish va chorvachilik mahsulotlarini ko‘paytirish hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu innovatsion texnologiya asosidagi uskunalar yil davomida chorva mollari uchun ozuqa yetishtirib berish xavfsizligini ta‘minlaydi. Hamda ushbu mahsulot ishlab chiqarayotgan uskunalar yuqori, sifatli va uzoq yillar davomida ishlash qobiliyatiga ega bo‘lib, yil davomida chorva ozuqasini samarali-barqaror-ekologik toza ishonchli ekanligini ta‘minlamoqda. Hozirgi kunda gidropnika usulida yetishtirilgan ko‘k ozuqlar chorvachilik sohasining barcha tarmoqlarida chorva hayvonlarini oziqlantirishda ayniqsa qoramolchilik, qo‘ychilik, parrandachilik, yilqichilik, quyonchilik va baliqchilik sohalarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Masalan: 1 kg saralangan arpa donini undirib gidropnik texnologiyasi asosida 6-7 kun ichida 5-7 kg gidropnik yashil ozuqa yetishtirish xisobiga 4-5 marta ozuqa birligi yuqori bo‘lmoqda. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumanidagi “Hojiqulova Muxabbatxon faxri” MCHJ ho‘jaligida gidropnika usulida ko‘k ozuqa yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu xo‘jalik Fransiya davlatidan 2021 yil oktabr oyida sut va go‘sht yo‘nalishidagi Monbelyard zotli 62 bosh naslli qoramollar olib kelingan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu qoramollar ozuqa ratsioniga xo‘jalikda yetishtirilayotgan gidropnik usulida qo‘srimcha ko‘k ozuqa bilan oziqlantirish yo‘lga qo‘yilgan.

Shunga asosan qoramollarning ishtahasi ochilib, mahsuldorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga erishilmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Moddiy-texnika resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarmoqni rivojlantirishda moddiy-texnika resurslarining o'rni va ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarining tarkibi nimalardan iborat, ular o'ziga xos qanday xususiyatlarga ega?
4. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ko'rsatkichlari deganda nimalami tushunasiz?
5. Tarmoqning moddiy-texnika resurslaridan to'liq va samarali foydalanish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
6. Modemizatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
7. Qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or texnologiyalardan foydalanishning qanday yo'nalishlari mavjud?

## **5- BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. MEHNAT UNUMDORLIGI**

### **5.1. Mehnat resurslari va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, bu borada hukumatning siyosati. Qishloq xo'jaligining mehnat resurslari, ularni shakllantirishda davlatning roli.**

Mamlakatimizning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan barcha talablarini qondirishda mehnat resurslarining ahamiyati katta. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun moddiy, mehnat va kapital resurslari mavjud bo'lishi shart. Ushbu resurslar ichida mehnat faol resurs bo'lib, qolgan ikkita resursni bir-biri bilan bogiaydi va uning darajasi ishlab chiqarish jarayonining natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat - bu insonning ongli, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir. Ishlab chiqarish jarayoni inson mehnati, mehnat predmetlari va vositalari, tabiiy sharoitlarning samarali uyg'unlashishini talab etadi. Inson shu ishlab chiqarish vositalarini ma'lum hududda, davrda ishga solib, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi. Jumladan, ekinlar ekiladigan yerlarni shudgorlash, ekishga tayyorlash, ekish, suv berish,

ishlov berish, hosilni terib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish jarayonining samarasi, avvalo, mehnat resursining bilimiga, malakasiga, mehnatga munosabatiga, qolaversa, fan-texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish vositalarining sifatiga, holatiga va nihoyat, tabiiy sharoitga bog'liq. Demak, inson o'z faoliyatini ularning barchasini oqilona, uddaburonlik bilan samarali ishga solishga qaratishi kerak. Shunday mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning tabiatи ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Demak, talabni qondira olish qobiliyatiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, xizmatlarni bajarish insonning ongli faoliyati, ya'ni mehnatiga bevosita bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslari tarkibiga mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar hamda o'z xohishiga ko'ra mehnat faoliyati bilan shug'llanayotgan o'smirlar va pensionerlar kiradi.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining tarmoq xususiyatlardan kelib chiqqan holda quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- mehnat va uning samarasini tabiiy sharoit bilan bog'liq;
- mehnat resursidan foydalanishga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi katta ta'sir ko'rsatadi;
- qishloq xo'jaligidagi mehnat jarayoni tirik organizmlar bilan uzviy boglangan;
- qishloq xo'jaligida mehnat jarayonining mexanizatsiyalashganlik va avtomatlashganlik darajasi past;
- tarmoqda mehnat jarayoni tor doirada ixtisoslashmagan;
- qishloq joylarida mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati nisbatan yuqori va hokazo.

Ta'kidlangan xususiyatlар tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta'sir etadi. Tabiiy sharoitlar, ya'ni iqlim va yerning holati mehnat resursining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Qish oylarida mehnat resursiga bo'lgan talab keskin kamayib, bahorda va hosilni yig'ib olishda esa unga bo'lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilarni shartnomaga asosida jalb qilish talab etiladi. Dehqonchilik va chorvachilikda mehnat qilayotgan xodimlar o'simliklarning hamda chorva mollarining xususiyatlarini bilishlari lozim. Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug'orish, yagonalash, hosilni yig'ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish, tog'ish va boshqalar) to'liq mexanizatsiyalashtirish imkonini bermaydi,

natijada jonli mehnat xarajatlari yuqori bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo‘lishini ta’minlash uchun barcha xususiyatlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

## **5.2. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.**

Mehnat resurslari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda faol ishlab chiqarish resursi sifatida katta ahamiyatga ega. Chunki ular boshqa ishlab chiqarish omillarini bir-biri bilan bog‘laydi. Ishlab chiqarishning pirovard natijasi mehnat resursiga bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, ulardan yil davomida to‘liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanishning holati va samaradorligini aniqlash va unga ko‘ra tegishli choralar ko‘rib borilishi kerak.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish holati va samaradorligiga baho berishda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

a) mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun xo‘jalikda mavjud bo‘lgan mehnat resurslari soni qishloq xo‘jalik yerlari miqdoriga bo‘linadi. Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$MR_{td} = \frac{MR_{Rus}}{QXY}$$

Bunda: MRus - mehnat resurslari umumiy soni, kishi;

QXY - qishloq xo‘jalik yerlari, ga.

Ushbu ko‘rsatkich qishloq xo‘jalik korxonasi ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan meyorlar darajasiga imkon qadar yaqin bo‘lishi kerak.

b) mavjud mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni mehnat resurslarining umumiy soniga bo‘linadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MR_{fk} = \frac{MRO'ys}{MRus}$$

Bunda: MRO‘ys - mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni, kishi;

MRus - mehnat resurslarining umumiy soni, kishi.

Bu ko‘rsatkichning darajasi birga yaqin bo‘lgani maqsadga muvofiqdir. Shunda mavjud mehnat resurslaridan foydalanish darajasini yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi.

d) mehnat resurslarining xo'jalik faoliyatida qatnashishi. Ushbu ko'rsatkich xo'jalik faoliyatida jami sarflangan vaqtini mehnat resurslarining umumiy soniga taqsimlash orqali aniqlanadi, bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$MRxfq = \frac{MRsv}{MRus}$$

Bunda: MRsv - mehnat resurslarining jami sarnagan vaqt, kishikuni, kishi-soat.

Bu ko'rsatkichning mutlaq miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqtini fondidan yuqori bo'lmaydi. Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqtini fondi belgilanadi. Uning miqdorini bir yildagi kalendar kunlar miqdoridan barcha turdag'i bayram (agar u qonun bo'yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta'til kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikamizda bir xodimning yillik o'rtacha ish vaqtini fondi 285 kun miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqtini fondi hisoblanadi. O'smirlar uchun bu fond ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zararli ishlarni bajaruvchilar uchun ham o'rnatilgan. Mehnat resurslarining xo'jalik faoliyatida qatnashishi ko'rsatkichi imkon qadar ushbu meyorga yaqin bo'lishi kerak.

e) belgilangan ish vaqtini fondidan foydalanish koeffitsiyenti. U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishikuni, kishi-soat) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo'lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Vfk = \frac{Ih}{Im}$$

Bunda: Ih - mehnat resurslarining bir yilda haqiqatda ishlagan vaqt, kishi-kuni, kishi-soat;

Im - mehnat resurslarining qonunda belgilangan meyor bo'yicha ishlashi lozim bo'lgan vaqt, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu koeffitsiyentning miqdori birga yaqin bo'lishi kerak. Agar uning darajasi qanchalik past bo'lsa, bu mehnat resurslari foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan dalolat beradi.

f) mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun ma'lum davr (bir yil, bir oy) mobaynida eng ko'p sarflangan kunlik mehnat sarfi shu davrdagi eng kam sarflangan kunlik mehnat sarfiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalilaniladi:

$$M_{mk} = \frac{I_{max}}{I_{min}}$$

Bunda:  $I_{max}$  - ma'lum davrdagi eng ko'p sarflangan kunlik mehnat sarfi, kishi-kuni, kishi-soat;

$I_{min}$  - ma'lum davrdagi eng kam sarflangan kunlik mehnat sarfi, kishi-kuni, kishi-soat;

Ushbu koeffitsiyentning miqdori 1-1,2 ga teng bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida uning miqdori belgilangan meyordan yuqoriroq bo'lmoqda. Bu mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonida bir meyorda qatnashmayotganligidan dalolat beradi. Bu holni yumshatish zarar, buning uchun kam mehnat sarflanadigan oylarda ishlab chiqarishning boshqa sohalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani har bir korxona o'zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishi mumkin.

g) mehnat unumdorligi darajasi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami mehnat sarfi miqdorini shu davrda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga yoki qiymatiga taqsimlash zarur:

$$Mu = \frac{SM}{YM}$$

Bunda:  $SM$  - ma'lum davrda sarflangan mehnat, kishi-kuni, kishi-soat;

$YM$  - ushbu davr mobaynida yetisbtirilgan mahsulot miqdori yoki qiymati.

Bu ko'rsatkich yetishtirilgan bir birlik (sentner, tonna, so'm) mahsulot uchun qancha mehnat sarflanganligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich mehnat sig'imi ham deyiladi va mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabidir.

Amaliyotda esa mehnat unumdorligi haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash orqali aniqlanadi:

$$Mu = \frac{YM}{SM}$$

Mazkur ko'rsatkich sarflangan bir birlik (kishi-kuni, kishi-soat) mehnat sarfi evaziga qancha mahsulot yetishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Bu ikki usul bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Mahsulot birligiga sarflangan mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat sarfi evaziga yetishtirilgan mahsulot birligi ko'paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi qishloq xo'jaligida ayrim mahsulot turlari bo'yicha hamda xo'jalik miqyosida natural hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko'rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'zgarishining mehnat unumdorligi o'zgarishiga ta'siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi.

Shunga asoslangan holda kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va sarflanishi zarur bo'lган mehnatning unumdorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni ishlab chiqish kerakligi belgilanadi.

h) qishloq xo'jaligi tarmog'ida band bo'lган mehnat resurslarining salmog'i. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun tarmoqda band bo'lган mehnat resurslari soni mamlakat miqyosida band bo'lган mehnat resurslari soniga taqsimlanadi va natija 100 ga ko'paytiriladi. Uni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$TMRs = \frac{TBMR}{MMRus} * 100$$

Bunda: TBMR - tarmoqda band bo'lган mehnat resurslarining umumiyligi soni;

Rus - mamlakat miqyosida mehnat resurslarining umumiyligi soni.

Ushbu ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik tarmog'ida band bo'lган mehnat resurslarining mamlakat mehnat resurslari umumiyligi sonidagi salmog'i aniqlanib, tahlil qilinishi mumkin. Mazkur ko'rsatkich tarmoqdagagi mehnat resurslarining mehnat unumdorligiga baho berishda ham foydalanishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligi intensiv rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Gollandiya va boshqalar) qishloq xo'jaligi tarmog'ida mamlakat mehnat resurslari umumiyligi sonining atigi 4-7 foizi mehnat qiladi. Ularda tarmoq moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilishi natijasida mehnat unumdorligining yuqori bo'lishiga erishilgan. Ularda qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan har bir kishi 120 nafargacha kishini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlamoqda. Respublikamiz miqyosida bu ko'rsatkich darajasi hozirgi davrda ancha yuqori, uni pasaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Qishloq xo'jaligidan bo'shayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash

uchun qishloq joylarda tadbirkorlikning boshqa shakllarini, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish lozim.

Qishloq hududlarida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlantirilishi tarmoqdagi mehnat resurslarining ma'lum bir qismini sanoat va boshqa tarmoqlarga o'tishiga ta'sir etmoqda. Shu orqali qishloq joylardagi mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi oshirilmoqda.

Tarmoqda mavjud bo'lgan mehnat resurslarini ishlab chiqarishga jalb etish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirishda moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning, ya'ni ularning mehnatlariiga yarasha haq to'lash, yaxshi ishlaganlarni esa rag'batlantirishning ahamiyati ulkan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida mamlakatimiz miqyosida mehnatga to'lanadigan ish haqining eng kam miqdori belgilanadi. Uning yuqori darajasi esa xo'jaliklarning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hamda ishchi-xizmatchilarining qobiliyatlariga, imkoniyatlariga va tashabbuskorligiga qarab belgilanadi.

Qishloq xo'jaligida mehnatning unumdorlik darajasi so'ngi yillarda yuksalmoqda. Uning oshishiga tarmoqda ekiladigan ekinlar asosiy qismining hosildorlik darajasi oshganligi, chorva mollari mahsuldorligining yaxhilanganligi ta'sir etgan. Mehnat unumdorligi darajasining oshishiga qishloq xo'jalik mahsulotlari baholarining oshishi ham ta'sir etmoqda. Lekin baholar oshishiga nisbatan mehnat unumdorligining oshish sur'ati yuqori. Chunki qishloq xo'jalik xodimlarining mehnatga bo'lgan munosabatlari o'zarmoqda.

### **5.3. Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.**

Qishloq hududlarida mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalash eng dolzarb vazifi hisoblanadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etilsh uchun quyidagi e'tibor berish lozim:

- qishloq hududlarida mavjud bo'igan mehnat resurslarining umumiyligi sonini va istiqbolda uning o'zgarish darajasi monitoringini o'tkazib borish;
- qishloq hududlaridagi barcha tadbirkorlik shakllarida qisqa va uzoq muddatga mutaxassislik turlari bo'yicha mehnat resursiga bo'lgan talabni aniqlash;
- qisqa va uzoq muddatga bo'sh bo'lgan ish joylarini ishlovchilarni bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni asoslangan holda ishlab

chiqish (kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash);

\* ish bilan ta'minlanmaganlarning umumiyligi sonini aniqlash, ularni ijtimoiy himoyalash bo'yicha meyoriy tadbirdirlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalar.

Ta'kidlangan tadbirdirlarning samarali hal etilishi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar bilan ish beruvchi subektlar hamda ijtimoiy himoyalashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'tasida munosabatlardan amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu masalalarni hal etishda bandlikka ko'maklashish markazlari muhim ahamiyatga ega.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z mehnat qilish qobiliyatini taklif etayotgan fuqaro mehnat bozorini o'rganib chiqadi. U yerda mayjud bo'lgan talablarni o'rganib, o'zining intellektual va jismoniy qobiliyatlarini taklif etadi. Ish beruvchilar esa mehnat bozoridan o'zlarini uchun eng ma'qul bo'lgan taklifni tanlab olishga harakat qiladilar. Ular bir-biriga mos kelganda shartnomalar tuzilib, xodim ishga yollanadi. O'zbekiston Respublikasida ham shunday tartib joriy etilgan bo'lib, bu vazifani qishloq hududlarida bandlikka ko'maklashish markazlari amalga oshirmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining nazariy asoslarini shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit, ingлиз iqtisodchisi D.Rikardo, Nobel mukofoti laureati, amerikalik iqtisodchi Paul A.Samuelson va boshqa olimlar tomonidan yetarli darajada asoslangan. Yaratilgan nazariyani hayotga tatbiq etish yo'llari ham hal etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat shu bozorda erkin sotilishi lozim. Shundagina u qiymatga ega bo'ladi, ya'ni tovar shaklida ayriboshlanadi. Mehnat bozori erkin raqobat asosida amalga oshirilishi zarur. Bu bozorda mehnat munosabatlari iqtisodiy, ijtimoiy qonunlar, talab va taklif qonunlari talablari asosida amalga oshirilishi lozim. Mehnat bozorida hisob o'zini emas, balki mehnat qilish (jismoniy, aqliy) qobiliyatini taklif etadi. Iste'molchi, ya'ni ish beruvchi shu qobiliyatni sotib oladi. Demak, oldi-sotdi jarayonidagi iqtisodiy munosabat predmeti insonning mehnat qilish qobiliyatini hisoblanadi. Insonning mehnat qilish qobiliyatiga to'lanayotgan ish haqi shu mehnatning qiymati, ya'ni bozori ekanligidan dalolat beradi.

Qishloq hududlaridagi mehnat bozorini samarali shakllantirishda quyidagi holatlarni e'tiborga olish zarur:

- respublika aholisining yarmi qishloq hududlarida yashayotganligi;

- qishloq hududlarida aholi sonining o'sish sur'ati shaharlardagiga nisbatan yuqori ekanligi, bu hol kelajakda mehnat resurslarining yuqori sur'atlarda o'sishiga ta'sir etishi;

- qishloq hududlarida sanoat korxonalari talab darajasida rivojlanmaganligini va barcha resurslarni e'tiborga olgan holda joylashmaganligi;

- hozirgi davrda qishloq hududlarida ish bilan ta'minlanmagan iqtisodiy faol mehnat resurslarining shaharlarga ish qidirib ketayotganligi;

- qishloq hududlarida xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik shakllari talab darajasida rivojlanmaganligini, shuningdek, madaniy, maishiy, kommunal va boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi infratuzilma sub'ektlari ko'laming torligi.

Mehnat bozorlari yuqorida ta'kidlangan barcha xususiyatlarni e'tiborga olgan holda erkin shakllanishi uchun quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

- qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo'jalik korxonalaridagi) mehnat resurslarining umumiy miqdorini, tarkibini aniqlash;

- mehnat resurslarining taklifini va hududdagi barcha tadbirkorlik subektlarining ularga bo'lgan talabini tarkibi bo'yicha aniqlash;

- erkin mehnat bozorini shakllantirish hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni ishga solish;

- qishloqda mehnat resurslarining maqsadga muvofiq bandligini ta'minlashga hissa qo'shish;

- mehnat bilan band bo'limgan fuqarolar sonini aniqlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalash;

- erkin mehnat bozori amalga oshirilishini ta'minlovchi turli yarmarkalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish, ularning samarali o'tkazilishiga erishish;

- mehnat bozorining rivojlanishini ta'minlovchi barcha resurslarni topib, samarali sarflash kabi vazifalarni bozor talablari darajasida amalga oshirish lozim.

Qishloqlarda mehnat bozorini oqilona tashkil etib, samarali boshqarish uchun hududlarning xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Respublikamizning mehnat resurslari soni ko'p bo'lgan hududlari, Avvalo, Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Samarqand

viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali quyidagi ikkita usuli mavjud:

- a) ishchi kuchiga talabni oshirish usuli;
- b) ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli.

Fan-teknika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish hisobiga ish o'rinnarining bir qismi qisqarishi kuzatiladi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlantirish usullarini tadqiq etish mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga hamda mazkur hududlar uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash, saqlash va xarid qilish hamda agroservis xizmati ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo'yicha ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish, agrar sektordagi ishdan vaqtincha bo'shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarini kengaytirish va qayta tashkil etish hamda yangi ish o'rinnarini yaratish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish lozim.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish va yangi, zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalg qilish orqali tartibga solish mumkin. Investitsiya va kreditlarni agrosanoat majmui korxonalarini, ayniqsa, qayta ishslash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnat faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko'p bolali ayollar, mehnatga layoqatli nafaqaxo'rlar, nogironlar, o'smirlar va hokazolarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa ortiqcha mehnat resurslarini yuqorida aytib o'tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalg etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy malaka tarkibiga bevosita ta'sir o'tkazish mumkin.

Muvaqqat ish joylarini yaratish va mulkchilik turli shakllarini rivojlantirish aholi bandligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri. U korxonalarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, byudjet to'lovi va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy urta badallarini kamaytirish, ularni ishga qabul qilish jarayonini yengillatish, bandlikning noan'anaviy shakllarini tashkil etish bilan

bog‘liq sarf-xarajatlarni to‘lash kabi chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

Ishchi kuchlari taklifini kamaytirishga ish vaqtি va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar o‘rtasida qayta taqsimlash orqali samarali ta’sir etish mumkin.

Ish bilan bandlar orasida ish vaqtি va ish joylari ishchi kuchlariga bo‘lgan taklifni kamaytirish maqsadlarida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga o‘tishini rag‘batlantirishga ularga ham ish bilan to‘la band shaxslarga mo‘ljallangan ijtimoiy muhofaza turlarini, ta’tillar va boshqa ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini o‘rnatish, kafolatlangan eng kam miqdordagi ish haqi bilan ta’minalash, har yili beriladigan ta’tillarni o‘z vaqtida berish, ish kuni va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizning mehnat resurslari yetishmaydigan mintaqalarida (Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) ishchi kuchlariga taklifni ko‘paytirish mehnat bozorini tartibga solishning maqsadga muvofiq usulidir. Respublika qishloq xo‘jaligidagi mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan yil davomida to‘liq va samarali foydalanish lozim.

Qishloq hududlarida, jumladan, qishloq xo‘jalik korxonalarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining real miqdorini aniqlash lozim. Shu bilan birga aholi sonining mutlaq o‘sishini e’tiborga olgan holda mehnat resurslarining ko‘payish yoki kamayish jarayonini aniqlash kerak. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aholining harakatini ham hisobga olish zarur. Shundan so‘ng qishloq xo‘jaligidagi mavjud bo‘lgan ish joylarining hozirgi hamda istiqboldagi sonini real aniqlashga alohida e’tibor berish kerak. Shularga asoslangan holda mehnat balansi ishlab chiqilishi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, mehnat resurslarining ish bilan ta’minalanganlik darajasi, shu orqali qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining ish bilan ta’minalanganlik darajasi aniqlanadi. Uning darajasi birga yaqin bo‘lishi lozim, aks holda mehnat resurslarini ish bilan ta’minalash chora-tadbirlari asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun qishloq xo‘jalik korxonalarida yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyatlarini rejalashtiriladi. Mehnat resurslaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarini, ya’ni malakalarini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash tadbirlarini ham belgilab olib, amalga oshirilishiga e’tibor berish zarur.

Korxonalarda mehnat mehnat unumdorligi darajasini yuksaltirishga alohida e'tibor berish lozim. Bu masalaning hal etilishida eng ta'sirchan omil moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim yaxshi, sifatlari ishlasa ko'p haq oladi. Shunday ekan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali mehnat qilayotgan ishchixizmatchi o'z mehnatiga yarasha ko'proq haq olishi lozim. Shu bilan birga mehnatkashlarni ma'naviy rag'batlantirishni amalga oshirishni ta'minlash kerak. Eng avvalo, mehnatlari natijalarini e'tiborga olgan holda mukofotlash va taqdirlash lozim. Unvonlar ham ma'lum darajada fuqarolarning mablag'lar bilan ta'minlanishiga olib keladi. Eng asosiysi, ma'naviy rag'batlantirish insonlarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning mehnatga munosabatini yaxshilaydi, yaxshiroq mehnat qilishga undaydi.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshishini ta'minlash mumkin. Buning uchun xo'jaliklar xitoyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish hamda ulardan yil davomida to'liq foydalanishga erishish tadbirlarini shakllantirish lozim. Eng avvalo, ularni malakali kadrlar, ta'mirlash ustaxonalari bilan ta'minlash kerak. Xo'jaliklarning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligini ham talab darajasiga yetkazish zarur. Duning uchun esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralarini aniqlab ularning bajarilishini ta'minlash kerak.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarislining mavsumiyligi tufayli yilning ma'lum davrida tarmoqdagi mehnat resurslarining bir qismi bo'sh turib qoladi, bu esa mehnat resurslaridan foydalanish xamaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holatning oldini olish uchun qishloq xo'jalik korxonalarida xodimlarni mehnat resursiga talab ham bo'ladigan qish oylarida ham ish bilan band qilish choralarini ko'rish lozim. Bunda dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarda chorvacliilikni ham yo'lga qo'yish, issiqxonalar tashkil etish, turli sexlar, ustaxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Demak, qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va xamarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

qishloq joylarda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;

- tarmoqning rivojlanishini e'tiborga oligan holda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;
- qishloq xo'jaligiga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;
- tarmoqning ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta'minotini yuksaltirish;
- qishloqda yashash va ishlash uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlanтирish;
- kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

Bu kabi chora-tadbirlarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etilishi tarmoqdagi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilab, mehnat unumdarligi oshishiga ijobji ta'sir etadi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Mehnat va mehnat resurslari haqida tushuncha bering.
2. Qishloq xo'jaligida mehnat resursining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
3. Mehnat unumdarligi qanday aniqlanadi?
4. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?
5. Mehnat to'g'risidagi qanday me'yoriy hujjatlar qabul qilingan?
6. Mehnat bozori, uning maqsadi, tashkil etilish shakllari va vazifalari nimalardan iborat?
7. Mehnat bozorini tartibga solishning qanday usullari bor?
8. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdarligini oshirishning qanday yo'llari bor?

### **6- BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSIYALAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

#### **6.1. Investitsiyalar (kapilal qo'yilmalar) haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va ahamiyati.**

"Investitsiya" atamasi lotincha "invest" so'zidan olingan bo'lib, "pul sarf qilmoq", "pul qo'ymoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Investitsiya faoliyati subektlari investitsiya loyihalaring barcha qatnashchilar, investorlar, investitsiya faoliyati obektlaridan foydalanuvchilar, banklar,

sug‘urta kompaniyalari, vositachi tashkilotlar, investitsiya fondlari va boshqalar hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag‘lar investitsiyalar deb ataladi. Ular qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydi va ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, komyolashtirish, elektrlashtirish, avtomatlashtirish natijasida mehnat unumдорligi oshadi, xarajatlar esa tejaladi. Natijada yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko‘payadi va sifati yaxshilanadi, olinadigan foyda summasi oshadi. Bu investitsiyalarni amalga oshirishning tub maqsadidir.

Barcha sohalar singari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ham investitsiyalarning ahamiyati juda katta. Chunki tarmoqni ustuvor shaklda rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkam ravishda barpo etish zarur. Buning uchun uni zamonaviy binoinshootlar, barcha turdag‘i zarur texnikalar, qishloq xo‘jalik mexanizmlari, ichki irrigatsiya va meiioratsiya inshootlari, serunum, tezpishtor navlar, mahsuldor chorva mollari zotlari hamda aylanma vositalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minalash lozim.

Hozirgi davrda investitsion mablag‘lar yangi, samarali texnologiyaga hamda intellektual mulkni barpo etishga sarflanishi maqsadga muvofiqdir. Bu masalaning to‘g‘ri, samarali hal etilishi ma‘lum miqdordagi investitsiyalar sarilanishini obektiv ravishda talab etadi. Demak, investitsiya mablag‘lari tarmoqda doimiy va o‘zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo etish va ularni rivojlantirish hamda yuksaltirish uchun sarflanadi. U uzoq hamda qisqa muddatlarga mo‘ljallab sarflanishi mumkin. Qishloq xo‘jaligining asosiy vositalarini sotib olishga, qurishga hamda ularni kapital ta’mirlashga surflansa, unda bu sarflar uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘ladi. U asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar deb ataladi. Shu bilan birgalikda investitsiyalar qishloq xo‘jaligining aylanma vositalariga ham sarflanadi, ular odatda qisqa muddatga sarflanadi. Demak, investitsiyalar natijasida qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish vositalari barpo etilib, ularning ishga yaroqliligi tubdan yaxshilanadi.

Investitsiyalar maqsad va vazifalariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- kapital investitsiyalar;
- innovatsion investitsiyalar;
- ijtimoiy investitsiyalar.

Asosiy va aylanma fondlarni barpo etishga va ularni takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalar kapital investitsiyalar deb ataladi.

Texnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish va ularni o'zlashtirishga sarflangan investitsiyalar innovatsion investitsiyalardir.

Inson salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablaglar ijtimoiy investitsiyalar deb ataladi.

Investitsiyalarni real va moliyaviy investitsiyalarga ham bo'lish mumkin. Moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga sarflangan mablaglar real investitsiyalarni tashkil etadi. Real investitsiyalar kapital qo'yilmalar deb ham ataladi. Kapital qo'yilmalar yalpi va sof kapital qo'yilmalarga bo'linadi. Real investitsiyalarning umumiy summasi yalpi kapital qo'yilmalarni tashkil etadi. Real investitsiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo'yilmalardir. Sof kapital qo'yilma yalpi kapital qo'yilma summasiga teng yoki kam bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligi, jumladan, korxonalar miqyosida yalpi kapital qo'yilmani sof kapital qo'yilmaga aylantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiylashtirilishini, ya'ni ishga tushirilishini ta'minlash zarur.

Qimmatli qog'ozlarni (aksiya, obligatsiya, sertifikat va hokazo) shakllantirishga sarflangan mablag'lar esa moliyaviy investitsiyalar hisoblanadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida moliyaviy investitsiyalar ko'lamini kengaytirisli maqsadga muvofiqdir. Jumladan, fermel xo'jaliklari, agrofirmalarda qimmatli qog'ozlar chiqarib, sotilishini yo'lga qo'yish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion siyosatni shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- tender asosida raqobatbardosh loyihalarni tanlash. Bu qishloq xo'jaligida investitsion loyihalar bozori barpo etilishini ta'minlaydi;

- qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Qishloq xo'jaligi tabiiy-iqtisodiy omillarining xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalarning iqtisodiy-ijtimoiy natijalari aniqlangan bo'lishi zarur. Chunki, ayrim hollarda loyihalarda belgilangan mablag'lar ko'zda tutilgan tadbirlarni bajarish uchun

yetmaydi va oqibatda ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Bu hol investitsion loyihalar uzoq muddatga cho'zilishiga olib keladi;

- chet el investorlarini va ularning investitsiyalarini qishloq xo'jaligiga jalb etish. Buning uchun xorijlik tadbirkorlarni mamlakatimiz qishloq xo'jaligida mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlar va ular uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishtirish, reklamani to'g'ri yo'lga qo'yish hamda investitsion muhitni yanada yaxshilab borish lozim va boshqalar.

Barcha omillarni e'tiborga olgan holda sarflanadigan investitsiyalar qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etadi, qishloq xo'jaligi zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, binoinshootlar bilan ta'minlanadi, bog'lar, uzumzorlar barpo etiladi, chorva hayvonlarining mahsuldon zotlari yaratiladi va hokazo. Ular yangi ish o'rinnlari barpo etilishini ham ta'minlaydi, qishloq xo'jaligida band bo'lgan tadbirkorlarning bilimlarini, malakalarini yuksaltiradi, bozor munosabatlarini shakkllantiradi. Ularning uyg'unlashishi natijasida tarmoqda yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko'payib, nqobatbardoshligi oshadi. Bu, o'z navbatida, aholi va qayta ishslash turmoqlarining talabi qondirilishini ta'minlaydi, fuqarolarning turmush darajasini yuksaltiradi. Bularning hammasi investitsiyalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati ulkan.

Birinchidan, investitsiyalar jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalardagi o'zgarishlar jami talabga yetarlicha ta'sir lo'ematadi, shuningdek aholining bandligi va yalpi milliy daromad hajmining ham o'zgarishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, investitsiyalar korxonaning asosiy fondlari qurilishiga, ya'ni ko'payishiga olib keladi. Bunda ishlab chiqarish tashlarini kengaytirishga sarf qilingan pul mablag'lari boshlang'ich buqchida korxona faoliyati natijalariga ta'sir etmasligi mumkin, lekin belgilidagi iqtisodiy o'sish uchun zarur bazani yaratadi.

Uchinchidan, investitsiyalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o'sishiga olib keladi, natijada yalpi milliy qisqaradi. Misol uchun, tugallanmagan qurilishning ko'payishi, moddiy resurslar sarfi oshishi, to'lanadigan ish haqining ko'payishi hamda ishlab chiqarishning qisqarishi shular jumlasidandir. Ular hamda pasayishiga ta'sir etadi.

Investitsiyalarning miqdori, dinamikasi va samaradorligi quyidagi omillarga bogliq:

- investitsiya amalga oshirilayotgan loyiha;
- mamlakatdagi va korxona faoliyatidagi iqtisodiy o'zgarishlarga;
- davlatning soliq siyosati va banklarning foiz stavkasiga;
- tashqi savdo bo'yichayuritilayotgan siyosatga;
- valyuta kursi o'zgarishiga;
- mamlakatning siyosiy hayotidagi barqarorlikka.

Investitsiyalar qishloq xo'jaligming har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi, chunki ularning evaziga tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi. Ulardan to'liq va samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, sifati yaxshilanadi. Bu hol qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab yanada yaxshiroq qondirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda sof foyda summasi ko'payadi. Natijada qishloq xo'jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yanada yuksaladi. Bular investitsiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi mavjudligidan dalolat beradi.

## **6.2. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)ning manbalari, ularning sarflanish yo'nalishlari.**

Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi tarmoqda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish vositalari oqilona tarzda takror ishlab chiqarilishini talab etadi. Bu jarayon ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ta'mirlash, qurish, innovatsion hamda ijtimoiy munosabatlari yig'indisidan tashkil topadi.

Barcha investitsiyalar quyidagi yirik ikkita manbadan shakllantirilib, amalga oshiriladi:

- korxonaning o'z mablag'lari hisobidan;
- chetdan jalb qilingan mablag'lar orqali.

Korxonaning investitsiyalarni shakllantirishda qo'llaniladigan o'z mablag'lariga quyidagilar kiradi:

- korxonaning sof foydasidan ajratilayotgan mablag'lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag'lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag'lar;
- asosiy vositalarni ijaraga berishdan tushgan mablag'lar;

- qishloq xo'jalik korxonalarining boshqa korxonalar qimmatli qog'ozlarini sotib olishi natijasida oladigan dividendlardan ajratilayotgan mablag'lar va boshqa shu kabilar.

Investitsiyalarni shakalantirishda chetdan jalg qilinadigan mablag'larga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo'jaligi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;

- tijorat banklaridan olinadigan kreditlar;

- hamkorlardan olinadigan mablag'lar;

- qimmatli qog'ozlar chiqarib sotish orqali jalg etiladigan mahalliy xorijiy korxonalar hamda fuqarolarning bo'sh turgan mablaglari;

- xayriya fondlaridan, homiyalar tomonidan ajratilayotgan mablag'lar  
boshqalar.

Chetdan jalg qilingan mablag'lar orasida bank kreditlari alohida o'rinn tutadi. Ular ishlab chiqarish faoliyati natijalaridan qat'i nazar, alohida korxonalar ehtiyojlarini hisobga olgan holda investitsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bank kreditlari korxona o'z mablag'larining investitsiya uchun kerakli miqdorini yig'masdan turib investitsiya jarayonini tezlashtiradi. Kreditlar investitsiya manbai ifatida nafaqat kapital qurilishda, balki yangi texnikani joriy qilishda ham ishlatiladi. Investitsiyalarning asosiy vazifasi - tarmoq mahsulotini ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligining o'sish sur'atlari tezlashtirilishini ta'minlashdir.

Yuqori rentabelli korxonalar ishlab chiqarish vositalarini yangilash maqsudida kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, investitsiya qilishda korxona imkoni boricha o'z mablag'laridan foydalanishi ikkita ustunlikka olib keladi: korxonada tashqi qarzlar mavjud bo'lmaydi (olingan kreditlar bo'yicha foiz, ijara haqi va hokazo), shuningdek, korxonani boshqarishda mu'tahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Ayni paytda xo'jaliklarga chetdan jalg qilinadigan mablag'larning nominalidan biri xo'jalik a'zolarining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini jalg etish hisoblanadi. Bunday investitsiyani amalga oshirish uchun korxona o'z ichida qisqa muddatli obligatsiyalarni chiqarib, ularni a'zolariga ishonchli tarzda tarqatishi (sotishi) yoki bu puqiy kuchga ega bo'lgan ishonchli dalolatnoraalarni ham berishi mumkin. Xo'jalik a'zolari esa muomalaga berilgan mablag'larini mu'lin muddat o'tgandan so'ng belgilangan foizi bilan qaytarib olish

imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu turdag'i investitsiya imkoniyatlaridan qishloq xo‘jaligi korxonalarida unumli foydalanish kerak.

Xorijiy investitsiyalar chet mamlakatlardagi yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘laridan tashkil topadi. Chet ellik investorlar tomonidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta’qilanganmagan boshqa turdag'i faoliyat obektlariga qo‘shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual raulkka doir huquqlar respublika hududida chet el investitsiyalari hisoblanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- respublika qishloq xo‘jaligidagi yuridik hamda jismoniy shaxslarning Nizom jamg‘armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo‘shib qatnashish;

- tarmoqda chet ellik investorgarga to‘liq qarashli bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari, bank, sug‘urta va boshqa korxonalarini barpo etish va rivojlantirish;

- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz mablag‘larini sotib olish;

- intellektual mullka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, firma nomlari va nou-xaularga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish va boshqalar.

Ularni chet davlatlar yoki bu davlatlarning quyidagi hududiy organlari amalga oshiradilar:

- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subektlari bo‘lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko‘rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, shirkatlari, uyushma va tashkilotlar;

- chet el fuqarolari bo‘lmish jismoniy shaxslar va boshqalar.

### **6.3. Investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)ning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash.**

Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni sarflashdan maqsad - tarmoqda ishlab chiqarishni rivojlantirish, qo‘shimcha foyda olish va fuqarolarning yashash sharoitini yaxshilashdir. Ularning darajasini loyihalar tuzishda hamda bu loyihalarni amalga oshirishda aniqlash

mumkin. Buning uchun investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi, Iqtisodiy samaradorlik xarajatlar bilan foyda summalarini taqqoslanishi natijasida aniqlanadi.

Investitsiyalardan foydalanish samaradorligiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniлади:

a) investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorligi koeffitsiyenti. Uning darajasi sarflangan investitsiyalar natijasida yalpi ichki mahsulotning o'sgan summasini shu o'sishni ta'minlagan investitsiya summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Si = \frac{YaiMo'}{Is} = \frac{Yado'}{Is}$$

Bunda:  $Si$  - investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti;

$YaiMo'$  - ma'lum bir davr ichida yalpi ichki mahsulotning o'sgan summasi, so'mda. Bunda qishloq xo'jaligida yalpi daromadning o'sgan summasi ham olinishi mumkin;

$Is$  - sarflangan investitsiya summasi.

Bu ko'rsatkich sarflangan 1 so'mlik investitsiya mabiag'i evaziga necha so'mlik yalpi ichki mahsulot yoki yalpi daromad olinganligini ifodalaydi. Uning mutlaq miqdori imkoniy boricha yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunda investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo'!adi. Kam bo'lsa, u iqtisodiy samaradorlik darajasi past bo'lganligidan dalolat beradi, bunday holda investitsiyalarni sarflash maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Investitsiyalar aksariyat hollarda uzoq muddatga mo'ljallangan xarajatlardir. Shuning uchun ularning bir necha yillar davomidagi iqtisodiy samaradorligini aniqashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Bunda inflyatsiya darajasi hisobga olinadi.

b) sarflangan investitsiyaning samaradorligi. Uni aniqlash uchun investitsiya sarflanishi natijasida sof foydaning o'sgan summasini shu o'sishni ta'minlagan investitsiya summasiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Si = \frac{SFo'}{O'TIS}$$

Bunda:  $SFo'$  - investitsiyani amalga oshirish natijasida sof foydaning o'sgan summasi;

$O'TIS$  - foydaning o'sishni ta'minlagan investitsiya summasi.

Bu ko'rsatkich yordamida sarflangan bir so'mlik investitsiya necha so'mlik yoki tiyinlik foyda kelтирilganligi aniqlanadi. Shuning uchun bu ko'rsatkichning mutlaq miqdori yuqori bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

d) investitsiya sarflanishi natijasida xarajatlarning tejalishi. Qishloq xo'jaligida sarflangan investitsiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali mahsulot yetishtirish uchun qilingan o'rtaча xarajatlar (mahsulot tannarxi)ni kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu holatga baho berishda ularning iqtisodiy samaradorlik darajasi tejalgan mablagl qiyamatini sarflangan investitsiya summasiga taqsimlab ham aniqlanadi. U quyidagi tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$Si = \frac{T_1 - T_2}{Is}$$

Bunda:  $T_1$  — investitsiya sarflanishidan oldingi tannarx summasi, ming so'mda;

$T_2$  - investitsiya sarflanganidan keyingi tannarx summasi, ming so'mda.

Bu ko'rsatkichning ham mutlaq darajasi yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

e) investitsiyaning qoplanish muddati. Bu ko'rsatkich sarflangan investitsiya summasini olingan sof foydaning o'sgan summasiga taqsimlash orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$IQM = \frac{Is}{SFo'}$$

Investitsiyalarning qoplanish muddati imkon qadar qisqa bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

f) sarflangan investitsiyaning keljakda keltiradigan foydasi. Bu ko'rsatkich quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_k = S_0(1 + i/100)^t$$

Bu yerda:

$F_k$  — investitsiyaning keljakdagi foydasi;

$S_0$  - boshlang'ich summa;

$i$  - inflyatsiya darajasi;

$t$  — investitsiya muddati.

g) agrar sohaga sarflangan investitsiyalarning samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan yana biri - agrar sohaga jalb qilingan so'mlik investitsiyaga to'g'ri keladigan qishloq xo'jalik yalpi

mahsuloti ko'rsatkichidir. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun qishloq xo'jaligi tarmog'ida yaratilgan yalpi mahsulot hajmi ushbu tarmoqda sarflangan jami investitsiya summasiga taqsimlanadi:

$$Iym = \frac{YMqx}{Is};$$

Bunda: Iym - 1 so'mlik investitsiyaga to'g'ri keluvchi qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti;

YMqx - qishloq xo'jalik yalpi mahsuloti;

Is - tarmoqqa sarflangan investitsiya summasi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda davlat baho siyosati bilan fermerlar daromadi barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi va shu orqali fermer xo'jaligining investitsiya jamg'armasini tashkil etuvchi daromadlarning minimal darajasini ta'minlashga harakat qilinadi. Ushbu mamlakatlar amaliyotida agrar sohadagi investitsiya faoliyatini boshqarishning ikkita zamonaviy modeli keng qo'llanilmoqda: Amerika va Yevropa modellari. Agrar sohadagi investitsiya faoliyatini boshqarishning Amerika modeli AQSh va Kanada davlatlari uchun xos bo'lib, ularda davlat byudjeti mablaglari hisobidan qishloq xo'jaligiga ajratiladigan assignatsiyalar to'g'ridan-to'g'ri pul to'lovi ko'rinishida amalga oshiriladi. Bunda, ayniqsa, imtiyozli kreditlar, fermerlarga investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari, kreditni qaytarish muddatlarini uzaytirish kabi usullardan samarali foydalaniladi. Soliq tizimidagi imtiyozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini oshirish, yetlarning mahsuldarligini oshiruvchi muhitni ta'minlashda muhim o'rinn tutadi.

#### **6.4. Investitsiya (kapital qo'yilma)lar ko'lamin rivojlantirish va samaradorligini yaxshilash yo'llari**

Agrar sohaga jalb qilingan investitsiyalar samaradorligini oshirish qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashlab chiqarish hajmi va aholi turmush farovonligini oshirish imkonini beradi. Buning uchun agrar sohaga jalb qilinadigan investitsiyaiami moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish tashlab etiladi. Mamlakatimizdagi va chet ellik iqtisodchi olimlar tomonidan agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish moliyalalari tadqiq qilingan. Agrar sohadagi investitsiyaiami moliyalashtirish va kreditlash mexanizmining ayrim nazariy va amaliy jihatlari iqtisodchi olimlarimizdan A.Avliyaqulov, A.Boymuratov, A.Vahabov, D.G'ozibekov, S.Umarov, E.Shodmonovlarning ilmiy

izlanishlarida tadqiq qilingan. A.Vahobov ilmiy tadqiqotlariga asoslangan holda, agrar sohani investitsiyalash jarayoni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi shart degan xulosaga kelgan. E.Shodmonov esa, qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy holatining beqarorligi, investitsion xarajatlarni moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi sharoitida lizing asosida investitsiyaami moliyalashtirish amaliyotini kuchaytirish maqsadga muvofiqligini asoslab bergan. Xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Yemelyanov agrar sohaga sarflangan investitsiyalar samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida baholar o'rtasidagi nomutanosiblikni ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, qishloq xo'jalik mahsulotlari baholarining o'sish sur'ati agrar soha ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan resurslar baholarining o'sish sur'atidan sezilarli orqada qolayotganligi investitsiyalash uchun zarur bo'lgan mablag'larni jamg'arish imkonini bermayapti.

Respublikamizdagи siyosiy-iqtisodiy barqarorlik qishloq xo'jaligiga investitsiyalar jalb etilishiga imkoniyat bermoqda. Uning rivojlanishim ta'minlash maqsadida investitsion siyosatniig huquqiy asoslari ham barpo e'ilgan. Ularaing mavjudligi so'nggi yillarda tarmoqqa ma'lum miqdorda investitsiyalar sarflanishini ta'minlamoqda.

Kelajakda qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini talab darajasida barpo etish, mehnat resurslarining bilimlarini, malakalarini, tajribalarini oshirish uchun investitsiyalar sarflashni izchil davom ettirish lozim. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun, avvalo, davlat hamda mahalliy byudjetlardan ajratilayotgan investitsion mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirisliga erishish kerak. Shu bilan birga tarmoq, korxonalar iqtisodiyotini yuksaltirish orqali ularning faoliyatini kelajakda investitsiyalash uchun ko'proq mablag' ajratilishini ta'minlashga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bunda korxonalar ixtiyoridagi fondlarning mablag'laridan ham oqilonan foydalanishga harakat qilish kerak. Chunki ular investitsiyalar ko'lamini kengaytirishning real manbalari hisobanadi.

Qishloq xo'jaligiga talabni qondiradigan darajada investitsiyalar sarflanishini kelajakda ishonchli ta'minlash uchun investitsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik hamda jismoniy shaxslar ko'lamini kengaytirish talab etiladi. Ular respublikamiz yoki chet davlatlardan bo'lishi mumkin, ularni qishloq xo'jaligidagi investitsion jarayonga faolroq jalb etishga alohida e'tibor berish lozim.

Ma'lumki, jahon andozalariga javob beradigan va dunyo bozorlarida xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shartsharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda esa erkin iqtisodiy mintaqalar yetakchi o'ringa ega. Zero, bunday erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkil etish innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, eksport faoliyatini kengaytirish uchun qulay infratuzilma yaratish, transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishda ham ayni muddaodir. Shu boisdan bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlari, xususan Xitoy, AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda hududiy-geografik va boshqa qulayliklardan kelib chiqqan holda, erkin iqtisodiy mintaqaaarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birgina o'tgan asr 90-yillarining o'rtalarida dunyoda 1200 ga yaqin erkin iqtisodiy mintaqalarning har xil turlari faoliyat ko'rsatgan. Chunki bunday erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkil etishdan asosiy maqsad - mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el investitsiyasini, istiqbolli texnologiya hamda boshqaruv tajribasini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishdan iboratdir.

Investitsiyalarni amalga oshirishda banklarning ko'lамини kengaytirishga erishish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun zarur barcha huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan tuziladigan turli birlashmalar, jumladan agrofinnalar, kredit uyushmalari va boshqa shu kabilarning ham imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, bir nechta fermer xo'jaliklari birikib agrofirma tashkil etishi ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligini investitsiyalash jarayoniga turli xildagi banklarning, investitsiya, lizing va sug'urta kompaniyalarining, ishlab chiqarish konsernlarining, savdo va boshqa korxona hamda tashkilotlarning mablag'larini jalb etish lozim. Buning uchun ularga davlat hamda qishloq xo'jaligi tomonidan ma'lum darajada iqtisodiy imtiyozlar yaratilishi zarur. Shundagina ular o'z mablag'larini qishloq xo'jaligiga yo'naltirishi mumkin.

Qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- qishloq hududlarida investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish - avtomobil va temir yo'llari, uzluksiz elektr, gaz va suv ta'minoti, sifatli aloqa xizmati, banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa shu kabilar faoliyatini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

- qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning biznes ko'nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishslash tajribasini shakllantirish va huquqiy bilimlarini oshirish - hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;

- qishloq xo'jaligida investitsiya taldiflari va loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini sifatli ishlab chiqishga e'tibor berish - tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqalar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimlikiar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

- xorijiy investorlarni mamlakatimiz qishloq xo'jaligi to'g'risida bat afsil ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkil etish - xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes taldiflar bazasi, turli buldetlar, hududiy matbuot nashrлari, xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risidagi hamda yaratilgan imkoniyatlar haqidagi ma'lumotlar) bilan ta'minlash, maxsus veb-portal tashkil etish, shuningdek, investitsiya faoliyatiga oid konferensiylar, seminarlar va respublika hududida hamda xorijiy mamlakatlarda taqdimotlar o'tkazish.

Barcha manbalardan shakllanayotgan investitsiya mablag'larini qishloq xo'jaligida quyidagilarga sarflash maqsadga muvofiqdir:

- foydalilanayotgan yerlarning unumдорligi yuksalishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasini bajarishga;

- yangi yerlarni kompleks o'zlashtirishga;
- tarmoqda fan va samarali texnologiyalarni rivojlantirishga;
- irrigatsiya, melioratsiya inshootlarini qurishga, mavjudlarining ishga yaroqliliginini ta'minlash maqsadida ta'mirlashga;
- sug'orishning zamonaviy, tejamkor usullarini joriy etishga;
- yangi, samarali traktorlarni, mashinalarni, kombaynlarni sotish olish va mavjudlarini ta'mirlashga;

- ishlab chiqarish bino-inshootlarini qurishga, mavjudlarini ta'mirlashga;
- ko'p yillik daraxtzorlar, bog'zor, tokzorlar yaratishga;
- mahsuldar chorva hayvonlarini talab darajasida ko'paytirishga;
- tarmoqni barcha ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish, hujayolashtirishni hamda elektrlashtirishni ta'minlashga;
- mehnat resurslarining bilimini, malakasini yuksaltirishga;
- ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va boshqa shu kabilarga.

Barcha yo'naliшlar bo'yicha qishloq xo'jaligiga sarflanayotgan investitsiyalarning maqsadga muvofiq yo'naltirilishi ta'minlanishi kerak. Shunda yalpi investitsiyalar sof investitsiyaga aylanadi. Ya'ni foydalanish mumkin bo'lган ishlab chiqarish resurslari ko'payadi. Uardan oqilona, samarali foydalanish natijasida qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti, yalpi va sof daromadi ortadi. Bu investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlaydi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Investitsiya (kapital qo'yilma) tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini bayon eting.
2. Investitsiyaning kapital qo'yilmadan qanday farqi bor?
3. Ichki va tashqi investitsiyalar va bu bo'yicha davlatning siyosati nimalardan iborat?
4. Qishloq xo'jaligida investitsiya faolligini oshirish omillarini bayon eting.
5. Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar)dan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi qanday ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi?
6. Kapital qo'yilmalarni loyihalashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Investitsiyalarni qishloq xo'jaligiga jalb etish manbalari va surʼanish yo'naliшlari qanday?
8. Qishloq xo'jaligida innovatsiya va innovatsion texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
9. Irrigatsiya va melioratsiyaga, yangi texnika, samarali texnologiya, chorvachilik va boshqa sohalarga sarflanayotgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi qanday ko'rsatkichlar miqali aniqlanadi?
10. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning qanday yo'llari mavjud?

## **7- BOB. QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING UMUMIY MASALALARI. RENTABELLIK VA UNI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

### **7.1. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi, uning ko'rsatkichlari va mezoni.**

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida har xil qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiradilar, xizmatlarni bajaradilar. Ular dastavval natural shaklida hisobga olinadi, keyin ular sotiladi va bir qismi ichki iste'mol uchun ishlatalidi. Bunda mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlar bajarish jarayonining samaradorligi tovar-pul munosabatlari yordamida aniqlanadi.

Iqtisodiy fanlarda «samara» va «iqtisodiy samaradorlik» tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxona va ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin. «Iqtisodiy samaradorlik» tushunchasi «samara» tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlik deganda ma'lum davrda amalga oshirilgan tadbirlar bilan bog'liq bolgan xarajatlar ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasi qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan hisoblanadi va aksincha. Samara esa biror tadbirni amalga oshirish orqali erishilgan natijani ifodalaydi. Masalan, minerai o'g'itlardan foydalanish natijasida hosildorlikning oshishi va boshqalar.

Qishloq xo'jalik korxonalarida yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish va sifatini yaxshilash, xarajatlarni tejash iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirishga olib keladi. Bu hol, o'z navbatida, korxona ishchi-xizmatchilarini moddiy rag'batlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, ularning ish haqlarini oshirish hamda mukofotlash uchun, mahalliy va davlat byudjetiga to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish va nihoyat, korxona ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Natijada ishlab chiqarishga yangi texnikalar, samarali texnologiyalarni joriy etish ta'minlanadi. Bu hol mehnatning mexanizatsiyalashganlik darajasini yuksaltirib, unumdorligi oshishini ta'minlaydi.

Demak, iqtisodiy samaradorlikning o'sishi korxonalarining ham, davlatning ham iqtisodiyoti yuksalishi negizidir. Shuning uchun bu masalaga respublikamizda alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatining samaradorlogini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ularga kredit olishda, soliqlar to'lashda imtiyozlar yaratilmoqda, chet el investitsiyalarini jalb etishda yordam ko'rsatilmoqda. Bularning barchasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlashga qaratilgandir. Buning uchun korxonalar o'z faoliyatlarini bilan bog'liq bo'lgan huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazishlari zarur.

## 7.2. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari.

Qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik darajasiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Ularning asosiyлари quyidagilar:

- qishloq xo'jaligi yerlarining holati, ulardan foydalanish darajasi;
- xo'jaliklarning ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi;
- mehnat resurslaridan foydalanishning holati va mehnat unumidorligi darajasi;
- ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi va chorva hayvonlarining mahsuldarligi;
- baholar, soliqlar va to'lovlar darajasi;
- suv resurslaridan foydalanishning holati;
- qishloq xo'jaligi korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik holati;
- xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdarlik darajasi;
- davlat, mahalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag' va boshqalar.

Qishloq xo'jaligining daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko'paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o'z vaqtida, sifatli tatbiq etulishini obektiv ravishda taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

- 1) Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotinini ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

- ekinlarning serhosil navlarini, chorva hayvonlarining esa sermahsul zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minlash;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv ta'minoti tadbirlarini rivojlantirish, sug'orishning tejamkor usullarini joriy etish;
- chorva hayvonlarini sifatlari ozuqa bilan ta'minlash va oziqlantirishni talab darajasida araalgaga oshirish;
- ekologiyani e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy va minerai o'g'itlardan hamda kimyoiy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash;
- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

2) Qishloq xo'jaligida moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejalishini ta'minlovchi tadbirlar:

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashldi etishni jadallashtirish;
- yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijasida ish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va elektrlashtirish;
- ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini rivojlantirish;
- davr hamda moliyaviy faoliyat xarajatlarini tejash va boshqalar.

3) Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qishloq xo'jaligiga joriy etishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:

- sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'rta sidagi mutanosiblikni ta'minlash, sotish jarayonini erkinlashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;
- investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;
- qishloq xo'jaligida infratuzilma sohalarini rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni qo'llab-quvvatlash va hokazo.

Bu tadbirlar, avvalo yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko'paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mahsulotlar miqdori ekin maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirishi mumkin. Ekin maydonlarini ko'paytirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish talab

etiladi, lekin buning imkoniyatlari cheklangan. Shuning uchun asosiy e'tiborni ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun ekinlarning yangi, serhosil, tezpishar navlarini yaratish, irrigatsiya va melioratsiya inshootlari holatini yaxshilash, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida tuproqning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda ekinlarni almashlab ekishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alovida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy xarajatlarni tejab amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida mehnat xarajatlari kamayishiga erishish mumkin. Bu jarayon ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlantirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Chorva hayvonlari mahsuldarligini ham oshirish lozim, buning uchun naslchilik ishlarini rivojlantirish zarur. Chorva hayvonlarini to'yimli ozuqa bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha xarajatlarni tejash bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur.

Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda iqtisodchi kandrlarning ham o'rni bor. Eng avvalo, ular yil boshida korxonaning biznes rejasini mukammal tuzishlari va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalangan holda korxonaning xo'jalik faoliyatini tahlil qilib borishi lozim. Amalga oshirilgan tahlil natijasida korxonada samaradorlikni oshirish borasida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va uni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqib, korxona rahbariyatiga taqdim etishi lozim.

Yalpi foydaning ko'payishi mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tejalishini ham taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish lozim. Yuqorida ta'kidlangan tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

### **7.3. Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash uslublari. Rentabellikni oshirish omillari va imkoniyatlardan oqilona foydalanish.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar,

xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya hisobida xarajatlarni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishga, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subektning moliyaviy hisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniqlashga yo‘naltirilgandir.

Xo‘jalik yurituvchi subekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

1) mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

Yaf=SST-IT,

bunda,

Yaf — yalpi foyda;

SST — sotishdan olingan sof tushum;

IT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

2) asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut, va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

AFF = Yaf-DX+BD-BZ,

bunda,

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX — davr xarajatlari;

BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ — asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar;

3) xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

UF=AFF+MD-MX,

bunda,

UF — umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari;

4) soliq to‘langungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF=UF+FP-FZ,$$

bunda,

STF — soliq to‘langungacha olingen foyda;

FP — favqulodda vaziyatlardan olingen foyda;

FZ — favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

5) yilning sof foydasi, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subekt ixtiyorida qoladi, o‘zida foydadan to‘lanadigan soliqni va minus qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langunga qadar olingen foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

bunda,

SF — sof foyda;

DS — foydadan to‘lanadigan soliq;

BS — boshqa soliqlar va to‘lovlarni.

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda mutlaq ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko‘rsatkichiardan ham foydalaniladi. Ulardan biri rentabelluk darajasidir.

Rentabellik darajasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga baho berishda qollaniiadigan asosiy mezon ko‘rsatkich hisoblanadi. Rentabellik darajasi qilingan xarajatlarning samaradorligini tavsiflaydi, ya’ni qilingan har bir birlik xarajat evaziga qancha sof foyda olingenligini ko‘rsatadi. Uning darajasini aniqlash uchun sof foydani tannarxga kiritilga xarajatlarga taqsimlab, natija 100 ga ko‘paytiriladi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Rd = \frac{SF}{IT} * 100$$

Bunda: Rd - rentabellik darajasi, foizda.

Bu ko‘rsatkich yordamida korxona, tarmoq miqyosida yoki alohida mahsulotlar tuilari bo‘yicha xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichlar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bu iqtisodiy samaradorlik darajasi ham shunchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi. Masalan, rentabellik darajasi 20 foiz bo‘lsa, bu qilingan har bir so‘m xarajat evaziga korxonada 20 tiyindan sof foyda olingenligini anglatadi.

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga baho berishda rentabellik meyori ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun sof foyda summasi xo‘jalikda foydalanilayotgan barcha ishlab chiqarish fondlari umumiy qiymatiga

taqsimlanadi va natija 100 ga ko‘paytiriladi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Rm = \frac{SF}{OFq + AFq} * 100$$

Bunda: Rm - rentabellik meyori, foizda;

OFq - aylanma fondlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘mda;

AFq - asosiy fondarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘mda;

Bu ko‘rsatkicli korxonada sarflangan barcha ishlab chiqarish fondlarining bir birligi evaziga qancha foyda olinganligini anglatadi.

### Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi qaysi elementlardan tarkib topgan?
2. Foya iqtisodiy kategoriya sifatida hamda uning korxonaning tijorat va ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyati.
3. Foydani shakllantirish manbalari.
4. Foydani taqsimlash va uni ko‘paytirish yo‘llari.
5. Rentabellikning iqtisodiy mohiyati.
6. Rentabellik ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash uslubiyati.

## 8-BOB. BUXGALTERIYA HISOBINING MOHIYATI, PREDMETI VA METODI

### 8.1. Xo‘jalik xisobi to‘g‘risida umumiy tushuncha va unga qo‘yilgan talablar. Xo‘jalik hisobining turlar: tezkor (operativ), statistik va buxgalteriya hisobi.

Buxgalteriya xisobi - iktisodiy fanlardan biri bo‘lib, uning nazariyasi buxgalteriya xisobini tashkil etish texnikasi, predmeti va usulini o‘rgatadi. Bu fan makro iqtisodiyot tarmoqlari singari, qishloq xo‘jaligida buxgalteriya xisobini yuritish usullarini o‘rganib, umumlashtirib, uning ilg‘or usullarini joriy etish bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga bu fan boshqa mamlakatlar buxgalteriya xisobini yuritish usullarining ilg‘or shakllarini makroiqtisodiyot tarmoklariga joriy etish yo‘llarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etishga tavsiya etadi. Kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida ham hisob turlariiga talab mavjud bo‘lgan. Chunki xo‘jalik hisobi insoniyat uchun zarur bo‘lgan iste’mol buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqalarini ishlab chiqarish, taqsimlashni hisobga olish demakdir. Har bir

jamiyatning ham asosiy maqsadi zaruriy buyumlarni ishlab chiqarish, ayrboshlash, taqsimlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun kishilar ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarни kuzatish, jamiyatda mavjud bo'lgan mehnat buyumlari, mehnat qurollarini, hamda mehnat jarayonlarini hisobga olib borish zarur bo'ladi. Xuddi shu vazifani esa xo'jalik hisobi bajaradi. Tovar ayrboshlash davrida xo'jalik hisobi ahamiyati ko'paydi, chunki tovar ayrboshlash uchun umumiy ekvivalent talab etiladi. Umumiyligi ekvivalentga esa faqat hisob-kitobni tahlil etish, to'g'ri yurgizish orqaligina ega bo'lish mumkin, ya'ni almashtiriladigan tovari ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat miqdorini aniqlash kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini o'sishi natijasida xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish murakkablashgan va moddiy ishlab chiqarish asosida vujudga kelgan xo'jalik hisobi ahamiyati oshgan, jamiyat hamma sohalarida mulklarni hisobga olish borasidagi, iqtisodiy faoliyatini boshqarishdagi roli oshib borgan. Iqtisodiy faoliyatini boshqarish xo'jalik hisobi orqali olingan ma'lumotlar asosida olib boriladi va tegishli qaror va qonun hamda qoidalar qabul qilinib, shular asosida butun makroiqtisodiyotdan tortib xo'jalik yurituvchi sub'ektgacha faoliyati boshqariladi.

Xo'jalik hisobi asosan qo'yidagi funktsiyalarni bajaradi:

- a) xo'jalik hisobi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish;
- b) kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;
- v) xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish;
- g) maxsus aks hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish va ularga ta'sir etish.

Xo'jalik hisobini yuqorida funktsiyalari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va umuman butun iakroiqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy jihatdan asoslangan joriy va kelgusidagi reja ko'rsatkichlarini tuzishda, ular bajarilishini ustidan nazorat olib borishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotini boshqarishda xo'jalik hisobi va nazoratning roli kattadir. Shu bilan birga qishloq xo'jalik korxonalarida bo'ladigan xo'jalik jarayonini hisobga olishda xo'jalik hisobi (ucheti)dan foydalaniлади.

Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatida ma'lum bir jarayonni amalgga oshirish uchun insonlar (ishlovchilar) tomonidan amalgga oshiriladigan jarayonlar **xo'jalik operatsiyalari** deyiladi. Xo'jalik operatsiyalarining yig'indisi **xo'jalik jarayoni** deyiladi. Xo'jalik jarayonini son jihatdan aks ettirib, sifat jihatdan tavsifnoma berishga **xo'jalik hisobi (ucheti)** deyiladi. Xo'jalik hisobi (ucheti) quyidagilardan iborat:

1. Tezkor (Operativ) hisob.
2. Statistika hisobi.
3. Buxgalteriya hisobi.

Tezkor (Operativ) hisob xo'jalik jarayonlari haqida tezkor ma'lumot berib, bu ma'lumotlar ma'lum bir vaqtarda (mavsumlarda) olinadi. Bu ma'lumotlar telefon, faks va boshqa vositalar orqali ham berilishi mumkin, shuning uchun «texnika» so'zi qo'shilgan. Ushbu ma'lumotlar aniq va to'g'ri bo'lishi lozim, lekin bularni tasdiqlovchi ma'lumotlar o'sha vaqt talab qilinmaydi.

Statistika hisobi ommaviy xarakrediterdagи xo'jalik jarayonlarini son jihatidan o'rGANADI. U iqtisodiyot, madaniyat va boshqa sohalar holati haqidagi axborotlarni tahlil qilish va istiqbolni belgilash uchun to'playdi.

Buxgalteriya hisobi turli xil o'lchov birliklari va hujjatlar asosida qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik faoliyatini yoppasiga, uzlusiz va bir biriga bog'langan holda aks ettiradi.

Xo'jalik hisobi (ucheti)da quyidagi o'lchov birliklari qo'llaniladi :

1.Natura (fizik ) o'lchov birliklari. Bularga kg, gr, s, t, m, m<sup>2</sup>, m<sup>3</sup>, kvt/soat, t/km, s/ga va boshqa o'lchov birliklari kiradi. Bu o'lchov birliklari asosida mahsulot, ish va xizmat, materiallar va h.k.larni natura miqdori o'lchanadi.

2.Mehnat o'lchov birliklari. Bularga kishi-soat, kishi-kuni kiradi. Bu o'lchov birliklari asosida sarflangan vaqt va mehnat aniqlanadi.

3.Pul o'lchov birliklari. Mamlakatimizda pul o'lchov birligiga milliy valyuta birligimiz – so'm va tiyin kiradi. Ayrim holatlarda chet el valyuta birliklari ham pul o'lchov birligi sifatida foydalilanadi.

Xo'jalik hisobi(ucheti)ni tashkil etuvchi hisoblarning birligi :

1.Ular uchalasi bir martalikda xo'jalik hisobi (ucheti)ni tashkil etishligi.

2.Ular uchalasi rahbar organlarining birligi va yuritilish qoidalarining bir-biriga mosligi.

Mamalakatimizda hisobga uslubiy rahbarlikni Moliya vazirligi, bevosita rahbarlikni tarmoq vazirliklari olib boradi. «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasiga asosan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga yuklatiladi. Shu qonunning 11-moddasi “Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish”ga asosan qishloq xo‘jalik korxonalarida “Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni buxgalteriya hisobi sub’ektining rahbari amalga oshiradi.

Buxgalteriya hisobi sub’ektining rahbari quyidagi huquqlarga ega:  
buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari boshchiligidagi buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalter xizmatidan foydalanish;

buxgalteriya hisobini yuritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga (auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari va ustavida buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar) shartnoma asosida yuklash;

buxgalteriya hisobini mustaqil yuritish.

Buxgalteriya hisobi sub’ektining rahbari:

hisob siyosati, ichki hisob va hisobot tizimi ishlab chiqilishini;  
ichki nazorat tartibini;

buxgalteriya hisobi to‘liq va ishonchli yuritilishini;

hisob hujjatlarining but saqlanishini;

qonunchilikda belgilangan tartibda moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va e’lon qilinishini;

soliq hisobotining va boshqa moliyaviy hujjatlarning tayyorlanishini;

hisob-kitoblar o‘z vaqtida amalga oshirilishini;

ushbu Qonun 12-moddasining talablariga rioya etilishini ta’minlashi shart”. Shunday qilib, Qonunning ushbu moddasiga asosan qishloq xo‘jalik korxonalarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni qishloq xo‘jalik korxonalarini rahbari amalga oshiradi.

Buxgalteriya hisobini boshqa hisob turlaridan farqi (xususiyatlari) :

1.Xo‘jalik jarayonini yoppasiga, uzluksiz va bir-biriga bog‘lik holda hisobga olib borishligi.

2.Faqat hujjatlar asosida ish yuritishi.

3.Boshqa o‘lchov birliklari bilan birga doimo pul o‘lchov birligini qo‘llanilashi.

Shunday qilib, xo'jalik hisobi (ucheti) qishloq xo'jalik korxonalari faoliyati to'g'risidagi axborotlarni, qishloq xo'jalik korxonalarini boshqarish va tegishli qarorlar qabul qilish qishloq xo'jalik korxonalari boshqaruchilarga va boshqa axborotdan foydalanuvchilarga vaqtida yetkazib beradi.

## **8.2. Buxgalteriya hisobi fanining predmeti va metodi. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari**

Xar bir fanning, shu jumladan buxgalteriya hisobining ham o'r ganaligan ob'ektlari mavjud. Ana shu ob'ektlar buxgalteriya hisobini predmetini tashkil etadi. Mamlakatimizda 1996-yil 30 avgustda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar hisobga olinib, 2016 yil 13 aprelda yangi tahriri qabul qilindi va 2014 yil 14 apreldan kuchga kiritildi. Ushbu qonunning 7 – moddasiga asosan "Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foya, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir". Shunday qilib, buxgalteriya hisobining ob'ektlari shartli ravishda quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jalik korxonalari aktivlari. Bular qishloq xo'jalik korxonalariga tegishli bo'lib, asosiy qismi moddiy ko'rinishga ega. Bularga binolar, inshootlar, transport vositalari, materiallar, mahsulotlar, xarajatlar, pul mablag'lari, debetorlik qarzlar va h.k. kiradi. Aktivlar buxgalteriya hisobidan ikkiga bo'linadi:

a) Uzoq mudatli aktivlar. Qishloq xo'jalik korxonalari oborotida bir yilda ortiq ishtirok etadigan, qiymati 50 minimal bazaviy hisoblash miqdoridan ortiq bo'lgan aktivlar kiradi. Bularga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzok muddatli moliyaviy qo'yilmalar va h.k. uzok muddatli aktivlarga kiradi.

b) Aylamma aktivlar. Qishloq xo'jalik korxonalari oborotida bir marta yoki bir yilgacha muddatda ishtirok etadi. Bularga materiallar, tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, debetorlik qarzlar, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, tagallanmagan ishlab chiqarish va h.k. kiradi.

2.Qishloq xo'jalik korxonalari kapitali. Xususiy kapital, maqsadli moliyalashtirishlar, kelgusi davr to'lovlari va xarajatlari uchun rezervlar qishloq xo'jalik korxonalari kapitaliga kiradi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 19- moddasiga asosan "Xususiy kapital ustav fondidan (ustav kapitalidan), qo'shilgan, zaxira kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta'sischilar (ishtirokchilar) o'rtaсидаги kelishuvga ko'ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Qo'shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chet el valyutasida ifodalangan ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo'ladigan inflyatsiya zaxiralarini, qonunchilikda va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarini, shuningdek tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganligini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilishi mumkin".

3. Qishloq xo'jalik korxonalari majburiyatları. Bu qishloq xo'jalik korxonalarining moliya organlari, bank muasasalari va boshqa qishloq xo'jalik korxonalari hamda shaxslardan bo'lgan qarzidi. Bular ham muddatiga qarab bo'linadi:

a) Uzoq muddatli majburiyatlar. To'lov muddati bir yildan ortiq bo'lgan majburiyatlar. Bularga uzoq muddatli bank kreditlari, ijara majburiyatları, uzoq muddatli qarzlar kiradi.

b) Qisqa muddatli majburiyatlar. To'lov muddati bir yilgacha bo'lgan majburiyatlar. Bo'lar qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlar, mehnat haqi bo'yicha qarzlar, soliqdan qarzlar, ta'minotchilardan qarzlar va h.k.kiradi.

4. Xo'jalik jarayoni – xo'jalik operatsiyalarining yig'indisi. Xo'jalik jarayoni bo'linadi:

a) Ta'minot jarayoni. Bu jarayonda qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalari aktivlari, shu jumladan asosiy va aylanma aktivlar sotib olinadi.

b) Ishlab chiqarish jarayoni. Bu jarayonda xodim kuchi yordamida qishloq xo'jalik korxonalari aktivlaridan foydalanib mahsulot ishlab chiqariladi yoki ish va xizmatlar bajariladi

v) Sotish jarayoni. Bu jarayonda mahsulot (ish,xizmat) sotiladi va pulga aylantirilib kelgusi jarayonni boshlash uchun sharoit yaratiladi.

Shunday qilib, **buxgalteriya hisobining predmeti** qishloq xo‘jalik korxonalari aktivlari, kapitali va majburiyatlarini xo‘jalik jarayonidagi doiraviy aylanishiga aytildi.

Xar bir o‘z predmetini o‘rganish uchun, shu fan uchun xos bo‘lgan usullardan foydalanadi. Quyidagilar buxgalteriya hisobi fanining usullari (metodi)ning elementlari hisoblanadi:

1. Hujjatlashtirish – xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirish jarayoni.

2. Inventarizatsiya – qishloq xo‘jalik korxonalari aktivlarini haqiqatda mavjudligini o‘lchab, sanab, tortib ko‘rib hisob ma’lumotlari bilan taqqoslash jarayoniga aytildi. Shuningdek, qishloq xo‘jalik korxonalari majburiyatlar ham hujjatlar asosida inventarizatsiya qilinadi. Inventarizatsiya buxgalteriya hisobining milliy standarti № 19 «Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish»ga asosan amalga oshiriladi.

3. Buxgalteriya schotlari – qishloq xo‘jalik korxonalari aktivlari, kapitali, majburiyatlar va xo‘jalik jarayonlarini alohida harakati va holatini pul o‘lchov birligida hisobga olish va nazorat qilishdir.

4. Ikki yoqlama yozuv – xo‘jalik operatsiyalarini bir schotning debetida, ikkinchi bir schotning kreditida aks ettirishdir.

5. Baholash – qishloq xo‘jalik korxonalari aktivlarini, kapitali va majburiyatlar qiymat o‘lchovida bahosini aniqlash usuli. Qiymatning puldag‘ ifodasi baho deyiladi. Qishloq xo‘jalik korxonalari aktivlari va majburiyatlarini baholash «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunning 12-moddasiga asosan amalga oshiriladi.

6. Kalkulyatsiya – qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)ning bir birlik tannarxini aniqlash hisob–kitobi aks ettirilgan jadval. Mahsulot (ish, xizmat) bir – birligini tannarxini aniqlash jarayoni kalkulyatsiya qilish (tannarxini aniqlash) deyiladi.

7. Buxgalteriya balansi - qishloq xo‘jalik korxonalari aktivlari, kapitali va majburiyatlarini pul o‘lchov birligida, ma’lum bir kunga guruhlab aks ettirishga aytildi. Balans jadval ko‘rinishida bo‘lib, odatda oyning 1 – kuniga tuziladi.

8. Buxgalteriya hisoboti – qishloq xo‘jalik korxonalarining ma’lum bir davrdagi faoliyati yakuniy ko‘rsatkichlarni aks ettiruvchi jadvallar yig‘indisiga aytildi. Buxgalteriya hisoboti - moliyaviy va boshqaruv hisobotiga bo‘linadi. Moliyaviy hisobot shakllari, hisobot davri, takdim etish va e’lon qilish qishloq xo‘jalik korxonalarida ham «Buxgalteriya

hisobi to'g'risida (yangi tahriri)»gi qonunning 22,23,24,25,26,27-moddalari asosida tartibga solinadi.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobining metodi (usuli) yuqorida ko'rib o'tilgan 8 elementdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi asosan qo'yidagi funksiyalarini bajaradi:

a) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish;

b) kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;

v) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya - xo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish;

g) buxgalteriya hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish va ularga ta'sir etish.

Buxgalteriya hisobini yuqoridagi funksiyalari ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va umuman butun makroiqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy jihatdan asoslangan joriy va kelgusidagi reja ko'rsatkichlarini tuzishda, ular bajarilishini ustidan nazorat olib borishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Buxgalteriya hisobi oldida 3 ta asosiy vazifa turadi:

1. Reja bajarilish ustidan nazorat olib borish. Korxona buxgalteriya hisobida bu vazifa qo'yidagicha aniqlashtiriladi: 1) Maxsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish reja bajarilishi, rejada belgilangan mahsulotlar nomenklaturasini, turini, sifatini kuzatish, nazorat qilish, reja bajarilishi o'sishi omillarini aniqlash; 2) Maxsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish, tannarxni tobora kamaytirish omillarini topish; 3) Korxonalar rentabellik darajalari bajarilishini nazorat qilish. 4) Biznes-moliya rejası bajarilishini nazorat qilish.

2. Korxona mulkini muhofoza qilish. Korxona qaysi mulkchilik shakliga asoslanganidan qat'iy nazar buxgalteriya hisobi shu korxona mulkiga nisbatan tejamli munosabatda bo'lishni, uni har xil nobudgarchiliklardan extiet qilishni, ular harakatini uzlusiz nazorat qilib, ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashi lozim.

3. Korxonalarda buxgalteriya hisobini joriy etib, uni mustahkamlash va iqtisodiy tejamkorlikni joriy etish, hamda takomillashtirib borish.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri)»gi qonunning 6-moddasiga asosan buxgalteriya hisobi sub'ektlari quyidagilar kiradi:

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston

Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan shu'ba korxonalari, vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi sub'ektlaridir.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari qonunchilikda belgilangan tartibda hisob yuritadi hamda hisobot taqdim etadi.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri)»gi qonunning 7-moddasiga asosan buxgalteriya hisobi ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralalar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir.

Buxgalteriya hisobi ob'ektlari sintetik va analistik hisoblarda yuritiladi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan quyidagilar buxgalteriya hisobi va hisobotining tamoyillari hisoblanadi:

- buxgalteriya hisobini ikkiyoqlamali yozuv usulida yuritish;
- buxgalteriya hisobining uzluksizligi;
- aktiv va passiv operatsiyalarini pulda baholash;
- axborotlarning ishonchliligi;
- hisoblash;
- ehtiyyotkorlik;
- shakldan iqtisodiy mazmunning ustuvorligi;
- qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining davomiyligini tamoyili;
- hisobot ko'rsatkichlarini tahhoslab bo'lishligi;
- moliyaviy hisobotning xolisligi (betarafligi);
- o'rinnilik (joyidaligi);
- hisobot davri daromadi va xarajatlarining muvofiqligi;
- aktiv va majburiyatlarni haqiqiy baholash.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida “Uzluksizlik, ishonchlilik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplaridir” deb belgilab berilgan.

### **8.3. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahriri)” Qonuni va uning ahamiyati**

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 apreldan kuchga kirgan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahriri)»gi qonuni zamonaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblangan ishonchli va mukammal iqtisodiy axborot va hisobotlar bilan ta‘minlashning huquqiy asosiga aylandi.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi rolini tubdan oshirish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida mamlakatimizda barqaror o‘sish sur’atlari ta‘minlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 apreldan kuchga kirgan yangi tahrirdagi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni zamonaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblangan ishonchli va mukammal iqtisodiy axborot va hisobotlar bilan ta‘minlashning huquqiy asosiga aylandi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan strategiya asosida yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalar barpo etilib, zamonaviy boshqaruv usullari joriy etilmoqda. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy boshqaruv va zamonaviy menejmentning yangi mexanizmlarini joriy etish asosida boshqaruvni yanada takomillashtirish vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish buxgalteriya hisobining mukammal yuritishiga va ishonchli moliyaviy hisobotlarga tayanadi.

1996 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni o‘z navbatida buxgalteriya hisobini sifatli va ishonchli tashkil etish bo‘yicha xalqaro talablarga javob berishi bilan bir qatorda, korxonalarning moliyaviy hisobotlariga bo‘lgan ishonchning ortishiga, bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini rivojlantirishga huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘tgan davrda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida barcha sohalar singari hisob-kitob tizimida ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi, soha bilan bog‘liq qator yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, mavjudlari takomillashtirildi. Bu «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunni bugungi kun talablariga moslashtirishni taqozo etdi.

Yuqoridagilar va sohada to‘plangan milliy va xorijiy tajriba buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish va hisobotlarni tuzish

borasidagi qonunchilikni yanada mukammallashtirishni ilgari surdi. Shulardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni ishlab chiqilib, qabul qilindi.

32 moddadan iborat qonunda buxgalteriya hisobining mazmuni, asosiy maqsadi va vazifalari iqtisodiyotdagi o'zgarishlar hamda huquqni qo'llash amaliyotiga qo'yilayotgan yangi talablardan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobot tuzishning xalqaro standartlariga muvofiq belgilandi.

2015 yil 24 apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va e'lon qilish belgilanganligi munosabati bilan ham milliy, ham xalqaro standartlarni qamrab oluvchi buxgalteriya hisobining standartlari qonun darajasida o'matildi.

Avvalgi qonunchilikda buxgalteriya xizmati rahbari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan aniq me'yordarning mavjud bo'limganligi bois, qonunga buxgalteriya xizmati rahbari maqomini va unga qo'yiladigan professional talablarni aniqlovchi yangi me'yorlar kiritildi. Mazkur qoidalarda majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya xizmati rahbariga ma'lumoti va ish stoji, shuningdek, malaka darajasini oshirish bo'yicha yangi talablar belgilandi.

Qonunga buxgalteriya hisobi sub'ekti rahbari bilan buxgalteriya hisobi xizmati rahbari o'rtasidagi o'zaro nazoratni ta'minlashga qaratilgan yangi normalar kiritildi. Shu bilan birga, boshlang'ich hisob hujjatlari va buxgalteriya hisobi registrlari o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash, ichki hujjatlar aylanishini mukammallashtirish, shuningdek, zamon talablariga mos ravishda sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida qator yangi me'yorlar ham joy oldi.

Qonunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan buxgalteriya hisobi sohasida ichki nazoratning tashkil etilishi va amalga oshirilishi lozimligi belgilandi. Mazkur nazorat xo'jalik operatsiyalarining to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash, aktivlar butligini saqlash, talon-taroj qilish hollari va xatoliklarni joyida aniqlash hamda ularning oldini olish bo'yicha buxgalteriya hisobi sub'ekti xodimlari o'rtasida javobgarlik va vakolatlarni samarali taqsimlash imkoniyatini ta'minlaydi.

Buxgalteriya hisobi sub'ektlari moliyaviy hisobotni yilning har choragida taqdim etishi belgilangani holda, kichik korxonalar va

mikrofirmalar uchun buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdan iborat faqat yillik moliyaviy hisobot taqdim etish to‘g‘risidagi yangi norma kiritildi.

Islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarga asosan buxgalterlar o‘z manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi ixtiyorilik asosida tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti bo‘lgan jamoat birlashmalari tuzish huquqiga egaligi to‘g‘risidagi yangi me’yor bilan to‘ldirildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga qo‘srimcha qulayliklar yaratish maqsadida tegishli moddalarga o‘ndan ortiq yangi norma kiritilgan.

Qonunning yangi tahririda buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil qilish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish jarayonlarida yuzaga kelayotgan yangi huquqiy munosabatlar me’oriy tartibga solindi. Qonunga kiritilgan yangiliklar zamonaviy korporativ boshqaruvning takomillashuviga, xususan, uning iqtisodiy dastaklari va mexanizmlari mukammallashuviga ijobji ta’sir ko‘rsatadi.

Qonunda belgilangan yangi norma va qoidalar ijrosini ta’minalash maqsadida, buxgalteriya hisobining barcha sub’ektlarida xalqaro standartlar bo‘yicha moliyaviy hisobotni tuzish, boshlang‘ich hisob hujjatlari va buxgalteriya hisobi registrlariga qo‘yilayotgan qo‘srimcha talablar hamda ichki nazoratni tashkil qilish bo‘yicha tegishli choratadbirlarni amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunida ko‘zda tutilgan yangi me’yor va qoidalarning hayotga joriy etilishi buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish, uning ochiqligi, xo‘jalik operatsiyalarining to‘g‘ri amalga oshirilishi va ish sifatini ta’minalash, aktivlarni to‘liq saqlash, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishdagi xatoliklar va huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish va bartaraf qilishga xizmat qiladi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

- 1.Xo‘jalik hisobi (hisobi) haqida tushuncha.
- 2.Xo‘jalik hisobi (hisobi)da qo‘llaniladigan o‘lchov birliklari.
- 3.Xo‘jalik hisobi (hisobi)ning birligi va xususiyatlari.
- 4.Buxgalteriya hisobi ob’ektlari .
- 5.Qishloq xo‘jalik korxonalari aktivlari va ularni turkumlanishi .
- 6.Qishloq xo‘jalik korxonalari kapitali haqida tushuncha.

- 7.Majburiyatlarini turkumlanishi .
- 8.Buxgalteriya hisobi uslublari (metodlari).
- 9.Kalkulyatsiya va baholash uslublari (metodlari)
- 10.Buxgalteriya hisobini tashkil etish tamoyillari.
- 11.Buxgalteriya hisobini tartibga solish va uning me'yoriy bazasi.
- 12.Buxgalteriya hisobini uslubiy ta'minoti.
- 13.Buxgalteriya va uning boshqa bo'linmalar bilan aloqasi.
- 14.Buxgalteriya hisobining vazifalar.
- 15.Hisob siyosatining mohiyati va ahamiyati.
- 16.Qaysi hollarda xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisob siyosatini o'zgartirishi mumkin?
- 17.«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni mohiyati va ahamiyati.

## **9-BOB. BUXGALTERIYA BALANSI**

### **9.1. Balans to'g'risida tushuncha va uning ahamiyati.**

Buxgalteriya balansi sub'ektning resurslari (aktivlari), resurslarga bo'lgan extiyojlari (majburiyatlar) va mulk egasiga tegishli ulush (o'z) mablag'lari to'g'risidagi iqtisodiy axborot bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik sub'ektlarini boshqarish uchun, eng avvalo, ulardagi mablag'lar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Shu bilan birga ular, mablag'larning qanday turlariga ega va bu mablag'lar qanday manbalardan tashkil topganligini bilish kerak bo'ladi. Bunday ma'lumotlar umumlashtirilgan holda pul ko'rsatkichlarida ma'lum bir sanaga berilishi kerak. Mablag'lar tarkibi va qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini o'rganish uchun ularni iqtisodiy jihatdan guruhlash zarur. Mana shu ma'lumotlar buxgalteriya balansi yordamida olinadi.

«Balans» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "bis" - ikki, "lans" – tarozi pallasi, ya'ni tarozi ikki pallasi tengligi degan ma'ni bildiradi. Iktisodiy adabiyotlarda turli xil balanslar ishlatalidi. Masalan, yem-xashak balansi, mehnat resurslari balansi va h.k. Buxgalteriya hisobida esa buxgaletriya balansidan foydalilanadi, bu buxgalteriya hisobining usullari (metodlari)dan biri bo'lib, moliyaviy hisobotning l-shakli ham hisoblanadi.

**Buxgalteriya balansi** – qishloq xo'jalik korxonalari aktivlari, kapitali va majburiyatlarini ma'lum bir kunga pul o'lchov birligida guruhlash va holatini aks ettirish usulidir. Qishloq xo'jalik korxonalarida

buxgalteriya balansi oyning 1 kuniga tuziladi. Buxgalteriya balansi bir-biriga bog'langan ikki tomonlama jadval ko'rinishida bo'lib, uning chap tomoni «Aktiv», o'ng tomoni «Passiv» deyiladi. (Bu so'zlar ham lotin tilidagi "aktivus" va "passivus" so'zlaridan olingan).

«**Aktiv**» atamasi lotincha faoliyatli, amal qilish, mavjud bo'lish degan so'zlardan kelib chiqqan. Shuning uchun aktiv deganda mablag'lar qanday amal qilayotganligini, ishlayotganligini ko'rsatuvchi mablag'lar guruhlanishini tushunish kerak.

Aktivlar - bu oldingi amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari yoki oldin sodir bo'lgan voqealar natijasida qishloq xo'jalik korxonalariga kelib tushgan va ular kelajakda foyda keltiradigan iqtisodiy resurslardir.

Aktivlar uch xil xususiyatga ega bo'lishi kerak:

a) kelajakdagi iqtisodiy nafni o'zida mujassamlanishi, bevosita va bilvosita pul mablag'ları yoki ularning ekvivalentlarini ko'paytirish imkoniyati;

b) bu iqtisodiy naflarni nazorat qilish qobiliyatini mujassamlash;

v) oldingi bitimlar yoki boshqa voqealarning natijasi bo'lishi.

«**Passiv**» atamasi ham lotincha faolsiz, xolis (betaraf) turmoq, tushuntirish kabi so'zlarning ildizidan olingan. Tarixan bu atama dastlab faqat qarzga olingan mablag'larga nisbatan, ya'ni uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarga nisbatan ko'llanar edi. Bu bilan mulk egasi qarzga olingan mablag'larga bo'lgan munosabatda o'zboshimchalik (bemalollik)dan o'zini tutishi kerakligi ta'kidlangan edi. Keyinchalik «passiv» atamasi manbalarning boshqa moddalariga ham tarqatilgan bo'lib, faqat qishloq xo'jalik korxonalarini majburiyatlarini tavsiflabgina emas, mablag'lar turlarini qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini ham tavsiflash uchun ishlatiladigan bo'ddi.

Sub'ektning majburiyatları - bu oldingi amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarning natijasi yoki kelajakda o'zida mujassamlangan iqtisodiy nafni chiqib ketishi yoki yangi majburiyatlarni vujudga kelishi bilan yakunlanadi. Majburiyatlarni uch xil xususiyatga ega bo'lishi kerak:

a) aktivlarni chiqib ketishi yoki xizmat ko'rsatish yo'li bilan to'lashni vujudga keltiradigan mavjud doimiy majburiyatni o'zida mujassamlashtirishi;

b) sub'ekt uchun majburiyatning bajarilishi shartligi va qariyb muqarrarligi;

v) oldingi bitim yoki voqealar natijasi bo'lishi.

Buxgalteriya balansining xususiyati aktiv va passivlar pullik yakunlarining tenglididan iborat. Bu talab har qanday qishloq xo'jalik

korxonalarining buxgalteriya balansi uchun majburiyidir. Bu talab aktivda ham, passivda ham mablag‘larning bir xil hajmda, faqat har xil guruhlanishda ko‘rsatiladi, ya’ni aktivda - turlari bo‘yicha, passivda - manbalari bo‘yicha. Balansning nomi ham shunga asoslangan, chunki «balans» so‘zi tenglik, barobarlikni anglatadi. Shuning uchun ham balans aktivi va passivi «balans» so‘zi bilan belgilanadi.

## **9.2.Balansning tuzilishi va uning moddalarini mazmuni.**

O‘zbekiston Respublifikasi Adliya vaznrligi tomonidan 2003 yil 24 yanvarda ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdan 140-sonli buyrug‘i bilan moliyaviy hisobtlarning shakllari tasdiqlangan.

Balansning aktivi ham, passivi ham ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, balans bo‘limlari balans moddalariga bo‘linadi. Aktivning bo‘limlari:

I bo‘lim. Uzoq muddatli aktivlar;

II bo‘lim.Joriy aktivlar.

Passivning bo‘limlari:

I bo‘lim. O‘z mablag‘larining manbalari;

II bo‘lim. Majburiyatlar.

Balans ko‘rsatkichlaridan quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlab olish mumkin.

Aktivlar uzoq muddatli va oborot kapitallarning yig‘indisiga teng.

**Aktiv = Uzoq muddatli kapital + Oborot kapital.**

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning o‘z mablag‘lari aktivlaridan majburiyatlarini ayirganiga teng.

**O‘z mablag‘lari = Aktiv – Majburiyatlar.**

Balans aktivida quyidagi moddalar keltiriladi: «Asosiy vositalar», «Tugallanmagan ishlab chiqarish», «Tayyor mahsulot», «Hisob-kitob schoti» va boshqalar; passivda «Ustav kapitali (fondi)», «Hisob yilining taqsimlanmagan foydasi (koplanmagan zarari)», «Bank kreditlari», «Mol yetkazib beruvchilardan qarzlar» va boshqa moddalar.

Balans aktivida mazkur qishloq xo‘jalik korxonalari ixtiyoridagi aktivlar turi va ularning ma’lum davrda aylanishidagi joylanishi keltiriladi.

Masalan, aktivning birinchi moddasida dastlabki qiymatda berilgan «Nomoddiy aktivlar» qishloq xo‘jalik korxonalari ixtiyoridagi sezilarsiz aktivlarning qiymatini tavsiflaydi. Navbatdagi «Amortizatsiya» moddasi nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati qanchaga kamayganini ko‘rsatadi. «Qoldiq qiymat» moddasi nomoddiy aktivlarning

amortizatsiya summasini ayirib tashlangandan keyingi qolgan qiymatini aks ettiradi.

«Asosiy vositalar» moddasida qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyoridagi mehnat vositalarining dastlabki qiymatini yoki asosiy vositalar qayta baholangan bo'lsa, qayta tiklash qiymatini ko'rsatadi. Shuningdek, «Asosiy vositalar eskirish» moddasida asosiy vositalarga hisoblangan jami eskirish summasi, «Asosiy vositalarning qoldiq qiymati» moddasida asosiy vositalarning hali eskirish hisoblanmagan qiymatini va hokazolarni aks ettiradi. «Ishlab chiqarish zahiralar» moddasi qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyoridagi «Xom ashyo va materiallar», «Yordamchi materiallar», «Yoqilg'i» va ombordagi boshqa ishlab chiqarish zahiralarining qiymatini umumiy summada aks ettiradi. «Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasi qishloq xo'jalik korxonalarining har xil sexlarida tayyorlanishi hali oxirigacha yetkazilmagan buyumlarga qilingan sarflar summalarini aks ettiradi. «Tayyor mahsulot» - bu mazkur qishloq xo'jalik korxonalarida tayyorlangan va sotish uchun mo'ljallangan buyumlardir. «Kassa» va «Hisob-kitob schot» moddalarida muayyan davrda qishloq xo'jalik korxonalari ixtiyoridagi pul mablag'larining summasi ko'rsatiladi. «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar». «Boshqa debitorlik qarzları» va hokazo moddalarda esa boshqa xo'jalik yuritish sub'ektlarning ushbu qishloq xo'jalik korxonalariga undan sotib olingan mahsulot uchun («Xaridorlar») va boshqa operatsiyalar bo'yicha («Boshqa debitorlar») qarzları aks ettiriladi.

Ko'rinib turibdiki, aktiv moddalari juda aniq bo'lib, ularning mazmuni ko'p tushuntirishlarni talab qilmaydi. Passiv moddalari esa boshqachadir. Bu moddalardan ba'zilarining mohiyatini ularning qanday maqsadga tayinlanishiga qarab aniqlab olish qar doim oson bo'lavermaydi. Passivdagagi xar bir moddaning mazmunini aniq ko'z oddiga keltirish uchun passiv umuman nimani aks ettirishini yaxshi bilib olish lozim. Yuqorida aytilganidek, passiv aktivda ko'rsatilgan qishloq xo'jalik korxonalari mablag'larining manbaini aks ettiradi.

Passivning birinchi moddasi «Ustav kapitali (fondi)»dir. Uning summasi qishloq xo'jalik korxonalarining yaratilish paytida shakllantirilgan mablag'lar miqdoridan iborat. Bunda qishloq xo'jalik korxonalarining o'z mablag'larining umumiy summasi ko'rsatiladi va bu manbadan berilgan mablag'larning o'zi balans aktivining moddalarida aniq gavdalantirilgan bo'ladi.

«Taqsimlanmagan foya (qoplanmagan zarar)» moddasida (kredit saldosi) qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyat ko'rsatishining boshidan boshlab hisobot davrigacha bo'lgan vaqt ichida jamg'arilgan (kapitallashtirilgan) foya summasini aks ettiradi.

«Uzoq muddatli kreditlar» moddasida qishloq xo'jalik korxonalarining bankka bo'lgan uzoq muddatli qarzi aks ettiriladi. Bu moddada ko'rsatilgan summa qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan olingan uzoq muddatli bank kreditini aks ettirib, belgilangan davrda qaytarilishi kerak. Mazkur modda qishloq xo'jalik korxonalarini ixtiyoroda hozircha bo'lgan (qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan bankdan olingan) pul mablag'larining miqdorini ko'rsatadi, deb o'yash noto'g'ri bo'ladi, chunki bank tomonidan kredit ko'rinishida beriladigan pul mablag'lari odatda qishloq xo'jalik korxonalarishshg hisob-kitob schotiga yozib qo'yiladi yoki mol yetkazib beruvchilardan bo'lgan qarzni uzish uchun o'tkaziladi. Demak, bu mablag' balansning boshqa moddalarida aks ettiriladi.

«Kreditorlar» moddasining «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar» qatorida keltirilgan summa qishloq xo'jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilardan sotib-olingen xar xil moddiy boyliklari uchun bo'lgan qarzini ko'rsatadi.

«Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar» moddasida qishloq xo'jalik korxonalarining ishchilar va xizmatchilariga hisoblangan ish haqiga doir majburiyatlar aks ettiriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu modda qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan ishchi va xizmatchilarning bajargan ishlari uchun to'lanishi kerak bo'lgan ish haqi summasi qancha ekanligini ko'rsatadi.

«Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz» moddasi qishloq xo'jalik korxonalarining budget oddidagi undan undiriladigan har xil soliqlar va ajratmalarni to'lash bo'yicha majburiyatlarining summasini, ya'ni moliya tashkilotlariga bo'lgan qarzning miqdorini aks ettiradi. To'lanishi lozim bo'lgan summa aniqlanganidan keyin, qishloq xo'jalik korxonalarini o'z balansining passivida shu modda bo'yicha uning summasini ko'rsatadi.

Buxgalteriya balansi quyidagi belgilariga qarab tasniflanadi:

1. Tuzish vaqtiga qarab:
  - a) kirish balansi;
  - b) joriy (davriy) balans;
  - v) tugatish balansi;
  - g) ajralish balansi;
  - d) qo'shilish balansi;

j) sanatsiya balansi.

2.Tuzish manbalariga qarab:

a) inventar balanslari. Faqat inventar (ro'yxati) vositalari asosida tuziladi; ular qisqartirilgan variantda hisoblanadi. Bunday balanslar mavjud mulk asosida yangi qishloq xo'jalik korxonalarilar vujudga kelganda yoki xo'jaliklar o'z shaklini o'zgartirganda talab kilanadi;

b)daftar balansi - inventarizatsiya o'tkazish yo'li bilan oldindan tekshirilmasdan faqat daftarlardagi yozuvlar asosida tuziladi;

v) bosh balans-hisob va inventarizatsiya ma'lumotlariga asosan tuziladi.

3. Axborot hajmi bo'yicha:

a) yakka balans-faqat bir qishloq xo'jalik korxonalari axborotini aks ettiradi;

b) yig'ma balans-barcha qishloq xo'jalik korxonalari mablag'larining umumiy holatini aks ettiruvchi summalarini mexanik qo'shish yo'li bilan tuziladi;

v)konsolidallashgan balans.

4.Faoliyat xarakteri bo'yicha:

a) asosiy balans - qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyat turi va ustaviga to'g'ri keladigan balans;

b) asosiy bo'limgan balans - qishloq xo'jalik korxonalarining boshqa faoliyat turlari (yordamchi xo'jaliklari, transport, turar joy-kommunal xo'jalik va h.k.) bo'yicha tuziladigan balans.

5.Mulk shakli bo'yicha:

a) davlat xo'jaliklari balansi;

b) aksionerlik jamiyatlari balansi;

v) qo'shma korxonalar, kichik va xususiy korxonalar balansi.

6. Aks ettirish ob'ekti bo'yicha:

a) huquqiy shaxs bo'lgan korxonalarning mustaqil balansi;

b) alohida balans (filiallar, sexlar, bo'limmalar balansi).

7. Tozalanish usuli bo'yicha:

a)brutto-balansi - bu barcha tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balans;

b)netto-balans - bu barcha tartibga soluvchi moddalarni chiqarib tashlab tuzilgan balans. Respublikamizda netto-balansi tuziladi.

### 9.3. Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida balansda bo'ladigan o'zgarishlar.

Xo'jalik operatsiyalarining har biri sodir bo'lganda balansga ta'sir qilib, balans moddalari summalarini o'zgartirib yuboradi. Lekin bu xo'jalik operatsiyalari balansda faqat to'rt tip o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

**I – tip o'zgarish.** + Aktiv; - Aktiv, Bunda xo'jalik operatsiyasi ta'sirida balansning aktiv tomonidagi bir moddasini summasi ko'payib, ikkinchi bir moddasini summasi kamayadi.

**II – tip o'zgarish.** + Passiv; - Passiv. Bunda xo'jalik operatsiyasi ta'sirida balansning passiv tomonidagi bir moddasini summasi ko'payib, ikkinchi bir moddasini summasi kamayadi.

I va II – tip o'zgarishlarda balansning umumiy summasi o'zgarishsiz qoladi.

**III – tip o'zgarish.** + Aktiv; + Passiv. Bunda xo'jalik operatsiyasi ta'sirida balansning aktiv tomonidagi bir moddasini summasi ko'payadi, passiv tomonidagi bir modda summasi ham ko'payadi. Bunda balansning aktiv va passiv tomonlari umumiy summasi xo'jalik operatsiyasi summasiga ko'payadi.

**IV – tip o'zgarish.** – Aktiv; - Passiv. Bunda xo'jalik operatsiyasi ta'sirida balansning aktiv tomoni bir moddasini summasi kamayadi va passiv tomoni bir moddasini summasi xam kamayadi. Bunda balansning aktiv va passiv tomonlari umumiy summasi xo'jalik operatsiyasi summasiga kamayadi.

Balansga ta'sir qiladigan bunday o'zgarishlarni misollarda keltiramiz.

Faraz kilaylik, hisobot davrining boshiga qishloq xo'jaligi korxonasi balansi quyidagicha bo'lган:

**BALANS**  
(boshlang'ich, qisqartirilgan)

<b>Aktiv</b>		<b>Passiv</b>	
<b>Balans moddalari</b>	<b>Summa</b>	<b>Balans moddalari</b>	<b>Summa</b>
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali (fondi)	400000
Xom ashyo va materiallar	100000	Foyda	30000
Kassa	100	Bank kreditlari	20000
Hisob-kitob schoti	49900	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	50000
<b>JAMI</b>	<b>500000</b>	<b>JAMI</b>	<b>500000</b>

**Birinchi xo'jalik operatsiyasi.** Kassadan qishloq xo'jaligi korxonasi hisobdor shaxsiga hisobdorlik shartlari bilan 60 so'm berildi.

Pul berilgandan keyin «Kassa» moddasidagi summa 60 so'mga kamayadi va 40 (100-60) so'mni tashkil qiladi. Shu bilan bir vaqtida pullarning hisobdorlik shartlari bilan berilishi hisobdor shaxsning ushbu qishloq xo'jaligi korxonasiga qarzining paydo bo'lishiga olib keladi.

Demak, balans aktivida hisobdor shaxsning qishloq xo'jaligi korxonasiga bo'lgan 60 so'mlik qarzi aks ettiriladigan «Debitorlar» moddasi paydo bo'ladi. Bunda ushbu operatsiya ta'sir etgan har ikkala balans moddasi ham aktivdir. Mazkur xo'jalik operatsiyasidan mablag'lar aktivining bir moddasidan ikkinchisiga o'tishigina sodir bo'ddi. Aktivning jami o'zgarmaydi va aktiv hamda passiv summalar o'rtaSIDAGI tenglik saqlanib qoladi.

Birinchi xo'jalik operatsiyasidan keyin balans quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

### BALANS (birinchi xo'jalik operatsiyasidan keyin)

Aktiv		Passiv	
Balans moddalari	Summa	Balans moddalari	Summa
Asosiy vositalar	35000000	Ustav kapitali (fondi)	400000
Xom ashyo va materiallar	100000	Foyda	30000
Kassa	40	Bank kreditlari	20000
Hisob-kitob schoti	49900	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar bilan hisoblashishlar.	50000
Debitorlar	60		
<b>JAMI</b>	<b>500000</b>	<b>JAMI</b>	<b>500000</b>

**Ikkinci xo'jalik operatsiyasi.** Sof foydaning bir qismi (10000 so'm) hisobidan qishloq xo'jalik korxonalari ishining natijalarini yakunlashda qabul qilingan qarorga binoan rezerv kapitali tashkil etilgan.

Mazkur operatsiya qishloq xo'jaligi korxonasining taqsimlanmagan foydasini 10000 so'mga kamaytiradi, lekin balansa yangi modda paydo

bo'ladi: xuddi shu summaga rezerv kapitali ko'payadi. Demak, endi foyda miqdori 20000 (30000-10000) so'mni, zahira fondi esa 10000 so'mni tashkil qiladi.

Ikkinchi xo'jalik operatsiyasi natijasida faqat mablag'lar manbai o'zgaradi. Bir manba (foyda)ning kamayishi hisobiga boshqa (zahira fondi) manba paydo bo'ladi. Bu xo'jalik operatsiyasi faqat passiv moddalarga tegishlidir. Bunda passivning jami summasi o'zgarmaydi. Demak, aktiv va passiv summalaridagi tenglik ham buzilmaydi.

Ikkinchi xo'jalik operatsiyasidan keyingi balansni tuzamiz:

### BALANS

(ikkinchi xo'jalik operatsiyasidan keyin)

Aktiv		Passiv	
Balans moddalari	Summa	Balans moddalari	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali (fondi)	400000
Xom ashyo va materiallar	100000	Rezerv kapitali	10000
Kassa	40	Foya	20000
Hisob-kitob schoti	49900	Bank kreditlari	20000
Debitorlar	60	Mol yetkazib beruvchilar pudratchilar bilan hisoblashishlar	50000
<b>JAMI</b>	<b>500000</b>	<b>JAMI</b>	<b>500000</b>

**Uchinchi xo'jalik operatsiyasi.** Mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan 25000 so'mlik materiallar qishloq xo'jaligi korxonasiga kelib tushdi, lekin puli to'lanmadidi.

Mazkur xo'jalik operatsiyasi, birinchidan, materialarning miqdori ko'payishiga olib keladi. Demak, balansning «Xom ashyo va materiallar» moddasi 25000 so'mga oshadi. Ikkinchidan, materiallar mol yetkazib beruvchilardan sotib olinib, puli hali to'lanmagani uchun, qishloq xo'jaligi korxonasining mol yetkazib beruvchilar oldida qarzi paydo bo'ladi. Balansda bu «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar» moddasi bo'yicha aks ettirilib, uning summasi ham 25000 so'mga oshadi va 75000 so'mga teng bo'ladi.

Balansda aks ettirilish tavsiisi bo'yicha ushbu xo'jalik operatsiyasi oldingisidan farq qiladi. U bir vaqtning o'zida aktiv va passivga tegishlidir. Lekin uning aktivda ham, passivda ham yuzaga keltirgan o'zgarishlari bir xil summada ifodalanadi va bir tomonga

yo'naltirilgandir. Demak, aktiv va passivning jami summalarini bir xilda o'zgaradi, ularning o'rtasidagi tenglik saqlanib qoladi.

Uchinchi xo'jalik operatsiyasidan keyin balans quyidagicha bo'ladi:

### BALANS

(uchinchi xo'jalik operatsiyasidan keyin)

Aktiv		Passiv	
Balans moddalari	Summa	Balans moddalari	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali (fondi)	400000
Xom ashyo va	125000	Rezerv kapitali	10000
Kassa	40	Foyda	20000
Hisob-kitob schoti	49900	Bank kreditlari	20000
Debitorlar	60	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	75000
<b>JAMI</b>	<b>525000</b>	<b>JAMI</b>	<b>525000</b>

**To'rtinchchi xo'jalik operatsiyasi.** Hisob-kitob schotidan bankka kredit bo'yicha qarzni uzish uchun 20000 so'm o'tkazilgan.

Bu xo'jalik operatsiyasi hisob-kitob schotidagi pul mablag'larining kamayishiga olib keladi va bir vaqtning o'zida qishloq xo'jalik korxonalarining kreditlar bo'yicha qarzining qisqarishiga olib keladi. Demak, balansda «Hisob-kitob» schoti bo'yicha summa 29900 (49900 - 20000) so'mgacha kamayadi va «Bank kreditlari» passiv moddasi bo'yicha 0 (20000 - 20000) gacha kamayadi, ya'ni bu modda passiv moddasidan chiqarib tashlanadi.

To'rtinchchi xo'jalik operatsiyasi balans yakunlarini bir miqdordagi summaga kamaytirdi. Shuning uchun balans aktivi va passivi yakuniy summalarini o'rtasidagi tenglik bu operatsiyadan keyin ham saqlanib qoladi.

To'rtinchchi xo'jalik operatsiyasidan keyin balans quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

### BALANS

(to'rtinchchi xo'jalik operatsiyasidan keyin)

Aktiv		Passiv	
Balans moddalari	Summa	Balans moddalari	Summa
Asosiy vositalar	350000	Ustav kapitali (fondi)	400000
Xom ashyo va materiallar	125000	Rezerv kapitali	10000

Kassa	40	Foyda	20000
Hisob-kitob schoti	29900	Bank kreditlari	-
Debitorlar	60	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar	75000
<b>JAMI</b>	<b>505000</b>	<b>JAMI</b>	<b>505000</b>

Bunga o'xshagan xo'jalik operatsiyalari qishloq xo'jaligi korxonalarini xo'jalik faoliyatida ko'plab uchraydi.

Keltirilgan to'rtta operatsiyalar balansda o'zgarishga olib kelishi mumkin bo'lган xo'jalik operatsiyalarni o'z ichiga oladi (balans o'zgarishlarining turlari).

Boshida balansning faqat aktiviga yoki passiviga ta'sir qiladigan xo'jalik operatsiyalari (birinchi va ikkinchi operatsiyalar) ko'rsatilgan edi. Bunda balansning aktivi va passivini o'zgartirmaydigan summalarining faqat qayta guruhlantirilishi bo'lib o'tgan edi. Bu balans o'zgarishlarining birinchi va ikkinchi tiplaridir. Boshqa operatsiyalar balansning aktiviga ham passiviga ham ta'sir etadi. Bunda har ikkala ta'sir qilinadigan moddalar ularning ko'payishi (uchinchi operatsiya) yoki kamayishini (to'rtinchi operatsiya) yuzaga keltiradi.

Balansli o'zgarishlar turlarining mohiyatini aniqlash balans xususiyatlarini, ya'ni har qanday operatsiya uning, albatta, ikki moddasiga ta'sir etishini va hech qachon aktiv bilan passiv o'rtaqidagi tenglikni buzmasligini tushunib olish uchun zarurdir.

### Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Balans haqida tushuncha va ularning makroiqtisodiyotda qo'llaniladigan turlari.
2. Buxgalteriya balansining mohiyati va uning ahamiyati.
3. Buxgalteriya balansining aktiv tomoni va uning bo'limlari, moddalari.
4. Buxgalteriya balansining passiv tomoni va uning bo'limlari, moddalari.
5. Buxgalteriya balanslarining turlari.
6. Balansda xo'jalik operatsiyalari ta'sirida bo'ladigan o'zgarishlar.
7. Buxgalteriya balansidagi birinchi tip o'zgarish mohiyati.
8. Buxgalteriya balansidagi ikkinchi tip o'zgarish mohiyati.
9. Buxgalteriya balansidagi uchinchi tip o'zgarish mohiyati.
10. Buxgalteriya balansidagi to'rtinchi tip o'zgarish mohiyati.

## **10-BOB. BUXGALTERIYA HISOBINING SCHYOTLARI VA IKKIYOQLAMA YOZUV**

### **10.1. Schotlar to‘g‘risida tushuncha va ularning tuzilishi.**

Buxgalteriya hisobi schotlari-bu xo‘jalik mablag‘lari, operatsiyalarini joriy aks ettirish, iqtisodiy guruhash va tezkor nazorat qilish usuli deb ta’riflasak bo‘ladi.

Schotlardagi yozuvlar, hisobga olinayotgan ob’ektlarning xususiyatiga qarab har xil - natura, mehnat va pul o‘lchov birliklarida olib boriladi. Lekin ma’lumotlarni natura va mehnat o‘lchov birliklarida ifodalash bilan birga schotlardagi barcha ma’lumotlar, albatta, pul o‘lchov birligida ham ko‘rsatiladi. Bu umumlashtirilgan, yakuniy ko‘rsatkichlarni olish uchun zarurdir.

Xo‘jalik mablag‘larining harakati tegishli balans moddalarining ko‘payishi yoki kamayishiga olib keladi. Masalan, kassadagi naqd pullarning harakati ularning g‘aznaga kelib tushishi («Kassa» moddasining ko‘payishi) yoki undan berilishi («Kassa» moddasining kamayishi) bilan tavsiflanadi; mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarning harakati - bu qishloq xo‘jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qarzning ko‘payishi («Mol yetkazib beruvchilar» moddasining o‘sishi) yoki uning uzilishi «Mol yetkazib beruvchilar» moddasining kamayishiga olib keladi. Schotdagи umumiyligi summani hisoblab chiqishni osonlashtirish uchun mablag‘larning ko‘payishini ularning kamayishidan alohida ajratib ko‘rsatish qulayroq, shuning uchun schot ikki qismga bo‘linadi: chap va o‘ng tomonga. Uning biri (chap tomoni) dsbet, boshqasi (o‘ng tomoni) kredit deb nomlanadi.

Hisobning har bir ob’ekti hamda mablag‘lar va manbalarning har bir turi uchun alohida schotlar ochiladi. Debet va kredit bo‘yicha yozilgan operatsiyalar summalarining jami oborot (oborot) deb nomlanadi. Schotning bir tomonida qayd etilgan summalar bilan uning boshqa tomonida ko‘rsatilgan summalar o‘rtasidagi farq qoldiq yoki saldo deb nomlanadi. Qoldiqlar debeti kreditidan ortiqmi yoki aksinchami ekanligiga qarab, debetli yoki kreditli bo‘lishi mumkin. Yangi qoldiqni aniqlash uchun avval mablag‘larni ko‘payganligini ko‘rsatuvchi oborot summani boshlang‘ich qoldiqqa qo‘shiladi, so‘ngra uning kamayishini aks ettiruvchi oborot summasi ayirib tashlanadi. Agar qoldiq bo‘lmasa, schot yopilgan hisoblanadi.

Aktiv va passiv schotlarniig shaklini keltiramiz.

“Kassa”		Aktiv schot shakli “Material”		“Debitorlar”	
D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
Sb	-	Sb	-	Sb	-
+		+		+	
Ay.d	Ay.k	Ay.d	Ay.k	Ay.d	Ay.k
So		So		So	

Bu yerda:

Sb - boshlang‘ich saldo

Ay.d - debetlik oborot

Ay.k - kreditlik oborot

So - oxirgi qoldiq

So = Sb + Ay.d - Ay.k

“Ish bo‘yicha”		Passiv schot shakli “Bank krediti”		“Kreditorlar”	
D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
-	Sb	-	Sb	-	Sb
	+		+		+
Ay.d	Ay.k	Ay.d	Ay.k	Ay.d	Ay.k
	So		So		So

So= Sb +Ay.k - Ay.d

Mablag‘lar va ularning manbalari qoldiqlarining o‘zgarishlarini schotlarda aks ettirilishini misollarda ko‘rib chiqamiz.

1-misol. «Kassa» moddasi qishloq xo‘jalik korxonalarining naqd pullarini aks ettiradi. Faraz qilaylik, cassada 200 so‘m bor. Xo‘jalik mablag‘lari balansning aktivida ko‘rsatilganligi bois, schotlarda ularning qoldiqlarini debetga yozish tartibi qabul qilingan. Demak, 200 so‘m qoldiqni «Kassa» schotining debetiga yozish kerak.

Shuningdek, qishloq xo‘jalik korxonalarida shunday operatsiyalar sodir bo‘lganki, ularning natijasida cassaga birinchi operatsiya bo‘yicha 500 so‘m, uchinchi operatsiya bo‘iicha 3000 so‘m kelib tushgan;

kassada ikkinchi operatsiya bo'yicha 600 so'm va to'rtinchi jarayon yuzasidan 2800 so'm chiqib ketgan (sarflangan). Pullarning kelib tushishi (ko'payishi)ni «Kassa» schotining debetiga, ularning chiqib ketishi (kamayishi)ni uning qarama-qarshi tomoniga - kreditiga yozish kerak. Bu, kassadagi mablag'lar harakatining yakunlarini hisoblab chiqishda naqd pullarni kelib tushishini qoldiqqa qo'shish, chiqib ketishini esa ayirish uchun kerak.

Shunday qilib, 500 va 3000 so'm «Kassa» schotining debetiga, 600 va 2800 so'm uning kreditiga yoziladi.

Naqd pullar harakatini debeti va krediti bo'yicha oborotlar summasi hisoblab chiqarilgandan keyin qoldiqni aniqlaymiz. U 300 so'mga teng bo'ladi ( $200+3500=3400$ ). To'rtta operatsiya yozilgandan keyin «Kassa» schoti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

D-t	K-t
<b>Kassadagi naqd pullarning boshlang'ich qoldig'i 200</b>	2) Kassadan naqd pul sarflandi 600
1) Kassaga naqd pul kelib tushdi 500	4) Kassadan naqd pul sarflandi 2800
3) Kassaga naqd pul kelib tushdi 3000	
<b>Jami kelib tushgan (oborot)-3500</b>	<b>Jami sarflangan (oborot) 3400</b>
<b>Kassadagi naqd pulning oxiri qoldig'i 300</b>	

Bu schotdagi oxirgi qoldiq faqat debetida bo'lishi mumkin, chunki mavjud bo'lган naqd puldan ortiqcha sarflash mumkin emas.

2 - *misol.* «Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» moddasi qishloq xo'jalik korxonalari mablag'lari manbaini aks zttiradi. Balansda unga yozilgan summa - qishloq xo'jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilarga bo'lган qarzi miqdorini ko'rsatadi. Bu modda bo'yicha boshlang'ich qoldiq 40000 so'mga teng, deylik.

«Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» moddasining o'zgarishini anglatuvchi xo'jalik operatsiyalari qishloq xo'jalik korxonalarining qarzining oshishini kamayishini ko'rsatishi mumkin. Faraz qilaylik, uchta xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lган: birinchisi - qishloq xo'jalik korxonalari mol yetkazib beruvchilarga bo'lган qarzini 15000 so'mga uzgan, ikkinchisi - qishloq xo'jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilariga qarzi 20000 so'mga

oshgan, uchinchisi - mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qishloq xo‘jalik korxonalarini qarzini 35000 so‘mga uzgan.

Mol yetkazib beruvchilarga doir xo‘jalik operatsiyasini hisobga olish uchun 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti yuritiladi. Bu schot mablag‘lar manbaini aks ettiradi, shuning uchun undagi yozuvlar, mablag‘lar turlarini hisobga oladigan «Kassa» schotiga qaraganda boshqacha aks ettiriladi. Unda qoldiq, mablag‘lar manbaining kreditiga yoziladi. Mazkur schotda ko‘payishni anglatuvchi xo‘jalik operatsiyalari - kreditida, kamayishni anglatuvchi operatsiyalar - debetida aks ettiriladi. Demak, 15000 va 35000 so‘m shu schotning debetiga, 20000 so‘mni esa kreditiga yozish kerak.

Boshlang'ich qoldiq va xo'jalik operatsiyalari yozilgandan keyin, debet hamda kredit bo'yicha oborotlar yakunini hisoblab chiqamiz va yangi qoldiq (saldo)ni topamiz. U quyidagicha bo'ladi:

$$(40000+20000-50000= 10000).$$

«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti unga xo‘jalik operatsiyalari yozilganidan keyin quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

## **«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» schoti**

D-t	K-t
1) Mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qarz uzilgan 15000	Mol yetkazib beruvchilarga qishloq xo‘jalik korxonasi qarzining boshlang‘ich qoldig‘i 40000
3) Mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qarz uzilgan 35000	2) Mol yetkazib beruvchilarga hisoblangan qarz 20000
Uzilgan-hammasi (oborot) 50000	Hisoblangan-hammasi (oborot) 20000

Bu schotning oxirgi qoddig'i faqat kreditli bo'lishi mumkin, chunki qishloq xo'jalik korxonalari mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzini uzishda, mavjud majburiyatdan ortiq summani to'lamaydi.

Schotlarning qoldiqlari, hisobga olinadigan ob'ektlarning ko'payishi va kamayishiga qarab, ularning qar xil tomonlariga yoziladi. Schotlarning bunday tuzilishi tasodifiy emas. Shunday qilib, aktivlarning turlarini aks ettiruvchi schotlarda hisobga olinadigan ob'ektlar qoldiqlarini va ko'payishi debetiga, kamayishi esa kreditiga yoziladi. Mablag'lar manbalarini hisobga olish uchun xizmat qiladigan schotlarda qoldiqlar va ko'payishlar kreditda, kamayishlar zsa - debetda ko'rsatiladi.

Aktivlar turini yoki ularning manbalarini hisobga olishga qarab, schotlar aktiv va passivga bo'linadi.

Aktivlar turlarini hisobga oluvchi schotlar aktiv, ularning manbalarini aks ettiruvchi schotlar esa - passiv schotlar deb ataladi.

Barcha schotlarda qoldiqlar va operatsiyalar yuqorida keltirilgandek aks ettiriladi. Lekin buxgalteriya hisobida qator murakkab schotlar borki, ular o'zlarining tuzilishlariga ko'ra bunday oddiy tarzdan farq qiladi.

Bundaylarga xo'jalik jarayonlari, xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari, topshiriqlarning bajarilishi hisobga oladigan schotlar kiradi. Bu schotlarda hisobga olinadigan ob'ektlarning xususiyatlari aks ettiriladi. Lekin ular qam aktiv va passiv schotlarga mansubdir.

Schotlardan to'g'ri foydalanish uchun - u yoki bu schot yordamida qanday ko'rsatkichlarni olish mumkinligi va unda qanday ob'ektlar hisobga olinishi zarurligini bilish maqsadida ular tasniflanadi.

Bunday schotlarni turkumlash ikki belgi asosida tuziladi: qanday maqsadga tayinlanishi va tuzilishi hamda iqtisodiy mazmuniga qarab.

Schotlarning qanday maqsadlarga tayinlanishi va tuzilishi bo'yicha turkumlanishi, u yoki bu schotlar, nima uchun, qanday ko'rsatkichlarni olish uchun mo'ljallangan hamda ularning tuzilishi qanday, ya'ni ularning debeti, kreditining mazmuni qanday, ulardagi sal'do qanday xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ular buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan schotlarning xususiyatlarini o'rganish uchun xizmat qiladi va ularning ayrim turlari qanday xususiyatlarga ega ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Schotlarni iqtisodiy mazmuniga qarab turkumlanishi (iqtisodiy turkumpash), schotlarda nima hisobga olinadi, ya'ni unda qanday aniq iqtisodiy ob'ekt aks ettirilishini ko'rsatadi hamda mazkur ob'ektga qar tomonlama tavsif berish uchun qanday schotlardan foydalanish kerakligini aniqlab olish imkonini beradi. Iqtisodiy turkumlash mazkur qishloq xo'jalik korxonalarida, uning xususiyatlarini hisobga olgan

holda, foydalanishi kerak bo‘lgan schotlar ro‘yxatini belgilab olish uchun mo‘ljallangan.

Har ikkala turkumlash qam chambarchas bog‘langan o‘zaro bir-birovlarini to‘ldiradi. Schotlarning xususiyatlarini bilish va ulardan amaliyotda to‘g‘ri foydalanish uchun ularning qanday maqsadga tayinlanganligi, tuzilishi va iqtisodiy mazmunini o‘rganish kerak. Schotlarning turkumlannshi mavjud ma’lumotlardan xo‘jalik faoliyatini boshqarishda zatur bo‘lgan ko‘rsatkichlarning xususiyatlarini (tarkibiy tuzilishi, turkumlanishi) va unda hisobga olinadigan ob’ektlarning iqtisodiy mazmunini (iqtisodiy turkumlanishi) aniqlab olingandan keyingina ulardan boshqaruv ishlarida to‘g‘ri foydalanish mumkin.

## **10.2. Ikkiyoqlama yozuv va uning ahamiyati.**

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 aprelda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi (yangi tahriri)» Qonunida “Buxgalteriya hisobi xo‘jalik operatsiyasini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schotida bir vaqtida va o‘zaro bog‘liq holda pulda baholab aks ettirish yo‘li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi” deb qayd etib o‘tilgan (6-modda ikkinchi xat boshi).

Xo‘jalik operatsiyalarini ikkiyoqlamali yozuv tizimini tarixda birinchi kashf etgan olim italiyalik matematik Luka Pacholi 1494 yili «Schotlar va yozuvlar to‘g‘risida traktlar» ilmiy asarida chop etib, ikkiyoqlama yozuv tizimini birinchi marta ilmiy adabiyotlarda qayd etib o‘tgani.

Ikkiyoqlama yozuv xar bir xo‘jalik operatsiyasining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan schotlarda qayd etish yo‘li bilan amalgalash oshiriladi. Bu bilan xo‘jalik operatsiyalari ta’sir etadigan hisob ob’ektlari o‘rtasida o‘zaro aloqa o‘rnataladi va bu o‘z navbatida, qishloq xo‘jalik korxonalari xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat qilish va sodir bo‘layotgan jarayonlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo‘jalik operatsiyalariga ikki marta aks ettirish (ikkiyoqlama yozuv) xo‘jalik mablag‘larining davr aylanish jarayonida qiyomat shakllarini almashinishining iqtisodiy tabiatini bilan bog‘liqidir. Bu jarayonda har bir operatsiya qiyomatning bir shaklidan boshqa shakliga olib keladi. Qiyomatning boshlang‘ich va oxirgi shakli ta’minot, ishlab chiqarish operatsiyalarida har doim har xil bo‘ladi. Masalan, ta’minot operatsiyalarida qiyomatning dastlabki puldag‘i shakli ishlab chiqarish zahiralari shakli bilan almashinadi; ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish zahiralari o‘z shakllarini mahsulotlar shakliga o‘zgartiradi;

sotish uchun tayinlangan xizmatlarni sotish operatsiyalarida, ular o‘z shakllarini yana pul shakliga almashadi. Qiymat shaklining bunday almashinishi har bir jarayonning boshqa operatsiyalariga ham xosdir. Shundan kelib chiqib, mazkur operatsiyada qatnashuvchi qiymatning har bir shaklini, ya’ni operatsiyaning boshlanishidagi ko‘rinishi va uning oxirida namoyon bo‘lgan shaklida hisobga olish zaruriyati yuzaga keladi.

Bunda qiymat miqdori o‘zgarmaganligi sababli, xo‘jalik operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv usulida aks ettirilganda, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan schotlar debeti va kreditiga tegishli summalar, albatta, bir-birovlariga teng bo‘lib qoladi.

Ikkiyoqlama yozuv doiraviy aylanish jarayonida faqat qiymat shaklining o‘zgarishigina aks ettirish uchun ko‘llanmay (balans o‘zgarishlarining I tipi), balki barcha xo‘jalik operatsiyalarini ham aks ettiradi. Xuddi shu usul bilan mablag‘larning qanday maqsadlarga tayinlanganligi (mablag‘lar manbalari, II tip), hamda qishloq xo‘jalik korxonalarining xo‘jalik aloqalari (III va IV tiplar) ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, ikkiyoqlamali yozuv xo‘jalik operatsiyalarini bir xil summada buxgalteriya schotlarida o‘zaro bog‘liq holda, ya’ni bir schotning debetida, ikkinchi bir schotning kreditida aks ettirish usulidir.

Masalan, hisob-kitob schotidan qishloq xo‘jaligi korxonasi kassasiga 1500 so‘m olindi, deb faraz qilaylik. Bu xo‘jalik operatsiyasi natijasida mablag‘larning ikki turiga - kassadagi naqd pullar va bankdagi hisob-kitob schotidagi pul mablag‘lariga ta’sir etildi. Kassadagi pullar 1500 so‘mga ko‘paydi va aksincha, hisob-kitob schotidagi pullar shu summaga kamaydi. Bu xo‘jalik operatsiyasini buxgalteriya schotlarida aks ettirayotganda, uning summasini, birinchidan, «Kassa» schotining debetiga yozish kerak, chunki bu schot aktivdir va ko‘payish aktiv schotlarning debitida aks ettiriladi, ikkinchidan, «Hisob-kitob schoti» schotining kreditiga yoziladi, chunki bu schot ham aktivdir va aktiv schotlarning kamayishi kreditga yoziladi.

Bu operatsiyaning schotlarda yozilishi quyidagicha bo‘ladi:

D-t «Kassa» schoti - 1500 so‘m

K-t «Hisob-kitob schoti» - 1500 so‘m

Xo‘jalik operatsiyasi va uning summasini aks ettiradigan debetlanuvchi va kreditlanuvchi schotlarni belgilash (ko‘rsatish) buxgalteriya yozuvi yoki o‘tkazma (provodka)si deb ataladi.

**Yuqorida ko'rib chiqilgan operatsiya schotlarda quyidagicha aks ettiriladi:**

«Hisob-kitob schoti»		«Kassa» schoti	
D-t	K-t	D-t	K-t
<u>qoldiq</u>	1)1500	<u>qoldiq</u>	1)1500

Ko'riniib turibdiki, schotlar bir-birlari bilai o'zaro bog'langan. Ulardagi yozuvlar amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan ikkita o'zgarishni: kassaga pullarning kelib tushishi va ularning hisob-kitob schotidan chiqib ketishini ko'rsatmoqda.

Xo'jalik operatsiyalarini ikkiyoqlamali yozish schotlarining o'zaro bog'lanishiga olib keladi. Bunday bog'lanish schotlar korrespondensiyasi (bog'lanishi) deb ataladi.

**Schotlar korrespondensiyasi (bog'lanishi)** - xo'jalik operatsiyalarini schotlarda aks ettirish paytida paydo bo'ladi va u schotlarning o'zaro aloqasini namoyon bo'lishlik shaklidir.

Ikki schotga ta'sir etadigan schotlar korrespondensiyasi oddiy, uch va undan ko'proq schotlarga ta'sir etadiganlari esa murakkab schotlar korrespondensiyasi deb nomlanadi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, xar qanday buxgalteriya yozuvi bir nechta oddiy yozuvlardan iborat bo'ladi. Haqiqatda, ikkinchi operatsiya bo'yicha yozuvni ikki oddiy o'tkazmaga ajratish mumkin:

I. D-t - «Xom ashyo va materiallar» schoti

K-t-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» schoti - 7000 so'm

II. D-t - «Yoqilg'i» schoti

K-t-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» schoti- 5000 so'm

Murakkab yozuvlarning oddiylarga ajratilishi mumkinligini, bir schotning o'ziga ta'sir etadigan bir necha operatsiyalar birga birlashtirilishi bilan tushuntiriladi (bizning misolda «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» - passiv).

Shunday qilib, xo'jalik operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv usuli bilan aks ettirish, albatta, ikki schotga ta'sir etadi. Bunda bir schot debetlanadi, ikkinchisi esa kreditlanadi. O'zaro korrespondensiyalanuvchi schotlarning debeti va kreditiga har bir operatsiya bo'yicha bir xildagi summalar yoziladi. Murakkab yozuv qilinayotganda, bir schot bilan

bog‘liq bo‘lgan bir nechta schotlar bo‘yicha ko‘rsatilgan summalarning jami shu schotda hisobga olingan umumiy summaga teng bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, ikkiyoqlama yozuv ikki o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalarini aks ettiruvchi sifatida mantiqiy toifa (kategoriya)dir. Ular xo‘jalik operatsiyalarining o‘z mohiyatidan kelib chiqadi va shuning uchun u barcha mamlakatlar amaliyotida mavjuddir.

Amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni ustidan ikkiyoqlama yozuv yordamida nazorat o‘matiladi. Bunda schotlar korrespondensiyasidan foydalanishadi. Ikkiyoqlama yozuvning ahamiyatini, uning ana shu nazoratida ko‘ramiz, ya’ni ma’lum bir davrdagi barcha schotlarning debet oborotlari barcha schotlarning kredit oborotlariga teng bo‘lishi lozim.

### **10.3. Buxgalteriya schotlarini iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra turkumlanishi.**

**a) Asosiy schotlar.** Asosiy schotlar mablag‘lar turlarining (aktiv) mavjudligi va harakati ustidan hamda ularning manbalarini (passiv) nazorat kilish uchun ishlatiladi. Barcha asosiy schotlarda qishloq xo‘jalik korxonalari mulkining hisobga olinishi xosdir. Asosiy schotlarning xususiyati shundan iboratki, agar ularda qoldiq mavjud bo‘lsa, ularning hammasi balans tarkibiga kiritiladi.

O‘zining tuzilishi va kanday maqsadga mo‘ljallanganligiga qarab asosiy schotlar asosiy aktiv, asosiy passiv schotlarga bo‘linadi.

#### **Asosiy aktiv schotlarning ta’rifi**

D-t

K-t

<u>Boshlang‘ich qoldiq.</u> Moddiy va pul mablag‘lari yoki ushbu qishloq xo‘jalik korxonalariga bo‘lgan mablag‘lar kirimi (kelib tushishi), shuningdek debitorlarning ushbu qishloq xo‘jalik korxonalariga qarzining ko‘payishi	Asosiy va oborot-mablag‘lar sarfini (chiqib ketishi yoki debtorlik qarzning uzilishi)
<u>Debet oxirgi qoldiq</u>	

## Asosiy passiv schotlarning ta’rifi

D-t	K-t
<p>Oborot kapitalning kamayishi (qishloq xo‘jalik korxonalaridan ilgari unga berilgan mablag‘larning olib fo‘yilishi), moliyalashning hisobdan chiqarilishi (undan foydalanish natijasida), qishloq xo‘jalik korxonalari majburiyatları yoki qarzlarning kamayishi (uzulishi)</p>	<p><u>Boshlang‘ich qoldiq.</u> Qishloq xo‘jalik korxonalarining mayjud fondi, olgan molivayiv majburiyatları yoki qarzi. Oborot (oborot) - qishloq xo‘jalik korxonalari fondining ko‘payishi (ushbu qishloq xo‘jalik korxonalariga qo‘sishmcha qo‘yilmalar, fondga ajratmalar), majburiyatlar yoki qarzlarning ko‘payishi</p>

### Kredit oxirgi qoldiq

#### **Tartibga soluvchi schotlar**

Tartibga soluvchi schotlar mablag‘larning baholanishi yoki mablag‘lar manbalarining summalarini tuzatish (korrektivlash) uchun mo‘ljallangan. Bu yerda tuzatish joriy buxgalteriya hisobi tizimidagi asosiy schotlardan tashqari u bilan bog‘langan alohpda yechyot kiritish va uning summasini mazkur ob‘ektning katta-kichikligini topish maqsadida asosiy schotning summasidan ayirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tartibga soluvchi schotlardan foydalanish hisob ob‘ektlarini har tomonlama tavsiflovchi real hisob ma'lumotlarni olish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Tartibga soluvchi schotlar tegishli ob‘ektlar bo‘yicha har bir ob‘ektni ikki xil summada (baholanishda) aks ettiruvchi ikki ko‘rsatkichga ega bo‘lishlik imkoniyatini beradi.

Tartibga soluvchi schotlar kontrar, to‘ldiruvchi va kontrar-to‘ldiruvchi schotlarga bo‘linadi.

Kontrar schotlar tartibga solinuvchi ob‘ektlarning haqiqiy hajmini tartibga soluvchi summani ushbu ob‘ektning dastlabki baholanishidan ayirib tashlash yo‘li bilan aniqlash uchun xizmat qiladi. Ularning ikki turi bo‘ladi: kontraktiv va kontrpassiv.

**Kontraktiv schotlar** asosiy aktiv schotlarga qarama-qarshi qo‘yiladi va passiv hisoblanadi. **Kontrpassiv schotlar**, aksincha, asosiy passiv schotlarga qarama-qarshi qo‘yiladi va aktiv hisoblanadi.

Kontraktiv schetga misol kilib «Asosiy vositalarning eskirishi» schotini olish mumkin. Bu schot yordamida olinadigan ko'rsatkichlar xususiyatini unqilash uchun u bilan bog'liq bo'lgan boshlang'ich qoldiq summani «Asosiy vositalar» schotidan olamiz.

### **Kontraktiv schotlar ta'rifi**

Tartibga solinuvchi aktiv schot	D-t	K-t	Tartibga soluvchi passiv schot	D-t	K-t
<u>qoldiq A</u>			<u>qoldiq B</u>		

$$\mathbf{A-B=V}$$

Shartli belgilar:

A - tartibga solinuvchi moddaning boshlang'ich qiymati

B - boshlang'ich baholanishdan ayirib tashlanadigan tartibga soluvchi moddaning summasi

V - tartibga solinadigan moddaning haqiqiy summasi.

Kontraktiv schotlar tarkibiga 0200 «Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar», 0500 «Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schotlar», 2980 «Savdo ustamasi», 4910 «Dargumon qurzlar bo'yicha rezerv» schotlari kiradi.

Kontrpassiv schotlar katoriga buxgalteriya hisobi schotlar rejasи bo'yicha 8600 «Sotib olingan o'z aksiyalari», 9040 «Sotilgan tovarni qaytarish» va 9050 «Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schotlari kiritilgan.

Kontrpassiv schotlarining tuzilishini 8600 «Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi schotlari» misodda ko'rib chihamiz. Bu schot 8310 «Oddiy aksiyalar» va 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schotlariga nisbatan kontrpassiv bo'lib aksioner jamiyatining aksiyadorlik kapitalini kamayishini ko'rsatadi va balansda ko'rsatiladigan ustav kapitalining umumiyl jamidan chegiriladigan summa hisoblanadi.

### **Kontrpassiv schotlarning ta'rifi**

Tartibga solinuvchi passiv schot	D-t	K-t	Tartibga soluvchi aktiv schot	D-t	K-t
<u>qoldiq D</u>			<u>qoldiq G</u>		

Shartli belgilar:

G - tartibga solinuvchi moddaning boshlang‘ich summasi

D - boshlang‘ich summadan ayirib tashlanadigan tartibga soluvchi modda-ning summasi

Ye - tartibga solinuvchi moddaning haqiqiy summasi.

#### **10.4. Schotlarni tayinlanishi va tarkibiga ko‘ra turkumlanishi.**

**Yig‘ib taqsimlovchi schotlar.** Taqsimlovchi schotlar qishloq xo‘jalik korxonalarining ba’zi xarajatlari ustidan nazorat qilish va ulariинг to‘g‘ri taqsimlanishini ta’minalash (shu jumladan, ayrnm faoliyat tannarxini ham aniqlash) uchun taynilangan.

Yig‘ib-taqsimlovchi schotlar u yoki bu xo‘jalik jarayonlari bo‘yicha xarajatlarni, ularni keyiichalik taqsimlash maqsadida yig‘ish uchun qo’llaniladi. Ular aktiv schotlardir, chunki ularda mablag‘lar (xarajatlar) harakati hisobga olinadi. Bu schotlarda yig‘iladigan summalar mazkur ob‘ekt bo‘yicha barcha xarajatlar hisobga olinadigan schotlarga o‘tkaziladi (hisobdan chiqariladi).

Yig‘ib taqsimlovchi schotlar ikki sababdan zarurdir: eng avvalo, ba’zi xarajatlarni bir nechta ob‘ektlar o‘rtasida taqsimlash kerak bo‘ladi. Bular egri (bilvosita) xarajatlar bo‘lib, ularga umumishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Bu yerda biz «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schotini mukammal ko‘rib chiqamiz. Uning debetida umuman ishlab chiqarishga xizmat qilish va uni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar yig‘iladi. Kreditida esa ularning summalari tegishli xarajatlarga kiritish maqsadida, faoliyat turlari bo‘yicha schotlarga o‘tkaziladi (hisobdan chiqariladi). Bunda umumishlab chiqarish xarajatlarining katta qismi «Asosiy ishlab chiqarish» schotiga o‘tkaziladi, ya’ni mahsulot tannarxiga kiritiladi. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobot davrining oxirida hisobdan chiqariladi va taqsimlanadi, bunda debetda yig‘ilgan hamma summa hisobdan chiqarilib, hisobot davrining oxiriga hech qanday qoldiq bo‘lmaydi.

Yig‘ib-taqsimlovchi schotning umumiylarxi quyidagicha ko‘rinishga ega:

A schoti	Yig‘ib-taqsimlovchi schot		G schoti
D-t qoldiq	K-t 1/a	D-t 1/a	K-t 4/M
B schoti		2/b	D schoti
D-t qoldiq	K-t 2/b		D-t 4/d
V schoti	3/v		Ye schoti
D-t qoldiq	K-t 3/v		D-t 4/ye

$$a+b+v = M = g+d+ye$$

Shartli belgilar:

1,2,3 - xo‘jalik operatsiyasi - har xil xarajatlarning yig‘ilishi;

4 - xo‘jalik operatsiyasi - xarajatlarning taqsimlanishi, hisobdan chiqarilishi.

**Kalkulyatsiya schotlari.** Kalkulyatsiya schotlari xo‘jalik mablag‘lari - tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar tannarxini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Tannarx hisoblab chiqilgan, hisob-kitoblar aks ettirilgan jadval(Kalkulyatsiya hisob-kitobi odatda jadval shaklida bo‘ladi) kalkulyatsiya deb nomlanadi. Shundan kelib chiqib, kalkulyatsiyani tuzish uchun kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lgan schotlar kalkulyatsiya schotlari deb ataladi.

Tannarxi aniqlanadigan ob’ektlarga tegish bo‘lgan xarajatlar ushbu schotlarning debetida yig‘ish yo‘li bilan hisoblab chiqiladi, chunki bu xarajatlar summalarini mazkur jarayonda sarflangan mablag‘lardir. Shuning uchun kalkulyatsiya schotlari aktiv hisoblanadi.

Kalkulyatsiya schotlarining tuzilishini «Asosiy ishlab chiqarish» schotining misolida ko‘rib chiqamiz.

**«Asosiy ishlab chiqarish» schoti**

D-t	K-t
1)21000 2)30000 3)2400 4)9500 5)4600	10)45000
Oborot 67500	Oborot 45000
<u>Ooldia 22500</u>	

Kalkulyatsiya schotlar tarkibiga 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schotidan tashqari 0800 «Kapitaya qo‘yilmalar», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot», 2720 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schotlari kiradi.

**Solishtiruvchi (taqqoslovchi) schotlar.** Solishtiruvchi schotlar xo‘jalik jarayonida olingen moliyaviy natijalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Bu natijalar ushbu jarayonni tavsiflovchi ikki har xil oborot (oborot)larni solishtirish yo‘li bilan topiladi. Shundan kelib chiqqan holda, xo‘jalik jarayonlarining moliyaviy natijalarini aniqlash uchun qo‘llaniladigan schotlar solishtiruvchi schotlar deb nomlanadi. Bu schotlardaga oborotlarni solishtirish, ularning birini - debetda, boshqasini esa - kreditda aks ettirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Debet bilan kredit o‘rtasidagi farq qidirilayotgan natijani anglatadi, bunda aks ettirilayotgan xo‘jalik operatsiyalarining xususiyatiga qarab, farq debetida yoki kreditida bo‘lishi mumkin.

Solishtiruvchi schotlarning tuzilishini «Yakuniy moliyaviy natija» schoti misolida ko‘rib chiqamiz.

Foydalar «Yakuniy moliyavny natija» schotining kreditida doromadlar yoki foya, xarajatlar yoki zararlar esa - debetida yig‘ilib boriladi. Qishloq xo‘jalik korxonalari ishining pirovard moliyaviy natijalari debet bilan kreditni solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Agar korxonaning yalpi foya summasini ko‘rsatuvchi kredit oborot ushbu qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan qilingan yalpi xarajatlar (debet oborot) summasidan ko‘p bo‘lsa, unda debet bilan kredit o‘rtasidagi farq qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan olingen foydani anglatadi. Agar kredit oborot debet oborotdan kam bo‘lsa, o‘rtasidagi farq qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan ko‘rilgan zararni ko‘rsatgan bo‘ladi.

## Solishtiruvchi schotlarning chizmasi

D-t	K-t
Oborot-mazkur operatsiyalar bo'yicha har ikki solishtiruvchi summalaridan biri (qishloq xo'jalik korxonalariniig yalpi surari, sotilgan resurslar tannarxi va hokazo)	Oborot-mazkur xo'jalik operatsiyalari bo'yicha har ikkala solishtiruvchi summalaridan ikkinchisi (qishloq xo'jalik korxonalarining foydasi, sotilgan resurslarning sotilish qiymati va hokazo)

Taqqoslovchi schotlar tarkibiga 9910 «Yakuniy moliyaviy natijalar» schotidan tashqari 9210 «Asosiy vositalarning tugatilishi» va 9220 «Boshqa aktivlarning tugatilishi» schotlarini ham kiritish mumkin. Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning tugatish jarayoni nixoyasiga yetgandan so'ng bu schotlarning debet va kredit oborot summalarini o'zaro solishtirilib moliyaviy natija aniqlanadi. Shuning uchun ham bu schotlarni taqqoslovchi schotlar deyish mumkin. Lekin yangi schotlar nejasida bu schotlarni tranzit schotlar tarkibiga qo'shilib, taqqoslovchi schotlar maqomi berilmagan.

### 10.5.Buxgalteriya hisobi schotlarining rejasi.

Schotlar rejasi buxgalteriya hisobi tizimidagi axborotning umumiy tuzilishini, uning xo'jalik mexanizmiga muvofiq holda iqtisodiy tavslifini uniqlab beradi. Buxgalteriya hisobi schotlarni ma'llim bir tizimga solinishi **schotlar rejasi** deyiladi.

Xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tishi, har xil mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni paydo bo'lishi, qishloq xo'jalik korxonalarining rivojlanishi, xalqaro andozalarga mos bo'lgan hisob tizimi va schotlar rejasini ishlab chiqishni talab qildi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 9 sentabrdagi 103 - sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining Milliy (BHMA) (21-BHMS) «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy - xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'triqnomasi»ni tasdiqladi va u O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktabrda 1181-son bilan qayd qilindi.

Ushbu andoza, budjet muassasalari va banklardan tashqari, mulk shakllaridan qati nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan 2004 yil 1 yanvardan boshlab qo'llanila boshlandi..

Yangi schotlar rejası jami bo‘lib 249 ta balansli va 14 ta balansdan tashqari schotlardan iborat bo‘lib, u moliyaviy hisobotlarni tuzishga moslashtirilgan.

Barcha buxgalteriya schotlari oltita qism bo‘yicha tizimga keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

I.Uzoq muddatli aktivlar;

II.Joriy aktivlar;

III.Majburiyatlar;

IV.Xususiy kapital;

V.Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatalishi;

VI.Balansdan tashqari schotlar.

Birinchi to‘rt qism schotlarining ma’lumotlariga asosan moliyaviy hisobotning I-shakli “Buxgalteriya balansi” tuziladi. Beshinchi qism «Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatalishi» schotlarning ma’lumotlariga asosan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2 - shakl ) tuziladi.

Schotlar rejasida barcha schotlar 9 bo‘limda tizimga keltirilib ko‘rsatilgan:

1- bo‘lim. Asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlar;

2- bo‘lim. Tovar - moddiy zahiralar;

3- bo‘lim. Kelgusi davr xarajatlari va muddati uzaytirilgan xarajatlar - joriy qismi;

4- bo‘lim. Olinadigan schotlar - joriy qismi;

5- bo‘lim. Pul mablag‘lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqa joriy aktivlar;

6- bo‘lim. Joriy majburiyatlar;

7- bo‘lim. Uzoq muddatli majburiyatlar;

8- bo‘lim. Kapital, taksimlanmagan foyda va rezervlar;

9- bo‘lim. Daromadlar va xarajatlar.

Birinchidan sakkizinch bo‘limgacha bo‘lgan schotlar balans tuzilishiga mos kelsa, 9-bo‘lim schotlari moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tuzilishiga mos keladi.

Schotlar rejasining birinchi qismi bir (1- bo‘lim) ikkinchi qismi to‘rt (2, 3,4 va 5)lardan, uchinchi qismi ikki (6 va 7), to‘rtinchi qism bir (8- bo‘lim) va beshinchi qism bir (9 - bo‘lim) bo‘limlardan iborat.

Schotlar rejasida schotlar besh guruha bo‘lib ko‘rsatilgan.

1. Aktiv schotlar (A) - xo‘jalik aktivlarini aks ettiradigan va iqtisodiy resurslarning hisobot davridagi ko‘payishini debet tomonida va shu davrdagi kamayishini kredit tomonida aks ettiradigan schotlar.

2. Passiv schotlar (P) - xo‘jalikning majburiyatları va kapitalini aks ettirish uchun tayinlangan, hisobot davri boshidagi qoldiqni, hisobot davri mobaynidagi majburiyatlarini va kapitalni o‘sishi-ni kredit tomonida va shu davrdagi majburiyatlar hamda kapitalning kamayishini debet tomonida aks ettiradigan schotlardir.

3. Kontr - aktiv schot (KA) - bu shunday schotki, moliyaviy isobotda aktivning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig‘i u bilan bogliq bo‘lgan aktiv schotning qoldig‘idan chegirib tashlanadi. Bunday schot passiv schotlarga mansub bo‘lib ko‘payishi kreditida, kamayishi debetida aks ettiriladi.

4. Kontr - passiv schot (KP) - bu shunday schotki, moliyaviy hisobotda majburiyat yoki sof qiymatni aks ettirish uchun uning qoldig‘i u bilan bog‘liq bo‘lgan passiv schotning qoldig‘idan chegirib tashlanadi. Bunday schot aktiv schotlarga mansub bo‘lib ko‘payishi debetida, kamayishi kreditida aks ettiriladi.

Yuqorida keltirilgan schotlarning barchasi doimiy schotlar hisoblanib,

ular hisobot davrining oxirida qoldiqqa ega bo‘lgan va buxgalteriya balansida aks ettiriladigan aktivlar, majburiyatlar va kapital schotlaridir.

5. Tranzit (o‘tkazuvchi) schotlar (T) - hisobot davrida loydalaniladigan, lekin yopilib ketadigan va hisobot davri oxiriga qoldig‘i bo‘lmaydigan daromad hamda xarajatlarning vaqtinchalik schotlaridir. Bu schotlarning ma’lumotlari moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga oladigan tranzit schotlar aktiv schotlarga mansub bo‘lib ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida aks ettiriladi.

Daromadlarni hisobga oladigan schotlar passiv schotlarga mansub bo‘lib,

daromadning ko‘payishi kreditida, kamayishi esa debetida aks ettiriladi.

Schotlarning yuqoridagi guruhlanishidan ko‘rinib turibdiki schotlar rejasida aktiv - passiv schotlar yo‘q. Schotlarning barchasi yoki aktiv - ko‘payishi debetida, kamayishi kreditida aks ettiriladi, yoki passiv - ko‘payishi kreditida, kamayishi debetida aks ettiriladi (majburiyatlarning vujudga kelishi va ularni to‘lash vaqtлari bir hisob registrida chiziqli yozuv usulida birlashtirilmaydi).

Eski schotlar rejasidagi aktiv - passiv schotlar: boshqa debitor va kreditorlar, hisobdor shaxslar bilan hisob - kitoblar, mahsulot sotish va shunga o'xshagan qator schotlar hozirgi amaldagi schotlar rejasida bekor qilingan.

Turli debitor va kreditorlar bilan olib boriladigan hisob - kitoblar har bir debitor va kreditorlik qarzları bo'yicha alohida aktiv yoki passiv schotlarda hisobga olinadi:

a) Schotlar rejasining 4 - «Olinadigan schotlar - joriy qismi» bo'limi (4000 - 4900 schotlar) da mahsulot sotish va boshqa operatsiyalar natijasida vujudga keladigan debtorlar hisobga olinadi.

b) Schotlar rejasining 6 - «Joriy majburiyatlar» bo'limi (6000 -6900 schotlar) da mol sotib olish va boshqa operatsiyalar natijasida vujudga keladigan kreditorlar hisobga olinadi.

Misol uchun safar xarajatlari bo'yicha hisobdor shaxslar bilan bo'ladigan hisob - kitoblarni olaylik. Xizmat safari uchun xo'jalik xodimlaridan biriga naqd pul berilsa:

4220 «Xizmat safarlari uchun berilgan bo'naklar» aktiv schoti debetlanib,

5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schoti kreditlanadi. Hisobdor shaxslar olgan bo'nak summasidan ortiqcha xarajat qilgan bo'lsa, hujjatlar bilan rasmiyashhtirilgan ortiqcha qilingan xarajatlar summasiga 4220 - schoti kreditlanmaydi, chunki u aktiv schot, balki 6970 - «Hisobdor shaxslardan qarz» passiv schoti kreditlanadi. Ortiqcha qilingan safar xarajatlar summasi kassadan to'langanda 6970 schoti debetlanib 5010 schoti kreditlanadi. Mahsulot sotish schoti (zski 46 - «Mahsulot sotish» aktiv - passiv schoti) ham shunday. Eski schotlar rejasi bo'yicha mahsulot sotishdan tushgan tushum 46-schoti kreditida, sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi shu schotning debitida hisobga olingan.

Hozirgi amaldagi schotlar rejasi bo'yicha mahsulot sotishdan tushgan tushum 9010 «Mahsulot sotishdan olingan daromadlar» passiv schotlarga mansub bo'lgan schotning kreditida hisobga olinib, sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 9110 «Sotilgan mahsulot tannarxi» aktiv schotlarga mansub bo'lgan schotning debitida hisobga olinadi.

Schotlar korrespondensiyasi faqat tizimli hisob mohiyatini ochib beradi. Ko'plab schotlar balansli schotlar bo'lib, ular tizimlidir. Balansli schotlar korrespondensiyalanadi.

Lekin balansdan tashqari deb nomlanadigan tizimsiz, korrespondensiyalanmaydigan schotlar ham mavjud. Balansdan tashqari schotlar bo'yicha yozuvlar ikkinchi korrespondensiyalanadigan schotlarsiz amalga oshiriladi.

Balansdan tashqari schotlarning asosiy xususiyati shundaki, ular tizimsiz, oz miqdorda va keng tarqalmagan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ular aktivlar bo'lib hisoblanadi, lekin balansdan tashqari schotlarda hisobga olinadigan ob'ektlarni aktiv va passivga bo'lish ma'lum bir ma'noga ega emas. Balansdan tashqari schotlarning ko'payishi kirimiga, kamayishi chiqimiga yozib boriladi.

Schotlar rejasidagi schotlar kodlaridan tashqari nomiga ham ega. Schotning nomi - bu tub ma'noda schotning o'zidir. Schotlar bilan ish olib borganda, asosan ularning tayinlanishi va foydalanish tamoyillarini bilish zarur.

Hisob sub'ektlari tomonidan qo'llaniladigan schotlarning to'liq ro'yxati schotlar rejasidir. Ayrim sub'ektlar tomonidan qo'llaniladigan schotlar ro'yxatida farqlarning mavjudligi ikki xil schotlar rejasini taqozo etadi: birinchisi - namunali, qonunchilik bilan belgilangan schotlar rejasni, ikkinchisi - buxgalteriya hisobining ishchi (rabochiy) schotlar rejasidir.

Har bir qishloq xo'jalik korxonalari umumiyligi qonunchilik bilan belgilangan schotlar rejasiga asosan o'z ishchi schotlar rejasini tuzib olishlari kerak. Ishchi schotlar rejasida tanlab olingan schotlar miqdori xo'jalik faoliyati turiga qarab barcha qo'llaniladigan xo'jalik operatsiyalari hisobini ta'minlashi kerak.

Hisobning barcha sub'ektlari namunali schotlar rejasidan foydalanishga majbur. Schotlar rejasida ko'rsatilmagan schotlarni qo'llash faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

#### **10.6. Schotlar bilan balans o'rtaсидаги bog'liqlik.**

Buxgalteriya hisobi schotlari buxgalteriya balansi bilan chambarchas bog'liqidir. Faraz qilaylik, oy boshiga qishloq xo'jalik korxonalari balansi quyidagicha bo'lgan:

**Balans  
2000 yil 1 fevraliga bo‘lgan  
(m.s.)**

<b>Aktiv</b>	<b>Summa</b>	<b>Passiv</b>	<b>Summa</b>
1. Asosiy vositalar	200000	1. Ustav kapitali (fondi)	230000
2. Materiallar	40000	2. Foyda	6000
3. Hisob-kitob schoti	10000	3. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar	14000
Jami	250000	Jami	250000

«Materiallar» va «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»i bo‘yicha qo‘srimcha ma’lumotlar:

Material turlari:

A 3000 t. 1 t. ning bahosi 10 so‘m	-	30000 so‘m
B 5000 kg, 1 kg. ning bahosi 2 so‘m	-	10000 so‘m
Jami	-	40000 so‘m

Qishloq xo‘jalik korxonalarining mol yetkazib beruvchilarga qarzi:

“Agromash” O.A.J.iga	-	5000 so‘m
«Ta’mintonchi» A.J.ga	-	9000 so‘m
Jami	-	14000 so‘m

Analitik hisob uchun faqat ikki modda bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanamiz.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining fevral oyidagi xo‘jalik operatsiyalarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi xo‘jalik operatsiyasi. «Agromash» O.A.J.idan quyidagi materiallar olingan:

A 1500 t., 1 t. ning bahosi 10 so‘m	-	15000 so‘m
B 2500 dona, 1 donasining bahosi 2 so‘m	-	5000 so‘m
Jami	-	20000 so‘m

Kelib tushgan materiallar uchun hali hisob-kitob qilinmagan.

Ikkinci xo‘jalik operatsiyasi. Faoliyatni amalga oshirish uchun materiallar sarflangan:

A 2000 t., 1 t.ning bahosi 10 so‘m	-	20000 so‘m
B 3000 kg., 1kg.ning bahosi 2 so‘m	-	6000 so‘m
Jami	-	26000 so‘m

Uchinchi xo‘jalik operatsiyasi. Qishloq xo‘jalik korxonalari xodimlariga ish xaqi hisoblangan 35000 so‘m.

To‘rtinchi xo‘jalik operatsiyasi. Maqsadli moliyalash uchun qishloq xo‘jalik korxonalaridan mablag‘lar olingan 950000 so‘m (\$25000 x 38 so‘m)

Beshinchi xo‘jalik operatsiyasi. Valyuta O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki kursi bo‘yicha so‘mga konvertatsiya qilinib va hisob - kitob schotiga yozilgan- 950000 so‘m.

Oltinchi xo‘jalik operatsiyasi. Mol yetkazib beruvchilarga qarzni uzish uchun hisob-kitob schotidan pul o‘tkazilgan.

- |                         |   |            |
|-------------------------|---|------------|
| a) «Agromash» O.A.J.iga | - | 15000 so‘m |
| b) «ta’minotchi» A.J.ga | - | 9000 so‘m  |

Jami - 24000 so‘m

Yettinchi xo‘jalik operatsiyasi. Asosiy vosita xarid qilindi va puli to‘landi - 17000 so‘m

Sakkizinchi xo‘jalik operatsiyasi. Dalolatnoma bo‘yicha asosiy vosita foydalanishga topshirilgan - 17000 so‘m

To‘qqizinchi xo‘jalik operatsiyasi. Kreditorlarning ko‘rsatgan xizmatlari uchun pul to‘lash hisoblangan - 750 so‘m

O‘ninchи xo‘jalik operatsiyasi. Har xil kreditorlarga hisob – kitob schotidan o‘tkazilgan - 750 so‘m

O‘n birinchi operatsiya. Maqsadli moliyalash hisobidan bajarilgan ishlар aks ettirilgan - 61750 so‘m

Keltirilgan operatsiyalarni hisobda aks ettirish uchun eng avval buxgalteriya yozuvlari (o‘tkazmalar)ni tuzib chiqamiz.

### **2022 yil fevraldagи yozuvlar**

1. D-t - «Xom ashyo va materiallar» schoti	-	20000 so‘m
K-t - «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»-20000 so‘m		
2. D-t - «Asosiy ishlab chiqarish» schoti	-	26000 so‘m
K-t - «Xom ashyo va materiallar» schoti	-	26000 so‘m
3.D-t - «Asosiy ishlab chiqarish» schoti	-	35000 so‘m
K-t - «Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan hisob – kitoblar» schoti	-	35000 so‘m
4. D-t -«Mamlakat ichidagi valyuta schotlari»	-	950000 so‘m
K-t - «Boshqa maqsadli tushumlar» schoti	-	950000 so‘m
5. D-t - «Hisob-kitob schoti»	-	950000 so‘m
K-t - «Mamlakat ichidagi valyuta schotlari»	-	950000 so‘m

6. D-t-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar» - 24000 so‘m

K-t - «Hisob-kitob» schoti	-	24000 so‘m
7. D-t - «Kapital qo‘yilmalar» schoti	-	17000 so‘m
K-t - «Hisob-kitob» schoti	-	17000 so‘m
8. D-t - «Asosiy vositalar» schoti	-	17000 so‘m
K-t - «Kapital qo‘yilmalar» schoti	-	17000 so‘m
9.D-t - «Asosiy ishlab chiqarish» schoti	-	17000 so‘m
K-t - «Har xil kreditorlar bilan hisob-kitoblar» schoti-	750 so‘m	
10.D-t - «Har xil kreditorlar bilan hisob-kitoblar»schoti	-750 so‘m	
K-t - «Hisob-kitob schoti»	-	750 so‘m
11.D-t - «Boshqa maqsadli tushumlar» schoti	-	61750 so‘m
K-t «Asosiy ishlab chiqarish» schoti	-	61750 so‘m
Jami	-	2082250 so‘m

Sintetik schotlar asosida qishloq xo‘jalik korxonalarining yangi balansini tuzamiz.

### BALANS 2020 yil 1 martga bo‘lgan

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
1. Asosiy vositalar	217000	1. Ustav kapitali (fondi)	230000
2. Xom ashyo va materiallar	34000	2. Boshqa maqsadli tushumlar	894250
3. Hisob-kitob schoti	918250	3.Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar	10000
		4.Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblar	35000
Jami	1169250	Jami	1169250

Ko‘rib chiqilgan misol buxgalteriya schotlari bilan balans o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib turibdi.

Sintetik schotlarning yakunlari asosida (ularning tarkibida ochilgan analitik schotlarning ma’lumotlari bilan tekshirilgach) navbatdagi hisobot sanasiga qishloq xo‘jalik korxonalari balansi tuziladi. Shuning uchun schotlardagi qoldiqlar balansning tegishli moddalari bo‘yicha ko‘rsatiladi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Buxgalteriya schetlari haqida tushuncha va uning tuzilishi.
2. Aktiv schetni tuzilishi.
3. Passiv schetni tuzilishi.
4. Ikki yoqlama yozuv va uni ahamiyati.
5. Schetlar korrespondensiyasi va uning turlari.
6. Buxgalteriya hisobi schetlar rejasi.
7. Ishchi schetlar rejasi.
8. Sintetik va analitik schetlar, ular bog'liqligi.
9. Sintetik schetlar bo'yicha oborot qaydnomalari.
10. Analitik schetlar bo'yicha oborot qaydnomalari.

## **11-BOB. HUJJATLASHTIRISH VA INVERTARIZATSIYA**

### **11.1. Hujjatlar haqida tushuncha va rasmiylashtirishga qo'yilgan talablar.**

Biror bir xo'jalik operatsiyasiga tegishli tartibda tuzilgan va rasmiylashtirilgan hujjat bo'lmasa, hisobga olinishi mumkin emas. Shuning uchun har bir hujjat ma'lum talablarni hisobga olgan holda tuzilgan bo'lishligi va undagi operatsiyalarning sodir bo'lishi yoki rasmiylashtirilishida qatnashgan hamda shu bilan tegishli jarayonlar haqiqatda qishloq xo'jalik korxonalarida sodir bo'lganligini tasdiqlovchi shaxslarni imzolari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Buxgalteriya yozuvlariga asos bo'lib hisoblangan hujjatlarda sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Ulardan ko'pchiligi tegishli xodimlarga u yoki bu operatsiyalarni bajarishga ruxsat etadi. Demak, buxgalteriya hujjati operatsiyasining haqiqatda sodir bo'lganligi haqida hamda uni amalga oshirishga bo'lgan huquqning yozma guvohnomasidir.

Hujjat lotincha «documentum» so'zidan olingan bo'lib, isbotnoma, guvohnomani anglatadi. **Hujjat** deb rasmiy ish qog'ozlariga aytildi. **Buxgalteriya hujjati** deb xo'jalik operatsiyalarining haqiqatda sodir bo'lganligini, bo'layotganligini yoki bo'lmoqchi ekanligini yozma ravishdagi tasdig'igi aytildi. **Hujjatlashtirish** hujjatlar majmuasini anglatadi, ya'ni hujjatlashlashtirish deganda xo'jalik operatsiyalarini hujjatlarida rasmiylashtirish jarayoni tushuniladi.

Hujjatlashtirish vositasida amalga oshirilgan operatsiyalarning to'g'riliqi nazorat qilinadi, bajarayotgan ishlarning joriy tahlili olib

boriladi yoki u orqali ba'zi xo'jalik yuritish qoidalarini buzilishi aniqlanadi. Demak, hujjatlashtirish nazorat - analitik funksiyalarni bajaradi.

Mulkni saqlash borasida hujjatlashtirish alohida ahamiyatga egadir. Hujjatlar yordamida moddiy - javobgar shaxslar harakatining to'g'riliqi kuzatiladi (ular tomonidan boyliklarni olish va berish, xo'jalik operatsiyalarini amalgalash qoidalariga rioya qilinishi tekshiriladi). Hujjatlashtirish o'g'irlik qilish hodisalari, turli suiste'molliklarni oldini olish imkonini ham beradi.

Hujjatlashtirishning huquqiy (yuridik) ahamiyati juda kattadir. Hisobda qayd etilgan hodisalarining to'g'riliqini tasdiqlash bilan bir vaqtida, hujjatlar ushbu qishloq xo'jalik korxonalarini bilan boshqa tashkilotlar va shaxslar o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarda inkor qilib bo'lmaydigan dalolatnomasi bo'lib hisoblanadi.

Har bir hujjat shunday rasmiylashtirilgan bo'lishi kerakki, unda amalgalash qoidalarini xaqida to'la - to'kis fikrga ega bo'lish va uning isbotlovchi kuchini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar mavjud bo'lsin. Hujjatlarning tarkibiy unsurlari hisoblangan bu ma'lumotlar uning rekvizitlari deb nomlanadi. Rekvizit (lotincha reqnistium) - bu kerakli, talab qilinadigan degan ma'noni anglatadi.

Lekin xar xil hujjatlarning mazmunidagi katta farqlarga qaramasdan, xar qanday operatsiyani buxgalteriya hisobida aks zittirish uchun zarur bo'lgan rekvizitlar mavjud bo'lishi kerak.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri)»gi Qonunning 14-moddasiga binoan dastlabki hujjatlarni majburiy rekvizitlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

buxgalteriya hisobi sub'ektining nomi;

hujjatning nomi va raqami, u tuzilgan sana va joy;

xo'jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va o'lchov birliklari ko'rsatilgan miqdori o'lchovi (natura va pulda ifodalangan holda);

xo'jalik operatsiyasini bajargan shaxslarning (shaxsning) identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan familiyasi hamda ismi va otasi ismining bosh harflari yoxud boshqa rekvizitlari ko'rsatilgan holda lavozimlari nomi va imzolari.

Ushbu qonunda shu narsa alohida ta'kidlanadiki, dastlabki hisob hujjatlarini tuzgan va imzolagan shaxs ularni o'z vaqtida tuzilganligi, to'g'riliqi, ishonchliligi, shuningdek, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun belgilangan muddatlarda topshirish bo'yicha javobgardir.

Buxgalteriya hujjatlarini tuzishga ham ma'lum talablar qo'yiladi. Barcha hujjatlar o'z vaqtida, qoidaga ko'ra, xo'jalik operatsiyasi sodir bo'layotgan daqiqada, sifatli tuzilishi, ularda ishonchli ma'lumotlar bo'lishi hamda barcha majbuliy rekvizitlarga ega bo'lishi kerak.

Hozirgi paytda buxgalteriya hisobida avtomatlashtirish vositalari qo'llanilayotganligi tufayli, hujjatlar, shuningdek, hujjatlashtirish talablariga javob beradigan tartibda joylashtirilgan (joylanishining ketma - ketligi, zaruriy ma'lumotlarning maxsus ajratib ko'rsatilganligi va hokazo) rekvizitlarga ega bo'lishi kerak. Ayrim rekvizitlarning shifrlari (raqamli belgilari) hujjatda tegishli matn mazmuni bilan ko'rsatilishi kerak.

Agar yig'ma hujjat mashina yordamida tuzilsa, unda bu hujjatda uning mazmunini tavsiflovchi sarlavha, undagi ma'lumotlarning isbotlovchi hujjatlarga muvofiqligini tasdiqlovchi shaxslarning imzolari keltiriladi.

Isbotlovchi hujjatlarning vazifasi axborotni mashinali tashuvchi bajarganda, u qo'l bilan tayyorlanganga o'xhash isbotlovchi hujjatning barcha rekvizitlariga ega bo'lishi kerak. Hisob axborotini u yoki bu mashinali tashuvchisida avtomatik tarzda qayd etilgan operatsiyalar majmuasi to'g'risidagi yakuniy ma'lumotlar keyinchalik barcha majbuliy rekvizitlarga ega bo'lgan tegishli hujjatni tuzish bilan tasdiqlanishi kerak.

Hujjatlarni siyoh, kimyoviy qalam bilan, yozuv mashinalari yoki boshqa mexanizmlar yordamida yozishga ruxsat etiladi. Ayniqsa, pul hujjatlari - kirim va chiqim kassa orderlari, cheklari, to'lov topshiriqlari va boshqa bank hujjatlarini rasmiylashtirishda qat'iy tartib o'matilgan. Ularni yozib berish bank tomonidan o'matilgan qoidalarga binoan amalga oshiriladi. Hujjatlarning tartibli tuzilishi, matn va raqamlarning aniq va ravshan yozilishi, unda rasmiylashtirilgan operatsiyaning mazmuni va hajmini osonlik bilan tushunib olishni ta'minlaydi. Hujjatdagi imzolar aniq va ravshan bo'lishi kerak. Hujjatdagи matnda ham, raqamli ma'lumotlarda ham hech qanday tozalashlar, dog' va izohlanmagan to'g'rakashlarga ruxsat etilmaydi. Kirim va chiqim kassa orderlarida umuman hech qanday to'g'rakashlarga yo'l qo'yilmaydi. Hujjatlardagi ma'lumotlarning ishonchligi va ularning yuqori sifatli tuzilganligi uchun ularga imzo chekkan xodimlar (sex boshliqlari, omborchilar, klassirlar va boshqalar) javob beradi.

Hujjatlardan ikki marta (qayta) foydalanishga yo'l qo'ymaslik maqsadida ulardan ba'zilari o'chiriladi. Bu kirim va chiqim orderlarga

biriktiriladigan barcha hujjatlar (arizalar, ishonchnomalar va shu kabilar)ga tegishlidir. O'chirish maxsus to'rtburchak muhr (shtamp) bilan yoki «Olindi» yoki «To'lanadi» degan imzo bilan, sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi. «O'chirildi» degan muhr bilan barcha bank hujjatlari hamda ish haqini hisoblash yoki boshqa to'lovlar qilishga asos bo'lgan hujjatlarning amal qilishi to'xtatiladi.

Xo'jalik operatsiyalari ustidan kuzatishni amalga oshirishni ta'minlab va ularni, albatta, schotlarda aks ettirilishining sharti bo'lib hisoblangan hujjatlashtirish, buxgalteriya hisobi usulining tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Boshqaruv hisobi tizimida ishlab chiqarishning normal holatida materiallar, mehnat va hokazolarni ishlab chiqarishga sarflashning belgilangan me'yorlaridan (standartlardan) chetga og'ishishlarni rasmiylashtirish uchun mo'ljallangan xabar berish (signal) hujjatlari alohida muhim ahamiyatga egadir.

Hisob axborotining moddiy tashuvchilari qatoriga bosma ish qog'ozlar (blankalar), vinchestr, fayllar, disketlar, perfokartalar, perfolentalar, magnit lentalar va shu kabilarni kiritish mumkin. Ulardan qishloq xo'jalik korxonalaridagi xo'jalik operatsiyalarini olish va ishslash uchun qo'llanilayotgan texnika vositalariga qarab foydalaniladi. Hozirgi vaqtda, ko'pchilik hollarda eng keng tarqalgan moddiy tashuvchilar hisob bosma ish qog'ozlari (blankalari) hisoblanadi. Hisob bosma ish qog'ozlarida aks ettiriladigan operatsiyalar mazmunining hajmiga qarab har xil bo'ladi.

Hisob bosma ish qog'ozlari qo'l bilan yoki PEHM yordamida to'ldiriladi. Bosma ish qog'ozida hujjatlar kerakli miqdordagi ko'chirmalarni olish maqsadida odatda bir nechta nusxada tuziladi. Qishloq xo'jalik korxonalarining ko'pchiligidagi xo'jalik operatsiyalarini bevosita aks ettirish hisob bosma ish qog'ozlarini to'ldirish yordamida amalga oshiriladi.

## **11.2.Hujjatlarni turkumlanishi va xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish.**

Qishloq xo'jalik korxonalarilarda sodir bo'ladigan xo'jalik operatsiyalari o'zlarining mazmunlariga ko'ra har xil bo'ladi. Hujjatlar o'rtasidagi farqlar, shuningdek, ulardan hisob ishlarida foydalanishning xususiyatlari bilan ham shartlanadi. Shu munosabat bilan hujjatlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri qo'llash uchun ularning barcha turlarini

yaxshi bilib olish kerak bo‘ladi. Buning uchun hujjatlarni ma’lum bir xususiyatiga qarab tasniflash zarur.

Buxgalteriya hujjatlari quyidagi belgilarga qarab turkumlanadi:

- ♦ qanday maqsadlarga tayinlanganligiga;
- ♦ tuzish tartibi va operatsiyalarini qamrab olishligiga.

Hujjatlar qanday maqsadga tayinlanganligiga qarab farmoyish isbotlovchi (tasdiqlovchi) buxgalteriya rasmiylashtiruvchi va aralash (kombinatsiyalashtirilgan) turlarga bo‘linadi.

Farmoyish deb, u yoki bu xo‘jalik operatsiyalarini bajarish to‘g‘risidagi buyruq (farmoyish)ga ega bo‘lgan hujjatlarga aytildi. Ularga buyruqlar, cheklar, ishonchnomalar va boshqalar kiradi. Ularning asosiy vazifasi rahbar xodimlarning topshirig‘i bevosita bajaruvchilarga topshirishdan iborat.

Isbotlovchi (yoki bajaruvchi) hujjatlar deb amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtiruvchi hujjatlarga aytildi. Ular xo‘jalik operatsiyalarini sodir bo‘lish daqiqasida tuziladi va ushbu xo‘jalik operatsiyalarini hisobda qayd qilishning birinchi bosqichini anglatadi.

Isbotlovchi hujjatlarga misol bo‘lib kirim orderlari hisoblanadi.

Buxgateriya rasmiylashtiruvchi hujjatlari deb buxgalteriya xodimlari tomonidan hisob yozuvlarini tayyorlash hamda ularni yengillashtirish, qisqartirish va soddalashtirish uchun yaratilgan hujjatlarga aytildi. Bularga taqsimlovchi, hisob - kitoblar (masalan, kalkulyatsiya), turli-tuman buxgalteriya ma’lumotlari va shu kabilar kiradi.

Buxgalteriya ma’lumotnomalari ma’lum summani bir schotdan boshqa schotga o‘tkazish kerak bo‘lganda, u yopishni rasmiylashtirish, hisob yozuvlarida yo‘l qo‘yilgan xatoni to‘g‘rilash hollarida va hokazolarda tuziladi. Bunga bo‘lgan ehtiyoj juda ko‘p uchraydi. Shuning uchun unga o‘xhash ma’lumotlarni tuzish buxgalteriya amaliyotida juda keng tarqalgan.

Buxgalteriya rasmiylashtiruvchi hujjatlarining turlaridan biri, amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha schotlar korrespondensiyasi mazkur xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirilgan asosiy hujjatning bosma ish qog‘ozi (blanki)ning shu maqsad uchun maxsus ajratilgan joyida yoki boshqa usul bilan ko‘rsatilishi hisoblanadi.

Aralash (kombinatsiyalashtirilgan) hujjatlar deb bir nechta hujjatlar turining, ya’ni farmoyish, isbotlovchi va buxgalteriya rasmiylashtiruv hujjatlarining belgilarini birga qo‘sib olib boradigan hujjatlarga aytildi.

Aralash hujjatlarga misol sifatida bo'nak (avans) hisobotini keltirish mumkin. U hisobdor shaxs tomonidan olingen bo'nakdan qilingan xarajatlarni ko'rsatish uchun tuziladi. Bu xarajatlarning ro'yxati ularni tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatilgan holda hisobdor shaxs tomonidan bo'nak hisobotining orqa tomonida keltiriladi. Hisobotning yuz tomonida har xil ma'lumotlar - hisobdor shaxsnинг ismi, sharifi, unga berilgan summa va hokazo keltiriladi. Zarur bo'lgan hollarda shu betning o'zida buxgalteriya xodimi tomonidan alohida ajratilgan joyda xarajatlar qanday schotlarda aks ettirilishi kerakligi ham ko'rsatiladi.

Tuzilish navbatiga qarab hujjatlar dastlabki (birlamchi) va yig'ma hujjatlarga bo'linadi.

Dastlabki hujjat deb sodir bo'lib o'tgan xo'jalik operatsiyalarini dastlab aks ettiradigan hujjatlarga aytildi. Ular mazkur xo'jalik operatsiyalari haqiqatda bajarilganligining isboti bo'lib hisoblanadi.

Dastlabki hujjatga misol sifatida materiallar uchun talabnomalarni keltirish mumkin. Ular materiallarni ombordan berilishida tuziladi va omborchi tomonidan unga materiallarni berish to'g'risidagi farmoyishning bajarilganligi haqida guvohlik beradi. Dastlabki hujjatlar tarkibiga, shuningdek, qabul qilish - topshirish dalolatnomalari, nakladnoylar, til-xat, kvitansiylar va boshqalarni kiritish mumkin.

Yig'ma hujjat deb dastlabki hujjatlar asosida tuziladigan hujjatlarga aytildi. Ularda tegishli dastlabki hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan xo'jalik operatsiyalarini aks ettiriladi. Yig'ma hujjatlarga yuqorida ko'rib chiqilgan bo'nak hisoboti, umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash vedomostlari, kalkulyatsiyalar va boshqalar kiradi.

Xo'jalik operatsiyalarini qamrab olish usuliga qarab, hujjatlar bir martalik va ko'p martaliklarga bo'linadi.

Bir martalik hujjatlar bitta yoki bir vaqtning o'zida bir nechta xo'jalik operatsiyalarini aks ettiradi. Bu, tuzilib bo'lgandan keyinroq buxgalteriya topshirilishi va buxgalteriya yozuvlari uchun ishlatalishi mumkin.

Bir martalik hujjatlariga kirim orderlari, qabul qilish - topshirish dalolatnomalari, to'lov talabnomalari, kassa orderlari va hokazolar kiritilishi mumkin.

Ko'p martalik hujjatlar qishloq xo'jalik korxonalarida har xil vaqtarda (bir hafta, dekadada, oyda) amalga oshirilayotgan bir turdag'i xo'jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish uchun xizmat qiladi. Ular qishloq xo'jalik korxonalarida qisqa vaqt ichida ko'plab sodir bo'ladigan xo'jalik operatsiyalarini bo'yicha yozib boriladigan hujjatlar sonini

qisqartirish maqsadida tuziladi. Bunga “Ish vaqtini hisobga olish tabeli”, “Yem-xashak sarflash qaydnomasi” hujjatlarikiradi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish ikki bosqichdan, yani aks ettililadigan jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni idrok etish (hisoblab chiqish, o‘lchash, chamalab ko‘rmoq) va olingan ma’lumotlarni hujjatlarga yozib qo‘yish (uning rekvizitlarini yozib qo‘yish)dan iborat. Ma’lumotlarni idrok etish va ularni hujjatlarga yozib qo‘yish dastlabki hisob deb ataladi.U quyidagi uch elementdan iborat:

- 1.Buxgalteriya hujjatlari.
- 2.Hisobdor shaxsning kirim-chiqim daftari.
3. Hisobdor shaxsning hisoboti.

Dastlabki hisob - buxgalteriya ishlaringin ko‘pchilik qismini hosil qiladi. Shuning uchun uni soddalashtirish katta ahamiyatga ega bo‘lgan juda muhim muammodir. Dastlabki hisobning yuritishga sarflanadigan vaqtini qisqartirish, hisob va rejalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha boshqa ishlarga qilinadigan sarflarni kamaytirish singari, buxgalteriya xodimlari sonini optimallashtirish va shu bilan davr xarajatlarini kamaytirishga olibkeladi.

Dastlabki hisobni avtomatlashtirish moliyaviy va boshqaruv hisobini tashkil qilishda bosh muammo bo‘lib hisoblanadi. Bu muammoni yechish hujjatlarni yozib berish bilan shug‘ullanadigan xodimlar sonini qisqartirish, buxgalteriya xodimlarini saqlash xarajatlarini kamaytirish va buxgalteriya xodimlarini mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Undan tashqari, hujjatlashtirish bilan shug‘ullanadigan xodimlar o‘zlariga xos bo‘limgan ishlardan ozod bo‘ladilar.

### **11.3.Hujjatlar aylanishi va ularni saqlash.**

Buxgalteriya hujjatlari yozib berilish daqiqasidan tortib to arxivga topshirilgunga qadar ancha uzun bo‘lgan yo‘ldan o‘tib boradilar. Tezkor boshqaruvdan foydalanib bo‘lgandan keyin hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xo‘jalik operatsiyalarini moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimida yig‘ma ma’lumotlarni olish maqsadida aks ettirish uchun buxgalteriyaga topshiriladi. Bu yerda buxgalteriya xodimlari ularga qarab amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarini maqsadga muvofiqligi va qonuniyligini tekshirayotgan paytda, ulardan nazorat maqsadlarida ham foydalanadi. Hujjatlar ishlanib bo‘lganidan keyin arxivga saqlash uchun topshiriladi. Shunday qilib, **hujjatlar aylanishi** deganda, ularning

tuzilgan daqiqasidan yoki boshqa xo‘jalikdan kelib tushganidan boshlab to arxivga saqlash uchun topshirishgacha bosib o‘tgan yo‘li tushuniladi.

Endi buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishining mazmunini chuqurroq o‘rganib chiqamiz.

Buxgalteriya xodimlariga kelib tushgan hujjatlar birinchi navbatda xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi, ularning rasmiylashtirishga doir talablarning bajarilishi, arifmetik amallar va hisoblarning **to‘g‘riliqi nuqtai nazaridan** tekshiriladi.

Hujjatlarni shakliga qarab tekshirish (rasmiy deb nomlangan tekshirish) hujjatlarni rekvizitlarini to‘ldirishning to‘la ekanligini aniqlash, ularda tegishli imzolarni mavjudligi va shu kabilarni aniqlashdan iborat. Bunda bir vaqtning o‘zida xo‘jalik operatsiyalarni aks ettirishning ravshanligi, unga o‘lchov birliklarining (natural, mehnat va pulda ifodalangan) aniq keltirilganligi, hujjatni tuzish sanasining to‘g‘ri ko‘rsatilganligi ham tekshiriladi.

Arifmetik amallar va hisoblashni tekshirish (arifmetik tekshirish) hujjatlarini to‘ldirish paytida arifmetik amallarning to‘g‘ri bajarilganligini, miqdorini bahoga ko‘paytirish, yakuniy summalarini topishda qo‘sish amalini qo‘llab tekshiriqdan iborat.

Hujjatlarni faqat tekshirilib va ularning to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilgandan keyingina hujjatlarni topshiruvchilardan buxgalteriyaga qabul qilib olish mumkin.

Hujjatlarni qabul qilish odatda reestr nusxasiga topshirilayotgan Hujjatlar ro‘yxatiga imzo qo‘yish bilan rasmiylashtiriladi. Masalan, ombor mudiri moddiy boyliklarning bir kunlik kirimi va chiqimi to‘g‘risidagi barcha hujjatlarni tayyorlayotganda ularni buxgalteriyaga jo‘natish uchun to‘ldirilgan hamda ilova qilib yuborilgan reestrda tilxat oladi, kassir kassa kirim va chiqim hujjatlarini ular qayd qilingan kassa daftarlariiga imzo qo‘ydirib buxgalteriyaga topshiradilar.

Tekshirilgan va buxgalteriyadan qabul qilingan hujjatlar qayta ishlanadi. Bu hujjatlarni qayta ishslash uch bosqichdan: baholash, guruhlash va kontirovka (belgilash)dan iborat.

Hujjatlarni baholash yoki taksirovkalash - bu hujjatlarda ko‘rsatilgan moddiy boyliklarni pul o‘lchov birligida baholashdir.

Baholangan (taksirovkalangan) hujjatlar guruhlarga ajratiladi. Hujjatlarning guruhanishi deganda, ularni o‘z mazmunlariga ko‘ra bir turdagи pachkalarga ayirish (ajratish) tushuniladi.

Shunday yo‘l bilan kassa hujjatlari, materiallarning kirimi hamda sarfiga, mahsulot sotilishiga doir hujjatlar va hokazolar pachkalarga

teriladi. Bu pachkalarining har biri ichida hujjatlar maydaroq guruhlarga ajratiladi. Dastlabki hujjatlarning guruhlanishi, odatda olingan ma'lumotlarning keyingi qayta ishlashlarni osonlashtiradigan yig'ma hujjatlarni tuzish bilan yakunlanadi.

Ko'pincha dastlabki hujjatlar buxgalteriyaga tuzib olingan hisobotlar bilan bir martalikda kelib tushadi. Agar guruhlash buxgalteriyada olib borilsa, unda uning maxsus vedomosti bilan rasmiylashtiriladi.

Buxgalteriya hujjatlarini guruhlashni amalga oshiradigan vedomostlarning ikki turi mavjud. Qabul qilingan hujjatlardagi ma'lumotlarni jamg'arish uchun xizmat qiladigan ko'p martalik hujjatlar va buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni tizimga solish uchun mo'ljallangan guruhlovchi hujjatlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, hisobni soddalashtirish maqsadida ko'p martalik va guruhlovchi vedomostlari dagi summalar ko'pincha ham sintetik, ham analitik qismlarda aks ettiriladi. Natijada tegishli sintetik schotlarda mustaqil tartibda analitik hisobni yuritishga hojat qolmaydi.

Hozirgi vaqtida dastlabki va yig'ma hujjatlar, shu jumladan ko'p martalik va guruhlovchi vedomostlarni ham ishslash amalgalashmoqda.

Keyinchalik hujjatlar kontirovkaga yuboriladi. Hujjatlarni kontirovka qilish deganda mazkur operatsiya bo'yicha korrespondensiyalanuvchi schotlarni ko'rsatish, ya'ni buxgalteriya yozuvini tushuniladi. U har xil usullar bilan yuritiladi.

Schotlar bo'yicha yozuvlarning ikkinchi marta qaytarilishining oldini olish maqsadida hujjatlarda tegishli belgilari qo'yiladi. Buning uchun hujjatlarning bosma ish qog'ozining o'zida yoki maxsus muhr qo'yilgan joyda quyidagi yozuv keltiriladi: «... raqamli yozuvga ... varaq ilova keltirilgan, sana, 200\_y.».

Hujjatlar kontirovka qilingandan keyin operatsiyalar sintetik va analitik schotlarda (joriy buxgalteriya hisobida) aks ettiriladi. Keyin hujjatlar arxivga topshiriladi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobining joriy yil hujjatlari buxgalteriya arxivida saqlanadi, chunki ular qishloq xo'jalik korxonalarini va uning tarkibiy bo'linmalari ustidan rahbarlik qilish, ularning faoliyatini boshqarish hamda har xil turdag'i ma'lumotlar tuzish uchun kerak bo'ladi. Yil boshida o'tgan yildagi hujjatlar buxgalteriya arxiviga topshiriladi. U yerda ular amaldagi qoidalar bilan belgilangan muddatda saqlanadi.

Odatda buxgalteriya hujjatlarini saqlashning quyidagi muddatlari belgilangan: turli - tuman hujjatlarning koreshoklari (orderlar, nakladnoylar, kvitansiyalar, chek daftarlari va shu kabilar) uchun 1 yil, bo'nak hisobotlar, ularga ilova qilingan hujjatlar, schotlar, to'lov talabnomalari, nakladnoylar, qaydnomalar va boshqa tovar - moddiy boyliklarga doir hujjatlar, hisob - kitob va to'lov vedomostlari uchun 3 yil; kassa va bank hujjatlari uchun 5 yil. Boshqaruv hisobining hujjatlari rahbarning ixtiyori bilan belgilangan muddatgacha saqlanadi.

#### **11.4. Inventarizatsiya haqida tushuncha va uning turlari.**

Buxgalteriya hisobining oldiga qo'yiladigan muhim talablardan biri uning ko'rsatkichlarining realliga (to'g'riliqi)ni ta'minlashdir. Bu talabga javob berganda buxgalteriya hisobining ma'lumotlarni haqikatga to'la-to'kis muvofiq bo'ladi.

Hisob ma'lumotlari ba'zilarda haqiqatga to'g'ri kelavermaydi. Bu quyidagi sabablar bilan sodir bo'lishi mumkin:

1. Tabiiy sabablar - materiallarning og'irligi yoki sifati, havoning harorati yoki namligining o'zgarishi, kemiruvchi hashoratlar, mikroblar va boshqalar tomonidan buzilishi, ularni saklash, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish paytida zurish, parlanish, to'kilish va shu kabilar natijasida ko'rilgan yo'qotishlardan iborat;

2. Moddiy qiymatliklarni qabul kilish yoki berishdagi noaniqliklar kam o'lhash, xato hisoblash, kam tortish natijasida mablag'ning boshqa miqdori yoki sifati (hajm, nav)ni hayd etilishidir. Moddiy boyliklarning bir navini (sifatini) boshqasi bilan aralashish xillarni almashtirish (peresortitsa) deb nomlanadi;

3. Hisobdaga xatolar - dastlabki hujjatlarda xato yozuvlar, hisoblab chiqishdagi arifmetik xatolar, schotlarda hujjat ma'lumotlarini noto'g'ri aks ettirish va shu kabilardan iborat;

4. Suiste'molliklar - o'g'riliklar, kam tortish yoki kam o'lhash, pullar va boshqalarni berishdagi kam hisoblash hamda mablag'larni to'g'ridan - to'g'ri o'zlashtirib olishdan iborat.

Haqiqiy qoldiqlarni inventarizatsiya (inventarizatsiya) qilish deb nomlanadigan maxsus ro'yxatga olish yo'li bilan aniqlanadi.

Inventarizatsiya (inventarizatsiya) o'tkazish tartibi 19-BHMS «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» bilan belgilanadi.

**Inventarizatsiya**-bu xo'jalik aktivlari va majburiyatlarini haqiqatda mavjudligini hisob ma'lumotlari bilan taqqoslash jarayoniga aytildi. Inventarizatsiya buxgalteriya hisobi usulining elementlaridan biridir.

Shunday qilib, inventarizatsiya qilish hujjatlashtirishning majburiy qo'shimchasidir. Faqat shu usullarning har ikkalasi - hujjatlashtirish va inventarizatsiya qilishning yordamidagina barcha xo'jalik hodisalari to'la-to'kis aks ettirilishi ta'minlanadi.

Mablag'larni to'la qamrab olishligiga qarab inventarizatsiya qilish ikki turga, ya'ni to'la va qisman inventarizatsiya qilishga bo'linadi.

To'la inventarizatsiya qilish beistisno barcha xo'jalik mablag'larini o'z ichiga oladi. U qoidaga ko'ra, yillik hisobotdan oldin, keyingi yilning 1 yanvaridagi holatda tuziladi. Lekin uning juda murakkabligi va ko'p mehnat talabligi tufayli mablag'larning ayrim turlarining inventarizatsiyasini oldinroq o'tkazsa ham bo'laveradi. Masalan, asosiy vositalarni 1 noyabrdan, kapital sarflarni 1 dekabrdan, tovarlar, tayer mahsulot, ishlab chnqarish zahiralarini 1 oktabrdan oldin emas va hokazo.

Qisman inventarizatsiya qilish xo'jalik mablag'larining biror turini o'z ichiga oladi, masalan, faqat materiallarni yoki faqat mol yetkazib beruvchilar bilan hisob - kitoblarni. Ular to'la inventarizatsiyadan tashqari, yil davomida bir necha marta hisob ma'lumotlarining aniqligini ta'minlash, o'g'riliklarga va talofatlarga qarshi kurashni kuchaytirish hamda moliyaviy intizomni kuchaytirish maqsadida o'tkazilishi kerak.

19-BHMSga ko'ra, hisobot yilda o'tkaziladigan inventarizatsiyalar soni, ularni o'tkazish sanasi, ularning har birida tekshiriladigan mulklar va majburiyatlar ro'yxati, inventarizatsiya o'tkazish majburiy bo'lмаган boshqa hollarda, qishloq xo'jalik korxonalarining o'zi tomonidan belgilanadi.

Inventarizatsiya o'tkazish quyidagi hollarda majburiydir:

qishloq xo'jalik korxonalari mulki ijaraga berilganda;

sotilganda;

moddiy javobgar shaxslar almashtirilganda (ishlarnn qabul qilish - topshirish kuniga);

o'g'irliklar va suiste'molliklar hamda qimmatliklarning buzilishi holatlari aniqlanganda;

yillik buxgalteriya hisobotini tuzishdan oldin.

Imoratlar, inshootlar va boshqa harakatsiz vositalarning inventarizatsiyasi har ikki - uch yilda bir marta, kutubxona ob'ektlariniki esa besh yilda bir marta o'tkazilishi mumkin.

Asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, tayyor mahsulot va shu kabilarning inventarizatsiyasi bir yilda kamida bir marta o'tkazilishi kerak (to'la inventarizatsiya o'tkazilganda). Boshqa mablag'larning

inventarizatsiyasini tez - tez o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Masalan, debitor va kreditorlar bilan hisob -kitobning inventarizatsiyasi bir yilda kamida ikki marta, budgetga to'lovlari bo'yicha hisob - kitobni har chorakda kamida bir marta, pul mablag'larini har oyda bir marta, banklar bilan hisob - kitobni xar oyning birinchi kuniga o'tkazish lozim.

Inventarizatsiya o'tkazish o'zining xarakteriga ko'ra rejali va to'satdan (rejadan tashqari) o'tkaziladigan inventarizatsiyaga bo'linadi.

Rejali inventarizatsiya, uning maqsadga muvofiqligi va yaxshiroq o'tkazilishidan kelib chiqqan holda, oldindan belgilangan muddatlarda o'tkaziladi. To'satdan (rejadan tashqari) o'tkaziladigan inventarizatsiya qishloq xo'jalik korxonalari rahbarining farmoyishi bilan bilan tabiiy ofatlar (o't ketishi, suv toshqini)lardan keyin hamda moddiy javobgar shaxslar almashganida o'tkaziladi.

### **11.5.Inventarizatsiyani o'tkazish va natijalarini aniqlash.**

Inventarizatsiya o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish uchun ma'lum tartib mavjud bo'ladi.

Inventarizatsiya qishloq xo'jalik korxonalari rahbari tomonidan tayinlangan va buyruq bilan tasdiqlanadigan maxsus komissiya tomonidan o'tkaziladi. Inventarizatsiya o'tkazish arafasida tekshiriladigan qiymatliklar saqlanadigan joylarda barcha kirim va chiqim hujjatlarining ishlovi tugallangan, analitik hisobdagagi barcha yozuvlar qilingan va qoldiqlar chiqarilgan bo'lishi kerak. Inventarizatsiya qilingan barcha buyumlar raqami, sanalari, hajmlari bo'yicha joylashtirilgan har xil buyumlar saralanib joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Inventarizatsiya har bir saqlash joyi va moddiy javobgar shaxs bo'yicha, uning qatnashuvida alohida - alohida o'tkaziladi. Barcha moddiy boyliklar, albatta, sanash, tortish yoki o'lhash yo'li bilan tekshirib chiqiladi.

Aniqlangan va hisoblab chiqilgan qiymatliklar haqidagi ma'lumotlar barcha inventarizatsiya komissiyasi a'zolari tomonidan izohlanadigan inventarizatsiya ro'yxatiga yozib qo'yiladi. Moddiy javobgar shaxs, ro'yxatda keltirilgan barcha qiymatliklar uning qatnashuvida tekshirilganligi, ularni uning javobgarligida saqlovga qabul qilinganligi va komissiyaga hech qanday da'vosi yo'qligi haqida tilxat beradi. Agar da'vosi bo'lsa, unda da'volar nimadan iborat ekanligi aniq ko'rsatiladi.

Shunday qilib, inventarizatsiya ro‘yxatlari xo‘jalik mablag‘larining haqiqatda mavjudligi va holatini aks ettiruvchi hujjatlardan iborat ekan. Inventarizatsiya o‘tkazib bo‘lingandan keyin bu hujjatlar buxgalteriyaga ularning haqiqiy qoldiqlarini hisob ma’lumotlaridagi bilan solishtirish va ularni inventarizatsiyadagi ma’lumotlarga muvofiqlashtirish uchun topshiriladi. Inventarizatsiya natijalarini aniqlash maqsadida buxgalteriya solishtiruv vedomostini tuzadi. Ular inventarizatsiya vedomostlarining ma’lumotlari buxgalteriya hisobining tegishli ma’lumotlari bilan solishtirib tekshiriladi. Shu yerda inventarizatsiya natijalarda ortiqcha chiqishi yoki kamomadlari ham aniqlanadi. Barcha ma’lumotlar ham natura, ham pul o‘lchov birliklarida ko‘rsatiladi. Solishtiruvchi vedomostga barcha inventarizatsiya qilingan qiymatliklar bo‘yicha ma’lumotlar emas, balki fakat hisob ma’lumotlaridan chetlangan qiymatliklarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar kiritiladi. Bunda solishtiruvchi vedomostlardagi ma’lumotlar hisobda qabul qilingan turkumlanishga muvofiq joylashtiriladi.

Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish uchun inventarizatsiya va solishtiruvchi vedomostlarning shakllarini birlashtiruvchi bosma ish qog‘ozlari (blanka)dan foydalanish mumkin. Inventarizatsiya komissiyasi tomonidan bu bosma ish qog‘ozlariga qiymatliklar to‘g‘risidagi huquqiy ma’lumotlar kiritilgandan keyin unga buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini yozib qo‘yiladi va har ikkala ko‘rsatkichlarni solishtirib tekshirib chiqiladi.

Inventarizatsiya komissiyasi o‘tkazilgan inventarizatsiya natijasida topilgan kamomadlar va ortiqcha chiqishlar sabablarini aniqlaydi. Qiymatliklarning yo‘qolishi va buzilishi sabablari haqidagi qarorlarni komissiya tegishli xodimlarning tushuntiruv xatlari va boshqa ma’lumotlari asosida qabul qiladi. Inventarizatsiya komissiyasining barcha xulosalari, takliflari va qarorlari qishloq xo‘jalik korxonalari rahbari tomonidan tasdiqlanadigan majlis bayoni bilan rasmiylashtiriladi. O‘zining xulosasida komissiya aniqlangan farqlarni tartibga solishni ham belgilaydi.

#### **11.6. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish tartibi.**

Inventarizatsiya o‘tkazish va boshqa tekshiruvlar natijasida qiymatliklarning haqiqiy qoldiqlari bilan buxgalteriya hisobidagi ma’lumotlari o‘rtasida aniqlangan farqlar quyidagicha tartibga solinadi.

Moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va boshqa mulklarning kamomadlari quyidagi yo‘l bilan hisobdan chiqariladi: tabiiy yo‘qolish

me'yorlari chegarasidagi yo'qolishlar, agar aybdor shaxslar aniqlanmagan bo'lsa yoki aybdorlar undirib olish sud tomonidan inkor qilingan bo'lsa, ishlab chiqarish, operatsion, davr xarajatlariga; me'yorlardan ortiqcha hamda buzilishlardan ko'rilgan talofatlar aybdor shaxslar hisobidan undiriladi. Bunda kam chiqqan tovarlar (material, mulklar) qiymatining kamomadi aybdor shaxslardan ushbu yoki shu kabi tovarlar (boshqa moddiy boyliklar)ning kamomadi aniqlangan daqiqasiga bo'lgan bozor bahosidagi qiymati undirib olinadi. Baholardagi farqlar moliyaviy natijalarga olib boriladi.

**Bu xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobi schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:**

**1.Aniqlangan kamomad qiymati hisob bahosida**

D-t 5910 «Kamomad va moddiy boyliklarning buzilishi keladigan nobudgarchiliklar»

K-t Kamomad bo'lgan moddiy boyliklarni hisobga oladigan schotlar

**2.Moddiy javobgar shaxslardan undirib olinadigan (bozor bahosidagi) summaga**

D-t 4730 «Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi» (bozor bahosida undirilib olinadigan summaga)

K-t 5910 «Kamomadlar va moddiy boyliklarning buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar» (kamomadning balans qiymati)

K-t 6230 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar» (Moddiy javobgar shaxslardan undirib olinadigan summa bilan qiymati orasidagi farq summaga) qiymati o'rtasidagi farq - baholardagi farq summasiga.

**3.Kamomad summasi undirilganda quyidagi buxgalteriya operatsiyalari beriladi.**

D-t 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» yoki 6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisob - kitoblar»

K-t 4730 «Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimning qarzi» Ushbu operatsiya undirilgan kamomadning bozor bahosidagi summasiga beriladi.

Shu bilan birga moddiy javobgar shaxsdan undiriladigan summa bilan qiymatliklarning balans bahosi o'rtasidagi farq quyidagi xo'jalik operatsiyasi bilan daromadga o'tkaziladi:

D-t 6230 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»

K-t 9390 «Boshqa operatsion daromadlar»

Bir davrning o'zida va bir moddiy javobgar shaxsda bir turdag'i tovar -moddiy boyliklarning kamomadi va ortiqcha chiqishlari o'zaro

xo'jalik hisobiga o'tkazilishi mumkin. Kam chiqqan boyliklar qiymati aybdor shaxslar hisobiga olib boriladi.

Moddiy qiymatliklarni ortiqcha chiqishi aniqlanganda u 19- BHMS ning 5.7 bandiga binoan kirimga olinib, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalariga o'tkaziladi. Bu operatsiya quyidagi yozuv bilan rasmiylashtiriladi:

D-t Tegishli moddiy qiymatliklarni hisobga oladigan schotlar.

K-t 9390 «Boshqa operatsion daromadlar»

Kamomadlar va ortiqcha chikishlarning har bir hodisasida farqlarning yuzaga kelish sabablari chuqur va har tomonlama o'rganshshshi zarur.

Buni quyida keltirilgan chizmadan ko'rish mumkin:

9390 «Boshqa operatsion daromadlar»		«Moddiy boyliklarni hisobga oladigan schotlar»	
D-t	K-t	D-t	K-t

---

Tabiiy yo'qolish me'yorlari chegarasidagi yoki undan yuqori bo'lgan kamomadlar, aybdor shaxslar bo'limganda, tabiiy talofat hisoblanib, paydo bo'lgan joyiga qarab, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini yoki davr xarajatlarini oshirishi kerak.

Ortiqcha chiqishlar qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga tegishli qiymatliklar schotlariga kirim qilinadi. Ortiqcha chiqishlar aniqlanganda, albatta, ularning kelib chikish sabablari va aybdorlari surishtirib topiladi.

Ortiqcha chiqqan moddiy boyliklar birinchi navbatda tegishli qiymatliklar schotlarining debetida va boshqa operatsion daromadlar schotining kreditida aks ettiriladi. Shu bilan ushbu qiymatliklarning qoldig'ini inventarizatsiya natijasida aniqlangan ularning xaqiqiy miqdorlari bilan muvofiqlikka olib kelish ta'minlanadi. Ortiqcha chiqishlar, odatda, materialarning haqiqiy harakatini hujjatlar bilan noto'g'ri rasmiylashtirish natijasida yuzaga keladi va shuning uchun bunday yozuv zarurdir.

Haqiqatda ham, ishlab chiqarish zahiralarining ortiqcha chiqishi ularning haqiqatda qilingan sarflariga qaraganda ko'proq miqdorda hisobdan chiqarilganligi, tayyor mahsulotning ortiqcha chiqishi esa, aksincha, ularning kelishini kamroq miqdorda yozilishi natijasidir.

me'yorlari chegarasidagi yo'qolishlar, agar aybdor shaxslar aniqlanmag'an bo'lsa yoki aybdorlar undirib olish sud tomonidan inkor qilingan bo'lsa, ishlab chiqarish, operatsion, davr xarajatlariga; me'yorlardan ortiqcha hamda buzilishlardan ko'rilgan talofatlar aybdor shaxslar hisobidan undiriladi. Bunda kam chiqqan tovarlar (material, mulklar) qiymatining kamomadi aybdor shaxslardan ushbu yoki shu kabi tovarlar (boshqa moddiy boyliklar)ning kamomadi aniqlangan daqiqasiga bo'lgan bozor bahosidagi qiymati undirib olinadi. Baholardagi farqlar moliyaviy natijalarga olib boriladi.

**Bu xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobi schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:**

**1.Aniqlangan kamomad qiymati hisob bahosida**

D-t 5910 «Kamomad va moddiy boyliklarning buzilishi keladigan nobudgarchiliklar»

K-t Kamomad bo'lgan moddiy boyliklarni hisobga oladigan schotlar

**2.Moddiy javobgar shaxslardan undirib olinadigan (bozor bahosidagi) summaga**

D-t 4730 «Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi (bozor bahosida undirilib olinadigan summaga)

K-t 5910 «Kamomadlar va moddiy boyliklarning buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar» (kamomadning balans qiymati)

K-t 6230 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar» (Moddiy javobgar shaxslardan undirib olinadigan summa bilan qiymati orasidagi farq summaga) qiymati o'rtasidagi farq - baholardagi farq summasiga.

**3.Kamomad summasi undirilganda quyidagi buxgalteriya operatsiyalari beriladi.**

D-t 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» yoki 6710 «Mehmat haqi bo'yicha xodim bilan hisob - kitoblar»

K-t 4730 «Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimning qarzi» Ushbu operatsiya undirilgan kamomadning bozor bahosidagi summasiga beriladi.

Shu bilan birga moddiy javobgar shaxsdan undiriladigan summa bilan qiymatliklarning balans bahosi o'rtasidagi farq quyidagi xo'jalik operatsiyasi bilan daromadga o'tkaziladi:

D-t 6230 «Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar»

K-t 9390 «Boshqa operatsion daromadlar»

Bir davrning o'zida va bir moddiy javobgar shaxsda bir turdag'i tovar -moddiy boyliklarning kamomadi va ortiqcha chiqishlari o'zaro

xo'jalik hisobiga o'tkazilishi mumkin. Kam chiqqan boyliklar qiymati aybdor shaxslar hisobiga olib boriladi.

Moddiy qiyamatliklarni ortiqcha chiqishi aniqlanganda u 19- BHMS ning 5.7 bandiga binoan kirimga olinib, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalariga o'tkaziladi. Bu operatsiya quyidagi yozuv bilan miyylashtiriladi:

D-t Tegishli moddiy qiyamatliklarni hisobga oladigan schotlar.

K-t 9390 «Boshqa operatsion daromadlar»

Kamomadlar va ortiqcha chikishlarning har bir hodisasida farqlarning yuzaga kelish sabablari chuqur va har tomonlama o'tg'innishshshi zarur.

Buni quyida keltirilgan chizmadan ko'rish mumkin:


9390 «Boshqa operatsion  
daromadlar»

D-t

«Moddiy boyliklarni  
hisobga oladigan schotlar»

D-t

K-t



Tabiiy yo'qolish me'yorlari chegarasidagi yoki undan yuqori bo'lgan kamomadlar, aybdor shaxslar bo'limganda, tabiiy talofat hisoblanib, paydo bo'lgan joyiga qarab, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini yoki xarajatlarini oshirishi kerak.

Ortiqcha chiqishlar qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga tegishli qiyamatliklar schotlariga kirim qilindi. Ortiqcha chiqishlar aniqlanganda, albatta, ularning kelib chikish sabablari va aybdorlari surishtirib topiladi.

Ortiqcha chiqqan moddiy boyliklar birinchi navbatda tegishli qiyamatliklar schotlarining debetida va boshqa operatsion daromadlar schotining kreditida aks ettiriladi. Shu bilan ushbu qiyamatliklarning goldig'ini inventarizatsiya natijasida aniqlangan ularning xaqiqiy miqdordları bilan muvofiqlikka olib kelish ta'minlanadi. Ortiqcha chiqishlar, odatda, materiallarning haqiqiy harakatini hujjatlar bilan noto'g'ri rasmiyylashtirish natijasida yuzaga keladi va shuning uchun bunday yozuv zarurdir.

Haqiqatda ham, ishlab chiqarish zahiralarining ortiqcha chiqishi ularning haqiqatda qilingan sarflariga qaraganda ko'proq miqdorda hisobdan chiqarilganligi, tayyor mahsulotning ortiqcha chiqishi esa, alkincha, ularning kelishini kamroq miqdorda yozilishi natijasidir.

Kamomadlarni hisobdan chiqarish va ortiqcha chiqishlarni kirimga olish tegishli tovar-moddiy boyliklarning ham sintetik, ham analitik hisobida aks ettiriladi. Bu ularning buxgalteriya hisobidagi ma'lumotlari bo'yicha qoldiqlarning inventarizatsiya o'tkazish yo'li bilan aniqlangan haqiqiy mavjudligiga muvofiqligini ta'minlaydi.

Amaldagi Nizomda da'vo muddati o'tib ketgan qarzlarini qoplash va hisobdan chiqarish tartibi ham belgilab qo'yilgan. Da'vo qilish muddati o'tib ketgan kreditorlik va deponentlik qarzlar daromadga o'tkazilishi kerak.

Da'vo qilish muddati o'tib ketgan kreditor va deponent qarzlar hisobdan chiqarilganda 6720 «Deponentlangan meqnat haqi» va 6990 «Boshqa majburiyatlar» schotlari debetlanib 9360 «Kreditor va deponent qarzlarini hisobdan chiqarishdan daromadlar» schoti kreditlanadi.

Da'vo muddati o'tib ketgan debtor qarzlar hisobidan chiqarilganda 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schoti debetlanib, debtorlik qarzlar hisobga olinadigan schotlar kreditlanadi.

**Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Buxgalteriya hujjatlari haqida tushuncha.
2. Hujjatlashtirish va uning ahamiyati.
3. Buxgalteriya hujjatlari aylanishi haqida tushuncha.
4. Buxgalteriya hujjatlari aylanishi grafigi.
5. Buxgalteriya hujjatlarini majburiy rekvizitlari
6. Buxgalteriya hujjatlari turkumlanishi.
7. Buxgalteriya hujjatlarini qayta ishslash tartibi.
8. Inventarizatsiya va uning ahamiyati.
9. Inventarizatsiyaning turlari.
10. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish.

## **12-BOB. PUL MABLAG'LARI HISOBI**

### **12.1. Pul mablag'larining qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotidagi o'rni va hisobning vazifalari.**

Pul bilan bog'liq hisob kitoblardan samarali foydalanish qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillaridan biridir. Chunki qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining uzluksiz davom etishini ta'minlash uchun zarur ishlab chiqarish zahiralari va mehnat vositalari sotib olish, hisob-kitob

opratsiyalarini amalga oshirish, davlat budgeti va budgetidan tashqari fondlar uchun to'lovlarni amalga oshirish uchun ma'lum miqdorda pul talab qilinadi. Shuning uchun ham qishloq xo'jalik korxonalari mavjud pul mablag'larini yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga sarflashda iqtisodiy jihatdan manfaatli va tejamli bo'lgan hamda qishloq xo'jalik korxonalariga o'z mablag'laridan ratsional foydalanish imkonini berishni birinchi navbatda hisobga olish zarur. Bozor munosabatlari sharoitida pul mablag'lari va ulardan samarali foydalanish uchun qishloq xo'jalik korxonalarining boshqaruv apparatiga pul mablag'lari va ularning harakati to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi beradi.

Ma'lumki, iqtisodiyotni rivojlanishining barcha bosqichlarida pul bilan bog'liq hisob kitoblar alohida ahamiyatga ega bo'lgan va ularni hisobga olish tartibi o'sha davrdagi iqtisodiyotning rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan. Chunki har qanday bosqichda iqtisodiyotning rivojlanishi u yoki bu modelga amal qilgan va uning ajralmas qismi sifatida esa buxgalteriya hisobi ishtirok etgan. Taraqqiyotning yuqori pog'onasiga ko'tarilish esa har doim iqtisodiyot fanlarining, jumladan, buxgalteriya hisobi fanning rivojlanishini ham belgilab bergen va ularga ham ta'sir etgan. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi hisob-kitoblar hisobining uslubiy asoslari va ularning harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning sifat jihatidan o'zgartirdi. Shuning uchun ham pul bilan bog'liq hisob-kitoblarning hisobini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlar tubdan qayta ko'rib chiqildi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida amalga oshiradigan har qanday faoliyat turi pul mablag'larini talab qiladi. Qishloq xo'jalik korxonalariga pul mablag'lari asosan mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan, shuningdek qimmatbaho qog'ozlarni va mol-mulkni sotishdan kelib tushadi. Qishloq xo'jalik korxonalari o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini o'zining asosiy va qo'shimcha faoliyatni rivojlantirish, tovar moddiy qiyamatliklarini sotib olish, xodimlarga ish haqi to'lash, kapital qo'yilmalarni (ishlab chiqarish va madaniy-maishiy ob'ektlarni qurish, avtomobillar, traktorlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish, ko'p yillik mevali va manzaralari daraxtlarni o'tqazish va o'stirish, shuningdek asosiy podani tashkil qilish) o'zlashtirish va davlat budgeti va budgetdan tashqari fondlarga va boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatgan xizmatlari uchun sarflashi mumkin.

Pul mablag'larining qaysi manbalardan tashkil topishi va ularning sarflanishini asosiy ahamiyati esa "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi

(yangi tahriri)" O'zbekiston Respublikasining qonuni asosida ishlab chiqilgan va buxgalteriya hisobining Milliy standartlarining 9-son "Pul oqimlari to'g'risida hisobot"ida aniq ko'rsatilib o'tilgan.

Yuridik shaxslarning kassa muammolarini yuritish qoidalarida barcha yuridik shaxslar, jumladan qishloq xo'jalik korxonalari ham quyidagilarga amal qilishi shart:

- pul mablag'larini bank muassasalarida saqlashlari shart;
- yuridik shaxslar o'tasidagi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar ishtirokidagi hisoblashishlar faqat bank muassasalari orqali hisob-kitoblarning naqd pulsiz shaklida amalga oshirilishi zarur;
- bank muassasasidan olingen naqd pullar qaysi maqsadlar uchun olingen bo'lsa, o'sha maqsadlarga sarflanishi lozim;
- qishloq xo'jalik korxonalari o'z kassasida belgilangan limit chegarasidagi pul mablag'larini saqlashi mumkin;
- qishloq xo'jalik korxonalari o'z kassasida limitdan ortiqcha naqd pullarni faqat mehnat haqi, mukofot, nafaqa berish vaqtida 3 kun muddatda saqlashi mumkin;
- savdo va xizmat ko'rsatish sohalaridan kelib tushgan tushumlarni mehnat haqi, pensiya va nafaqalarni to'lash uchun sarflash taqiqlangan;
- xizmat safarlari uchun beriladigan pul qiymati o'sha xududda belgilangan sarf-xarajatlar me'yorida bo'lishi zarur;
- sarflanmagan naqd pullar qishloq xo'jalik korxonalari kassasiga 3 kun ichida qaytarilishi shart va naqd pul olgan hisobdor shaxs buxgalteriyaga avans hisoboti topshirishi shart.

Pul mablag'larining saqlanishi va ularning to'g'ri foydalanish javobgarligi qishloq xo'jalik korxonalari rahbari va buxgalteriga yuklatiladi. Ular kassa va bank operatsiyalari qoidalariga rivoja qilishi va ularni belgilangan qat'iy tartibda to'g'ri rasmiylashtirishlari zarur. Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo'lganligi uchun qishloq xo'jalik korxonalari mablag'lari bir vaqtning o'zida aylanishning barcha bosqichida bo'lishi mumkin, bunda pul mablag'lari qishloq xo'jalik korxonalari iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida: ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bosqichlarida pul mablag'lari zarur miqdorda sarflanadi. Shuning uchun ham qishloq xo'jalik korxonalarida doimo ma'lum miqdorda pul mablag'lariga ehtiyoj bo'lishi mumkin.

Pul mablag'larini hisobining oldida quyidagi asosiy vazifalar qo'yiladi:

- qishloq xo'jalik korxonalarining pul mablag'larini samarali boshqarish uchun boshqaruvchilarni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- to'lov va hisob-kitoblarni, pul bilan bog'liq operatsiyalarini tartibga soluvchi me'eriy hujjatlarda ko'rsatilgan tartiblarga rioya qilgan holda o'z vaqtida amalga oshirish;

- hisob registrlarida pul mablag'larini naqdligi va harakatlarini o'z vaqtida aks ettirish;

- pul mablag'larining belgilangan maqsadlarga sarflanishi, smeta va limitlarga amal qilinishini nazorat qilish;

- pul mablag'larining inventarizatsiyasini belgilangan muddatlarda o'tkazishini ta'minlash va o'zaro hisob-kitoblar, debetorlik va kreditorlik qarzlarini to'lanishini nazorat qilish;

- kassadagi, hisob-kitob, valyuta va bankdagi boshqa schotlarda saqlanayotgan pul mablag'larining saqlanishining nazoratini ta'minlash;

- pul resurslarining harakat oqimini prognozlash va optimallashtirish bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Ushbu masalalarning muvaffaqiyatli bajarilishi qishloq xo'jalik korxonalarining pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlovchi boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Albatta, yuqorida vazifalarni bajarish uchun pul mablag'larining buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish zarur bo'ladi.

## **12.2. Qishloq xo'jalik korxonalarida kassa operatsiyalari hisobi.**

Qishloq xo'jalik korxonalarida pul mablag'larini kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lганларини кассада, qolganlarini bank muassasalarida saqlashlari lozim.

Yuridik shaxslar o'rtaqidagi hisob-kitoblar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq fuqarolar ishtirokidagi hisob-kitoblar bank muassasalari orqali faqat naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan bank muassasalaridan kassaga olingan naqd pullar qanday maqsadlar uchun olingan bo'lsa, faqat shunga sarflanadi. Ammo ma'lum belgilangan limit miqdoridagi pul mablag'ları qishloq xo'jalik korxonalari kassasida ham saqlanadi. Hisob-kitob schotidan kassaga olingan pul xodimlarga ish haqi, mukofot to'lash, nafaqa berish, xizmat safari xarajatlarini qoplash va boshqa maqsadlar uchun sarflanadi. Bankdan olingan mablag'lar belgilangan maqsadlar uchun sarflanishi lozim. Saqlanayotgan pul mablag'larining

belgilangan limitdan ortib ketish hollari faqat ish haqi, nafaqa, mukofot berish kunlarida yuz berishi mumkin.

Kassa operatsiyalari moddiy javobgar shaxs bo‘lgan kassir tomonidan yuritiladi. Bankdan pul olish uchun qishloq xo‘jalik korxonalariga “Chek daftarchasi” berilib, unda bankdan olinadigan pulning miqdori va qanday maqsad uchun olinayotgani ko‘rsatiladi. Pul mablag‘larining harakatini rasmiylashtiruvchi asosiy hujjat kassa orderlari hisoblanadi. Naqd pul kassaga “Kassa kirim orderi”ni rasmiylashtirish bilan qabul qilinadi. Bu order bosh buxgalter va kassir tomonidan imzolanadi. Pulni topshirgan shaxsga kvitansiya beriladi. Kassadan pul berilishi “Kassa chiqim orderi” bilan rasmiylashtiriladi. Bu order fermer xo‘jaligi rahbari va bosh buxgalter, kassir tomonidan imzolanadi. Chiqim orderida pul nima uchun berilgani ko‘rsatiladi va unga asos bo‘lувчи hujjat orderga qo‘sib qo‘yiladi. Orderlarga qo‘sib qo‘yilgan dastlabki hujjatlarga tegishli operatsiya sodir qilingandan so‘ng (shu hujjatlar ikkinchi marta foydalanmasligi uchun) “Olingan” yoki ”To‘langan” degan shtamp qo‘yiladi. Kassadan pul (pul berish haqidagi arizaga ko‘ra) to‘lov vedomosti asosida ham beriladi. Bu holda, hujjatlarga kassa chiqim orderi o‘rnini bosuvchi shtamp qo‘yiladi.

Ish haqi, mukofot, nafaqa berish haqidagi to‘lov vedomostlarida qishloq xo‘jalik korxonalari rahbari va boshqa buxgalterning pulni berish to‘g‘risidagi ruxsat yozuvi bo‘lishi lozim. Kassa hujjatlari kassaga berilgunga qadar buxgalteriyada kassa kirim orderlarini ro‘yxatga olish jurnaliga yozib qo‘yiladi. Shunday qilib, buxgalteriya xodimlari kassa operatsiyalarini yuritish bo‘yicha nazorat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Buxgalteriya to‘lov vedomostlarida kassirlar tomonidan qayd etilgan yozuvlarni tekshiradi, hamda ular bo‘yicha berilgan va deponentga o‘tkazilgan summalarini hisoblab chiqadi.

Deponentga o‘tkazilgan summalar bank muassasalariga topshiriladi va torshirilgan summalarga bitta umumiy chiqim kassa orderi tuziladi.

Kassa kirim orderlari va ularning kvitansiyalari, shuningdek kassa chiqim orderlari va ularning o‘rnini bosadigan hujjatlari buxgalteriya tomonidan siyohli yoki sharikli ruchka bilan aniq va ravon yozilib to‘ldirilishi yoki yozuv mashinkasi, hisoblash mashinkasida yozilishi lozim. Bu hujjatlarda ustidan o‘chirib yozish, tuzatishlar kiritish, izohlari bo‘lgan holda yozishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qishloq xo‘jaligi korxonasida kassaga barcha pul tushumlari va kassadan naqd pul berilishi “Kassa daftari”da hisobga olinadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarini faqat bitta “Kassa daftari”ni yuritadi, bu daftar varaqlari raqamlangan, ip o‘tkazilgan va unga surguchli yoki mastikali muhr bosilgan bo‘lishi lozim. Kassa daftaridagi varaqlar soni qishloq xo‘jaligi korxonasi rahbari va bosh buxgalteri imzolari bilan tasdiqlanadi.

Kassa daftaridagi yozuvlar ikki nusxada sharikli ruchkada qayd etiladi. Varaqlarning ikkinchi nusxasi yirtib olinadigan bo‘lishi kerak, ular kassirni hisobot berishi uchun xizmat qiladi. Varaqlarning birinchi nusxasi kassa daftarida qoladi. Varaqlarning birinchi va ikkinchi nusxalari bir xil raqamlar bilan raqamlanadi.

Kassa daftariga o‘chirib yozish va izohlar kiritish man etiladi. Tuzatishlar qishloq xo‘jalik korxonalarini kassiri, shuningdek, bosh buxgalter va uning o‘rnini bosadigan shaxsning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Kassa daftariga yozuvlar har bir order yoki uning o‘rniga o‘tadigan boshqa hujjat bo‘yicha pul berilganidan yoki pul olinganidan keyin kassir tomonidan darhol qayd etiladi. Har kuni ish kuni oxirida kassir bir kunlik operatsiyalar yakunini hisoblaydi, kassada qolgan pullar qoldig‘ini keyingi kun sanasiga o‘tkazadi va buxgalteriyaga kassir hisoboti sifatida yirtib olingan ikkinchi varaqni kirish va chiqim kassa hujjatlari bilan birga kassa daftariga imzo chekib topshiradi.

Agar qishloq xo‘jalik korxonalarida har kuni operatsiyalar bajarilmasa, kassa hisobotlari operatsiyalar bajarilgan kunlarida tuzilishi mumkin.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida kassasidagi pul mablag‘larining naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

5010 “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari”;

5020 “Chet el valyutasidagi pul mablag‘lari”.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida kassasidagi pul mablag‘larining naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish asosan 5010 “Milliy valyutadagi pul mablag‘lari”schotida olib boriladi, chunki ko‘pchilik qishloq xo‘jalik korxonalarida chet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirilmaydi. Chet el valyutasidagi operatsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri chetga mahsulot eksport qiluvchi qishloq xo‘jalik korxonalarida uchraydi.

Kassadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schotlarning (5000) debeti bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalar kassasiga kelib tushgan pul mablag'lari aks ettiriladi. Krediti bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalar kassasidan to'lanadigan pul mablag'lari va limitdan ortiqcha pulni bankka topshirish aks ettiriladi.

### **Qishloq xo'jalik korxonalarida 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari" schotining bog'lanishi**

T/ r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mahsulot, ish va xizmatlarning nakd pulga sotilishi	5010	9010-9030
2	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotishdan tushumming naqd pulda olinishi	5010	9210-9220
3	Bankdagi tegishli schotlardan pul mablag'lari kassaga kelib tushdi (ish haqi, nafaqa, mukofotlar va shu kabilarni berish uchun)	5010	5110-5530
4	Hisobdor shaxslar tomonidan ishlatilmagan oldin olingan avanslarning qaytarilishi	5010	4220-4290
5	Komunal xizmatlar, aloqa xizmatlari va boshqa to'lovlarining kelib tushishi	5010	4890
6	Xodimlarga alohida uy-joy qurishga qarz berish uchun kredit summasi naqd pulda olindi	5010	6810,7810
7	Pul mablag'lari kassadan topshirildi va bankdagi hisob-kitob schotiga o'tkazildi	5110-5530	5010
8	Hisoblangan mehnat haqi va boshqa to'lovlar berildi (mukofot va shu kabilar)	6710	5010
9	Hisobdor shaxslarga avans summalari berildi	4220	5010
10	Qishloq xo'jalik korxonalar xodimlarga berilgan qarz summasi	4720	5010
11	Tabiiy ofatlar bilan bog'liq turli xil qoplanmaydigan xarajatlar to'lanishi	9720	5010
12	Pul mablag'larining kamomadi (inventarizatsiya natijasida)	4730	5010

### **12.3. Qishloq xo‘jalik korxonalarining bankdagi hisob-kitob schoti operatsiyalarining hisobi.**

Xar bir qishloq xo‘jalik korxonalari bankda hisob-kitob schoti ochadi. Hisob-kitob schoti ochish uchun qishloq xo‘jalik korxonalari bankga yoki davlat xizmatlari markaziga Hisob-kitob schoti ochish uchun belgilangan shakldagi ariza topshiradi.

Bu arizaga qishloq xo‘jaligi korxonasi rahbari va bosh buxgalteri imzo qo‘yadi: imzolar qo‘yilgan va yumaloq muhr bosilgan kartochka (ikki nusxada) notarius tomonidan tasdiqlanadi.

Hisob-kitob schotida qishloq xo‘jalik korxonalari o‘z pul mablag‘larini saqlaydilar va turli tashkilotlar bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar olib boradilar. Qishloq xo‘jalik korxonalarining pul mablag‘lari hisob-kitob schotida saqlanganligi uchun o‘rtalarida tuzilgan shartnomaga asosan bank ma’lum miqdorda foiz to‘laydi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining hisob-kitob schotidagi pul mablag‘lari quyidagi xo‘jalik operatsiyalari natijasida ko‘payishi mumkin:

sotilgan mahsulotlar uchun pul olinganda;

chet tashkilotlarga bajarilgan ish va xizmatlar uchun pul olinganda;

banklardan ssudalar olinganda;

kassadagi limitdan ortiqcha pullar o‘tkazilganda;

asosiy xo‘jalik faoliyatidan boshqa daromadlar tushganda.

Hisob-kitob schotiga tushadigan pul mablag‘lari bank qoidalariga muvofiq namunaviy hujjatlar asosida rasmiylashtiriladi. Masalan, sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun tayyorlov tashkilotlari va boshqa xo‘jaliklardan tushadigan pullarni bank bu tashkilotlarning o‘z qarzları uchun pul o‘tkazishi to‘g‘risidagi hujjatlariga asosan o‘tkazadi. Qishloq xo‘jalik korxonalari kassadagi naqd pulini bankdagi hisob-kitob schotiga “Naqd pulni olib borish e’loni”ga asosan topshiradi. Bunda bank pul qabul qilinganligi to‘g‘risida kvitansiya beradi. Ayrim hollarda tovar operatsiyalariga doir pul mol yuboruvchining hujjatlariga asosan ham undirilishi mumkin. Bunday hollarda qishloq xo‘jalik korxonalari o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi bankka maxsus hujjat “To‘lov talabnomasi” yozib topshiradi. Bank shu hujjatga asosan hisoblangan pullarni to‘lovchi schotidan mol yuboruvchining schotiga o‘tkazadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining hisob-kitob schotidagi pul quyidagi to‘lovlar hisobiga kamayishi mumkin:

boshqa tashkilot va qishloq xo‘jalik korxonalarilardan olingen mol va moddiy boyliklar hamda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun pul to‘laganda;

mehnatga haq to'lash va turli xo'jalik ehtiyojlari uchun kassaga naqd pul olib kelinganda;

davlat budgeti va sug'urta organlariga majburiyat yuzasidan pul o'tkazib berilganda;

bankdan olingan ssudalar va ularning foizi qaytarilganda;

xo'jalik faoliyatiga doir boshqa to'lovlar to'langanda.

Naqd pul hisob-kitob schotidan pul chekiga asosan beriladi. Qishloq xo'jalik korxonalarining farmoyishi bilan to'lanadigan boshqa barcha naqd pulsiz to'lovlar "To'lov topshirig'i"ga asosan rasmiylashtiriladi. Bu hujjat uch nusxada tuzilib bankka topshiriladi. To'lov topshirig'ining 1va 2-nusxasini bank olib qoladi, 3 nusxasiga pul to'langanligi to'g'risida belgi qo'yib fermer xo'jaligiga qaytarib beradi. Bank qishloq xo'jalik korxonalarining hisob-kitob schotidan mustaqil ravishda mol yuboruvchining to'lov talabnomasiga asosan haqdar tashkilotga pul o'tkazishi mumkin. Bunday vaqtida to'lovchi qishloq xo'jalik korxonalaridan hech qanday farmoyish hujjatlari talab qilinmaydi. Qishloq xo'jalik korxonalari haq to'lashini belgilangan tartibda asosli rad etgan vaqtagina bank pul o'tkazib bermaydi.

Ba'zi hujjatlarga asosan bank qishloq xo'jalik korxonalarining hisob-kitob schotidan so'zsiz (to'lovchining rozi bo'lishi yoki bo'lmasligiga qaramasdan) pul oladi. Bunday hujjatlarga sudning ijro varaqalari, davlat arbitraji organlarining buyruqlari kiradi. Bunday hujjatlarga asosan kreditor tashkilot to'lov talabnomasi yozib bankka topshiradi. Bank bu pulni so'zsiz undirib beradi. Qishloq xo'jalik korxonalarining hisob-kitob schotidan sarflanadigan pulni bank tomonidan hujjatlarning kelib tushish ketma-ketligiga qarab to'laydi. Qishloq xo'jalik korxonalarining o'z hisob-kitob schotidagi pul mablag'lari harakati ustidan nazorat qilib turish uchun bankdan vaqt-vaqt bilan "Bank ko'chirmasi"ni olib turadi. Bu ko'chirma hisob-kitob schoti bo'yicha bankda yuritiladigan shaxsiy schotning ikkinchi nusxasi hisoblanadi. Ko'chirmada hisob-kitob schotiga tushgan va undan to'langan hamma pul mablag'lari ko'rsatiladi. Pul mablag'lari xo'jalikning buyrug'idan tashqari hisob-kitob schotidan sarflangan hollarda ko'chirmaga tegishli hujjatlar ilova qilinadi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, bank uchun qishloq xo'jalik korxonalarining hisob-kitob schotlari passiv schot bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun uning kreditida ko'payishi, debetida kamayishi aks ettiriladi. Banklar (Qishloq xo'jalik korxonalari bilan kelishgan holda) ko'chirmani berish muddatini belgilaydi, shu bilan birga ko'chirmani tekshirish muddati, ya'ni bank yozuvlariga norozilik bildirish muddati ham belgilanadi. Ko'chirmalarni tekshirish paytida aniqlangan

xatolar hisob-kitob schotida bank tomonidan yozilgan summada aks ettiriladi.

Hozirgi kunda qio‘loq xo‘jaligi korxonalar o‘zlarini mablag‘larini saqlaydigan va xizmat ko‘rsatadigan bank bilan bilan bog‘langan bo‘lib, mijoz korxonalar o‘zlarining pul mablag‘lari harakatini real vaqt davomida nazorat qilib boradilar. Mijoz korxonalar vakili bankga faqatgina naqd pul olishda yoki naqd pul topshirishda (naqd pulni inkassasatsiya xizmati asosida topshirmasa) borishadi, qolgan hollarda barcha bankdagi pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari “Bank-mijoz” dasturi orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining bankdagi hisob-kitob schotidagi pul mablag‘larining mayjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 5110 “Hisob-kitob schoti”da amalga oshiriladi.

5110 “Hisob-kitob schoti”ning debeti bo‘yicha qishloq xo‘jalik korxonalarining hisob-kitob schotiga pul mablag‘larining kelib tushishi aks ettiriladi. 5110 “Hisob-kitob schoti”ning kreditida qishloq xo‘jalik korxonalarining hisob-kitob schotidan pul mablag‘larining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Bank ko‘chirmasini tekshirish natijasida qishloq xo‘jalik korxonalarining hisob-kitob schoti debeti yoki kreditiga xatolik bilan olib borilgan summalar 4860 “Da‘volar bo‘yicha olinadigan schotlar” yoki 6960 “Da‘volar bo‘yicha to‘lanadigan schotlar” bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobida hisob-kitob schoti bo‘yicha operatsiyalar bank ko‘chirmalari va ularga ilova qilinadigan pulli va hisob-kitob hujjatlari asosida aks ettiriladi.

Hisob-kitob schotidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar (5100) bo‘yicha analitik hisob milliy valyutadagi pul mablag‘larini saqlash uchun banklarda ochilgan har bir schot bo‘yicha yuritiladi.

### **Qishloq xo‘jalik korxonalarida 5110 “Hisob-kitob schoti”ning bog‘lanishi**

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Ijaraga berilgan asosiy vositalar bo‘yicha ijara to‘lovlarining kelib tushishi	5110	4810, 4820
2	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishidan tushgan tushumlar	5110	4010

3	Pul mablag‘lari kassadan hisob-kitob schotiga topshirildi	5110	5010
4	Bankka qaytarilgan chek va akkreditivlar bo‘yicha summalar hisob-kitob schotiga o‘tkazildi	5110	5510, 5520
5	Ilgari qisqa muddatli investitsiya tartibida berilgan qarzlarning qaytarilishi	5110	5830
6	Ilgari berilgan avans qaytarildi	5110	4310- 4390
7	Qondirilgan da’volar summasining kelib tushishi	5110	4860
8	Olingan avanslar summasi	5110	6310- 6390
9	Bankdan kassaga pul mablag‘lari kelib tushdi (mehnat haqi, nafaqa, mukofot va shu kabilarni berish uchun)	5010	5110
10	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlarning qoplanishi	6010	5110
11	Berilgan avanslar summasi	4310- 4330	5110
12	Ilgari olingan avanslarni qaytarilishi	6300, 7310	5110
13	Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarz summasining o‘tkazilishi	6410	5110
14	Sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarning qoplanishi	6510- 6530	5110
15	Qisqa muddatli kredit va qarzlarning qoplanishi	6810- 6840	5110
16	Uzoq muddatli kredit va qarzlarning joriy qismining qoplanishi	6950	5110

#### 12.4. Qishloq xo‘jalik korxonalarining bankdagi valyuta schoti operatsiyalarining va boshqa pul mablag‘larining hisobi.

Bankdagi valyuta schoti qishloq xo‘jalik korxonalarining respublika xududidagi va xorijdagi banklarda valyuta schotlarida xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari mavjudligi va harakati haqidagi axborotni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Amaldagi qonun va me’eriyl

hujjatlarda har qanday qishloq xo‘jalik korxonalariga chet el valyutasidagi pul mablag‘lariga ega bo‘lish va u bilan xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat etilgan.

Chet el valyutasidagi operatsiyalarini rasmiylashtirish uchun qishloq xo‘jalik korxonalarini bankda joriy valyuta schotini ochish zarur. Qishloq xo‘jalik korxonalariga valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi bank O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo‘lishi shart. Shunday ruxsatnomaga ega bo‘lgan banklarni vakillik banklari deyiladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarilar o‘zlarining valyuta schotlarini faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki byuletenida beriladigan chet el valyutalarida ochish mumkin.

Valyuta schoti ochilgandan so‘ng bank va uning mijozи o‘rtasida hisob-kitob va kassa xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma imzolanadi. Unda bank ko‘rsatilgan xizmat turlari, ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lanadigan haqlar, mablag‘larni joylashtirish shartlari, tomonlarning xuquq va burchlari va boshqalar ko‘rsatiladi.

Valyuta schotlari bo‘yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida “Bank ko‘chirma”lari va ularga ilova qilingan pulli hisob-kitob hujjatlari asosida aks ettiriladi.

So‘mdagi ekvivalent bu O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan kurslar bo‘yicha chet el valyutasini qayta hisoblashdir. Bunday qayta hisoblash har xaftada bir marta O‘zbekiston Markaziy banki e’lon qilgan kurslar bo‘yicha amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi va chet mamlakatlar hududidagi banklar schotlaridagi chet el valyutasidagi pul mablag‘larining naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

5210 “Mamlakat ichida valyuta schotlari”;

5220 “Chet eldagи valyuta schotlari”;

5210 “Mamlakat ichida valyuta schotlari” va 5220 “Chet eldagи valyuta schotlari” schotlarining debetida valyuta schotlariga pul mablag‘larining kelib tushishi, kreditida esa pul mablag‘larining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Bank ko‘chirmasini tekshirish natijasida aniqlangan qishloq xo‘jalik korxonalarining valyuta schotining debeti yoki kreditiga xatolik bilan o‘tkazilgan summalar 4860 “Da‘volar bo‘yicha olinadigan schotlar” yoki 6960 “Da‘volar bo‘yicha to‘lanadigan schotlar” schotlari bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari buxgalteriya hisobida valyuta schoti bo‘yicha operatsiyalar bank ko‘chirmalari va ularga ilova qilinadigan pulli va hisob-kitob hujjatlari asosida aks ettiriladi.

Valyuta mablag‘larining analitik hisobi chet el valyutasidagi pul mablag‘larini saqlash uchun banklarda ochilgan har bir schot bo‘yicha yuritiladi.

### **5200 “Chet el valyutasidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar” ning bog‘lanishi**

T/ r	<b>Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni</b>	<b>Schotlarning bog‘lanishi</b>	
		<b>Debet</b>	<b>Kredit</b>
1	Mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishidan valyutaning kelib tushishi	5210, 5220	4010
2	Kassadan valyuta mablag‘larining valyuta schotiga topshirilishi	5210, 5220	5020
3	Ishlatilmagan chek va akkreditiv summasining valyuta schotiga o‘tkazilishi	5210, 5220	5510- 5520
4	Ilgari qisqa muddatli investitsiyalar tartibida berilgan qarzning qaytarilishi	5210, 5220	5830
5	Ilgari berilgan avanslarning qaytarilishi	5210, 5220	4310- 4330
6	Qondirilgan da’volar summasining kelib tushishi	5210, 5220	4860
7	Investitsiyaga mablag‘larning qo‘yilishi	0600, 5800	5210, 5220
8	Bankdan kassaga valyuta mablag‘larining kelib tushishi	5020	5210, 5220
9	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlarning to‘lanishi	6010	5210, 5220
10	Berilgan avanslarning summasi	4310- 4330	5210, 5220
11	Ilgari olingan avanslarning qaytarilishi	6300, 7310	5210, 5220
12	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar qoplandi	6810- 6840	5210, 5220
13	Uzoq muddatli kreditlar va qarzlarning joriy qismi qoplandi	6950	5210, 5220

Qishloq xo‘jalik korxonalarida O‘zbekiston Respublikasi hududi va chet mamlakatlardagi akkreditivlar, chek daftarchalari, boshqa to‘lov hujjatlaridagi (veksellardan tashqari) pul mablag‘larining mavjudligi va harakati to‘g‘risida, shuningdek, maqsadli moliyalashtirish (tushumlar) pul mablag‘larining alohida saqlanadigan qismining harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

- 5510 “Akkreditivlar”;
- 5520 “Chek daftarchalari”;
- 5530 “Boshqa maxsus schotlar”.

5510 “Akkreditivlar” schotida akkreditivdagi pul mablag‘lari hisobga olinadi. Akkreditivga pul mablag‘larini o‘tkazish 5510 “Akkreditivlar” schotining debetida va 5110 “Hisob-kitob schoti”, 5210 “Mamlakat ichidagi valyuta schotlari”, 5220 “Chet eldag‘i valyuta schotlari” va boshqa schotlarning kreditida aks ettiriladi.

5510 “Akkreditivlar” schoti bo‘yicha akkreditivga hisobga olingan pul mablag‘lari ularning ishlatalishi bo‘yicha (bank ko‘chirmalariga asosan), 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar”ning debetiga hisobdan chiqariladi. Akkreditivdagi ishlatilmagan mablag‘lar, bank tomonidan ular qaysi schotdan o‘tkazilgan bo‘lsa, shu schotlarga qayta tiklanganda 5510 “Akkreditivlar” schotining krediti, 5110 “Hisob-kitob schoti”, 5210 “Mamlakat ichidagi valyuta schotlari”, 5220 “Chet eldag‘i valyuta schotlari” va boshqa schotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

5510 “Akkreditivlar” schoti bo‘yicha analitik hisob qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan qo‘yilgan har bir akkreditiv bo‘yicha alohida yuritiladi.

5520 “Chek daftarchalari” schotida chek daftarchalaridagi pul mablag‘larining harakati hisobga olinadi. Chek daftarchalarini berishda pul mablag‘larini deponentlash 5520 “Chek daftarchalari” schotining debeti va 5110 “Hisob-kitob schoti”, 5210 “Mamlakat ichida valyuta schotlari”, 5220 “Chet eldag‘i valyuta schotlari”, 6810 “Qisqa muddatli bank kreditlari” va boshqa schotlarning kreditida aks ettiriladi. Qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan berilgan cheklarning to‘lovi doirasidagi summa 5520 “Chek daftarchalari” schotining kreditidan xarajat va qarzlarini hisobga oluvchi schotlar bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. Chek bilan berilgan, lekin bank tomonidan to‘lanmagan (to‘lovga taqdim etilmagan) summa 5520 “Chek daftarchalari” schotida qoladi va ushbu 5520 “Chek daftarchalari” schotining qoldig‘i bank

ko‘chirmalari bilan mos kelishi lozim. Bankka qaytarilgan cheklarning (foydalanimay qolgan) summasi 5520 “Chek daftarchalari” schotining kreditida 5110 “Hisob-kitob schoti”, 5210 “Mamlakat ichida valyuta schotlari”, 5220 “Chet eldag'i valyuta schotlari” va boshqa schotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. 5520 “Chek daftarchalari” schoti bo‘yicha analitik hisob har bir olingan chek daftarchalari bo‘yicha yuritiladi.

5530- “Boshqa maxsus schotlar”da bankda maxsus saqlanadigan maqsadli moliyalashtiriladigan (tushumlar) mablag‘lar, shu jumladan ijtimoiy muassasalar, ob’ektlar (bolalar bog‘chasi va boshqalar)ni saqlash uchun ota-onalardan, o‘zga foydalanuvchilar va boshqa manbalardan kelib tushgan pul mablag‘lari; qishloq xo‘jalik korxonalarining talabiga ko‘ra alohida schotda yig‘iladigan va sarflanadigan kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish mablag‘lari; davlat idoralarining subsidiyalari va shu kabilarning harakati hisobga olinadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida 5530 “Boshqa maxsus schotlar” bo‘yicha analitik hisobni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi hududi va chet eldag'i boshqa maxsus schotlardagi pul mablag‘larining naqdligi va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish imkoniyatini ta’minlashi lozim.

### **5500 “Bankdagi maxsus schotlardagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar” ning bog‘lanishi**

T/ r	<b>Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni</b>	<b>Schotlarning bog‘lanishi</b>	
		<b>Debet</b>	<b>Kredit</b>
1	Akkreditivlarga pul mablag‘lari o‘tkazildi	5510	5110- 5220
2	Qisqa muddatli bank kreditlari hisobidan akkreditivlarga pul mablag‘lari o‘tkazildi	5510	6810
3	Sotish xarajatlarining to‘lovi chek bilan amalga oshirildi	9410	5520
4	Ishlatilmagan summaning muddat oxirida qaytarilishi: a) akkreditivlar b) chek daftarchalari	5110- 5220 5110- 5220	5510 5520
5	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan qarzni to‘lashda akkreditivdagi summa hisobdan chiqarildi	6010	5510

6	Akkreditivdan avansning berilishi	4310-4330	5510
7	Boshqa kreditorlarning xizmatlari uchun to‘lovlarda ishlatalgan cheklar summasini hisobdan chiqarish	6990	5520
8	Sotib olingan putevkalar uchun maxsus schotdan to‘langan summa	5610	5530
9	Chek daftarchalaridagi ishlatilmagan mablag‘larning qisqa muddatli bank kreditlarini qoplash uchun qaytarilishi	6810	5520
10	Akkreditivdagi ishlatilmagan mablag‘ning uzoq muddatli bank kreditlarini qoplash uchun qaytarilishi	6950, 7810	5510

## 12.5. Qishloq xo‘jalik korxonalarida qimmatli qog‘ozlar hisobi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalari № 5800”Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar” №0600”Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar”larda hisobga olib boriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarilar qimmatli qog‘ozlariga qilingan qisqa muddatli (bir yil muddatdan ko‘p bo‘lmagan) investitsiyalari (qo‘yilmalar) davlat qarzlarining foizli obligatsiyalari, boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarilarga berilgan qarzlar va boshqalarning naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

- 5810 “Qimmatli qog‘ozlar”;
- 5820 “Berilgan qisqa muddatli qarzlar”;
- 5890 “Boshqa joriy investitsiyalar”.

5810 “Qimmatli qog‘ozlar” schotida aksiyalarga va boshqa qimmatli qog‘ozlariga qo‘yilgan qisqa muddatli investitsiyalarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

Obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar 5810 “Qimmatli qog‘ozlar” schotiga sotib olish qiyatida kirim qilinadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarning sotib olinishi 5810 “Qimmatli qog‘ozlar” schotining debetida va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar va agar qimmatli qog‘ozlar uchun to‘lov moddiy yoki boshqa qiyamatliklar

(pul mablag‘laridan tashqari) orqali amalga oshirilsa, moddiy va boshqa qiymatliklarning sotilishini hisobga oluvchi schotlarning kreditida hisobga olinadi.

Agar sotib olingan obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarning sotib olish bahosi ularning nominal qiymatidan farq qilsa, u holda sotib olish va nominal qiymati o‘rtasidagi farqni shunday hisobdan chiqarish yoki qo‘sishimcha hisoblanishi kerakki, 5810“Qimmatli qog‘ozlar” schotida hisobga olingan qimmatli qog‘ozlarning bahosi ularni qoplash davrida nominal qiymatiga muvofiq bo‘lishi lozim. Sotib olish va nominal qiymati o‘rtasidagi farq qoplanadigan vaqtgacha bo‘lgan davrda 5810 “Qimmatli qog‘ozlar” schotining debeti (qo‘sishimcha hisoblash)da yoki krediti (hisobdan chiqarish) da, 9590 “Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari” yoki 9690 “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar” schotlari bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

5810“Qimmatli qog‘ozlar” schotida hisobga olingan obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarning qoplanishi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlarning debeti va 5810 “Qimmatli qog‘ozlar” schotining kreditida aks ettiriladi.

5820“Berilgan qisqa muddatli qarzlar” schotida qishloq xo‘jalik korxonalarining boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarilarga qisqa muddatga bergen pulli va boshqa qarzlarining harakati hisobga olinadi.

Berilgan qarzlar 5820 “Berilgan qisqa muddatli qarzlar” schotining debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Qarzlarning qaytarilishi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlarning debeti va 5820 “Berilgan qisqa muddatli qarzlar” schotining kreditida aks ettiriladi.

5890 “Boshqa joriy investitsiyalar” schotida qishloq xo‘jalik korxonalarining bank va boshqa omonatlarga so‘mda va chet el valyutasidagi qo‘yilmalarining harakati hisobga olinadi.

Omonatlarga pul mablag‘larining o‘tkazilishi qishloq xo‘jalik korxonalarida 5890 “Boshqa joriy investitsiyalar” schotining debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Hisobda bank tomonidan omonatlar summasi qaytarilganda qishloq xo‘jalik korxonalarida teskari yozuv amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlar (5800) bo‘yicha analitik hisob qisqa muddatli investitsiyalarning turlari va ushbu qo‘yilmalar amalga oshirilgan ob‘ektlar (qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi-qishloq xo‘jalik korxonalarilar, omonatlar va hokazolar) bo‘yicha yuritiladi.

**5800 “Qisqa muddatli investitsiyalarini hisobga oluvchi schotlar”ning bog’lanishi.**

T/ r	Xo’jalik operatsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog’lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qimmatli qog’ozlar mahsulotlar, tovarlar, ish, xizmatlarni berish yo‘li bilan xarid qilindi	5810	9010- 9030
2	Qimmatli qog’ozlar asosiy vositalar va boshqa aktivlarni berish yo‘li bilan xarid qilindi	5810	9210, 9220
3	Qimmatli qog’ozlar naqd pulga xarid qilindi	5810	5010
4	Qimmatli qog’ozlar qiymati bankdagi schotdan to‘lanishi orqali xarid qilindi	5810	5110- 5530
5	Aksiyalarning to‘lov sifatida qimmatli qog’ozlarning kelib tushishi	5810	4610
6	Qimmatli qog’ozlarni sotilishi	5110	5810
7	Qishloq xo’jalik korxonalarining qarzi qimmatli qog’ozlar bilan qoplanishi	6990	5810
8	Inventarizatsiya natijasida qimmatli qog’ozlarning kamomadi	4730	5810
9	Qisqa muddatli qarzlarining asosiy vosita va boshqa aktivlar ko‘rinishida berilishi	5830	9210, 9220
10	Qisqa muddatli qarzlarining tayyor mahsulot, tovar, ish, xizmatlar ko‘rinishida berilishi	5830	9010- 9030
11	Boshqa qishloq xo’jalik korxonalarilar tomonidan qisqa muddatli qarzlarining qaytarilishi	5110	5830

Qishloq xo’jalik korxonalarida boshqa qishloq xo’jalik korxonalarilarining qimmatli qog’ozlariga va boshqa qishloq xo’jalik korxonalarilarining ustav kapitallariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar (qo‘yilmalar)ning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi o‘borotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

0610 "Qimmatli qog’ozlar";

0640 "Chet el kapitali mavjud bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalarilarga investitsiyalar";

0690 "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar".

Aktivlarni investitsiyalar tarkibiga kiritish va ularning turlari Buxgalteriya hisobining milliy standarti bilan tartibga solinadi.

0610 "Qimmatli qog'ozlar" schotida davlat foizli obligatsiyalari va mahalliy qarzlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga qilingan uzoq muddatli investitsiya (quyılma)larning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

0640 "Chet el kapitali mavjud bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalarilarga investitsiyalar" schotlarida qishloq xo'jalik korxonalarida tegishli chet el kapitali mavjud bo'lgan sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

0690 "Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar" schotida qishloq xo'jalik korxonalarida kelajakda moliyaviy naf olish maqsadida davlat qishloq xo'jalik korxonalarilari yoki boshqa xayriya, ekologiya jamiyatlariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar hisobga olinadi.

Aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar sotib olish bahosida 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schotining debetida ushbu qo'yilmalar hisobiga berilgan qiymatliklar hisobga olinadigan schotlar bilan bog'langan holda hisobga olinadi.

Agar qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan xarid qilingan obligatsiyalar va shu kabi boshqa qimmatli qog'ozlarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda xarid qilingan vaqtidan to qoplash vaqtigacha bo'lgan davrda xarid qiymati va nominal qiymat o'rtasidagi farq qismi hisobdan chiqariladi. Bunda 9690 "Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar" schotining debeti va 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schotining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Agar qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan xarid qilingan obligatsiyalar va shu kabi boshqa qimmatli qog'ozlarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan past bo'lsa, u holda xarid qilingan vaqtidan to qoplash vaqtigacha bo'lgan davrda xarid qiymati va nominal qiymati o'rtasidagi farq qismi qo'shimcha hisoblanadi. Bunda 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schotining debeti va 9590 "Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari" schotining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan har ikkala holatda ham qimmatli qog'ozlarni qoplash muddati kelganda 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schotida hisobga olingan baho nominal qiymatga to'g'ri kelishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar (dividendlar) hisoblanganda 4830 "Olinadigan foizlar" yoki 4840 "Olinadigan dividendlar" schotining debeti va 9530 "Foizlar ko'rinishidagi daromadlar" yoki 9520 "Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar" schotlarining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli investitsiyalarini hisobga oluvchi schotlar bo'yicha analitik hisob uzoq muddatli investitsiyalarning turlari va ushu investitsiyalar amalga oshirilgan ob'ektlar (qimmatli qog'ozlarni sotuvchi-qishloq xo'jalik korxonalarilar, qishloq xo'jalik korxonalari ishtirokchisi hisoblangan sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari va shu kabilar) bo'yicha yuritiladi. Bunda analitik hisobning tashkil qilinishi O'zbekiston Respublikasi hududi va xorijdagi ob'ektlarga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

#### **0600 “Uzoq muddatli investitsiyalarini hisobga oluvchi schotlar”ning bog'lanishi**

T/ r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Sotuvchi qishloq xo'jalik korxonalariga asosiy vositalarni berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish	0610	9210
2	Sotuvchi qishloq xo'jalik korxonalariga nomoddiy aktivlar va materiallar berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish	0610	9220
3	Sotuvchi qishloq xo'jalik korxonalariga mahsulot, tovar, ish, xizmatlarni berish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish	0610	9010, 9020, 9030
4	Boshqa qishloq xo'jalik korxonalarilarning qimmatli qog'ozlari xarid qilinganda	0610	5010- 5530
5	Debetorlik qarzları hisobiga qimmatli qag'ozlarning xarid qilinishi	0610	Olinadigan schotlar

6	Qisqa muddatli investitsiyalar tarkibi o'zgartirilganda (restrukrediturizatsiya)	0610	5810-5890
7	Qimmatli qog'ozlarning xarid va nominal qiymatlari o'rtaqidagi farq: a) nominal qiymati xarid qiymatidan yuqori b) xarid qiymati nominal qiymatdan yuqori	0610 9690	9590 0610
8	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning qoplanishi (sotib olinishi)	5110-5530	0610
9	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning sotilishi	9220	0610

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Pul mablag'larining iqtisodiy mazmuni va ularni saqlash.
2. Kassaga pul mablag'larini kirimini rasmiylashtirish.
3. Kassadan pul mablag'larini chiqimini rasmiylashtirish.
4. Kassirning hisoboti.
5. Bankda hisob-kitob va valyuta schotini ochish tartibi.
6. Bankdagi hisob-kitob schoti bo'yicha operatsiyalarni rasmiylashtirish.
7. Bankdagi hisob-kitob schoti korrespondensiyasi.
8. Valyuta schoti korrespondensiyasi.
9. Bankdagi maxsus schotlar va ularning korrespondensiyasi.
10. Qimmatli qog'ozlarning turlari va ularning mohiyati.
11. Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlarning korrespondensiyasi.
12. Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlarning korrespondensiyasi.

### **13-BOB. QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARI, O'STIRISHDAGI VA BOQUVDAGI MOLLARNI HISOBGA OLISHNING XUSUSIYATLARI.**

**13.1. Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarining iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va baholash. Ombor xo'jaligi hisobini tashkil etish.**

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun uzoq muddatli aktivlar bilan birga aylanma aktivlar ham

zarur bo‘ladi. Aylanma aktivlardan tovar-moddiy zahiralar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Tovar moddiy zahiralarga tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarishlar, xom ashyo va materiallar, yoqilg‘i, urug‘lik, ko‘chat materialari, yem-xashak, o‘g‘itlar, qurilish materialari, extiyot qismlar, kam baholi va tez eskiruvchi predmetlar kiradi. Tovar-moddiy zahiralari uzoq muddatli aktivlardan quyidagilari bilan farq qiladi:

1. Ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etadi.
2. O‘z qiymatini to‘liq ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo‘sadi.

Tovar-moddiy zahiralarni iqtisodiy mohiyati, baholash, xarajatga chiqarish O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining standartlari bilan tartibga solinadi.

Tovar moddiy zahiralar turlari bo‘yicha turkumlanadi:

1) Tayyor mahsulotlar. Bular qishloq xo‘jalik korxonalarida qaysi tarmoqdan olinganligiga qarab bo‘linadi:

- a) O‘simlikchilik tayyor mahsulotlari.
- b) Chorvachilik tayyor mahsulotlari.

v) Sanoat va boshqa ishlab chiqarishlar tayyor mahsulotlari.

2) Tugallanmagan ishlab chiqarishlar. Bular tarmoqlar (o‘simlikchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarish va x.k.) bo‘yicha bo‘linadi.

3) Xom ashyo va materiallar. Bulan esa turlari (xom ashyo turlari, o‘g‘it, yem-xashak, urug‘lik, yoqilg‘i va x.k.) bo‘yicha bo‘linadi.

-Tayyor mahsulotlar – qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo‘lib, yil davomida reja tannarxida baholanib, yil oxirida haqiqiy tannarxga yetkaziladi.

- Sotib olingan tovar-moddiy zahiralar sotib olish bahosi bo‘yicha (sotib olish bahosiga olib kelish xarajati qo‘sib) baholanadi.

- Tugallanmagan ishlab chiqarishlar-haqiqiy tannarxi bo‘yicha baholanadi.

Shuningdek, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida (yangi tahriri)”gi qonunning 17-moddasiga asosan “Tovar-moddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikkita bahoning eng pasti bo‘yicha — balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo‘yicha yoki bozor bahosi (realizatsiya qilishning so‘fiyiyati) bo‘yicha amalga oshiriladi”.

Ishlab chiqarish tannarxi – bu mazkur aktivni ishlab chiqarishga aloqador xarajatlar yig‘indisidir.

6	Qisqa muddatli investitsiyalar tarkibi o'zgartirilganda (restrukrediturizatsiya)	0610	5810-5890
7	Qimmatli qog'ozlarning xarid va nominal qiymatlari o'rtasidagi farq: a) nominal qiymati xarid qiymatidan yuqori b) xarid qiymati nominal qiymatdan yuqori	0610 9690	9590 0610
8	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning qoplanishi (sotib olinishi)	5110-5530	0610
9	Uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan qimmatli qog'ozlarning sotilishi	9220	0610

### Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Pul mablag'larining iqtisodiy mazmuni va ularni saqlash.
2. Kassaga pul mablag'larini kirimini rasmiylashtirish.
3. Kassadan pul mablag'larini chiqimini rasmiylashtirish.
4. Kassirning hisoboti.
5. Bankda hisob-kitob va valyuta schotini ochish tartibi.
6. Bankdagi hisob-kitob schoti bo'yicha operatsiyalarni rasmiylashtirish.
7. Bankdagi hisob-kitob schoti korrespondensiyasi.
8. Valyuta schoti korrespondensiyasi.
9. Bankdagi maxsus schotlar va ularning korrespondensiyasi.
10. Qimmatli qog'ozlarning turlari va ularning mohiyati.
11. Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlarning korrespondensiyasi.
12. Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schotlarning korrespondensiyasi.

## 13-BOB. QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARI, O'STIRISHDAGI VA BOQUVDAGI MOLLARNI HISOBGA OLISHNING XUSUSIYATLARI.

### 13.1. Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarining iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va baholash. Ombor xo'jaligi hisobini tashkil etish.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun uzoq muddatli aktivlar bilan birga aylanma aktivlar ham

zarur bo'ldi. Aylanma aktivlardan tovar-moddiy zahiralar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Tovar moddiy zahiralarga tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarishlar, xom ashyo va materiallar, yoqilg'i, urug'lik, ko'chat materialari, yem-xashak, o'g'itlar, qurilish materialari, extiyot qismlar, kam baholi va tez eskiruvchi predmetlar kiradi. Tovar-moddiy zahiralari uzoq muddatli aktivlardan quyidagilari bilan farq qiladi:

1. Ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etadi.
2. O'z qiymatini to'liq ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shadi.

Tovar-moddiy zahiralarni iqtisodiy mohiyati, baholash, xarajatga chiqarish O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining standartlari bilan tartibga solinadi.

Tovar moddiy zahiralari turlari bo'yicha turkumlanadi:

- 1) Tayyor mahsulotlar. Bular qishloq xo'jalik korxonalarida qaysi tarmoqdan olinganligiga qarab bo'linadi:
  - a) O'simlikchilik tayyor mahsulotlari.
  - b) Chorvachilik tayyor mahsulotlari.
  - v) Sanoat va boshqa ishlab chiqarishlar tayyor mahsulotlari.
- 2) Tugallanmagan ishlab chiqarishlar. Bular tarmoqlar (o'simlikchilik, chorvachilik, sanoat ishlab chiqarish va x.k.) bo'yicha bo'linadi.
- 3) Xom ashyo va materiallar. Bulan esa turlari (xom ashyo turlari, o'g'it, yem-xashak, urug'lik, yoqilg'i va x.k.) bo'yicha bo'linadi.
  - Tayyor mahsulotlar – qishloq xo'jalik korxonalarining o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'lib, yil davomida reja tannarxida baholanib, yil oxirida haqiqiy tannarxga yetkaziladi.
  - Sotib olingen tovar-moddiy zahiralari sotib olish bahosi bo'yicha (sotib olish bahosiga olib kelish xarajati qo'shib) baholanadi.
  - Tugallanmagan ishlab chiqarishlar-haqiqiy tannarxi bo'yicha baholanadi.

Shuningdek, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri)"gi qonunning 17-moddasiga asosan "Tovar-moddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikkita bahoning eng pasti bo'yicha — balans tuzilayotgan umudagi haqiqiy tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo'yicha yoki bozor bahosi (realizatsiya qilishning sofiyiyati) bo'yicha amalga oshiriladi".

Ishlab chiqarish tannarxi – bu mazkur aktivni ishlab chiqarishga aloqador xarajatlar yig'indisidir.

Sof sotish bahosi aktivni sotish xarajatlari chegirilgan holatda aktivni sotish mumkin bo'lgan bahosidir.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralari hisobining vazifalari:

1) Qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarini to'g'ri va o'z vaqtida buxgalteriya hujjatlari va registrlarida aks ettirilishini ta'minlash;

2) Mahsulotlar va zahiralarni to'liq saqlanishini va ular ustidan to'g'ri sarflanishini ta'minlovchi nazoratni o'rnatish;

3) Istalgan kunga yoki vaqtga materiallar va mahsulotlar holati va harakati to'g'risida ma'lumot olishni ta'minlash;

4) Ishlab chiqarish zahiralarini belgilangan me'yorda bo'lishini ta'minlash;

5) Vaqt-vaqt bilan mahsulot va zahiralar saqlanishi va holati bo'yicha inventarizatsiya o'tkazib turish.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot va zahiralarni saqlanishini ta'minlash uchun ombor xo'jaligi tashkil etiladi. Omborlar umumiylar maxsus omborlarga bo'linadi. Umumiylar omborlarda qishloq xo'jalik korxonalarini extiyoji uchun zarur bo'lgan inventarlar, qop-qanorlar, idishlar va h.k. saqlanadi. Maxsus omborlar ma'lum turdag'i zahiralarni saqlash uchun tashkil etiladi. Masalan: yoqilg'i ombori, o'g'itlar ombori va h.k.

Ombor xo'jaligini tashkil etilishi, tegishli uskunalar bilan jihozlanishi uchun qishloq xo'jalik korxonalarini rahbari mas'ul hisoblanadi. Omborda saqlanadigan zahiralar va mahsulotlar uchun ombor mudiri moddiy-javobgar shaxs hisoblanadi. Ombor mudiri ombor xo'jaligi hisobini yuritadi. Omborda saqlanadigan mahsulotlar yoki zahiralarni holati va harakati ombor mudiri tomonidan "Ombor hisobi daftari" yoki "Ombor hisobi kartochkasi" ga yozib boriladi. Omborga qabul qilinadigan tovar-moddiy zahiralar "Materialarni qabul qilish to'g'risida nakladnoy", "Yuk xati", "Schot-faktura" va boshqa hujjatlarni asosida qabul qilinadi. Ombordan tovar moddiy zahiralar "Limit-zabor kartasi", "Talabnoma", "Yuk xati" va boshqa hujjatlarni asosida beriladi.

Hujjatlarni aylanish grafigiga asosan ombor mudiri kirim va chiqim hujjatlarni ilova qilgan holda buxgalteriyaga "Tovar-moddiy zahiralar harakati to'g'risida" hisobot topshiradi.

### **13.2. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarining dastlabki hisobi.**

Dastlabki hisob – bu buxgalteriya hisobining xususiyatlaridan biri, hujjatlar asosida ish yuritilishi bilan bevosita bog‘liq. Dastlabki hisob quyidagi uch elementdan iborat:

1. Dastlabki buxgalteriya hujjatlari
2. Moddiy javbgar shaxsnинг kirim-chiqim daftari.
3. Moddiy javobgar shaxsnинг hisoboti.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarining harakati bo‘yicha turli xil buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi. Bularni quyidagi tartibda ko‘rib chiqamiz:

A) O‘simlikchilik mahsulotlari kirimi va chiqimi bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar:

-“Don va boshqa mahsulotlarni daladan jo‘natish reestri” – donli ekinlar mahsulotlarini daromadga olishga rasmiylashtiriladi.

-“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini kelish kundagi”–sabzavot, meva, poliz mahsulotlarini daromadga olishda rasmiylashtiriladi

-“Paxta terimi to‘g‘risida kunlik ma’lumot”- paxta xom-ashyosini daromadga olishda rasmiylashtiriladi.

-“Dag‘al va shirali ozuqalarni daromadga olish dalolatnomasi” - ozuqalarni daromadga olishda rasmiylashtiriladi.

-“O‘simlikchilik mahsulotlarini saralash va quritish dalolatnomasi”–donli ekinlar mahsulotlarini saralashda rasmiylashtiriladi.

-“Don va boshqa mahsulotlar harakati qaydnomasi”– donli ekinlar mahsulotlarini yig‘ishtirib olish mavsumi davrida rasmiylashtiriladi.

-“Tovar-transport nakladnoyi”–o‘simlikchilik mahsulotlarini tayyorlov tashkilotiga jo‘natish (sotish) da rasmiylashtiriladi.

-“schot-faktura”, “Yuk xati” – o‘simlikchilik mahsulotlari boshqa tashkilotlarga yoki qishloq xo‘jalik korxonalarini xodimlariga sotishda rasmiylashtiriladi.

-“Yem-xashak sarflash qaydnomasi”– chorva mollarini ozuqlantirish uchun yem-xashak sarflash vaqtida rasmiylashtiriladi.

-“Urug‘lik va ekish materiallarini sarflash dalolatnomasi” –urug‘lik va ko‘chat materiallarini sarflashda rasmiylashtiriladi.

b) Chorvachilik mahsulotlari kirimi va chiqimi bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar:

-“Sog‘ilgan sutni hisobga olish jurnali”-sog‘ilgan sutni hisobga olishda rasmiylashtiriladi.

-“Sut harakati qaydnomasi”–sutning harakatini hisobga olishda rasmiylashtiriladi.

-“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini kelish kundaligi”– asalni va tuxumni daromadga olishda rasmiylashtiriladi.

-“Junni qirqish va daromadga olish dalolatnomasi” – qo‘ylardan qirqib olingen junni hisobga olishda rasmiylashtiriladi.

-“Tovar-tarnsport nakladnoyi”–chorvachilik mahsulotlarini tayyorlov tashkilotlariga jo‘natish (sotish) da rasmiylashtiriladi.

-“Yuk xati”– chorvachilik mahsulotlarini ichki xo‘jalik extiyoji uchun foydalanishda rasmiylashtiriladi.

v) Ishlab chiqarish zahiralari kirim va chiqimi bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar:

-“Schot-fakturna” –ushbu hujjatga asosan ta’minot tashkilotlaridan sotib olingen turli xil tovar-moddiy zahiralari kirimga olinadi.

-“Materiallarni qabul qilish to‘g‘risida nakladnoy”–xo‘jalikni o‘zida ishlab chiqilgan yoki tayyorlangan hamda asosiy vositalar tugatishdan olingen turli xil materiallarni daromadga olinadi.

-“Limit – zabor kartasi”, “Talabnoma”, “Yuk xati” – ishlab chiqarish zahiralari sarflanishi hisobga olinadi.

-“Mineral, organik va bakrediteriologik o‘g‘itlar, zaharli ximikatlar va gerbitsidlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi” – mineral va boshqa o‘g‘itlar, zaharli ximikatlar va gerbitsidlar sarflanishi hisobga olinadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan buxgalteriya hujjatlaridan tashqari, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarning harakati bo‘yicha boshqa tegishli hujjatlar ham rasmiylashtirilishi mumkin.

Masalan: mahsulotlarni sotishda yoki ishlab chiqarish zahiralarni sotib olishda dastlab “Sharhnomalar” tuziladi. Ishlab chiqarish zahiralarni xo‘jalik vakili “Ishonch qog‘oz” orqali tegishli hujjatlar asosida mol yetkazib beruvchi tashkilotdan olib keladi.

### **13.3. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish zahiralarning sintetik va analitik hisobi.**

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarni hisobga olishda aktiv schot bo‘lgan “1000-Materiallar hisobi schotlari” qo‘llaniladi.Buxgalteriya hisobi schotlar rejasiga asosan “1000-Materiallar hisobi schotlari” tarkibidagi quyidagi schotlar mavjud:

1010 “Xom ashyo va materiallar”.

1020 “Sotib olingen yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar”

1030 “Yoqilg‘i”

1040 "Extiyot qismlar"

1050 "Qurilish materiallar"

1060 " Idish va idishbop materiallar "

1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar"

1080 "Inventar va xo'jalik jihozlari "

1090 "Boshqa materiallar".

1010 "Xom-ashyo va materiallar" schotida qishloq xo'jalik korxonalari o'z ishlab chiqarishda qayta ishlash uchun mo'ljallangan qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobga olib boriladi.

1020 "Sotib olingan yarim tayyor materiallar va butlovchi qismlar" schotida sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar yoki ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun butlovchi materiallar hisobga olib boriladi.

1030 "Yoqilg'i" schotida barcha turdag'i (qattiq va suyuq) yoqilg'ilar, 1040 "Ehtiyyot qismlar" schotida barcha turdag'i ehtiyyot qismlar, shinalar, 1050 "Qurilish materiallari" schotida barcha turdag'i qurilish materiallari, 1060 "Idish va idishbop materiallar" schotida barcha turdag'i idishlar, idish materiallari , 1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" schotida qayta ishlash uchun boshqa tashkilotlarga berilgan materiallar hisobga olib boriladi.

1080 "Inventar va xo'jalik jihozlari" schotida qishloq xo'jalik korxonalarining aylanma mablag'lari tarkibiga kiradigan inventarlar, asboblar, xo'jalik jihozlari va boshqa mehnat vositalarining (kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar) mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

Ushbu schotda quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan mulk hisobga olinadi:

a) xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan;

b) xizmat qilish muddatidan qat'i nazar bir birligi (komplekrediti)ning qiymati (sotib olish vaqtida) O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik barobarigacha bo'lgan buyumlar. Rahbar hisobot yilida buyumlarning inventar va xo'jalik jihozlari tarkibida hisobga olinishi uchun qiymatining past chegarasini belgilash huquqiga ega.

Xizmat qilish muddati va qiymatidan qat'i nazar inventar va xo'jalik jihozlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) maxsus asboblar va moslamalar (alohida buyurtmani tayyorlash uchun yoki ma'lum bir turdag'i buyumlarni seriyali va ommaviy ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan maqsadli asboblar va moslamalar);

b) maxsus va sanitari buyumlar, maxsus poyafzal;

- v) yotoq jihozlari;
- g) kanselyariya jihozlari (kalkulatorlar, stol jihozlari va h.k.);
- d) oshxona va ovqatlanish xonasi jihozlari shuningdek, ovqatlanish xonasi choyshablari;
- ye) xarajatlari, ularni qurish, qurilish-montaj ishlari tannarxiga olib boriladigan vaqtinchalik (titulsiz inshootlar) qurilma va moslamalar;
- j) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;

Qishloq xo'jalik korxonalari mustaqil ravishda inventarlar, asboblar va xo'jalik jihozlarni hisobga oluvchi schotlarni, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi o'mni va roliga qarab ochishlari mumkin. Ularning qiymati foydalanishga berilgan vaqtida ishlab chiqarish yoki davr xarajatlariga to'liq qo'shiladi. Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlarining saqlanishini ta'minlash maqsadida keyinchalik ularning hisobi balansdan tashqari 014 "Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari" schotida alohida foydalanuvchilar bo'yicha yuritiladi.

Inventar va xo'jalik jihozlari keyinchalik foydalanishga yaroqsiz holga kelgan hollarda ularni balansdan tashqari schotdan hisobdan chiqarish belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan "Hisobdan chiqarish dalolatnomasi" ga asosan amalga oshiriladi.

1090 "Boshqa materiallar" schotida yem-xashaklar, urug'lik, o'g'itlar, asosiy vositalarni tugatishdan olingan metallalom, eskirgan shinalar, qayta ishlangan moylar va boshqa materiallar hisobga olib boriladi

Qishloq xo'jalik korxonalari urug'liklar, ekish materiallari, (sotib olingan va o'zida ishlab chiqarilgan) kompostlar, mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashda ishlatiladigan, biologik preparatlar, zaharli kimyoviy moddalar, dorilar hamda kimyoviy moddalarni (o'simlikchilikda, chorvachilikda va yordamchi xo'jalikda) hisobga olish va boshqalar uchun qo'shimcha schotlarni ochishlari mumkin.

#### **1000 "Materialarni hisobga oluvchi schotlar"ning bog'lanishi**

T/ r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mol yetkazib beruvchilardan materiallar olindi	1010- 1090	6010
2	Asosiy vositalarni tugatish natijasida materiallar daromadga olindi	1090	9210

3	Materiallar kirim qilingandan keyin aniqlangan yaroqsizlik (defekredit) bo'yicha mol yetkazib beruvchiga bildirilgan da'vo	4860	1010-1090
4	O'zida ishlab chiqarilgan materiallarning kirim qilinishi	1010-1090	2010-2310
5	To'lovi inkor etilgan oldin bildirilgan da'vo summasining hisobdan chiqarilishi	1010-1090	4860
6	O'simlikchilik ehtiyoji uchun urug'lik va ekish materiallari, o'g'itlar, turli xil ximikatlar	2010	1090
7	Chorvachilik ehtiyoji uchun yem-xashak, dori-darmonlar sarflanishi	2010	1090
8	Ombordagi tayyor mahsulotni urug'lik yoki yem-xashak uchun ajratilishi	1090	2810
9	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga materiallarning sarflanishi	2010, 2310, 2510, 2710	1010-1090
10	Ma'muriy ehtiyojlar uchun materiallarning berilishi	9420	1010-1090
11	Tabiiy ofat natijasida yo'qotilgan materiallarning hisobdan chiqarilishi	9720	1010-1090
12	Inventarizatsiya natijasida materiallarning kamomadi aniqlandi	5910	1010-1090
13	Materiallarni sotilishi va boshqa hisobdan chiqarilishiga	9220	1010-1090

Ishlab chiqarish zahiralarining turlari, guruhlari bo'yicha yoki moddiy javobgar shaxslar bo'yicha analistik schotlar tashkil etiladi va ularning harakati bo'yicha hisob registrlariga yozuvlar moddiy javobgar shaxslar hisoboti, kirim-chiqim nakladnoylari, schot-fakturalar va boshqa tegishli hujjatlar asosida olib boriladi.

### **13.4. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning iqtisodiy mohiyati, baholash va hisobning vazifalari. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning dastlabki hisobi.**

Qishloq xo'jalik korxonalarida o'stirishdagi va boquvdagi mollar aylanma aktivlarning asosiy guruhini tashkil etadi va ular mehnat predmetlari hisoblanadi. Ularni boqish jarayonida jonli mehnat sarfi,

yem-xashak va boshqa xarajatlar qilinadi. Ma'lum yoshga yetganidan so'ng, o'stirishdagi mollar asosiy podaga o'tkaziladi va aksincha asosiy podadan brak qilingan mollar, boquvga qo'yilib mehnat predmetiga o'tadi. O'stirishdagi va boquvdagi mollar chorvachilik sohasining tugallanmagan ishlab chiqarishi hisoblanib, ular o'ziga xos xususiyatlar egaligi, ular aylanma aktivlar (realizatsiya qilinishi, so'yishga topshirilishi, asosiy podaga o'tkazilishi) sifatida hisobga olishni talab qiladi. Shunday qilib, o'stirishdagi va boquvdagi mollar bir tomondan chorvachilikni tugallanmagan ishlab chiqarishi deb qaralsa, ikkinchi tomondan aylanma aktivlar hisoblanadi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar doimo harakatda bo'lib, ular shu harakatini hisobga olinish jarayonida baholanadi. Bu baholash quyidagicha bo'ladi:

- Sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingen buzoqlar reja tannarxida baholanadi.
- Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingen buzoqlar tirik vazinini tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi.
- Cho'chqachilikdan olingen cho'chqa bolalari ham tirik vaznining tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi.
- Ishchi hayvonlardan olingen nasl, ishchi hayvonning 60 ozuqa-kuni reja tannarxiga tenglashtirilib baholanadi. Tuyalardan olingen nasl 120 ozuqa-kuni reja tannarxida baholanadi
- Parranda bolalari inkubatsiyaning sutkalik parranda reja tannarxida baholanadi.
- Yangi asalari uyalari reja tannarxida baholanadi.
- Chetdan sotib olingen o'stirishdagi va boquvdagi mollar sotib olish bahosiga, olib kelish xarajati qo'shib baholanadi.
- Asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo'yilgan mollar balans bahosida baholanadi.

- Asosiy podaga o'tkazilgan mollar haqiqiy tannarxda baholanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida har oyda o'stirishdagi va boquvdagi mollar vazni o'lchanib, ularning oshgan vazni hisobiga ularning qiymati oshiriladi. Yil oxirida o'sgan vaznning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so'ng, reja va haqiqiy tannarxi o'rtaqidagi farq korrekreditirovka qilinib, o'stirishdagi va boquvdagi mollarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Hisobning vazifalari:

- 1) O'stirishdagi va boquvdagi mollarning bosh soni oshishi va saqlanishi ustidan nazorat qilish"
- 2) Poda tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida hisobga olib borish;

3) O'stirishdagi va boquvdagi mollarni parvarishlash va boqishning natijalarini to'g'ri aniqlab borish;

4) Chorvachilik xodimlarining o'z mehnati manfaatdorligini to'g'ri yo'lga qo'yish;

5) O'stirishdagi va boquvdagi mollar harakati bo'yicha dastlabki hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish va hisob registrlarini o'z vaqtida yuritish.

O'stirishdagi va boquvdagi mollarning harakatini hisobga olishda quyidagi buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi:

1.“Tug'ilgan hayvon naslini kirim qilish dalolatnomasi”. Bu hujjat buzoq, cho'chqa, qo'y va ishchi hayvonlarning bolalarini daromadga olish uchun ikki nusxada tuziladi. Hujjatda nasl bergan hayvon kimga berkitilganligi, uning laqabi, nomeri, tug'ilgan nasl soni, jinsi, berilgan nomeri, ajralib turadigan belgilari va kimga berkitilganligi ko'rsatiladi.

2.“Hayvonlarni guruhdan-guruhg'a o'tkazish dalolatnomasi”. O'stirishdagi mollar doimo o'sishda bo'lganligi uchun vaqtı-vaqtı bilan bir guruhdan ikkinchi guruhg'a o'tkazilib turiladi. Shunda yuqorida hujjat rasmiylashtirilib, buni maxsus hay'at tuzadi va bir guruhdan ikkinchi guruhg'a o'tkaziladigan hayvon turi, vazni, qaysi guruhdan qaysi guruhg'a o'tkazilayotganligi, kimga berkitilganligi ko'rsatiladi.

3.“Mollar vaznini tortish qaydnomasi”. O'stirishdagi va boquvdagi mollar har oyda vazni o'lchanadi va shu o'lhash natijasi shu hujjatda rasmiylashtiriladi. Bunda har bir hayvonning oxirgi va keyingi vazni asosida ularning o'sgan vazni (prives) aniqlanadi.

4.“Mollar va parrandalarni jo'natish-qabul qilish tovar-tarnsport nakladnoyi”. Bu hujjatga asoan xaridor va buyurtmachilarga sotilgan hayvonlar hisobga olinib, mollar bosh soni, tirik vazni, qaerga jo'natilayotgani, qabul qilib oluvchi, jo'natuvchi va boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

5.“Mollar va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi”. Mollar so'yilganda, majburiy so'yilganda yoki kasalligi tufayli nobud bo'lganda, ushbu hujjat rasmiylashtirilib, hisobdan chiqish sababi ko'rsatiladi.

6.Chetdan sotib olingan mollar “Schot-faktura” bilan daromadga olinadi. Agar yosh mol nasldor bo'lsa, belgilangan nusxada “Nasldorlik guvohnomasi” ham bo'lishi lozim.

7.“Sutkalik yosh parrandalarning chiqishi va saralash dalolatnomasi”. Ixtisoslashgan xo'jaliklarda inkubatsiyadan chiqqan

yem-xashak va boshqa xarajatlar qilinadi. Ma'lum yoshga yetganidan so'ng, o'stirishdagi mollar asosiy podaga o'tkaziladi va aksincha asosiy podadan brak qilingan mollar, boquvga qo'yilib mehnat premetiga o'tadi. O'stirishdagi va boquvdagi mollar chorvachilik sohasining tugallanmagan ishlab chiqarishi hisoblanib, ular o'ziga xos xususiyatlar egaligi, ular aylanma aktivlar (realizatsiya qilinishi, so'yishga topshirilishi, asosiy podaga o'tkazilishi) sifatida hisobga olishni talab qiladi. Shunday qilib, o'stirishdagi va boquvdagi mollar bir tomondan chorvachilikni tugallanmagan ishlab chiqarishi deb qaralsa, ikkinchi tomondan aylanma aktivlar hisoblanadi.

O'stirishdagi va boquvdagi mollar doimo harakatda bo'lib, ular shu harakatini hisobga olinish jarayonida baholanadi. Bu baholash quyidagicha bo'ladi:

- Sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingen buzoqlar reja tannarxida baholanadi.
- Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikdan olingen buzoqlar tirik vazinini tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi.
- Cho'chqachilikdan olingen cho'chqa bolalari ham tirik vaznining tirik vaznning reja tannarxiga ko'paytirilib baholanadi.
- Ishchi hayvonlardan olingen nasl, ishchi hayvonning 60 ozuqa-kuni reja tannarxiga tenglashtirilib baholanadi. Tuyalardan olingen nasl 120 ozuqa-kuni reja tannarxida baholanadi
- Parranda bolalari inkubatsianing sutkalik parranda reja tannarxida baholanadi.
- Yangi asalari uyalari reja tannarxida baholanadi.
- Chetdan sotib olingen o'stirishdagi va boquvdagi mollar sotib olish bahosiga, olib kelish xarajati qo'shib baholanadi.
- Asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo'yilgan mollar balans bahosida baholanadi.

- Asosiy podaga o'tkazilgan mollar haqiqiy tannarxda baholanadi. Qishloq xo'jalik korxonalarida har oyda o'stirishdagi va boquvdagi mollar vazni o'lchanib, ularning oshgan vazni hisobiga ularning qiymati oshiriladi. Yil oxirida o'sgan vaznning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so'ng, reja va haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq korrekreditirovka qilinib, o'stirishdagi va boquvdagi mollarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Hisobning vazifalari:

- 1) O'stirishdagi va boquvdagi mollarning bosh soni oshishi va saqlanishi ustidan nazorat qilish"
- 2) Poda tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida hisobga olib borish;

3) O'stirishdagi va boquvdagi mollarni parvarishlash va boqishning natijalarini to'g'ri aniqlab borish;

4) Chorvachilik xodimlarining o'z mehnati manfaatdorligini to'g'ri yo'lga qo'yish;

5) O'stirishdagi va boquvdagi mollar harakati bo'yicha dastlabki hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish va hisob registrlarini o'z vaqtida yuritish.

O'stirishdagi va boquvdagi mollarning harakatini hisobga olishda quyidagi buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi:

1.“Tug'ilgan hayvon naslini kirim qilish dalolatnomasi”. Bu hujjat buzoq, cho'chqa, qo'y va ishchi hayvonlarning bolalarini daromadga olish uchun ikki nusxada tuziladi. Hujjatda nasl bergen hayvon kimga berkitilganligi, uning laqabi, nomeri, tug'ilgan nasl soni, jinsi, berilgan nomeri, ajralib turadigan belgilari va kimga berkitilganligi ko'rsatiladi.

2.“Hayvonlarni guruhdan-guruhga o'tkazish dalolatnomasi”. O'stirishdagi mollar doimo o'sishda bo'lganligi uchun vaqt-vaqt bilan bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tkazilib turiladi. Shunda yuqorida hujjat rasmiylashtirilib, buni maxsus hay'at tuzadi va bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tkaziladigan hayvon turi, vazni, qaysi guruhdan qaysi guruhga o'tkazilayotganligi, kimga berkitilganligi ko'rsatiladi.

3.“Mollar vaznini tortish qaydnomasi”. O'stirishdagi va boquvdagi mollar har oyda vazni o'lchanadi va shu o'lhashh natijasi shu hujjatda rasmiylashtiriladi. Bunda har bir hayvonning oxirgi va keyingi vazni usosida ularning o'sgan vazni (prives) aniqlanadi.

4.“Mollar va parrandalarni jo'natish-qabul qilish tovar-tarnsport nakladnoyi”. Bu hujjatga asoan xaridor va buyurtmachilarga sotilgan hayvonlar hisobga olinib, mollar bosh soni, tirik vazni, qaerga jo'natilayotgani, qabul qilib oluvchi, jo'natuvchi va boshqa ma'lumotlar aks ettiriladi.

5.“Mollar va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi”. Mollar so'yilganda, majburiy so'yilganda yoki kasalligi tufayli nobud bo'lganda, ushbu hujjat rasmiylashtirilib, hisobdan chiqish sababi ko'rsatiladi.

6.Chetdan sotib olingan mollar “Schot-faktura” bilan daromadga olinadi. Agar yosh mol nasldor bo'lsa, belgilangan nusxada “Nasldorlik puvhonomasi” ham bo'lishi lozim.

7.“Sutkalik yosh parrandalarning chiqishi va saralash dalolatnomasi”. Ixtisoslashgan xo'jaliklarda inkubatsiyadan chiqqan

jo‘ja va boshqa parrandalarni hisobga olishda ushbu hujjat rasmiylashtiriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining chorvachilik fermasida “Mollar va parrandalar hisobga olish daftari” yuritiladi. Ushbu daftarda yuqoridagi hujjatlar asosida hayvon va parrandalar tarkibidagi o‘zgarishlar hisobga olinib, tegishli yozuvlar yozib boriladi. Har oyning oxirida daftardagi ma‘lumotlar yakunlanadi va shu asosda “Mollar va parrandalar harakati haqidagi hisobot” tuziladi. Ushbu hisobot ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi fermada, ikkinchi nusxasi boshlang‘ich hujjatlar ilova qilingan holda buxgalteriyaga topshiriladi.

### **13.5. O‘stirishdagi va boquvdagi mollarning sintetik va analitik hisobi.**

Qishloq xo‘jalik korxonalarida o‘stirishdagi va boquvdagi mollarning saqlash xarajatlari va olingen mahsulotlari 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schotining “Chorvachilik” analitik schotida hisobga olib boriladi. Yirik hayvonlar (qoramol, qo‘y, echki, ishchi hayvonlar, cho‘chqa)ning asosiy podaga o‘tkazilganlarining bosh soni va ular qiymati 0100 “Asosiy vositalarni hisobiga oluvchi schotlar” schotining 0170 “Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schotida hisobga olib boriladi. O‘stirishdagi va boquvdagi mollarning bosh soni, qiymati va harakati 1100 «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobiga oluvchi schotlar»da hisobga olib boriladi. 1100 «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobiga oluvchi schotlar» balansga nisbatan aktiv schot bo‘lib, uning debet tomonida chorva mollaridan olingen o‘sган vazn (prives)ni va bosh sonining ko‘payishi, kredit tomonida esa chiqimi aks ettiriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalariga tegishli yosh hayvonlar; boquvdagi, yaylovdagи katta yoshdagi hayvonlar; parrandalar; yovvoyi hayvonlar; quyonlar; asalari oilalari; sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvga qo‘yilmasdan); sotish uchun aholidan qabul qilingan qoramollarning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

1110 "O‘stirishdagi hayvonlar";

1120 "Bo‘rdoqidagi hayvonlar".

Asosiy podadan brak qilingan hayvonlar 1120 "Bo‘rdoqidagi hayvonlar" schotiga, 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schotining kreditidan (mahsuldor hayvonlar - boshlang‘ich qiymatda;

ishchi hayvonlar - yaroqsizga chiqarish natijasida olingan haqiqiy miqdorida) hisobga olinadi.

Nasl sifatida olingan yosh hayvonlar 1110 "O'stirishdagi hayvonlar" schotining debetiga va nasl beradigan hayvonlarni saqlash xarajatlarni hisobga oluvchi schotning kreditidan kirim qilinadi.

Yosh yirik shoxli qoramollar va boquvdagi (yaylovdagi) hayvonlarning ortgan vaznining qiymati shuningdek, yosh hayvonlar (toylar va boshqalar)ning o'sish qiymati har oyda 1110 "O'stirishdagi hayvonlar" va 1120 "Bo'rdoqidagi hayvonlar" schotlarining debetiga parvarishlash reja tannarxi bo'yicha ushbu hayvonlarni parvarishlash xarajatlarini hisobga oluvchi schotlarning kreditidan olib boriladi. Yil oxirida ko'rsatilgan schotlar bo'yicha yil davomida parvarishlash reja tannarxi bo'yicha hisobga olingan hayvonlarning qo'shilgan vazni yoki o'sish qiymatini, parvarishlashning haqiqiy tannarxigacha to'g'rilash yozuvlari amalga oshiriladi.

Asosiy podaga o'tkaziladigan yosh hayvonlar 1110 "O'stirishdagi hayvonlar" schotidan 0840 "Asosiy podani tashkil etish" schotining debetiga hisobdan chiqariladi. Bir vaqtning o'zida yosh hayvonlarning asosiy podaga o'tkazilishi 0170 "Ishchi va mahsuldor hayvonlar" schoti debetlanadi va 0840 "Asosiy podani tashkil qilish" schoti kreditlanadi. Qiymati 1110 "O'stirishdagi hayvonlar" schotida yuritiladigan hayvonlarning chetga chiqib ketishi, shu jumladan, asosiy podadan yaroqsiz qilingan hayvonlarni tayyorlash qishloq xo'jalik korxonalarilariga topshirilishi 1110 "O'stirishdagi hayvonlar" 1120 "Bo'rdoqidagi hayvonlar" schotlarining krediti va 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi" schotining debetida aks ettiriladi va bir vaqtning o'zida ushbu hayvonlar uchun sotib oluvchidan qishloq xo'jalik korxonalariga tegishli summaga 9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar" schotining krediti bilan 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar" schotining debeti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida nobud bo'lган va noilojlikdan so'yilgan epizootiya yoki tabiiy ofatdan nobud bo'lганlardan tashqari hayvonlarning qiymati, moddiy qiymatliklarning buzilishi sifatida 1110 "O'stirishdagi hayvonlar" va 1120 "Bo'rdoqidagi hayvonlar" schotlarining krediti va 5910 "Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar" schotining debetida aks ettiriladi. Nobud bo'lган va noilojlikdan so'yilgan hayvonlardan olingan terilar, shoxlar, tuyoqlar, tehnik yog'lar va shu kabilar foydalanish yoki sotish mumkin bo'lган

baholar bo'yicha baholanib, qo'shimcha mahsulot sifatida hayvonlarni parvarishlash xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarning kreditidan kirim qilinadi. Epizootiya yoki tabiiy ofatdan nobud bo'lgan yoki so'yilgan hayvonlarning qiymati 1110 "O'stirishdagi hayvonlar" va 1120 "Bo'rdoqidagi hayvonlar" schotlarning kreditidan bevosita 9720 "Favquloddagi zararlar" schotining debetiga hisobdan chiqariladi.

### 1100“O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schotlar”ning bog'lanishi

T/ r	Xo'jalik opratsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Yosh mollar bir yosh guruhdan ikkinchi yosh mollar guruhiga o'tkazilsa.	1110	1110
2	Boshqa shaxslardan va aholidan xarid qilingan hayvonlar kirim qilindi	1110, 1120	6990
3	Hayvonlarning ortgan vazni va o'sishining kirim qilinishi	1110, 1120	2010
4	Mol yetkazib beruvchilardan xarid qilingan yosh hayvonlar kirim qilindi	1110	6010
5	Hayvonlarni yetkazib kelish bo'yicha hisobdor shaxslarning xarajatlari	1110, 1120	6970
6	Ta'sischilardan ulush sifatida olingan yosh hayvonlarning kirim qilinishi	1110	4610
7	Mahsuldor hayvonlar nasllarining kirim qilinishi	1110	2010
8	Ishchi hayvonlar nasllarining yoki o'sgan vaznni kirim qilinishi	1110	2310
9	Asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo'yilgan mollar summasiga	1120	0170
10	Boshqa shaxslardan tekinga kelib tushgan yosh hayvonlarning kirim qilinishi	1110	8530
11	Yosh xayvonlarning asosiy podaga o'tkazilishi	0840	1110
12	Sotilgan va chetga berilgan yosh hayvonlar	9110	1110
13	Epizootiya natijasida nobud bo'lgan yosh hayvonlarning hisobdan chiqarilishi	9720	1110

1110 "O'stirishdagi hayvonlar" va 1120 "Bo'rdoqidagi hayvonlar" schotlari bo'yicha analitik schotlar hayvonlarni o'stirish va boqish xarajatlarni hisobga olish uchun belgilangan hayvonlarni saqlash joylari, turlari, yoshlarning guruhlari va boshqalar bo'yicha yuritiladi. Ushbu

analitik schotlaridagi yozuvlar, “Mollar va parrandalar harakati to‘g‘risida hisobot” asosida olib boriladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Ishlab chiqarish zahiralari iqtisodiy mohiyati.
2. Aylanma aktivlarni baholash.
3. Ombor xo‘jaligi hisobini tashkil etish.
4. O‘simlikchilik mahsulotlari harakati bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar.
5. Chorvachilik mahsulotlari harakati bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar.
6. Materiallar harakati bo‘yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar.
7. Materiallarni sintetik va analitik hisobi.
9. O‘sirishdagi va boquvdagi mollarning iqtisodiy mohiyati.
10. O‘sirishdagi va boquvdagi mollarni baholash.
11. O‘sirishdagi va boquvdagi dastlabki hisobi.
12. O‘sirishdagi va boquvdagi mollar harakati bo‘yicha hisobot.
13. O‘sirishdagi va boquvdagi mollar sintetik va analitik hisobi.

## **14-BOB. ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI**

### **14.1. Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi, baholash va hisobning vazifalari.**

Qishloq xo‘jalik korxonalarli ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatida mehnat, material va moliya resurslari bilan birga asosiy vositalardan ham foydalanadilar. Asosiy vositalar – uzoq davom etadigan vaqt mobaynida (bir yildan ko‘prok vaqt davomida) moddiy ishlab chiqarish sohasida ham, noishlab chiqarish sohasida ham amal qilinadigan, shuningdek ijaraga berish uchun foydalanadigan moddiy aktivlardir. Asosiy vositalarga binolar, inshootlar, transport vositalari, uzatuvchi moslamalar, ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari va h.k. kiradi. Qishloq xo‘jalik korxonalarida mahsuldor va ishchi hayvonlar, ko‘p yillik daraxtlar va h.k. ham asosiy vositalar tarkibiga kiradi. Asosiy vositalarga yerlarni melirativ holatini yaxshilash uchun qilingan kapital sarflar ham kiradi.

Asosiy vositalar aylanma mablag‘lardan quydagi belgilari bilan farq qiladi:

- 1) Ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta ishtirok etishi.
- 2) Xizmat muddati davomida natura ko‘rinishini saqlab qolishi.
- 3) O‘z qiymatini xarajatga bosqichma-bosqich (amortizatsiya shaklida) qo‘sishi.

Xizmat muddati bir yildan kam bo‘lgan aktivlar (mehnat vositalari) tez eskiruvchi buyumlar hisoblanadi.

Asosiy vositalar moliyaviy hisobotning №3 shakli «Asosiy vositalar harakati to‘g‘risida hisobot»ga asosan quyidagicha turkumlanadi:

1. Bino.
2. Inshoot.
3. Uzatish moslamalari.
4. Mashina va jihozlar  
shu jumladan: a) Kuch mashina va jihozlari.  
b) Ishchi mashina va jihozlar.
- v) O‘lchov va tartibga soluvchi asboblar, moslamalar va laboratoriya jihozlari.
- g) Hisoblash texnikasi.
- d) Boshqa vositalari.
5. Transport vositalari.
6. Asbob-uskunalar.
7. Ishlab chiqarish inventari.
8. Xo‘jalik inventari.
9. Xodim va mahsuldor hayvonlar.
10. Ko‘p yillik daraxtlar.
11. Yer holatini yaxshilashdagi kapital xarajatlar (inshootsiz).
12. Boshqa asosiy vositalar.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatida tayinlanishiga ko‘ra turkumlanadi:

1. Ishlab chiqarish asosiy vositalari.
2. Zahiradagi asosiy vositalari.
3. Konservatsiya qilingan asosiy vositalar.
4. Ijaraga olingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalar kimga tegishli ekanligiga ko‘ra turkumlanadi:

1. O‘z asosiy vositalari.
2. Ijaraga olingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalar natura ko‘rinishiga ko‘ra turkumlanadi:

1. Natura ko‘rinishga ega asosiy vositalar.
2. Natura ko‘rinishiga ega bo‘lmagan asosiy vositalar.

Asosiy vositalar hisobini to‘g‘riligining sharti-ularni yagona prinsip ~~masida~~ baholanishidir. Asosiy vositalarning 4 xil bahosi mavjud:

1. Asosiy vositalar dastlabki qiymati – ularni barpo etish (qurish, o‘stirish, yetishtirish, yasash) yoki sotib olish bo‘yicha amalda qilingan xarajatlar qiymatidir.

Asosiy vositalar dastlabki qiymati, ularni kelish manbalariga qarab quyidagicha bo‘ladi:

a) Ta’sischilardan, ularning ustav fondiga ulushi sifatida olinganda – tomonlarning kelishuviga ko‘ra baholanadi.

b) Qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zida tayyorlangan, boshqa qishloq xo‘jalik korxonalaridan yoki shaxsdan sotib olingan asosiy vositalar – haqiqiy xarajatlar miqdorida (olib kelish, montaj va o‘rnatish xarajatlari qo‘silib) baholanadi.

v) Tekinga olingen asosiy vositalar ekspertlar aniqlagan yoki qabul qilish – topshirish hujjatlarida ko‘rsatilgan bahoda baholanadi.

Asosiy vositalar 1 yanvar holati bo‘yicha qayta baholanib turiladi. Bunday qayta baholash har yili bir marta 1 yanvar holatiga o‘tkazildi. Qayta baholash natijasida aniqlangan asosiy vositalar qiymati – qayta tiklangan qiymat deyiladi.

1. Boshlang‘ich qiymat- asosiy vositani ishchi holatga keltirish uchun qilingan jami xarajatlardir yoki ularni barpo etish (qurish, o‘stirish, yetishtirish, yasash) yoki sotib olish bo‘yicha amalda qilingan xarajatlar qiymatidir.

2. Joriy qiymat – asosiy vositalarning muayyan bir vaqtida amaldagi bozor baholari bo‘yicha qiymati yoki aktivlarni xabardor manfaatdor tomonidan o‘rtasida almashtirilishi mumkin bo‘lgan summasidir.

3. Qoldik qiymati – asosiy vositalarning dastlabki (qayta tiklangan) yoki joriy qiymatidan to‘plangan amortizatsiya chiqarib tanlangan summasidir.

4. Tugatish qiymati–asosiy vositalarni hisobdan chiqarish vaqtida ko‘zda tutilgan qiymati, bundan asosiy vositani tugatish xarajatlari nyriladi.

5. Amortizatsiyalanadigan qiymat- dastlabki qiymatdan tugatish qiymatini chegirilganidir.

Asosiy vositalar hisobining vazifalari:

-Asosiy vositalarni saqlanishini va maqsadga muofiq foydalanishini nazorat qilish;

-Asosiy vositalar kelishi, harakati va chiqishini hujjatlarda va hisob registrlari to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish;

-Asosiy vositalarni ta'mirlash, kengaytirish xarajatlarini maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

- Asosiy vositalar amortizatsiyasi(eskirishi)ni to'g'ri hisoblashni va xarajatga qo'shishni ta'minlash;

-Asosiy vositalar o'z vaqtida va maqsadga muofiq ta'mirlanishini nazorat qilish;

- Asosiy vositalarni hisob chiqarish va tugatish natijalarini aniq hisoblashni ta'minlash.

Asosiy vositalardan samarali foydalanish va ularni hisobga olishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun ularga inventar nomerlar beriladi.

#### **14.2. Asosiy vositalar kelishining hisobi.**

Qishloq xo'jalik korxonalariga tegishli (mulki) bo'lgan asosiy vositalar holati va harakati to'g'risidagi axborotlar, aktiv schot bo'lgan 0100 «Asosiy vositalar hisobi schotlari» tarkibidagi quyidagi schotlarda olib boriladi:

<b>0100</b>	<b>Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar</b>
0110	Yer
0111	Yerni obodonlashtirish
0112	Moliyalanadigan uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish
0120	Binolar,inshootlar va uzatuvchi moslamalar
0130	Mashina va asbob-uskunalar
0140	Mebel va ofis
0150	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi
0160	Transport vositalari
0170	Ishchi va mahsuldar hayvonlar
0180	Ko'p yillik o'simliklar
0190	Boshqa asosiy vositalar
0199	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar

Ushbu schotlar bo'yicha asosiy vositalarning xar biri, guruhi yoki turi bo'yicha analitik schotlar tashkil etiladi. Asosiy vositalar yuqoridagi schotlarda dastlabki qiymatda yoki qayta tiklangan qiymatda hisobga olib boriladi.

Asosiy vositalarni kelishi, «Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» (№OS-1shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolatnomaga har bir ob'ektga tuzilib, texnik hujjatlar ilova qilinadi va asosiy vositani bahosi, eskirish summasi, tayyorlangan vaqt, foydalanishga berish vaqt

lo'rsatiladi. Asosiy vositalar harakati va holati «Inventar kartochka» (№ 6-08 shakl)da hisobga olib boriladi.

Asosiy vositalar kelishi bo'yicha quyidagicha buxgalteriya provodkalarini tuziladi:

1) Debet 0100- «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»

Kredit 0810-«Tugallanmagan qurilish»schoti-Qurilgan ob'ektlar asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinganda.

2) Debet 0820-«Asosiy vositalarni sotib olish» schoti.

Kredit 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar» schoti. -Asosiy vositalar sotib olinganda.Bir vaqtning o'zida shu asosiy vositalar xo'jalikda asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinganda.

Debet 0100- «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»

Kredit 0820-«Asosiy vositalarni sotib olish» schoti.

3) Debet 0100-«Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar».

Kredit 0310-«Uzoq muddatlari ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar»schoti- Moliyaviy lizingga olingan asosiy vositalarning moliyaviy lizing muddati tugagandan so'ng o'z asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinganda.

4) Debet 0100- «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»

Kredit 4610-«Ustav kapitali (fondi)ga badallar bo'yicha ta'sischilarning qarzi»schoti-Ta'sis etuvchilardan ustav kapitaliga qo'shilgan asosiy vositalar qabul qilinganda.

5) Debet 0100- «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»

Kredit 8530-«Bepul olingan mulk»schoti-Asosiy vositalar tekinga olinganda.

6) Debet 0170-«Ishchi va mahsuldar hayvonlar»schoti.

Kredit 0840-«Asosiy podani shakllantirish»schoti-Ishchi yoki mahsuldar hayvon asosiy vosita tarkibiga qabul qilinganda.

7) Debet 0100- «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar».

Kredit 0890-«Boshqa kapital qo'yilmalar»schoti-Asosiy vositani kengaytirish va rekonstruksiya qilishda qiymati oshganda.

8) Debet 0111-«Yerni obodonlashtirish»schoti.

Kredit 0850-«Yerni obodonlashtirishga qilingan kapital qo'yilmalar»schoti- Yerni holatini yaxshilash uchun qilingan sarflar asosiy vosita tarkibiga qabul qilinganda.

9) Debet 0100- «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»

Kredit 8510-«Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»schoti- Asosiy vositalar qayta baholashda oshgan summasiga.

10) Debet 0100- «Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar»

Kredit 9390-«Boshqa operatsion daromadlar»schoti-Asosiy vositalar inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqsa, oshgan summasiga.

Asosiy vositalarni hisobga olib borishda, ularni kartochkalarda hisobga olib borish qulay bo'lib, bunda xar bir asosiy vositaga yoki guruhiga alohida kartochka ochilib, unda tegishli ma'lumotlar (nomi, inventar nomeri, dastlabki qiymati, amortizatsiya summasi va h.k.) aks ettirilib boriladi. Kartochkalar kartotekada saqlanadi.

### **14.3. Asosiy vositalar eskirishi hisobi.**

Asosiy vositalar qiymatini xarajatga bosqichma-bosqich, ya'ni qisman qo'shib boradi. Ana shu asosiy vositaning xarajatga, ya'ni mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan qismi amortizatsiya ajratmalari deyiladi. Amortizatsiya ajratmalari yig'indisi – eskirish summasini tashkil etadi. Asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmalari me'yori O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilab berilgan. Ushbu me'yorlar asosiy vositaning dastlabki yoki qayta tiklangan qiymatiga foizlarda belgilangan bo'lib, ular quyidagicha:

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Amortizatsiya guruhlarining (kichik guruhlarining) nomi	Amortizasiyaning normasi, foizlarda
I		<b>Binolar va inshootlar</b>	
	1	Binolar	5
	2	Inshootlar	10
II		<b>Quvurlar, elektr uzatish va telekommunikatsiyalar liniyalari</b>	15
III		<b>Mashinalar va uskunalar (transport uskunalaridan tashqari)</b>	20
IV		<b>Transport uskunalari</b>	
	1	Havo va kosmik uchish apparatlari va ular bilan bog'liq uskunalar, kemalar va qayiqlar, lokomotivlar va harakatdagi tarkib (temir yo'l tarkibi)	10
	2	Avtotransport vositalari, avtomobil kuzovlari (korpuslari), tirkamalar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari	20
V		<b>Kompyuterlar va periferiya uskunalari</b>	40
VI		<b>Boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiya qilinadigan aktivlar</b>	15

Qishloq xo'jaligi korxonasi soliqni hisoblab chiqarish maqsadida amortizatsiyani ushbu moddada belgilanganidan pastroq normalar bo'yicha hisoblashga haqli.

Quyida asosiy vositagilar amortizatsiya qilinmaydi:

- 1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob'ektlar (muv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- 2) mahsuldar chorva mollari;
- 3) kutubxona fondi;
- 4) muzej qimmatliklari;
- 5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- 6) arxitekreditura yodgorliklari;
- 7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, mayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tasarrufidagi bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;
- 8) amortizatsiya to'liq hisoblangan mol-mulk;
- 9) asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilmagan kapital qo'yilmalar.

Asosiy vositalar uchun amortizatsiyani yuqorida ko'rib o'tilgan normalarda belgilanganidan pastroq va qishloq xo'jalik korxonalarining hisob siyosatida mustahkamlab qo'yilgan normalar bo'yicha hisoblashga yo'l qo'yildi.

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalarni sotib oladigan qishloq xo'jalik korxonalari ushbu asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalardan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning ushbu moddada tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, qishloq xo'jalik korxonalari texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo'lmagan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo'lgani singari amalga oshiriladi.

Qabul qilingan asosiy vositalar, qabul qilingan oydan keyingi oyning 1-kunidan amortizatsiya hisoblanadi. Hisobdan chiqqanlariga, hisobdan chiqqan oydan keyingi oyning 1-kunidan amortizatsiya hisoblash to'xtatiladi.

Asosiy vositalarga amortizatsiya №5 BXMA “Asosiy vositalar”ning 24 va 25 punktlariga asosan, quyidagi usullarning biri asosida hisoblanadi:

1) Amortizatsiyani barabar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) hisoblash usuli.

2) Amortizatsiyani bajarilgan ish hajmiga mutanosib tarzda hisoblash (ishlab chiqarish) usuli.

3) Amortizatsiyani ikki barabor ko‘paytirilgan me’yori bilan kamayadigan qoldiq usuli (qoldiqni kamayish usuli)

4) Yillar yig‘indisi usuli (kumulyativ usuli).

Asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summalari «Amortizatsiya hisoblash vedomosti»da har oyda aks ettililib boriladi.

Asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya summalari schotlar rejasidagi kontr-aktiv schot bo‘lgan. 0200 «Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar» tarkibidagi quyidagi schotlarda hisobga olib boriladi:

<b>0200</b>	<b>Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schotlar</b>	<b>KA</b>
0211	Yer obodonlashtirishning eskirishi	
02 12	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi	
0220	Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi	
0230	Mashina va asbob-uskunalarining eskirishi	
0240	Mebel va ofis jihozlarining eskirishi	
0250	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi	
0260	Transport vositalarining eskirishi	
0270	Ishchi hayvonlarning eskirishi	
0280	Ko‘p yillik o‘simliklar eskirishi	
0290	Boshqa asosiy vositalarning eskirishi	
0299	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi	

Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanganda, asosiy vositalar xizmat qiladigan tarmoq xarajatini hisobga oluvchi schotlar (0810, 2010, 2310, 2510, 2710, 2720, 9423) debetlanib, 0211-0299 schotlar kreditlanadi.

**0200-“Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schotlar”ning  
bog‘lanishi**

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qishloq xo‘jalik korxonalarining asosiy, yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarida foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	2010, 2310, 2710	0211- 0299
2	Ummishlabchiqarish maqsadida foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskrish hisoblanganda	2510	0211- 0299
3	Ma’muriy maqsadlar uchun foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	9420	0211- 0299
4	Quyidagi maqsadlarda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash: a) yangi turdagи mahsulotni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ishga tushirish ishlariда; b) umumiy yoki yakka tartibda ishlab chiqarishga mo‘ljallanmagan yangi texnologik jarayonlarni o‘zlashtirishda;	9440	0211- 0299
5	Ishchi xayvonlarga eskirish hisoblanganda	2010, 2310	0270
6	Ko‘p yillik o‘simliklarga eskirish hisoblanganda	2010	0280
7	Joriy (qisqa muddatli) ijaraga berilgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda	9430	0220- 0299
8	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni xususiy asosiy vositalar tarkibiga o‘tishi natijasida ularga hisoblangan eskirish summasini o‘tkazish	0299	0211- 0290
9	Uzoq muddatli ijara shartnomasining muddati tugagandan keyin ijaraga beruvchiga qaytariladigan asosiy vositalarning eskirishni hisobdan chiqarish	0299	0310
10	Asosiy vositalarning eskirishini qayta baholash: a) qiymati oshirilganda b) qiymati kamaytirilganda	8510 0211- 0299	0211- 0299 8510
11	Asosiy vositalarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, uzoq muddatli ijaraga berish, kamomad yoki buzilish natijasida ularga haqiqatda hisoblangan eskirishni hisobdan chiqarish	0211- 0290	9210

#### **14.4. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va tugatishning hisobi.**

Asosiy vositalar to‘liq eskirganda, sotilganda, tabiiy ofat natijasida nobud bo‘lganda va boshqa hollarda hisobdan chiqariladi. Asosiy vositalarni hisobda chiqarilishida maxsus tuzilgan xay’at tomonidan “Asosiy vositalarni tugatish dalolatnomasi” (№4-OS-shakl) rasmiylashtiriladi. Dalolatnomani fermer xo‘jaligi rahbari tasdiqlangandan so‘ng, buxgalteriyaga topshiriladi va asosiy vositalar hisobi kartochkasiga tegishli yozuvlar yoziladi. Asosiy vositani tugatishdan olingan materiallar “Dalolatnoma” asosida omborga qabul qilinadi. Asosiy vositalarni tugatilishi va boshqa hisobdan chiqishi tranzit schot bo‘lgan 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi ” schotida hisobga olib boriladi. Ushbu schot bo‘yicha quyidagicha buxgalteriya provodkalari tuziladi.

1. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-0110-0190 schotlari -Hisobdan chiqarilgan (sotilgan, tekinga berilgan, tugatilgan) asosiy vositalar dastlabki qiymatiga.

2. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-0110-0190 schotlari-Lizingga berilgan yoki boshqa qishloq xo‘jalik korxonalariga hissa badali sifatida berilgan asosiy vositaning dastlabki qiymatiga.

3. Debet-0210-0299 schotlari.

Kredit-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti -Hisobdan chiqarilgan asosiy vositaning eskirish summasiga.

4. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-2310-“Yordamchi ishlab chiqarish”schoti-Asosiy vositani tugatishda yordamchi ishlab chiqarishlar xizmati summasiga.

5. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-6710-“Mehnat haki bo‘yicha xodimlar bilan hisob kitoblar”schoti- Asosiy vositani tugatishda qatnashganlarga mehnat haqi hisoblansa.

6. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-6520-“Davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar”schoti- Ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar hisoblansa

7. Debet-1050,1090 schotlari.

Kredit-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi”schoti-Asosiy vositani tugatishdan olingen turli xil materiallar summasiga.

8. Debet-4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar”schoti.

Kredit-9210- “Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti - Xaridorlarga sotilgan asosiy vositalar summasiga (puli to‘lanmagan).

9. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-9310-“Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimidan olingen foyda” schoti- Asosiy vositani tugatishdan moliyaviy natija(foyda) aniqlansa.

10. Debet-9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” schoti.

Kredit-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti - Asosiy vositani tugatishdan moliyaviy natija(zarar) aniqlansa.

Asosiy vositalar foydalanishga yaroqsiz bo‘lganda yoki to‘liq eskirgan «Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi» rasmiylashtirilib, hisobdan chiqariladi. Ushbu xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Debet 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit 0110-0190-schotlari – Asosiy vositaning dastlabki qiymatiga.

2. Debet 0210-0290-schotlari.

Kredit 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti- Asosiy vositani eskirish summasiga.

3. Debet 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit 2310, 6710, 6520-schotlari-Asosiy vositani tugatish bilan bog‘liq xarajatlarga.

4. Debet 1040, 1050, 1090-schotlari.

Kredit 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti- Asosiy vositani tugatishdan olingen turli materiallar summasiga.

Asosiy vositalarni boshqa hisobdan chiqarishlari bo‘yicha moliyaviy natija, xuddi asosiy vositalarni sotishdagidek aniqlanadi.

Asosiy vositalar inventarizatsiya natijasida kam chiqqanda yoki tubbiyy ofat natijasida yoki boshqa sabablar bilan ham hisobdan

#### **14.4. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va tugatishning hisobi.**

Asosiy vositalar to‘liq eskirganda, sotilganda, tabiiy ofat natijasida nobud bo‘lganda va boshqa hollarda hisobdan chiqariladi. Asosiy vositalarni hisobda chiqarilishida maxsus tuzilgan xay’at tomonidan “Asosiy vositalarni tugatish dalolatnomasi” (№4-OS-shakl) rasmiylashtiriladi. Dalolatnomani fermer xo‘jaligi rahbari tasdiqlangandan so‘ng, buxgalteriyaga topshiriladi va asosiy vositalar hisobi kartochkasiga tegishli yozuvlar yoziladi. Asosiy vositani tugatishdan olingan materiallar “Dalolatnomasi” asosida omborga qabul qilinadi. Asosiy vositalarni tugatilishi va boshqa hisobdan chiqishi tranzit schot bo‘lgan 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi ” schotida hisobga olib boriladi. Ushbu schot bo‘yicha quyidagicha buxgalteriya provodkalari tuziladi.

1. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-0110-0190 schotlari -Hisobdan chiqarilgan (sotilgan, tekinga berilgan, tugatilgan) asosiy vositalar dastlabki qiyamatiga.

2. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-0110-0190 schotlari-Lizingga berilgan yoki boshqa qishloq xo‘jalik korxonalariga hissa badali sifatida berilgan asosiy vositaning dastlabki qiyamatiga.

3. Debet-0210-0299 schotlari.

Kredit-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti -Hisobdan chiqarilgan asosiy vositaning eskirish summasiga.

4. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-2310-“Yordamchi ishlab chiqarish”schoti-Asosiy vositani tugatishda yordamchi ishlab chiqarishlar xizmati summasiga.

5. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-6710-“Mehnat haki bo‘yicha xodimlar bilan hisob kitoblar”schoti- Asosiy vositani tugatishda qatnashganlarga mehnat haqi hisoblansa.

6. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-6520-“Davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar”schoti- Ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar hisoblansa

7. Debet-1050,1090 schotlari.

Kredit-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi”schoti-Asosiy vositani tugatishdan olingan turli xil materiallar summasiga.

8. Debet-4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar”schoti.

Kredit-9210- “Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti - Xaridorlarga sotilgan asosiy vositalar summasiga (puli to‘lanmagan).

9. Debet-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit-9310-“Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimidan olingan foyda” schoti- Asosiy vositani tugatishdan moliyaviy natija(foyda) aniqlansa.

10. Debet-9430-“Boshqa operatsion xarajatlar” schoti.

Kredit-9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti - Asosiy vositani tugatishdan moliyaviy natija(zarar) aniqlansa.

Asosiy vositalar foydalanishga yaroqsiz bo‘lganda yoki to‘liq eskirgan «Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi» rasmiylashtirilib, hisobdan chiqariladi. Ushbu xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Debet 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit 0110-0190-schotlari – Asosiy vositaning dastlabki qiymatiga.

2. Debet 0210-0290-schotlari.

Kredit 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti- Asosiy vositani eskirish summasiga.

3. Debet 9210-“ Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit 2310, 6710, 6520-schotlari-Asosiy vositani tugatish bilan bog‘liq xarajatlarga.

4. Debet 1040, 1050, 1090-schotlari.

Kredit 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti- Asosiy vositani tugatishdan olingan turli materiallar summasiga.

Asosiy vositalarni boshqa hisobdan chiqarishlari bo‘yicha moliyaviy natija, xuddi asosiy vositalarni sotishdagidek aniqlanadi.

Asosiy vositalar inventarizatsiya natijasida kam chiqqanda yoki tibbiy ofat natijasida yoki boshqa sabablar bilan ham hisobdan

(balansdan) chiqariladi. Ushbu operatsiyalar buxgalteriya schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Debet 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti.

Kredit 0110-0190-schotlari- Asosiy vositaning dastlabki qiymatiga.

2. Debet 0210-0290-schotlari.

Kredit 9210-“Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi” schoti- Asosiy vositaning eskirish summasiga.

3. Debet 5910 «Kamomadlar va moddiy boyliklarni buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar».

Kredit 9210 - “Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi”- schoti-Kam chiqqan asosiy vositaning qoldiq qiymati summasiga.

4. Debet 4730- «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimning qarzi»-schoti.

Kredit 5910 «Kamomadlar va moddiy boyliklarni buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar»-schoti-Kamomad summasi aybdorga olib borilsa.

Asosiy vositalar kamomadi yoki boshqa hisobdan chiqishiga aybdor shaxs aniqlanmasa,summa 5910 «Kamomadlar va moddiy boyliklarni buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar»-schotda qoladi va yil oxirida 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schotiga o‘tkaziladi.

Asosiy vositalarning sotilishi va boshqa hisobdan chiqishida inventar ob’ektlarni har bir turi bo‘yicha alohida analitik schotlar ochilib, analitik hisobi yuritiladi.

Asosiy vositalar lizing bo‘yicha berilganda, lizing bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan summalar, daromad hisoblanib quyidagicha provodka beriladi:

1. Debet 6290 - «Muddati uzaytirilgan daromad» schoti.

Kredit 9210 - «Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schoti-Joriy yilda (hisobot davrida) olinadigan lizing summasi.

2. Debet 7290 - «Boshqa muddati uzaytirilgan uzoq muddatli majburiyatlar» schoti.

Kredit 9210 - «Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schoti-Keyingi davrlarda olinadigan lizing summasi.

Agar asosiy vostalar uzoq muddatli ijara berilsa Debet 0920-«Uzoq muddatli ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schoti, Kredit 9210-«Asosiy vositalarning sotilishi va turli chiqimi» schoti-buxgalteriya provodkasi beriladi.

#### **14.5. Nomoddiy aktivlar hisobi.**

Qishloq xo‘jalik korxonalarida mulkchilik huquqi qishloq xo‘jalik korxonalariga tegishli bo‘lgan nomoddiy aktivlarning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schotlarda amalga oshiriladi:

- 0410 "Patentlar, litsenziyalar va nou-xau";
- 0420 "Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalari";
- 0430 "Dasturiy ta‘minot";
- 0440 "Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlari";
- 0450 "Tashkiliy xarajatlar";
- 0460 "Franchayz";
- 0470 "Mualliflik huquqlari";
- 0480 "Gudvill";
- 0490 "Boshqa nomoddiy aktivlar".

Ob‘ektlarni nomoddiy aktivlarga kiritish tartibi va ularning tarkibi qonunchilik asosida hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 12 oktabrda 49-son bilan tasdiqlangan (7-BHMS) "Nomoddiy aktivlar" Buxgalteriya hisobining milliy standarti asosida tartibga solinadi.

Nomoddiy aktivlar quyidagi ob‘ektlar uchun aniqlanadigan boshlang‘ich bahoda nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlarda hisobga olinadi:

- a) ta‘sischilar tomonidan qishloq xo‘jalik korxonalarining ustav kapitaliga ulush hisobidan kiritilgani - tomonlarning kelishuvi bo‘yicha;
- b) to‘lov asosida boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari va shaxslardan xarid qilingan ushbu ob‘ektlarni xarid qilish va tayyor holatga keltirish bo‘yicha amalga oshirilgan - haqiqiy xarajatlar bo‘yicha;
- v) boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari va shaxslardan tekinga olingan ob‘ektlar - kirim qilish sanasidagi bozor bahosida yoki qabul qilish-topshirish hujjatlarida ko‘rsatilgan qiymat bo‘yicha;
- g) qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zi tomonidan yaratilgan yoki qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zida ilmiy - tadqiqot ishlari natijasida olingan ob‘ektlar - haqiqiy tannarxi bo‘yicha.

Ta‘sischilar tomonidan qishloq xo‘jalik korxonalarining ustav kapitaliga ularning ulushlari hisobiga kiritilgan nomoddiy aktivlarni kirim qilish (0400) nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlarning debetida va 4610 "Ustav kapitaliga ta‘sischilarining ulushlari bo‘yicha qurzi" schotining kreditida aks ettiriladi.

Boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari va shaxslardan xarid qilingan nomoddiy aktivlar, nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlarning debeti, 0830 "Nomoddiy aktivlarni xarid qilish" schotining kreditiga kirim qilinadi.

Boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari va shaxslardan tekinga olingan nomoddiy aktivlarning kirim qilinishi nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlarning debetida, 8530 "Tekinga olingan mulk" schoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Agar nomoddiy aktiv qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zi tomonidan yaratilsa va uni yaratish xarajatlarining aniq summasini aniqlash imkonи mavjud bo‘lsa, u holda nomoddiy aktiv haqiqiy tannarxi bo‘yicha aks ettiriladi. Nomoddiy aktivlarning haqiqiy tannarxini aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lmagan holda ushbu xarajatlar ilmiytadqiqot ishlari (ITI) yoki ilmiytadqiqot, sinov konstrukturlik ishlari (ITSKI) xarajatlari sifatida aks ettiriladi.

"Gudvill (firma bahosi)"ning buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 12-oktabrda 49-son bilan tasdiqlangan (7-BHMS) "Nomoddiy aktivlar" Buxgalteriya hisobining milliy standartiga muvofiq amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar chiqib ketganda (sotilganda, tekinga berilganda va boshqalarda) ularning boshlang‘ich qiymati nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi tegishli schotlarning (0400) kreditidan 9220 "Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi" schotining debetiga hisobdan chiqariladi.

#### **0400-“Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schotlar”ning bog‘lanishi**

T/ r	<b>Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni</b>	<b>Schotlarning bog‘lanishi</b>	
		<b>Debet</b>	<b>Kredit</b>
1	Xarid qilingan nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati (haqiqiy tannarxi) bo‘yicha kirim qilinishi	0410-0490	0830
2	Qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zida yaratilgan nomoddiy aktivlarning haqiqiy tannarxi bo‘yicha kirim qilinishi	0410-0490	0830
3	Ustav kapitaliga ulush sifatida yoki aksiyaga obuna bo‘lishga haq to‘lash hisobiga olingan nomoddiy aktivlarning kirim qilinishi	0410-0490	4610

4	Tekinga olingan nomoddiy aktivlarning kirim qilinishi	0410-0490	8530
5	Qishloq xo'jalik korxonalarini sotib olishda aktivlarning haqiqiy bahosi va sotib olish bahosi o'rtaqidagi farq sifatida vujudga keladigan gudvill (firma bahosi)ni aks ettirish	0480	8330
6	Gudvill (firma bahosi) summasini har oy foydali xizmat muddati davomida hisobdan chiqarilishi.	Xarajatlarni hisobga oluchi schotlar	0480
7	Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati bo'yicha sotilishi, hisobdan chiqarilishi, xarid qilingan qimmatli qog'ozlar haqining to'lovi uchun berilishi, boshqa qishloq xo'jalik korxonalarilarning ustav kapitaliga ulush sifatida, shuningdek, tekinga berilganda va boshqalar natijasida chiqib ketishi	9220	0410-0490

Mulkchilik huquqi qishloq xo'jalik korxonalariga tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlar bo'yicha jamlangan amortizatsiya to'g'risida ma'lumotlar quyidagi schotlarda umumlashtiriladi:

0510 - "Patentlar, litsenziyalar va nou-xauning amortizatsiyasi";

0520 - "Savdo markalari, tovar belgilari va sanoat namunalarining amortizatsiyasi";

0530 - "Dasturiy ta'minotning amortizatsiyasi";

0540 - "Yer va tabiat resurslaridan foydalanish huquqlarining amortizatsiyasi";

0550 - "Tashkiliy xarajatlarning amortizatsiyasi";

0560 - "Franchayzning amortizatsiyasi";

0570 - "Mualliflik huquqlarining amortizatsiyasi";

0590 - "Boshqa nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi".

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 12 oktabrda 49-son bilan tasdiqlangan (7-BHMS) "Nomoddiy aktivlar" Buxgalteriya hisobining milliy standartida ko'zda tutilgan usullarga muvofiq, belgilangan me'yorlar bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan hisoblab chiqilib, oyma-oy tegishliligiga qarab tannarxga yoki davr xarajatlariga olib boriladi.

Nomoddiy aktivlarga hisoblangan amortizatsiya summasi xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarning debeti va (0500) nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schotlarning kreditiga olib boriladi.

Nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi (sotilishi, tekinga berilishi va boshqalar)da ular bo'yicha hisoblangan eskirish summasi (0500) nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schotlarning debetidan 9220" Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi" schotining kreditiga hisobdan chiqariladi.

Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schotlar (0500) bo'yicha analitik hisob nomoddiy aktivlarning turlari va alohida ob'ektlari bo'yicha yuritiladi.

#### **0500-“Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasini hisobga oluvchi schotlar”ning bog‘lanishi.**

T/r	<b>Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni</b>	<b>Schotlarning bog‘lanishi</b>	
		<b>Debet</b>	<b>Kredit</b>
1	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarishda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash	2010, 2310	0510- 0590
2	Ummishlabchiqarish maqsadida va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash	2510, 2710	0510- 0590
3	Boshqaruv maqsadida foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblanganda	9420	0510- 0590
4	Quyidagi maqsadlarda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda: a) yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ishga tushirish ishlarida; b) umumiy yoki yakka tartibda ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirishda;	9440	0510- 0590
5	Kapital quyilmalarda foydalanilayotgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblanganda	0810- 0890	0510- 0590

6	Nomoddiy aktivlarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, uzoq muddatli ijaraga berish, kamomad yoki buzilishi natijasida yig'ilgan amortizatsiya summasini hisobdan chiqarish	0510-0590	9220
---	--	-----------	------

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati va hisobning vazifalari.
2. Asosiy vositalarni baholari, turkumlanishi.
3. Asosiy vositalar kelishining hisobi.
4. Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirishi) hisobi.
5. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi va tugatilishi hisobi.
6. Asosiy vositalar inventarizatsiyasi.
7. Nomoddiy aktivlar hisobi.
8. Nomoddiy aktivlar eskirishi hisobi.

## **15-BOB. MEHNAT VA UNGA HAQ TO'LASHNING HISOBI**

### **15.1. Mehnat va unga haq to'lashni hisobga olishning asosiy vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariiga o'tishi mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishi, natijada yangicha xo'jalik yuritish tizimlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday sharoitda qishloq xo'jalik korxonalari moliyaviy resurslari va ularning ishlatalishini belgilab beruvchi buxgalteriya hisobining uslubiyati yangi sharoitga moslashishi talab etiladi. Qishloq xo'jalik korxonalari endilikda nafaqat o'zining ichki omillarini, balki tashqi omillarni ham inobatga olishi zarurdir. Shuni ham unutmaslik kerakki, bugungi kunda qishloq xo'jalik korxonalari haqidagi ma'lumotlar faqat uning o'zinigina emas, balki u bilan aloqador barcha jismoniylari va huquqiy shaxslarni ham qiziqtiradi. Oldingi paragraflarda aytib o'tganimizdek buxgalteriya hisobi ikkiga, ya'ni moliyaviy va boshqaruv hisobiga bo'linadi. Buxgalteriya hisobi ayrim sohalari bo'yicha vazifalarni aniqlashda ana shu bo'linish albatta inobatga olinishi kerak, deb hisoblaymiz. Xo'sh, mehnat va unga haq to'lash hisobi qaysi buxgalteriyaga tegishli, moliyaviygami yoki boshqaruvgami? Uning oldida qanday vazifalar turibdi? Mana shu savollarga javob berishimiz uchun avvalom bor

buxgalteriya hisobining umumiy vazifalarini eslashimiz kerak. Ma'lumki, buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlashdir. Mehnat va unga haq to'lash haqidagi ma'lumotlar Respublikamizda belgilangan moliyaviy hisobot uchun ham ma'lum bir axborotlarni takdim etadi. Masalan, qishloq xo'jalik korxonalarida ishlovchilarning o'rtacha yillik soni, ish haqi fondi, o'rtacha ish haqi summasi, ijtimoiy fondlarga ajratmalar va ular bo'yicha qishloq xo'jalik korxonalarining qarzi, ish haqidan ushlab qolning daromad solig'i va ular bo'yicha hisob-kitoblar kabilar haqida ma'lumotlar beriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini boshqarish nuqtai nazaridan esa qishloq xo'jalik korxonalari xodimlari soni, tarkibi, mehnat unumдорлиги, ish haqi va ish haqi fondi, ish haqiga nisbatan ajratmalar, ularning ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga mos kelishi yoki kelmasligi, mehnat va ish haqi bo'yicha unumsiz xarajatlar, asosiy ishlab chiqarish xodimlari va ma'muriy boshqaruv xodimlari bo'yicha ish haqi xarajatlari kabi ma'lumotlar darkor. Ana shulardan kelib chiqqan holda mehnat va unga haq to'lashni hisobga olishning quyidagi vazifalarini belgilashimiz mumkin:

1. Ish vaqtining to'g'ri sarflanishi ustidan nazorat olib borish;
2. Sarflangan mehnat yoki ishlab chiqarilgan mahsulotni tegishli hujjatlarda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish;
3. Hisoblangan ish haqini kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida to'g'ri taqsimlash;
4. Mehnat va unga haq to'lashning ilg'or usullarini amalda qo'llash;
5. Mehnatga haq to'lash fondining to'g'ri sarflanishi ustidan nazorat olib borish;
6. Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha ma'lumotlarni moliyaviy hisobot va xo'jalik rahbariyati uchun o'z vaqtida umumlashtirish va taqdim etish.

Boshqa tarmoqlaridagi kabi qishloq xo'jaligi korxonalarida ham xodimlar soni qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish dasturi asosida aniqlanadi. Xodimlar qishloq xo'jalik korxonalarini miqyosida ulardan qaerda foydalanishiga qarab 2-guruhga bo'linadi: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band bo'lganlar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga taalluqli bo'lmagan ishlab chiqarish va xo'jaliklardagi xodimlar.

## **15.2. Mehnat haqi shakllari va tizimlari, mehnat haqi fondi va uning tarkibi. Mehnat haqining dastlabki hisobi.**

Qishloq xo'jaligi korxonalarida xodim mehnatiga tarif tizimi asosida sarflangan mehnat miqdori va sifatiga muvofiq haq to'lanadi.

**Tarif tizimi**- tarif-malaka ma'lumotnomasi, tarif setkasi va tarif stavkasi kabi tushunchalarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jalik korxonalarida bajariladigan ishlarning ishlab chiqarish tavsifi tarif-malaka ma'lumotnomasida keltiriladi. Ushbu hujjat xodimlar malakasini aniqlash va ularga ma'lum razryad belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tarif setkasi**- bu razryadlar va ularga tegishli bo'lgan tarif koeffitsientlari ko'rsatiladigan hujjatdir. Qishloq xo'jalik korxonalarida birinchi razryadning tarif koeffitsenti birga teng bo'lib, razryad ortgan sari tarif koeffitsenti ham oshib boradi.

**Tarif stavkasi**- xodimning razryadiga muvofiq unga ma'lum vaqt birligi(soat,kun) uchun to'lanadigan haq miqdorini aniqlaydi. Odadta tarif stavkasi birinchi razryad uchun belgilanib, qolgan razryadlar uchun esa birinchi razryad tarif stavkasini qolgan razryadlar tarif koeffitsientiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Fermer xo'jaliklirida ish haqining asosan **ishbay va vaqtbay** shakllari qo'llaniladi. Ish haqining ishbay shaklida mehnatga haq ishbay baho asosida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatiga muvofiq to'lanadi. Baho- bu bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun to'lanadigan ish haqi summasidir. Amalda ishbay ish haqi shaklining oddiy, mukofot vaakkord tizimlari qo'llaniladi.

**Oddiy ishbay** shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sonini ishbay bahosiga ko'paytirish yo'li bilan ish haqi miqdori aniqlanadi.

**Ishbay-mukofot** shaklida xodim asosiy ish haqidan tashqari ma'lum ishlab chiqarish yutuqlariga erishganligi uchun mukofot oladi. Masalan, ishlab chiqarishda xom-ashyo, material va boshqa moddiy boyliklar tejab-tergab sarflanganligi, ishlab chiqarish rejasini oshirib bajarilganligi va h.k. Ishbay ish haqi shaklining ushbu tizimi amalda keng qo'llaniladi.

**Ishbayakkord** shaklida ish haqi summasi ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot yoki bajarilishi lozim bo'lgan ish uchun belgilanadi. Akkord shaklining afzalliklaridan biri shundaki, unda bajarilgan jami ishning hajmi yoki olingan mahsulot uchun haq to'lanadi. Bu esa mehnatni me'yorlashni va ish haqi bo'yicha hisob kitob ishlarini bir muncha yengillashtiradi. Ishbay akkord tizimi asosan mavsumiy ishlarni hamda ayrim buyurtmalarni bajarishda qo'llaniladi.

Ish haqining **vaqtbay** shaklida mehnatga haq xodimning ishlagan vaqt va malakasiga qarab to'lanadi. Amalda vaqtbay ish haqining oddiy va mukofot shakllari qo'llaniladi.

**Oddiy vaqtbay** shaklida qishloq xo'jalik korxonalari xodimlar haqiqatan ishlagan vaqtiga qarab belgilangan maosh asosida haq olishadi. Vaqtbay ish haqi oluvchi xodimlar mehnatiga haq ularning ishlagan vaqt va tarif stavkalari asosida aniqlanadi.

**Vaqtbay-mukofot** shaklida asosiy ish haqidan tashqari mukofot ham to'lanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalari mehnat va unga haq to'lash bo'yicha masalalarни mustaqil ravishda o'zлari hal qiladilar. Qishloq xo'jalik korxonalari rahbari tasdiqlangan mehnatga haq to'lash fondi doirasida kasaba uyushmasi tashkiloti bilan kelishgan holda xodimlarning ayrim guruhi uchun mehnatga haq to'lashning ishbay, vaqtbay yokiakkord shakllarini belgilishi hamda xodimlarni mukofotlash uchun mukofotlash shartlari hamda ko'rsatkichlarini aniqlab olishi mumkin.

Amaldagi tarif-malaka ma'lumotnomasiga muvofiq qishloq xo'jalik korxonalari xodimlarga razryad belgilash, ishlab chiqarish me'yorlarini qarab chikish va yangilarini tasdiqlashi mumkin. Undan tashqari, qishloq xo'jalik korxonalari rahbari yuqori malakali xodimlarning oylik ish haqiga qo'shimcha belgilay oladi, shtatlar, maosh, ma'muriy boshqaruv xarajatlari smetasini tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatga haq to'lash fondini rejalashtirish tartibini o'zgartirish bilan bir qatorda mehnatga haq to'lashning ilg'or shakllarini qo'llashga, mehnatga haq to'lashning rag'batlantirish rolini kuchaytirishga, erishilgan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorlikni oshirishga alohida etibor berilishi lozim.

Ish haqi o'z tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi: asosiy va qo'shimcha.

**Asosiy ish haqi** deyilganda qishloq xo'jalik korxonalari xodimlarining ishlagan vaqt uchun to'lanadigan haq tushuniladi. Masalan vaqtbay va ishbay haqning barcha turlari, mehnat sharoitining o'zgarganligi uchun to'lanadigan qo'shimcha haq uchun to'lanadigan haq va boshqalar nazarda tutiladi.

**Qo'shimcha ish haqi** deb xodimlarning ishlamagan vaqt uchun amaldagi qonun-qoidalarga muvofiq to'lanadigan haqga aytildi. Masalan, mehnat ta'tili uchun, yoshi 18 ga yetmagan o'smirlarning ishlamagan soati uchun, davlat, jamoa ishlari bilan band bo'lingani uchun to'lanadigan haq va boshqalar.

Qishloq xo‘jalik korxonalari xodimlarining asosiy va qo‘srimcha mehnat haqlari hamda ro‘yxatda bo‘lmagan xodimlar mehnat haqi summasi mehnatga haq to‘lash fondini tashkil qiladi. Unga quyidagilar kiradi:

-qishloq xo‘jalik korxonalarida mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq hisoblangan mehnat haqi;

-mehnat haqi ko‘rinishida berilgan mahsulot qiymati;

-tarif stavkalari va okladlariga qo‘srimchalar;

-mukofotlar;

-qishloq xo‘jalik korxonalari shtatida bo‘lmagan xodimlar mehnatiga haq;

-mehnat ta‘tiliga to‘lanadigan haq va boshqalar.

Qishloq xo‘jalik korxonalari pul to‘lovleri va rag‘batlantirishlariga quyidagilar kiradi:

-yillik ish yakunlari bo‘yicha rag‘batlantirish;

-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarganligi uchun rag‘batlantirish;

-qishloq xo‘jalik korxonalarilardan o‘qishga yuborilgan talabalarga stipendiya;

-davolanish uchun beriladigan yo‘llanmalar qiymati va boshqalar.

**Qishloq xo‘jalik korxonalari xodimlarning o‘rtacha mehnat haqi.** Qishloq xo‘jalik korxonalari xodimlari o‘rtacha ish haqiga qishloq xo‘jalik korxonalarida mehnatga haq to‘lash fondi tarkibiga kiritiladigan jami to‘lovlar kiradi. Faqat qishloq xo‘jalik korxonalari shtatida bo‘lmagan xodimlar mehnatiga to‘lanadigan haq kiritilmaydi. O‘rtacha mehnat haqiga pul to‘lovleri va rag‘batlantirishlardan tashqari yil natijalari bo‘yicha rag‘batlantirish hamda ishlab chiqarish topshirig‘ini bajarganligi uchun mukofotlar ham kiradi. Qishloq xo‘jalik korxonalari xodimlari o‘rtacha daromadiga o‘rtacha ish haqiga kiritiladigan summalaridan tashqari yana moddiy yordam, mehnat faxriylari nafaqaga ketayotgan vaqtlarida to‘lanadigan mukofot, talabalar stipendiyasi, qishloq xo‘jalik korxonalari xodimlariga beriladigan yengilliklar, davolanish uchun beriladigan yo‘llanmalar va boshqalar kiradi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida mehnatga haq to‘lash fondini tarkibiga kirmaydigan to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

-tadqiqot va ratsionalizotirlik takliflari uchun rag‘batlantirish;

-xizmat safari xarajatlari;

-vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi uchun nafaqa, ishlayotgan nafaqaxo‘rlarga berilayotgan nafaqa;

- maxsus kiyim,poyabzal qiymati;
- o'quv muassasalari, bolalar internatlariga ko'rsatiladigan yordam;
- madaniy-ommaviy o'quv tadbirlarini olib borish uchun ijara olingan bino ijara haqi;
- profilakreditoriy, dam olish uylari, pansionatlar xarajatlari;
- kutubxonalar, tibbiyot punkti, muzeylear bilan bog'liq xarajatlari.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnat va unga haq to'lashning dastlabki hisobi bo'yicha quyidagi buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi:

1.Mehnatga haq to'lashning **vaqtbay** shaklida ishlagan vaqlari uchun "Ish vaqtini hisobga olish tabeli"rasmiylashtiriladi.Tabelda xodimlarning oy davomida ishlagan kunlaridagi ishlagan soatlari har kuniga yozib boriladi.Ishlamagan kunlar uchun esa tegishli Masalan: dam olish kunlariga "V",bayram kunlariga "P" belgilar qo'yiladi.

2.Mehnatga haq to'lashning **ishbay** shaklida ishlagan vaqlari uchun "Mehnat va bajarilgan ishlarni hisobga olish varaqasi" rasmiylashtiriladi.Ushbu hujjatda xodimlarning bajargan ish hajmi,ishlagan soatlari,kunlari,razryadi va boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

3.Qishloq xo'jalik korxonalarida transport vositalarida ish bajaradigan traktorist-mashinstlar bajargan ishlar uchun "Traktorist-mashinstning hisob varaqasi" yoki "Traktorning yo'l varaqasi" rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, chorvachilik tarmog'ida band bo'lgan xodimlarning bajargan ish hajmi,ishlagan soatlari uchun "Chorvachilik tarmog'ida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblash hisob-kitobi",qurilish va ta'mirlash ishlariда band bo'lgan xodimlarning bajargan ish hajmi,ishlagan soatlari uchun "Ishbay ish uchun naryad" rasmiylashtiriladi. Mehnat va ish haqini hisoblash bo'yicha rasmiylashtiriladigan boshlang'ich hujjatlar belgilangan muddatda buxgalterianing mehnat haqini hisoblash bo'limiga topshiriladi. Boshlang'ich hujjatlar buxgalteriya xodimlari tomonidan tekshiriladi, so'ngra qayta ishlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnat va unga haq to'lashning dastlabki hisobi bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar asosida qishloq xo'jalik korxonalarini xodimlariga mehnat haqi amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida qishloq xo'jalik korxonalarida qabul qilingan qoidalarga asosan hisoblanadi. Hisoblangan mehnat haqi qishloq

xo'jalik korxonalari buxgalteriyasida yuritiladigan "Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar daftari"da aks ettirilib boriladi. "Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar daftari"ga asosan fermer xo'jaligi buxgalteri "To'lov qaydnomasi" tuzadi. "To'lov qaydnomasi"ga fermer xo'jaligi rahbari va buxgalteri imzo chekkandan so'ng,qaydnama asosida xodimlarga fermer xo'jaligi kassasidan mehnat haqi beriladi.

### **15.3.Mehnat va unga haq to'lashning sintetik va analistik hisobi.**

Qishloq xo'jalik korxonalari ro'yxatida bo'lgan va ro'yxatida turmagan xodimlarga mehnatga haq to'lash (mehnat haqining hamma turlari, mukofotlar, ishlaydigan pensiya oluvchilarga hisoblangan pensiya va boshqa to'lovlar) bo'yicha joriy qarzlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi balansga nisbatan passiv schotlarda amalga oshiriladi:

6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar";

6720 "Deponentlangan ish haqi".

6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schotining kredit tomonida mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar, pensiyalar va boshqa shu kabi summalar aks ettiriladi. 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schotining debet tomonida hisoblangan mehnat haqini to'lash va undan ushlanmalar aks ettiriladi.

Har yilgi va qo'shimcha ta'til bo'yicha summalarini hisoblashda ushbu summalar mehnat haqi jamg'armasiga joriy oyga to'g'ri keladigan ta'til kunlari summasi miqdorida kiritiladi. Ta'tilning bir qismi keyingi oyga o'tgan hollarda, ushbu kunlar uchun xodimlarga to'langan summalar joriy oyda berilgan bo'nak summasi kabi aks ettiriladi va 4290 "Xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar" schotining debetida va 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari" schotining kreditida ko'rsatiladi.

6720 "Deponentlangan ish haqi" schotida xodimlarning olinmagan ish haqi bo'yicha qarzlari aks ettiriladi.

6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" va 6720 "Deponentlangan ish haqi" schotlari bo'yicha analistik hisob qishloq xo'jalik korxonalarining har bir xodimi bo'yicha alohida yuritiladi.

**6700 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schotlar”ning bog‘lanishi.**

T/ r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Kapital qo‘yilmalar sohasida band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	0810-0890	6710
2	Asosiy ishlab chiqarish (o‘simglikchilik, chorvachilik), yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish ishchilariga mehnat haqi hisoblanganda	2010, 2310, 2510	6710
3	Mahsulot sotishda, boshqaruv va boshqa operatsiyalarda band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda	9410-9430	6710
4	Kelgusi davr xarajatlariga kiritiladigan ishlar uchun mehnat haqi hisoblanganda	3190	6710
5	Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish jarayonlarida ishtiroy etganlarga mehnat haqi hisoblanganda	9210	6710
6	Ortiqcha to‘langan summalar (mehnat haqi va hokazolar) kassaga qaytarildi	5010	6710
7	Tabiiy ofatlar, yong‘inlarni bartaraf qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ishchilarga mehnat haqi hisoblanganda	9720	6710
8	Xodimlarga bir martalik mukofot hisoblanganda	9430	6710
9	Mahsulot, ish, xizmatlar qiymati qishloq xo‘jalik korxonalari ishchilaridan ushlab qolingga	6710	4790
10	Xodimlarga hisoblangan summalar kassadan to‘langanda (mehnat haqi, mukofotlar va hokazo)	6710	5010
11	Hisobdor shaxslarning qaytarmagan bo‘nak summalari ushlab qolingga	6710	4220
12	Kreditga sotib olingan tovarlar uchun hisob-kitoblar bo‘yicha navbatdagagi to‘lovlar ishchilardan ushlab qolingga	6710	4710
13	Aybdor ishchilarining mehnat haqi summasidan yetkazilgan moddiy zararlar summasi ushlab qolingga	6710	4730
14	Qishloq xo‘jalik korxonalari ishchilarining mehnat haqi summasidan daromad solig‘i summasi ushlab qolingga	6710	6410

15	Ishchilarining mehnat haqi summasidan nafaqa jamg'armasiga ushlab qolingga	6710	6520
16	Mehnat haqi summasi deponentga o'tkazilganda	6710	6720
17	Ijro varaqaralari asosida(aliment va boshqalar) mehnat haqidan ushlab qolingga	6710	6990
18	Deponent summasi kassadan berilganda	6720	5010

Bundan tashqari qishloq xo'jalik korxonalari xodimlariga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish balansga nisbatan aktiv schot bo'lgan 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schotida amalga oshiriladi.

4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schotida qishloq xo'jalik korxonalari xodimlariga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklarning barcha turlari yuzasidan hisob-kitoblar hisobga olinadi. Bo'naklarning kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilishi xodimlarning sababi ko'rsatilgan arizasiga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu schotda quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladigan, ya'ni 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar" schotining debeti va 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schotining kreditida mehnat haqi bo'yicha har oylik bo'naklar hisobga olinadi.

#### **4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schotining bog'lanishi**

T/ r	Xo'jalik opratsiyalarining mazmuni	Schotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mehnat haqi hisobidan bo'nak berildi	4210	5010
2	Xodimlarga kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilgan bo'naklar ushlab qolindi	6710	4210

Shunday kilib, qishloq xo'jalik korxonalarida xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar", 6720 "Deponentlangan ish haqi" va 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schotlarda yuritiladi. 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schotining kreditida hisoblangan ish haqi summasi ko'rsatilsa, debetida ish haqidan ushlab qolinadigan summalar aks ettiriladi. Bunda qoldiq kreditda bo'lib, bu qishloq xo'jalik korxonalarining xodimlardan qarzini

bildiradi. Hisobot davri oxiriga aniqlangan saldo ya’ni qoldiq qishloq xo‘jalik korxonalar majburiyati sifatida balansda alohida modda sifatida o‘z aksini topadi.

#### **15.4.Mehnat haqidan ushlanmalar va mehnat haqiga nisbatan ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobi.**

Qishloq xo‘jalik korxonalarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan quyidagi ushlanmalar ushlab qolinadi:

- 1.Daromad solig‘i.
- 2.Nafaqa fondiga(jamg‘armasiga).
- 3.Kasaba uyushma jamg‘armasiga.
- 4.Ijro varaqaralari asosidagi ushlanmalar(aliment,yetkazilgan moddiy zarar va h.k.)

5.Oldin berilgan bo‘nak summasi.

6.Kreditga olingen tovarlar summasi va h.k.

Yuqoridagi ushlanmalardan daromad solig‘i,nafaqa fondiga, ijro varaqaralari asosidagi ushlanmalar majburiy ushlanmalar hisoblanadi.

Daromad solig‘i qishloq xo‘jalik korxonalarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan quyidagi tartibda ushlab qolinadi:

Hisoblangan mehnat haqi summasining minimal ish haqining olti barobariga to‘g‘ri kelgan qismidan 12%, olti barobaridan o‘n barobariga to‘g‘ri kelgan qismidan 17%, o‘n barobaridan ortiq qismidan 22%. Qishloq xo‘jalik korxonalarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqidan daromad solig‘i ushlab qolinganda Debet 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”,Kredit 6410 “Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarz” buxgalteriya provodkasi beriladi.

Nafaqa fondiga(jamg‘armasiga) qishloq xo‘jalik korxonalarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasidan 3,5% ushlab qolinadi. Nafaqa fondiga ushlab qolningan summaga Debet 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”,Kredit 6520 “Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar” buxgalteriya provodkasi beriladi.

Ijro varaqaralari asosidagi ushlanmalar sudning qaroriga asosan bo‘lib,unda mehnat haqi summasidan ushlab qolinadigan summa ko‘rsatilgan bo‘ladi. Mehnat haqi summasidan aliment summasi ushlab qolinganda Debet 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”, Kredit 6990 “Boshqa majburiyatlar” buxgalteriya provodkasi beriladi.

Xodimning mehnat haqi summasidan fermer xo‘jaligiga yetkazilgan moddiy zarar summasi ushlab qolinganda Debet 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”, Kredit 4730“Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi” buxgalteriya provodkasi beriladi.

Kasaba uyushma jamg‘armasiga qishloq xo‘jalik korxonalarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasidan 1% ushlab qolinadi.Bunda Debet 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”,Kredit 6520 “Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar” buxgalteriya provodkasi beriladi.

Mehnat haqi hisobidan oldin berilgan bo‘nak summasi xodimlarga hisoblangan mehnat haqi summasidan ushlab qolinganda Debet 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”,Kredit 4210 “Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar” buxgalteriya provodkasi beriladi.

Mehnat haqi hisobidan xodimlarning kreditga olingan tovarlar summasi ushlab qolinganda Debet 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”,Kredit 4710 “Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimning qarzi” buxgalteriya provodkasi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksi”ga asosan ishlovchilarining mehnat haqidan ushlab qolinadigan ushlanmalar summasi hisoblangan mehnat haqi summasining 50%dan oshib ketmasligi lozim(Sudning ijro varaqalari bo‘lmagan hollarda).

Qishloq xo‘jalik korxonalarida xodimlarga hisoblangan mehnat haqiga nisbatan **yagona ijtimoiy to‘lov** amalga oshiriladi.Bu majburiy ajratma hisoblanib 2009 yil uchun mehnatga haq to‘lash fondining 12% miqdorida belgilangan. Yagona ijtimoiy to‘lov uchun ajratmalar hisoblanganda Debet mehnat haqi hisoblanganda debetlanadigan schotlar,Kredit 6410 “Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarz” (qishloq xo‘jalik korxonalarining ishchi schotlar rejasida 6510 yoki 6510 schotlar belgilangan bo‘lsa o‘scha schotlar) buxgalteriya provodkasi beriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida mehnat haqidan ushlanmalar va mehnat haqiga nisbatan ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblarning har biri alohida hisobga olib boriladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, mehnat haqidan ushlanmalar qishloq xo‘jalik korxonalarini xodimlarning mehnat haqidan ushlab qolinadi,uning mahsulot tannarxi yoki qishloq xo‘jalik korxonalarini faoliyatiga ta’siri yo‘q. Mehnat haqiga nisbatan ajratmalar esa hisoblangan mehnat haqiga nisbatan hisoblanib xodimlarning

mehnat haqiga ta'siri yo'q, lekin ushbu ajratmalar mahsulot tannarxiga qo'shib qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Mehnat va unga haq to'lashni hisobga olishning asosiy vazifalari.
2. Mehnat haqi shakllari va tizimlari.
3. Mehnat haqining turlari.
4. Mehnat haqi fondi va uning tarkibi.
5. Mehnat haqining dastlabki hisobi.
6. Mehnatga haq to'lash fondini tarkibiga kirmaydigan to'lovlar.
7. 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" schotining korrespondensiyasi.
8. 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schotining korrespondensiyasi.
9. Mehnat haqidan ushlanmalar hisobi.
10. Mehnat haqiga nisbatan hisoblangan ajratmalar hisobi.

## **16-BOB. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR TANNARXINI HISOBBLASH TARTIBI**

### **16.1. O'simlikchilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulotlari tannarxini aniqlash.**

O'simlikchilik tarmog'i qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy tarmog'i hisoblanib, aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilikni ozuqa va qayta ishlash sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlaydigan muhim soha hisoblanadi. Qishloq xo'jalik korxonalarining o'simlikchilik tarmoqlariga paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, polizchilik, yopiq gruntda mahsulot yetishtirish va boshqa tarmoqlar kiradi.

O'simlikchilik tarmog'ida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobini tashkil etishda o'simlikchilik tarmog'ida ishlab chiqarish jarayonlarini mavsumiyligi, mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni qoplash davrini uzoqligi, ishlab chiqarishni tabiiy omillarga bog'liqligi kabi omillar ta'sirini hisobga olish lozim.

O'simlikchilik tarmog'idan mahsulotlar olish uchun sarflanadigan xarajatlarga urug'lik, o'g'it, mehnat haqi, ijtimoiy maqsadlar uchun

ajratmalar,o'simliklarni himoya qilish vositalari,asosiy vositalar ammortizatsiyasi, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlarni quyidagi guruxlarga bo'lamiz:

1.Joriy yil hosili uchun o'tgan yillardagi xarajatlar(Joriy yil uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari).

2.Joriy yil hosili uchun joriy yildagi xarajatlar.

3.Kelgusi yillar hosili uchun joriy yildagi xarajatlar(Kelgusi yillar uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari).

O'simlikchilik tarmog'ida buxgalteriya hisobini tashkil etishda xarajatlarning ushbu xususiyatlari hisobga olinib hisob ishlari tashkil etiladi,ya'ni ushbu xarajatlar bir-biri bilan qo'shib yuborilmay alohida hisobga olib boriladi.Xarajatlar hisobini xarajatlarni qaysi yil hosiliga tegishli ekanligiga qarab alohida olib borilishi xarajatlarni xarajat ob'eklariiga to'g'ri olib borilishini ta'minlash bilan birga har bir mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash imkonini beradi.

O'simlikchilik tarmog'ida xarajatlar hisobini tashkil etishda xarajat ob'ektlarini to'g'ri aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.O'simlikchilikda xarajat ob'ektlari quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1.Qishloq xo'jalik ekinlari.Bunga o'simlikchilik tarmog'idagi barcha ekin turlari kiradi.

2.Qishloq xo'jalik ishlari.Bu xarajat ob'ekti qishloq xo'jalik ishlari nomi bilan atalib,bajarilgan ishlarning xarajatlari bajarilgan ishlarning nomi bilan ataladigan analitik schotda hisobga olinadi.So'ngra ushbu xarajatlar qishloq xo'jalik ekinlariga belgilangan tartibda taqsimlanadi.

3.Taqsimlanadigan xarajatlar.Ushbu xarajat ob'ekti alohida ko'rib chiqiladi.

4.Boshqa ob'ektlar. Bunga asosan yem-xashak ekinlarini yig'ishtirib olgandan so'ng alohida turdag'i yem-xashak tayyorlash(silos tayyorlash va h.k.) bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish kiradi.

O'simlikchilik tarmog'ida ishlab chiqarish xarajatlari ichida shunday xarajatlar borki, bu xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri xarajat ob'ektiga olib borish imkoniyati bo'lmaydi. Bu xarajatlar dastlab alohida analitik schotlarda hisobga olib borilib, o'simlikchilik tarmoqlari bo'yicha taqsimlanadi. Bu xarajatlar quyidagilar:

1.Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari.

2.Taqsimlanadigan sug'orish xarajatlari.

3. Taqsimlanadigan joriy ta'mirlash va amortizatsiya xarajatlari kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari joriy yilda qilingan xarajatlar bo'lib, kelgusi yil hosili tannarxiga kiritiladi. O'simlikchilik tarmog'ida ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etganligi uchun ayrim xarajatlar kelgusi yil hosili uchun qilinadi. Bularga kuzgi shudgorlash, o'g'itlash, sho'r yuvish, sug'orish va boshqa xarajatlar misol bo'ladi. Bu xarajatlar alohida analitik schotda hisobga olinib shudgorlangan, o'g'it sepilgan, sho'ri yuvilgan yoki qishki sug'orish amalga oshirilgan maydonlarga ekilgan ekinlar bo'yicha ekin maydonlarini salmog'iga qarab taqsimlanadi.

Taqsimlanadigan sug'orish xarajatlariga xo'jalikdagi umumiy foydalanishda bo'lgan kanal va ariqlarni saqlash, tozalash, suv taqcimlash inshootlarini va suv nasoslarini saqlash hamda ushbu soha xodimlarini mehnat haqi va unga nisbatan hisoblangan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar xarajatlari kiradi. Ushbu xarajatlar alohida analitik schotda hisobga olib borilib ekin turlari bo'yicha shartli sug'orilgan maydon salmog'iga qarab taqsimlanadi. Shartli sug'orilgan maydon sug'orishlar sonini sug'orilgan maydonga ko'paytirib aniqlanadi.

Taqsimlanadigan joriy ta'mirlash va amortizatsiya xarajatlariga turli o'simlikchilik tarmoqlarida foydalanilayotgan asosiy vositalarni joriy ta'mirlash va eskirishi(amortizatsiyasi) xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar ham alohida analitik schotda hisobga olinib ekinlar bo'yicha bajarilgan ishlarni salmog'iga qarab taqsimlanadi.

O'simlikchilikda xarajatlar va mahsulot chiqimi hisobini quyidagi asosiy vazifalari mavjud:

1. Qishloq xo'jalik korxonalari boshqaruvchilarini har bir ekin turi bo'yicha o'z vaqtida ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.

2. Ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlarni buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlarida o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish.

3. Taqsimlanadigan xarajatlarni xarajat ob'ektlari bo'yicha iqtisodiy asoslangan holda taqsimlash.

4. Xarajatlarni xarajat ob'ektlari va xarajat moddalari bo'yicha to'g'ri hisobga olib borish.

5. Ishlab chiqarish xarajatlari va olinadigan mahsulotlar ustidan doimiy nazoratni olib borish.

6. Mahsulotlarni to‘liq daromadga olinishi va saqlanishi ustidan nazorat olib borish.

7. Har bir mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlashni ta’minlash.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida o‘simlikchilik tarmog‘idagi ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olishda turli xil buxgalteriya hujjatlaridan foydalaniladi. Foydalaniladigan buxgalteriya hujjatlari quyidagi guruxlarga bo‘linadi:

1. Mehnat sarfini hisobga oluvchi hujjatlar.
2. Mehnat predmetlari sarfini hisobga oluvchi hujjatlar.
3. Mehnat vositalari sarfini hisobga oluvchi hujjatlar.
4. Mahsulot chiqishini hisobga oluvchi hujjatlar.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida dastlabki uch guruxga kiruvchi hujjatlar o‘simlikchilik tarmog‘idagi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi hujjatlarga kiradi. Bularga «Ish vaqtini hisobga olish tabeli», «Mehnat va bajarilgan ishni hisobga olish varaqasi», «Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash hisob-kitobi», «Urug‘ va ekish materiallari sarflash dalolatnomasi», «Mineral va organik o‘g‘itlar hamda gerbitsidlar va zaharli ximikatlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi» va boshqa hujjatlar kirib, ular ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda rasmiylashtiriladi.

O‘simlikchilik mahsulotlari daromadga olinishi, olingen mahsulot turlariga qarab quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

1. «Don va boshqa mahsulotlarni daladan jo‘natish reestri».
2. «Qishloq xo‘jalik mahsulotlari kelish kundaligi».
3. «Paxta terimi to‘g‘risida kunlik ma‘lumot».
4. «Bog‘dorchilik mahsulotlari kelish kundaligi».
5. «Yopiq grunt mahsulotlarini kelish kundaligi».
6. «Dag‘al va shirali ozuqalarni qabul qilish dalolatnomasi».

O‘simlikchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga oluvchi hujjatlar buxgalteriyada qayta ishlanib, “Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish daftari”ga yozuvlar amalga oshiriladi. Daftarda har bir ekin turiga alohida betlar ujratilgan bo‘lib, xarajatlari va olingen mahsulotlar tegishli betlarga yoziladi. Ushbu daftar hisob registiri vazifasini bajarib, o‘simlikchilik tarmog‘idagi har bir ekin turi bo‘yicha xarajatlari va mahsulot chiqishini alohida hisobga olishni ta’minlaydi.

O‘simlikchilikda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqimini hisobi buxgalteriya hisobi schotlar rejasining 2010- «Asosiy ishlab

chiqarish» schotida ochiladigan analitik schotlarda hisobga olib boriladi. Bu schotlar balansga nisbatan aktiv schot bo'lib debetida o'simlikchilik tarmog'iga qilingan xarajatlari, kreditida esa o'simlikchilik tarmog'idan olingan mahsulotlar hisobga olib boriladi. O'simlikchilik tarmog'idan olingan mahsulotlar yil davomida reja tannarxida hisobga olinib, yil oxirida haqiqiy tannarxga tuzatiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining xarajatlari ham «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga asosan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Mahsulot(ish,xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.
2. Asosiy faoliyatning boshqa xarajatlari.
3. Moliyaviy faoliyat xarajatlari.
4. Favqulodda zararlar.

Xarajatlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruxlanishi **xarajat elementlari** deyiladi. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagi xarajat elementlariga bo'linadi:

1. Moddiy xarajatlar.
2. Mehnat haqi xarajatlari.
3. Ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar.
4. Asosiy va nomoddiy aktivlar eskirishi(amortizatsiyasi).
5. Boshqa xarajatlar.

Xarajatlarni turlariga ko'ra guruxlanishi **xarajat moddalari** deyiladi. Xarajatlarni xarajat moddalari bo'yicha hisobga olinishi boshqaruvin hisobiga kirib,xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xarajat moddalari sonini o'zlar mustaqil belgilaydilar. Qishloq xo'jalik korxonalarida o'simlikchilik tarmog'idagi xarajatlar quyidagi 9 ta xarajat moddasi bo'yicha hisobga olinadi:

1. Mehnat haqi ajratmalari bilan birga.
2. O'g'itlar.
3. Asosiy vositalar amortizatsiyasi.
4. Urug'lik va ko'chat materiallari.
5. Ish va xizmatlar.
6. Yoqilg'i va moylash materiallari.
7. Sug'urta to'lovlar.
8. Umum ishlab chiqarish xarajatlari.
9. Boshqa xarajatlar.

1. «Mehnat haqi ajratmalari bilan birga» xarajat muddasida muayyan ekin turlari yoki guruqlarining bevosita texnologik jarayonida ishlagan turli toifadagi xodimlarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha mehnat haqi to'lovlar hamda hisoblangan mehnat haqiga nisbatan ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar hisobga olib biriladi.

A) Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti

Kredit 6710- «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar» schoti – O'simlikchilik tarmog'i ishlovchilariga mehnat haqi hisoblanganda.

B) Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti.

Kredit 6520- «Davlat maqsadli fondlariga to'lovlar» schoti – Hisoblangan mehnat haqiga nisbatan ijtimoiy maqsadlar uchun ajratma hisoblanganda.

2. «O'g'itlar» xarajat muddasida muayyan bir ekin (egin guruhi) uchun sarflangan mineral va organik o'g'itlar sarfi hisobga olib biriladi.

Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti.

Kredit 1090- «Boshqa materiallar» schoti – Sarflangan mineral va organik o'g'itlar qiymatiga.

3. «Asosiy vositalar amortizatsiyasi» xarajat muddasida o'simlikchilik tarmog'ida foydalanilgan asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiya xarajatlari hisobga olib biriladi.

Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti.

Kredit 0200 «Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schotlar» schoti – O'simlikchilik tarmog'ida foydalanilgan asosiy vositalarga eskirish (amortizatsiya) hisoblanganda.

4. «Urug'lik va ko'chat materiallari» xarajat muddasida ekin ekish uchun sarflangan urug'lik va o'tqazilgan ko'chatlar xarajati hisobga olib biriladi.

Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti

Kredit 1090- «Boshqa materiallar» schoti – Sarflangan urug'lik va o'tqazilgan ko'chat materiallari qiymatiga.

5. «Ish va xizmatlar» xarajat muddasida o'simlikchilik tarmog'iga yordamchi ishlab chiqarishlar ko'rsatgan xizmati va chet tashkilotlar tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar xarajati hisobga olib boriladi.

A) Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti

Kredit 2310- «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schoti – O'simlikchilik tarmog'ida xo'jalikni o'z yordamchi ishlab chiqarishlari ko'rsatgan xizmat summasiga.

B) Debet 2010 - «Asosiy ishlab chiqarish» schoti.

Kredit 6010- «Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to‘lanadigan schotlar»- O‘simlikchilik tarmog‘ida chet tashkilotlarning ko‘rsatgan xizmati summasiga.

6. «Yoqilg‘i va moylash materiallari» xarajat moddasida o‘simlikchilik tarmog‘iga sarflangan turli xildagi yoqilg‘i va moylash materiallari xarajati hisobga olib biriladi.

Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti.

Kredit 1030- «Yoqilg‘ilar» schoti – Sarflangan yoqilg‘i va moylash materiallari qiymatiga.

7. «Sug‘urta to‘lovlari» xarajat moddasida o‘simliklarni turli tabiiy ofatlardan sug‘ortalash xarajatlari hisobga olib biriladi.

Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti

Kredit 6510- «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlari» schoti – Hisoblangan sug‘urta to‘lovlari summasiga.

8. «Umum ishlab chiqarish xarajatlari» xarajat moddasida o‘simlikchilik tarmoqlari bo‘yicha umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olib biriladi.

Debet 2010- «Asosiy ishlab chiqarish» schoti

Kredit 2510- «Umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari» schoti – o‘simlikchilik umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari ekinlar bo‘yicha taqsimlanganda.

9. «Boshqa xarajatlar» xarajat moddasida yuqoridagi moddalarda hisobga olinmagan o‘simlikchilik tarmog‘ining boshqa to‘g‘ri xarajatlari hisobga olib biriladi.Bunda xarajatlarning turlari bo‘yicha tegishli buxgalteriya provodkalari tuziladi.

O‘simlikchilik tarmog‘ida yetishtirilgan mahsulotlar yil davomida reja tannarxida baholanib dvromadga olinadi. Yil oxirida qilingan xarajatlar va olingan mahsulotlarni haqiqiy miqdori aniqlangandan so‘ng haqiqiy tannarx hisoblanib reja tannarxi haqiqiy tannarxga tuzatiladi.

O‘simlikchilik tarmog‘ida yetishtirilgan mahsulotlarni daromadga olishda quyidagi buxgalteriya provodkalari tuziladi:

1. Debet 2810—«Ombordagi taylor mahsulot» schoti.

Kredit 2010—«Asosiy ishlab chiqarish» schoti – Yetishtirilgan mahsulotlar omborga kirim qilinganda.

2. Debet 6510 – «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlari» schoti.

Kredit 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schoti- Tabiiy ofat natijasida ko‘rilgan zarar sug‘urta tashkiloti tomonidan to‘lash uchun qabul qilinganda.

3. Debet 1090 – «Boshqa materiallar» schoti.

Kredit 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schoti – Yetishtirilgan mahsulotlar yem-xashak yoki urug‘lik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratilib daromadga olinganda.

4. Debet 9110 – «Sotilgan mahsulotlar tannarxi» schoti. Kredit 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schoti – Sotilgan mahsulotlarning yil oxirida kalkulyatsiya farqiga(,Agar haqiqiy tannarx reja tannarxidan katta bo‘lsa,farq summasiga “qo‘srimcha yozuv”usulida,agar haqiqiy tannarx reja tannarxidan kichik bo‘lsa,farq summasiga “qizil storno”usulida buxgalteriya provodkasi tuziladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ham boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarilar singari yillik molivayi hisobotning hisobot davri «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunning 24-moddasida belgilanganidek 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan davr hisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni haqiqiy tannarxi yil oxirida aniqlanadi. Tannarxi aniqlanadigan mahsulot **kalkulyatsiya ob’ekti** hisoblanadi. O’simlikchilikdan olingen asosiy va yondosh mahsulotlarni tannarxi aniqlanadi. Qo‘srimcha mahsulotlar tannarxi aniqlanmaydi, ular ma’lum bahoda baholanib jami xarajatdan chegirib tashlanadi.

O’simlikchilikda mahsulot tannarxini aniqlashdan oldin buxgalteriya hisobining ma’lumotlari tekshiriladi.

Mahsulotni haqiqiy tannarxini aniqlashdan oldin quyidagilarni to‘g‘riliqi tekshirishdan o’tkaziladi:

1. Ishlab chiqarish xarajatlарини xar bir tarmoq bo‘yicha va fermer xo‘jaligi bo‘yicha to‘liq aks ettirilganligi;

2. Asosiy va qo‘srimcha mahsulotlarni to‘liq daromadga olingenligi;

3. Tabiiy ofat natijasida nobud bo‘lgan ekinlar xarajatlari va inventarizatsiya natijalarini to‘liq hisobda aks ettirilganligi;

4. Yordamchi ishlab chiqarish bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar bo‘yicha kalkulyatsiya farqlarini o’tkazilganligi;

5. Taqsimlanadigan xarajatlар: umumiyl ishlab chiqarish, tugallanmagan ishlab chiqarish, taqsimlanadigan joriy ta’mirlash, taqsimlanadigan amortizatsiya, taqsimlanadigan sug‘orish va kelgusi davr xarajatlari to‘g‘ri taqsimlanganligi tekshirishdan o’tkaziladi.

**Mahsulot tannarxi** - bu mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasıdir. Mahsulot tannarxini aniqlash uchun

jami xarajatni mahsulot miqdoriga bo'lish kerak. Buxgalteriya hisobida bir birlik mahsulot tannarxini aniqlash jarayoni mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi deyiladi. Mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasida xarajatlarni kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida iqtisodiy asoslangan holda taqsimlash muhim ahamiyatga ega.

Xarajatlarni kalkulyatsiya ob'ektlari bo'yicha taqsimlashning bir qancha usullar mavjud(ushbu usullar "kalkulyatsiya usullari" ham deyiladi), bular:

1. Oddiy usul- Ushbu usul bir ekindan bir turdag'i mahsulot olinsa,ya'ni "xarajat ob'ekti" bilan "kalkulyatsiya ob'ekti" bir-biriga mos kelsa qo'llaniladi. Bunda jami xarajat olingan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

2. Qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilish usuli-Ushbu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatlar "kalkulyatsiya ob'ekti"ga olib borilib mahsulot tannarxi aniqlanadi.

3. O'rtacha sotish baholari asosida mahsulot tannarxi usuli-Ushbu usulda jami xarajatlar "kalkulyatsiya ob'ekti"lari o'rtasida ularni o'rtacha sotish baholari asosida aniqlangan qiymatlirining salmog'iga mos ravishda taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

4. Koeffitsentlar asosida mahsulot tannarxi usuli - Ushbu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatlar "kalkulyatsiya ob'ekti"lari o'rtasida belgilangan koeffitsentlar asosida shartli mahsulotga aylantirilgan salmog'iga mos ravishda taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

5.Ekspert usuli- bu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajat asosiy va yondosh mahsulotlar o'rtasida oldindan belgilangan foizlar asosida taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

**Paxtachilikda mahsulot tannarxini aniqlash.** Fermer xo'jaligida paxtachilik tarmog'ining jami xarajatlari 22,6 million so'mni tashkil etib, 675 sentner paxta xom-ashyosi olingan. Paxtachilikdan qo'shimcha mahsulotlar daromadga olinmagan.1 sn. paxta xom-ashyosini haqiqiy tannarxini aniqlash uchun jami xarajatlar olingan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

1 sn. paxta tannarxi =	22,6	million	675	sentner	334.8ming
so'm :			=		so'm.

**Donli ekinlar tannarxini aniqlash:** Fermer xo‘jaligida g‘allachilik bo‘yicha jami xarajatlar 68792000 so‘mni tashkil etgan. Olingan mahsulotlar 10300 sentner don, 1200 sentner don chiqindisi (40% donlilik darajasiga ega), sonom 8400 sentner(1 sentneri 250 sumdan jami 2,1 million so‘m).Bunda asosiy mahsulot-don va yondosh mahsulot-don chiqindisining tannarxi aniqlanadi. Qo‘srimcha mahsulot qiymati jami xarajatdan chegiriladi( $68792000 - 2100000 = 66692000$ ). Qolgan xarajat don va don chiqindisi o‘rtasida quyidagicha taqsimlanadi:

**Sabzavot ekinlari tannarxini aniqlash.**Sabzavotchilikga bir qancha ekin turlari (pomidor, piyoz, sabzi ,baqlajon, bulg‘or qalampiri va h.k.) kiradi. Agar, fermer xo‘jaligida sabzavotchilikning bir turdag'i ekini ekilgan bo‘lib, xarajatlar alohida analitik schotda olib borilgan bo‘lsa,mahsulot tannarxi jami xarajatlar olingan mahsulot miqdoriga bo‘linib aniqlanadi.

Agar, fermer xo‘jaligida sabzavotchilikning bir necha turdag'i ekini ekilgan bo‘lib, xarajatlar alohida analitik schotda olib borilgan bo‘lsa,mahsulot tannarxi quyidagicha aniqlanadi: Fermer xo‘jaligida pomidor va piyoz ekilgan bo‘lib,xarajatlar bitta analitik schotda olib borilgan.Jami xarajatlar 8,2 million so‘m bo‘lib,526 sentner pomidor va 405 sentner piyoz daromadga olingan. Sabzavotchilikdan qo‘srimcha mahsulotlar daromadga olinmagan.Xarajatlar “kalkulyatsiya ob’ektlari”- pomidor va piyoz o‘rtasida ularning sotish baholaridagi qiymatiga mos ravishda taqsimlanadi.1 sn.pomidorning o‘rtacha sotish bahosi 9,2ming so‘m,1 sn.piyozning o‘rtacha sotish bahosi 18,0ming so‘m.

Nº	Kalkulya-siya ob’ektlari	Mahsulot miqdori,s	1sn. mahsulot ning sotish bahosi, ming so‘m	Sotish bahosi-dagi qiymati, mln.so‘m	Salmo-g‘i, %	Jami xara-jat, mln. so‘m	1sentner mahsulot tannarxi, ming so‘m
1.	Pomidor	526	9,2	4,8	39,7	3,25	6,2
2.	Piyoz	405	18,0	7,3	60,3	4,95	12,2
	Jami	x	x	12,1	100,0	8,20	x

**Yem-xashak ekinlari tannarxini aniqlash.** Yem-xashak ekinlariga bir qancha ekin turlari (beda,silos uchun makkajo‘xori h.k.)kirib, ular bir yillik va ko‘p yillik yem-xashak ekinlariga bo‘linadi. Yem-xashak ekinlaridan olingan mahsulotlar tannarxi koeffitsientlar yordamida aniqlanadi.Bir yillik yem-xashak ekinlari uchun belgilangan koeffitsientlar: Pichan-1,0;

Ko‘k massa-0,25;

Urug‘-9,0;

To‘fon-0,1

Ko‘p yillik yem-xashak ekinlari uchun belgilangan koeffitsientlar:

Pichan-1,0;

Ko‘k massa-0,3;

Urug‘-75,0;

To‘fon-0,1

Agar, fermer xo‘jaligida yem-xashak ekinlarining bir turi ekilgan bo‘lib,bir turdag'i mahsulot olinib, xarajatlar alohida analitik schotda olib borilgan bo‘lsa,mahsulot tannarxi jami xarajatlar olingan mahsulot miqdoriga bo‘linib aniqlanadi.

Ko‘pchilik holatlarda fermer xo‘jaligida ko‘p yillik yem-xashak ekini bo‘lgan-beda ekilib,undan pichan va ko‘k massa olinadi.Bunday hollarda ko‘k massa 0,3 koeffitsient asosida pichanga aylantirilib mahsulot tannarxi aniqlanadi.

Fermer xo‘jaligida ko‘p yillik yem-xashak ekini ekilgan bo‘lib,jami xarajatlar 5,5 million so‘mni tashkil etib,quyidagi mahsulotlar olingan:Pichan-525 sentner,Ko‘k massa-1586 sentner,Urug‘-15 sentner,To‘fon-90 sentner. Mahsulotlar tannarxi koeffitsient asosida quyidagicha aniqlanadi:

No	Kalkulyasiya ob‘ekt-lari	Mah-sulot miq-dori,s	Shartli mahsulotga aylantirish koeffitsienti	Shartli mahsulot miqdori	Salmo-g‘i, %	Jami xarajat, ming so‘m	1sentner mahsulot tannarxi, ming so‘m
1.	Pichan	525	1,0	525	24,6	1353	2,58
2.	Ko‘k massa	1586	0,3	476	22,3	1226,5	0,78
3.	Urug‘	15	75,0	1125	52,7	2898,5	193,2
4.	To‘fon	90	0,1	9	0,4	22	0,24
	Jami	x	x	2135	100,0	5500	x

## **16.2.Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini hisoblash.**

Chorvachilik tarmog'i qishloq xo'jalik korxonalarining asiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat bilan, qayta ishlovchi sanoatni xom-ashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chorvachilik tarmog'iga: qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, pillachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi tarmoqlari kiradi. Bu tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini ko'paytirish, sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mavjud resurslardan samarali foydalanish bilan birga xarajatlar va mahsulot chiqishi hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish muxim ahamiyatga ega.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun turli xil xarajatlar: mehnat haqi, yem-xashak, chorvachilik asosiy vositalar eskirishi, dori-darmonlar, sug'urta to'lovlari, ish va xizmatlar hamda boshqa xarajatlar qilinadi. Bu xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linadi:

Doimiy xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish hajmi yoki ishlab chiqarish hajmi o'zgargani bilan o'zgarmaydigan xarajatlar kiradi. Jumladan: asosiy vositalar eskirishi, sug'urta to'lovlari, ijara haqi va boshqa xarajatlar. Bular ishlab chiqarish xajmi o'zgargani bilan, o'zgarmay (shartli ravishda) qoladi.

O'zgaruvchan xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi bilan o'zgaradigan xarajatlar kiradi. Bularga mehnat haqi, yem-xashak, ish va xizmatlar hamda shunga o'xshash xarajatlar misol bo'ldi. Bular ishlab chiqarish hajmi oshsa, ko'payadi va aksincha.

Bundan tashqari, chorvachilik tarmog'i xarajatlari bevosita (to'g'ri) va bilvosita (yig'ib taqsimlanuvchi) xarajatlarga ham bo'linadi. Bunday bo'linish (guruhash) mahsulot tannarxiga qo'shilishiga ko'ra bo'linishi bo'lib, bevosita xarajatlarga to'g'ridan-to'g'ri xarajat ob'ektlariga olib boriluvchi xarajatlar kiradi. Bular to'g'ri mehnat haqi, yem-xashak, ish va xizmatlar va boshqa xarajatlardir.

Bilvosita xarajatlarga chorvachilik umum ishlab chiqarish xarajatlariga kirib, bu xarajatlar dastlab 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi» schotida hisobga olib borilib, so'ngra yil oxirida chorvachilik xarajat ob'ektlari bo'yicha taqsimlanadi.

Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi hisobining vazifalari:

1. Qishloq xo'jalik korxonalari boshqaruvchilarini o'z vaqtida va to'liq chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlash;
2. Chorvachilik xarajatlari va mahsulot chiqishini o'z vaqtida buxgalteriya hujjatlarida aks ettirilishini ta'minlash;
3. Xarajatlarni me'yorlarga mos kelishini va iqtisodiy asoslangan holda bo'lishini ta'minlash;
4. Olingan mahsulotlarni to'liq va nobudgarchiliksiz daromadga olinishini ta'minlash;
5. Xar bir xarajat ob'ektiga xarajatlarni to'g'ri olib borilishini ta'minlash;
6. Mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlanishini ta'minlash;
7. Kalkulyatsiya farqlarini to'g'ri va o'z vaqtida buxalteriya schotlarida aks ettirish.

Qishloq xo'jalik korxonalarida chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» ga asosan hisobga olib boriladi.

Chorvachilikda xarajat ob'ektlar xar bir turdag'i yoki guruhdagi hayvon turlari hisoblanadi.

Chorvachilik xarajat ob'ektlari:

1. Qoramolchilik bo'yicha:

a) Sut yo'nalihidagi qoramolchilikda:

1. Asosiy poda

2. Yosh va boquvga qo'yilgan mollar.

b) Go'sht yo'nalihidagi qoramolchilikda:

1. Asosiy poda va sakkiz oylikkacha bo'lgan buzoqlar.

2. Sakkiz oylikdan katta buzoqlar va boquvdagi mollar.

2. Qo'ychilik. Qo'ychilikda xarajat ob'ektlari ularning yo'nalihi bo'yicha tashkil etiladi.

3. Cho'chqachilik.

1. Asosiy poda.

2. 2 oylikdan 4 oylikkacha bo'lgan cho'chqa bolalari.

3. 4 oylikdan katta cho'chqa bolalari.

4. Yosh cho'chqa bolalari va boquvga qo'yilgan cho'chqalar.

4. Parrandachilik. Parrandachilikda xarajat ob'ektlari parrandalar turi yoki yo'nalihi bo'yicha tashkil etiladi:

- 1) Tuxum yo‘nalishidagi
- 2) Go‘sht yo‘nalishidagi.

Qolgan hayvon turlari bo‘yicha ham ularning turlari va hisob guruhlari bo‘yicha xarajat ob’ektlari tashkil etiladi. Xarajat ob’ektlari asosida analitik schotlar ochiladi va xarajatlar, olingan mahsulotlar alohida hisobga olib boriladi.

Chorvachilik tarmog‘i bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi xarajat elementlari bo‘yicha guruhlanadi:

1. Material (moddiy) xarajatlar.
2. Mehnat haqi xarajatlar.
3. Ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi.
5. Boshqa xarajatlar.

Ushbu xarajatlar «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan mahsulot tannarxiga kiradigan xarajatlar hisoblanadi.

Chorvachilik tarmog‘i bo‘yicha ochilgan analitik schotlar bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi xarajat moddalarini bo‘yicha guruhlanadi:

1. Mehnat haqi ajratmalari bilan birga.
2. Yem-xashak
3. Asosiy vositalar eskirishi
4. Ish va xizmatlar.
5. Yoqilg‘i-moylash materiallari.
6. Sug‘urta to‘lovlari.
7. Umum ishlab chiqarish xarajatlar.
8. Boshqa xarajatlar.

Birinchi xarajat moddasida chorvachilik tarmog‘i ishlab chiqarishida band bo‘lgan ishlovchilarga hisoblangan mehnat haqi va mehnat haqiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar hisobga olib boriladi.

Ikkinchi xarajat moddasida chorva mollari va parrandalarni oziqlantirish uchun sarflangan yem-xashak xarajati hisobga olib boriladi.

Uchinchi xarajat moddasida chorvachilik tarmog‘i asosiy vositalariga hisoblangan amortizatsiya ajratmalari hisobga olib boriladi.

To‘rtinchi xarajat moddasida chorvachilik tarmog‘iga o‘z yordamchi ishlab chiqarishlari va chet tashkilotlar ko‘rsatgan xizmatlar xarajati hisobga olib boriladi.

Beshinchи xarajat moddasida chorvachilik tarmog‘ida foydalanilayotgan transport vositalariga sarflangan yoqilg‘i va moylash materiallari xarajatlari hisobga olib boriladi.

Oltinchi xarajat moddasida chorva mollari va chorvachilik tarmog‘i asosiy vositalarini ixtiyoriy sug‘urtasi bo‘yicha xarajatlar hisobga olib boriladi.

Yetinchi xarajat moddasida chorvachilik umum ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olib boriladi. Chorvachilik umum ishlab chiqarish xarajatlari dastlab 2510 «Umum ishlab chiqarish xarajatlari» schotida hisobga olib borilib, yil oxirida chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanadi.

Sakkizinchи xarajat moddasida yuqoridagi guruhlarga kirmagan boshqa xarajatlar hisobga olib boriladi.

Chorvachilik mahsulotlari chiqishi 2010 «Asosiy ishlab chiqarishlar» schotining kreditida aks ettiriladi. Yil davomida olingan mahsulotlar reja tannarxida kirim kililadi. Yil oxirida olingan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanib, reja tannarxi haqiqiy tannarxga tuzatiladi.

Chorvachilik tarmog‘idan olingan mahsulotlar bo‘yicha «Sog‘ilgan sutni hisobga olish jurnali», «Qishloq xo‘jalik mahsulotlari kelish kundaligi», «Hayvonlarni o‘lchash qaydnomasi», «Junni qirqish va daromadga olish dalolatnomasi», «Tug‘ilgan hayvon bolasini daromadga olish dalolatnomasi» kabi buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi.

Chorvachilik mahsulotlari daromadga olinganda quyidagicha buxgalteriya provodkalari tuziladi:

Debet 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schoti

Kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari» schoti – chorvachilik mahsulotlari: sut, jun, tuxum, asal, pilla daromadga olinganda.

Debet 1100 «O‘sirishdagi va boquvdagi mollar» schoti

Kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarishlar» schoti – chorvachilikdan o‘sigan vazn va tug‘ilgan hayvon bolalari daromadga olinganda;

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarishlar» schoti

Kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarishlar» schoti – chorvachilik qo‘srimcha mahsuloti – go‘ng o‘simglikchilik tarmog‘ida o‘g‘it sifatida sarflanganda.

Chorvachilik tarmog‘ining ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlarni hisobga olishda rasmiylashtirilgan hujjatlар xar oyda

buxgulteriyaga topshiriladi va qayta ishlanadi. Hujjatlar qayta ishlanib, ular asosida, chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti» (18 a-shakl) tuziladi. Ushbu hisobot ikki bo'limdan iborat bo'lib, I- bo'lim «Ishlab chiqarish xarajatlari», II-bo'lim «Mahsulot chiqishi» deb nomlanadi.

Birinchi «Ishlab chiqarish xarajatlari» bo'limida xarajatlar xarajat moddalari bo'yicha har bir xarajat ob'ektining hisobot oyi va yil boshidan buyon xarajatlar aks ettirilib boriladi. Bunda, mehnat haqi xarajatlari kishi-kuni va summasida, boshqa xarajatlar natura va pul o'lchov birliklarida aks ettiriladi. Masalan, sarflangan yem-xashak, sentner va ozuqa birligi hamda summalar alohida aks ettiriladi.

Ikkinci «Mahsulot chiqishi» bo'limida xar bir turdag'i mahsulotni oy davomida va yil boshidan buyon natura va pul o'lchov birligida aks ettiriladi.

«Chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti» (18a-shakl) chorvachilik xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga oluvchi yig'ma hujjat hisoblanib, u hisob registri o'rmini ham bosadi.

Buxgalteriyada «Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi» daftari yuritiladi. Ushbu daftarda har bir xarajat ob'ekti bo'yicha alohida betlar ajratilib, xarajatlar xarajat moddalari bo'yicha va olingen mahsulotlar turi oyma-oy yozib boriladi.

Yil oxirida chorvachilik tarmog'idan olingen mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Chorvachilik tarmog'ida ham o'simlikchilik tarmog'idagidek asosiy va yondosh mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanadi, qo'shimcha mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanmaydi. Chorvachilik tarmog'ida asosiy mahsulotlarga sut yo'nalihidagi qoramolchilikning "Asosiy poda" analistik schoti bo'yicha asosiy mahsulotlarga - sut, yondosh mahsulotlarga - buzoq, qo'shimcha mahsulotlarga - go'ng kirsa, «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» analistik schoti bo'yicha asosiy mahsulotlarga - o'sgan vazn, qo'shimcha mahsulotlarga - go'ng kiradi. Shunday qilib, chorvachilikning har bir sohasi bo'yicha asosiy va yondosh mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Olingen qo'shimcha mahsulotlar esa reja tannarxida yoki sotish mumkin bo'lган bahoda baholanib daromadga olinadi.

Haqiqiy tannarxni aniqlashni chorvachilik tarmog'inining har bir sohasi bo'yicha o'ziga xos bo'lган xususiyatlari mavjud bo'lib, tannarxni aniqlashni qoramolchilik sohasi bo'yicha ko'rib chiqamiz:

Qoramolchilik bo'yicha quyidagi xarajat ob'ektlari mavjud:  
a) Sut yo'nalihidagi qoramolchilikda:

1. Asosiy poda
  2. Yosh va boquvgan qo'yilgan mollar.
- b) Go'sht yo'naliqidagi qoramolchilikda:
1. Asosiy poda va sakkiz oylikkacha bo'lgan buzoqlar.
  2. Sakkiz oylikdan katta buzoqlar va boquvdagi mollar.
- Ushbu xarajat ob'ektlari bo'yicha mahsulotlar tannarxini aniqlash tartibi quyidagicha:
- 1) Sut yo'naliqidagi qoramolchilik. Ushbu tarmoqning ikkita xarajat ob'ekti (analitik schoti) bo'ladi. «Asosiy poda» analitik schoti bo'yicha sut va buzoq "kalkulyatsiya ob'ekti" hisoblanadi. Go'ng qo'shimcha mahsulot hisoblanib, uni toplash, dala chiqarish xarajatlari hisobga olinib, baholanadi. Go'ngning tannarxi hisoblanmaydi.
- «Asosiy poda»dan olingan sut va buzoqning haqiqiy tannarxini hisoblash uchun, jami xarajatlardan go'ng qiymati ayrılib, qolgan xarajatni 90% sutga, 10% buzoqka ajratilib, ushbu mahsulotlar tannarxi aniqlanadi.
- Misol: «Do'stlik» fermer xo'jaligidagi «Asosiy poda» analitik schoti bo'yicha jami xarajatlari 13583 ming so'mni tashkil etdi. Olingan mahsulotlar 1880 sentner sut, 24 bosh buzoq va 2000 tonna 2150 ming so'mlik go'ng bo'lgan. Mahsulot tannarxi quyidagicha aniqlanadi:
- 1) Jami xarajatdan go'ng qiymati ayrılib:  

$$13583-2150=11433 \text{ ming so'm}$$
  - 2) Qolgan xarajatni 90% sutga, 10% buzoq xarajatiga ajratilib, mahsulotlar tannarxini hisoblaymiz:
- $1s.sut \text{ tannarxi} = 11433 \times 90\% : 1880 \text{ s.} = 10290 \text{ ming so'm} : 1880 = 5473 \text{ so'm.}$
- $1 \text{ bosh buzoq tannarxi} = 11433 \times 10\% : 24 = 1143,0 \text{ ming so'm} : 24 = 47638 \text{ so'm.}$
- «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» analitik schoti bo'yicha 1 s.o'sgan (ortgan) vazn va 1s.tirik vazn tannarxi aniqlanadi.
- O'sgan vaznni tannarxini hisoblashda nobud bo'lgan mollarning vazni hisobga olinadi, tirik vaznni tannarxini hisoblashda nobud bo'lgan mollarning vazni hisobga olinmaydi.
- 1 s. o'sgan vaznni haqiqiy tannarxini hisoblashda, jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar (go'ng) qiymati ayrılib, qolgan xarajatlari jami o'sgan vazn (sentner) miqdoriga bo'linadi. Bir bosh hayvondan olingan o'sgan vazn hisobot oxiridagi vazndan hisobot boshidagi vaznni ayirish orqali aniqlanadi. Butun podadan olingan o'sgan (ortgan) vazni miqdorini aniqlash uchun podaga kelib qo'shilgan hayvonlar vazniga

hisobot davri oxiridagi vazni qo'shilib, shu podadan chiqib ketgan va hisobot davri boshidagi hayvonlar vazni ayrıldı. Buni, quyidagi formula yordamida aks ettirish mumkin:

O'sgan (ortgan) vazn = Vx.o.+Vch.k.-Vx.b.-Vk.k.

Bu yerda, Vx.o. – hayvonlarning hisobot davri oxiridagi vazni (s.).

Vk.k. – podaga kelib qo'shilgan hayvonlar vazni (s.).

Vx.b. – hayvonlarning hisobot davri boshidagi vazni (s.).

Vch.k. – podadan chikib ketgan (shu jumladan nobud bo'lgan hayvonlar vazni ham) hayvonlar vazni (s.).

Misol: Fermer xo'jaligida «O'stirishdagi va boquvdagi mollar hisobi» analitik schoti bo'yicha xarajatlar 9538 ming so'mni tashkil etgan. Yil davomida 91 s.o'sgan (ortgan) vazn va 1800 tonna 1935 ming so'mlik go'ng olingan.

1 s. o'sgan vazn haqiqiy tannarxi = 9538-1935: 91 s. = 7603 ming sum : 91s.= 83549 so'm.

Chorvachilikning qolgan tarmoqlari bo'yicha mahsulotlar tannarxini aniqlashda yuqorida qayd etib o'tilganidek, asosiy va yondosh mahsulotlar tannarxi jami xarajatlardan qo'shimcha mahsulotlar qiymati ayrılib tashlangandan so'ng qolgan xarajatlar asosida aniqlanadi. Chorvachilikning faqat parrandachilik (inkubatsiyada), baliqchilik, asalarichilik sohalarida tugallanmagan ishlab chiqarish bo'lishi mumkin, shuning uchun mahsulotlar tannarxini ushbu sohalarida aniqlashda tugallanmagan ishlab chiqarish ham hisobga olinishi lozim.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Chorvachilikda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash bo'yicha hisobning vazifalari.

2. Chorvachilikda xarajat elementlari.

3. Chorvachilikda xarajat moddaları.

4. Chorvachilik xarajatlarni bo'yicha rasmiylashtiriladigan buxgalteriya hujjatlari.

5. Mahsulot chiqishi bo'yicha rasmiylashtiriladigan buxgalteriya hujjatlari.

6. Chorvachilik xarajatlarni va mahsulot chiqishini buxgalteriya schotlarida aks ettirish..

7. «Asosiy poda» (qoramolchilik) mahsulotlari tannarxini hisoblash.

8. 1 s. o'sgan vazn (qoramolchilikda) tannarxini hisoblash.

9. 1 s. tirik vazn (qoramolchilikda) tannarxini hisoblash.

10. Parrandachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash.

11. Qo'ychilik mahsulotlari tannarxini hisoblash.

12. Asalarichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash.
13. «Chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti».

## **17-BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBI VA MOLIYAVIY HISOBOT.**

### **17.1. Moliyaviy natijalarning iqtisodiy mohiyati va uchyotning vazifalari.**

Har bir qishloq xo'jalik korxonalarida, shu jumladan qishloq xo'jalik korxonalarida ham yil oixirida moliyaviy natija aniqlanadi. **Moliyaviy natija** – qishloq xo'jalik korxonalarining yil davomidagi faoliyati natijasida olgan foydasi yoki ko'rgan zararidir. Shuningdek, moliyaviy natija nafaqat qishloq xo'jalik korxonalarining butun faoliyati, balki ayrim sohalari, tarmoqlari va xo'jalik operatsiyalar bo'yicha ham aniqlanadi. Masalan, qishloq xo'jalik korxonalarida quyidagi operatsiyalar bo'yicha ham moliyaviy natija aniqlanishi mumkin:

- 1) Mahsulot (ish, xizmat)larning sotishdan.
- 2) Asosiy vositalarni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlardan.
- 3) Boshqa aktivlarni sotishdan.
- 4) Boshqa turli xil operatsiyalar bo'yicha.

Xar bir turdag'i operatsiyalar bo'yicha moliyaviy natijani aniqlanishi, qishloq xo'jalik korxonalarida olingan daromadning xarajatlar bilan taqqoslanishini, xarajatlarning qoplanish darajasini aniqlanishini va har bir xo'jalik operatsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Umumiyl holatda, moliyaviy natijani aniqlash uchun daromad (tushum) xarajat bilan taqqoslanadi, bunda daromad xarajatdan katta bo'lsa, farq summasi foyda, agar daromad xarajatdan kichik bo'lsa, farq summasi zarar bo'ladi. Mahsulot sotish operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijani aniqlashda, sotilgan mahsulotlardan tushgan tushum (mahsulotni sotish bahosidagi qiymati) sotilgan mahsulot tannarxi bilan taqqoslanadi. Tushum katta bo'lsa, farq summasi foyda, kichik bo'lsa farq summasi zarar bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida moliyaviy natijalar hisobi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldag'i №54 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot(ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni

shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom» va Buxgalteriya hisobining milliy standarti №3 «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot»ga asosan qishloq xo‘jalik korxonalari xarajatlari quyidagi to‘rt guruhga bo‘linadi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiradigan xarajatlar.
2. Davr xarajatlari.
3. Moliyaviy faoliyat xarajatlari.
4. Favqulodda zararlar.

Shuningdek, qishloq xo‘jalik korxonalari daromadlari ham to‘rt guruhga bo‘linadi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushum.
2. Asosiy faoliyatining boshqa daromadlari(tushumlari).
3. Moliyaviy faoliyat daromadlari (tushumlari).
4. Favqulodda foyda.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining xarajatlari va daromadlarining to‘rt guruhga bo‘linishidan, moliyaviy natijalarning besh ko‘rsatkichi aniqlanadi.

1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan yalpi moliyaviy natija.
2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatdan moliyaviy natija.
3. Umumxo‘jalik faoliyatdan moliyaviy natija.
4. Soliq to‘laguncha bo‘lgan foyda.
5. Sof foyda.

Moliyaviy natija qishloq xo‘jalik korxonalarida yil oxirida aniqlanadi, chunki, xo‘jalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqiqiy tannarxi yil oxirida aniqlanib, so‘ngra sotilgan mahsulotlarning moliyaviy natijasi aniqlanadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining moliyaviy natijasi moliyaviy hisobotning №2 – shakli «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot»da to‘liq aksini topadi.

Hisobning vazifalari:

- Moliyaviy natijalarni iqtisodiy asoslangan holda aniqlanishini ta’minlash.
- Moliyaviy natijalarni xar bir ko‘rsatkichini to‘g‘ri va o‘z vaqtida aniqlash.
- Moliyaviy natijalarni hisob registrlarida to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish.
- Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborot bilan qishloq xo‘jalik korxonalari boshqaruvchilarni va boshqa foydalanuvchilarni to‘liq va vaqtida ta’minlash.

## **17.2.Foya va zararlarning sintetik va analitik hisobi.**

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy natijasi, schotlar rejasining V-qismi «Moliyaviy natjalarning shakllanishi va ishlatalishi»da, ya'ni 9-bo'lim «Daromadlar va xarajatlar»da hisobga olib boriladi. «Xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom»ga asosan qishloq xo'jalik korxonalarining asosiy faoliyati, moliyaviy faoliyati va favqulodda operatsiyalar bo'yicha moliyaviy natijasini aniqlash mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarining o'zida ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)larini sotishdan olingan moliyaviy natijasi 9000 «Asosiy (operatsion) faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schotlari» va 9100 «Sotilgan mahsulotlar tannarxi hisobi schotlari» tarkibidagi schotlar ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

Asosiy faoliyatning boshqa operatsiyalaridan moliyaviy natijalar, agar foya bo'lsa 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi schotlari» tarkibidagi schotlarda, agar zarar bo'lsa 9430 «Bosh operatsion xarajatlar» schoti tarkibidagi schotlarda aks ettiriladi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va xarajatlar esa 9500 «Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schotlari» va 9600 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar hisobi schotlari» tarkibidagi schotlarda hisobga olib boriladi.

Favqulodda foya yoki zararlar 9700 «Favqulodda foya (zarar)lar hisobi schotlari» tarkibidagi schotlarda hisobga olib boriladi.

Hisobot davri oxiri yuqoridagi schotlardagi ma'lumotlar qishloq xo'jalik korxonalarining umumiyligi moliyaviy natijasini aniqlash uchun 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotida umumlashtiriladi. 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti tranzit schot bo'lib, uning debetida qishloq xo'jalik korxonalarining zarari, kreditida esa foydasi aks ettiriladi. Ushbu schotning debit va kredit oborotlari taqqoslanib, qishloq xo'jalik korxonalarining yakuniy moliyaviy natijasi aniqlanadi.

9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti quyidagi schotlar bilan korrespondensiyalanadi:

1. Debet 9010, 9020, 9030 - schotlar

Kredit 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti-Hisobot davri oxirida sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lardan olingan daromadlar summasi o'tkazilganda.

2. Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti.

Kredit 9110, 9120, 9130- schotlar-Hisobot davri oxirida sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi summasi o'tkazilganda.

3. Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti .

Kredit 9410, 9420, 9430– schotlar – Hisobot davri oxirida davr xarajatlari summasi hisobdan chiqarilganda.

4. Debet 9310 – 9390 – schotlar.

Kredit. 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti – Hisobot davri oxirida asosiy faoliyatning boshqa daromadlari summasi o‘tkazilganda.

5. Debet 9510 – 9590 – schotlar.

Kredit 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti– Hisobot davri oxirida moliyaviy faoliyatning daromadlari summasi o‘tkazilganda.

6. Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti.

Kredit 9610-9690-schotlar-Hisobot davri oxirida moliyaviy faoliyatning xarajatlari summasi o‘tkazilganda.

7. Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti.

Kredit 9720-«Favqulodda zararlar»schoti-Hisobot davri oxirida favqulodda zararlar summasi o‘tkazilganda.

8. Debet 9710-«Favqulodda foydalar»schoti.

Kredit 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti– Hisobot davri oxirida favqulodda foyda summasi o‘tkazilganda.

Yuqoridagi buxgalteriya provodkalari berilgandan so‘ng, 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schotning debet va kredit oborotlari taqqoslanib, saldo aniqlanadi, hamda bu saldo 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schotiga quyidagicha buxgalteriya provodkasi bilan o‘tkaziladi:

1) Debet 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti.

Kredit 8710«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schoti– Aniqlangan saldo, 9910 – schotning kreditida bo‘lsa (foyda bo‘lsa).

2) Debet 8710«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schoti.

Kredit 9910-«Yakuniy moliyaviy natija» schoti– Aniqlangan saldo, 9910 – schotning debetida bo‘lsa (zarar bo‘lsa).

Hisobot davrining oxirida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti to‘liq yopiladi va buxgalteriya balansida aks ettirilmaydi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida hisobot davrida va butun faoliyati davomida taqsimlanmagan foydasi yoki qoplanmagan zarari holati va harakati to‘g‘risida ma‘lumotlar passiv schot bo‘lgan 8700«Taqsimlanmagan foyda ( komplanmagan zarar) hisobi schotlari»da olib boriladi. Ushbu schot tarkibida quyidagi schotlar bor:

8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)».

8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) ».

8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schotda qishloq xo‘jalik korxonalari hisobot davrida olgan foydasi yoki zarari hisobga olib boriladi. Agar qishloq xo‘jalik korxonalari yilni foyda bilan yakunlasa, foyda summasiga 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti debetlanib, 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi» schoti kreditlanadi. Agar qishloq xo‘jalik korxonalari yilni zarar bilan yakunlasa, zarar summasiga 8710 «Hisobot davrining qoplanmaga zarari» schoti debetlanib, 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schoti kreditlanadi.

8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) » schotda qishloq xo‘jalik korxonalari butun faoliyati davomidagi jamg‘arilgan foydasini yoki qoplanmagan zararini aks ettiradi. **Jamg‘arilgan foyda** – xo‘jalik yurituvchi sub’ektning faoliyat boshlanganidan boshlab olgan foydasidan ko‘rilgan zararlarni qoplashga, dividendlarni to‘lashga va o‘z kapitalini ko‘paytirishga qo‘shtan qismidan qolgan qismidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jalik korxonalari inqirozga uchramasligi va faoliyatini davom ettirishi uchun doimo yilni foyda bilan yakunlashi lozim. Shuning uchun 8720 «Jamg‘arilgan foyda» schotida ko‘pchilik hollarda qoldik kredit tomonda bo‘ladi va passiv holatda ishlataladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini mulk egasi dividendlar shaklida olishlari mumkin, agar soliqlar va majburiy ajratmalardan qarzdorlik bo‘lmasa. Bundan tashqari hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini rezerv kapitali tashkil etish yoki ko‘paytirishga ajratilganidan so‘ng, qolgan qismi 8720 «Jamg‘arilgan foyda» schotiga o‘tkaziladi. Ushbu xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya schotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schoti.

Kredit 6610 «To‘lanadigan dvidentlar» schoti – Taqsimlanmagan foyda summasini bir qismi mulk egalariga dividend shaklida to‘lashga ajratilganda.

2. Debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schoti.

Kredit 8520 «Rezerv kapitali» schoti – Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini bir qismi rezerv kapitaliga o‘tkazilganda.

3. Debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schoti.

Kredit 8720 «Jamg'arilgan foyda» schoti-Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini qolgan qismi jamg'arilgan foydaga o'tkazilganda.

Qishloq xo'jalik korxonalari doimo yilni foyda bilan yakunlamasliklari mumkin. Bunday holatda qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot davrida ko'rgan zarari, qishloq xo'jalik korxonalarining jamg'arilgan foydasi bilan qoplanadi. Bunda, Debet 8720 «Jamg'arilgan foyda» schoti, Kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi» schoti buxgalteriya provodkasi beriladi.

Buxgalteriya balansida qishloq xo'jalik korxonalarining jamg'arilgan foydasi, balansning pasiv tomonining I-bo'limida aks ettiriladi. Ya'ni, buxgalteriya balansi tuzilguncha, qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot davridagi foydasi (qoplanmagan zarari) tegishli buxgalteriya yozuvlari bilan jamg'arilgan foyda schotiga o'tkaziladi. Agar qishloq xo'jalik korxonalarida 8720 «Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zara)» schotida qoldik debet tomonda bo'lsa, ya'ni zarar bo'lsa, bu summa ham balansning passiv tomoni I-bo'limida aks ettiriladi, lekin «qizil» siyox bilan yoki oldiga «» belgisi qo'yib yoziladi.

### **17.3. Hisobotning mohiyati, ahamiyati va topshirish muddatlari.**

Xo'jaliklarni samarali boshqarish uning xo'jalik faoliyati, aktivlarning holati va ulardan foydalanish, xo'jalik kapitali va majburiyatlar to'g'risida to'la iqtisodiy axborotni tezkorlik bilan olish va foydalanishni taqoza qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z faoliyati ustidan kundalik nazoratni hujjatlar va hisobot registrlariga asosan olib boradilar. Lekin uzoq vaqt (oy, chorak, yil) davomida xo'jalik faoliyatining yakunini bilish uchun bu ma'lumotlar yetarli emas. Ularni umumlashtirish va tizimga keltirish zarur. Ushbu axborotlarni olishning asosiy manbai buxgalteriya hisoboti hisoblanadi.

**Buxgalteriya hisoboti-hisob** jarayonining yakunlovchi bosqichi bo'lib, qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini ma'lum bir davrga (kunga) yakunini aks ettiruvchi jadvallar yig'indisidan iborat. Buxgalteriya hisobotining shakllari va undagi ko'rsatkichlar davlat tomonidan, ya'ni moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Hozirgi kunda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonunning 16-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-

dekabrdagi 140-sonli buyrug‘iga asosan moliyaviy hisobotning quyidagi shakllari mavjud:

1. Buxgalteriya balansi (1-shakl)
2. Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot (2-shakl)
3. Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot (4-shakl)
4. Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot (5-shakl)

Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Qishloq xo‘jalik korxonalarilarda hisobot hisobning turlariga qarab bo‘linadi:

1. Buxgalteriya hisoboti.
2. Statistik hisobot.
3. Operativ(tezkor) hisobot.

Buxgalteriya hisoboti qishloq xo‘jalik korxonalarining mulkini, majburiyatlarini va moliyaviy natijalarini qiymat o‘lchovida aks ettirib, buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tuziladi. U navbatida buxgalteriya hisobotini: a) Moliyaviy hisobotga va b) Boshqaruv hisobotiga bo‘lish mumkin.

Statistik hisobot qishloq xo‘jalik korxonalarining alohida ko‘rsatkichlari haqida ham qiymat, ham natura ma’lumotlarni aks ettiradi va statistika, buxgalteriya va operativ hisob ma’lumotlari asosida tuziladi.

Operativ hisobot qisqa davr ichida qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot berib, operativ hisob ma’lumotlari asosida tuziladi.

Buxgalteriya hisoboti topshirilish davriga (tuzish muddatiga) qarab bo‘linadi:

1. Davriy hisobotlar.
2. Yillik hisobotlar.

Davriy hisobotga «Buxgalteriya balansi», «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot», shakllari kiradi.

Ushbu hisobot shakllari, qolgan hisobot shakllari bilan birga yillik hisobot tarkibini ham tashkil etadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiradi.

Buxgalteriya hisoboti ma’lumotlaridan qishloq xo‘jalik korxonalari boshqaruvchilari, kreditorlar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar va davlat organlari foydalanadilar. Jumladan, 26.07.1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 14.08.1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan

ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va takdim etishning konseptual asosi» ning 9-bandiga asosan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga «Haqiqiy va bo‘lgusii investorlar, kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliliklar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar» kiradi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida moliyaviy hisobot shakllaridan boshqa qishloq xo‘jalik korxonalarining ichki hisobot shakllaridan foydalanuvchi bo‘lib qishloq xo‘jalik korxonalarining rahbari va a’zolari hisoblanadi.

Hisobot ma’lumotlari asosida qishloq xo‘jalik korxonalarining moliya-xo‘jalik faoliyati tahlil qilinadi, foydalanimayotgan rezervlar aniqlanadi va yo‘l-qo‘ylgan kamchiliklar sababi aniqlanib, kelgusida yo‘l qo‘ymaslik belgilab olinadi.

Bundan tashqari qishloq xo‘jalik korxonalarida hisobot ma’lumotlaridan rejalashtirishda, ya’ni biznes-rejalar tuzishda ham foydalilanildi.

Hisobot ma’lumotlari asosida qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari va uning iqtisodiy holati to‘g‘risida ta’minotchilar, xaridorlar, investorlar va kreditorlar ham ma’lumotlarga ega bo‘ladilar va shunga asosan qishloq xo‘jalik korxonalari bilan iqtisodiy munosabatda bo‘ladilar.

Buxgalteriya (moliyaviy) hisobot elementlari (unsurlari) bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Aktivlar
- Majburiyatlar
- Xususiy sarmoya («B.H. to‘g‘risida» qonun 14-modda)
- Rezervlar (zahiralar)
- Daromadlar
- Xarajatlar
- Moliyaviy natijalar.

Ushbu elementlar mohiyati «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va takdim etishning konseptual asosi» (1988 yil 26 iyunda Moliya vazirligi tasdiqlangan, 1998 yil 14 avgustda Adliya vazirligi ro‘yxatga olgan) ning 37-38-moddalarida oolib berilgan. Buxgalteriya hisoboti ma’lum talablar asosida tuziladi. Buxgalteriya hisobotiga qo‘ylgan talabalar:

- Hisobot ko‘rsatkichlari to‘g‘ri va ishonarli bo‘lishi kerak

- Hisobot o‘z vaqtida tuzilishi va belgilangan muddatda topshirilishi lozim.
- Hisobot Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllarda tuzilishi kerak
- Hisobot oddiy, aniq va barcha uchun tushunarli bo‘lishi kerak.
- Hisobotni qishloq xo‘jalik korxonalari rahbari va boshqa tegishli shaxslar imzolashi lozim
- Hisobotda tushunarsiz va o‘chirib yozilgan raqamlar bo‘lmasligi kerak.

Buxgalteriya hisoboti uchun hisobot davri «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi qonunning 24-moddasiga asosan 1-yanvardan 31 dekabrgacha bo‘lgan kalendar yil hisoblanadi. Davriy hisobotlar esa, kalendar yildan farqli 3,6,9-oy muddatlarga tuziladi. 26.07.1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 14.08.1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti №1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ning 61-moddasiga asosan «Hisob davrining so‘nggi kalendar kuni buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlari – uchun hisobot sanasi hisoblanadi. Masalan, yillik **Buxgalteriya balansi** uchun hisobot sanasi 31-dekabr hisoblansa, yillik **Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot** uchun 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan davr hisobot davri hisoblanadi.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 22-moddasiga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi «Moliyaviy hisobot shakllari va to‘lg‘azish bo‘yicha yo‘riqnomaga»ga asosan joriy hisobot shakllariga quyidagilar kiradi:

- buxgalteriya balansi (1-shakl)
- moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl)
- debetorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomma (2a-shakl)
- pul oqimlari to‘g‘risida hisobot (4-shakl).

Ushbu hisobot shakllarining 1 va 2 – shakllari 3, 6, 9 oylik va yillik hisobotning, 4-shakl 6 oylik va yillik hisobotning tarkibida bo‘ladi.

Birinchi navbatda shuni aytish joizki, qishloq xo‘jalik korxonalari majburiy tartibda quyidagi foydalanuvchilarga moliyaviy hisobotini topshiradi:

-ta’sis hujjatlariga binoan mulkdorlar (mulkn boshqarish bo‘yicha vakolatli organlar, ta’sischilar);

-statistika organiga;  
-davlat soliq inspeksiyasiga;  
-O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining ayrim tomonlarini tekshirish va tegishli hisobotni olish vazifalari yuklatilgan boshqa davlat organlariga.

Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan tuziladigan va tegishli organlarga topshiriladigan moliyaviy hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartsi №1 «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» bilan tartibga solinadi. Moliyaviy hisobotlarda quyidagi axborotlar to'liq aks ettirilishi kerak:

1. Qishloq xo'jalik korxonalari nomi, yuridik manzili, identifikatsiyalangan raqami va sub'ektni aniqlab olish uchun zarur bo'ladigan boshqa rekvizitlar;

2. Hisobot sanasi yoki moliyaviy hisobotlar qaysi davrni o'z ichiga olishi;

Topshirilgan hisobot axborotlarini to'g'ri tushunish uchun quyidagi rekvizitlar keltirilishi lozim:

1. Moliyaviy hisobotda qo'llanilgan valyuta turi;

2. Hisobotda foydalilanigan raqamlarning aniqlik darajasi, masalan, keltirilgan raqamlarning ming hisobida yoki million hisobida ekanligi va h.k.

### **17.3. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibi.**

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot 25.08.1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan, 27.08.1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartsi №3-Buxgalteriya hisobi Milliy standarti «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»ga binoan joriy buxgalteriya ma'lumotlari bo'yicha tuziladi.

Quyida Adliya vazirligida 2003 yil 24 yanvarda 1209-sod bilan ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 27 dekabrdagi 140 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning shakli keltiriladi.

**MOLIYaVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDA HISOBOT.**

**200\_yil.**

**Qishloq xo‘jalik korxonalarini,  
tashkilot \_\_\_\_\_**

Tarmoq \_\_\_\_\_

Tashkililiy-huquqiy shakli \_\_\_\_\_

Mulkchilik shakli \_\_\_\_\_

Vazirlilik,idora va boshqalar \_\_\_\_\_

Soliq fo‘lovchining indefikatsion  
raqami \_\_\_\_\_

Hudud

Manzil

O‘ichov birligi, ming so‘m

**BHUT bo‘yicha**

**2-shakl**

**KREDITUT bo‘yicha**

**XXTUT bo‘yicha**

**TPPT bo‘yicha**

**MSHT bo‘yicha**

**DBIBT bo‘yicha**

**SITR**

**MHBT**

**Jo‘natilgan sana**

**Qabul qilingan sana**

**Taqdim qilish muddati**

**2-shakl**

**Kodlar**

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr turi	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromad (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromad (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot(tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010		x		x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi	020	x		x	
Mahsulot(tovar, ish va xizmat)lar sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010-020)	030			x	x
Davr xarajatlari, jami (satr 050+060+070+080), shu jumladan	040	x		x	
Sotish xarajatlari	050	x		x	
Ma’muriy xarajatlari	060	x		x	
Boshqa operatsion xarajatlari	070	x		x	
Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	080			x	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090		x		x
Asosiy faoliyatning foydasi(zarari) (satr.030-040+090)	100				
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami(satr.120+130+140+150+160),s hu jumladan:	110		x		x

Dividentlar shaklidagi daromadlar	120		x		x
Foizlar shaklidagi daromadlar	130		x		x
Uzoq muddatli ijara(lizing)dan daromadlar	140		x		x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	150		x		x
boshqa daromadlari	160		x		x
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (satr.180+190+200+210),shu jumladan:	170	x		x	
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	x		x	
Uzoq muddatli ijara(lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	190	x		x	
Valyuta kursi farqidan zararlar	200	x		x	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	210	x		x	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)(satr.100+110-170)	220				
Favquloddagi foyda va zararlar	230				
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr 220+/- 230)	240				
Daromad (foyda)dan solig'i	250	x		x	
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260	x		x	
Hisobot davriining sof foydasi (zarari) (satr 240-250-260)	270				

Qishloq xo'jalik korxonalarida hisobotning 010-satri 9000 «Asosiy (operatsion) faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schotlari»ning tegishli (9010-9030) schotlaridan olinadi.

020 - satr summasi 9100«Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi hisobi schotlari»ning tegishli schotlari (9110-9130) dan olinadi.

030 - satr summasi 010 - satr summasidan 020 - satr summasini ayirib tashlash yo'li bilan topiladi.

040 - satrda 050, 060, 070-satrlarning jami summasi aks ettiriladi.

050-satrda 9410 «Sotish bo'yicha xarajatlar» schotida hisobga olingan sotish xarajatlari aks ettiriladi.

060 - satrda 9420 «Ma'muriy xarajatlar» schotida hisobga olingan summa aks ettiriladi.

070 - satrda 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schotida hisobga olingan summa aks ettiriladi.

090 - satrning summasi 9300 «Asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar hisobi schotlari»ning tegnshli schotlari (9310-9390)dan olinadi.

100 - satrning summasi 030 - satr summasidan 040-satr summasini olib tashlab, 090 - satr summasini qo'shish yo'li bilan topiladi.

110 - satrda 120,130,140,150,160 - satrlarning jami summasi aks ettiriladi.

120 - satrda 9520 «Dividend ko'rinishidagi daromadlar» schotining summasi aks ettiriladi.

130 - satrda 9530 «Foiz ko'rinishidagi daromadlar» schotining summasi aks ettiriladi.

140 - satrda 9550 «Uzoq muddatli ijaradan daromadlar» schotining summasi aks ettiriladi.

150 - satrda 9540 «Valyutalar kurslari farqlaridan olingen daromadlar» schotining summasi ko'rsatiladi.

160- satrda 9510 «Royalti ko'rinishidagi daromadlar», 9560 «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar» va 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schotlarining ma'lumotlari aks ettiriladi.

170 - satrda 180, 190, 200, 210 - satrlar jami summasi aks ettiriladi.

180 - satrda 9610 «Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar» schotida hisobga olinadigan bank kreditlari va qarzlar bo'yicha to'langan foizlar summasi aks ettiriladi.

190 - satrda 9610 «Foizlar ko'rinishidagi xarajatlar» schotida hisobga olinadigan uzoq muddatli ijara(lizing) bo'yicha to'lanadigan foizlar aks ettiriladi.

200 - satrda 9620 «Valyutalar ko'rslari farqlaridan zarar» schotida hisobga olinadigan valyuta operatsiyalari bo'yicha salbiy kurs farqlari summasi aks ettiriladi.

210 - satrda 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar» schotlarining ma'lumotlari aks ettiriladi.

220 - satrning summasi 100 - satr summasiga 110 - satr summasini qo'shib, 170-satr summasini olib tashlash yo'li bilan topiladi.

230 - satrning «Daromad (foyda)» satri 9710 «Favqulodda foydalar» schotining ma'lumotlariga asosan to'ldiriladi, «Xarajatlar (zarar)» satriga yozish uchun ma'lumot 9720 «Favquloddagi zararlar» schotidan olinadi.

240 - satrning summasi 220 - satr summasiga 230 - satr summasini qo'shish yoki olib tashlash yo'li bilan topiladi. Bu ma'lumot 9910

«Yakuniy moliyaviy natija» schotining debet va kredit oborotlarining farqi summasiga teng bo‘lishi kerak.

Amaldagi qonunchilikka binoan qishloq xo‘jalik korxonalari 260 - satrda hisoblangan yagona yer solig‘i summasini aks ettiradi.

270 - satr summasi 240 - satr summasidan 260 - satr summasini olib tushlash yo‘li bilan aniqlanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Moliyaviy natijalarning iqtisodiy mohiyati.
2. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari.
3. Davr xarajatlari hisobi.
4. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar va xarajatlar.
5. Yakuniy moliyaviy natija hisobi.
6. Taqsimlanmagan foyda hisobi.
7. Hisobotning mohiyati.
8. Hisobot turlari va unga qo‘yilgan talablar.
9. Hisobotning ahamiyati.
10. Davriy va yillik hisobot shakllari.
11. Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobotni tuzish.
12. Hisobotni tushuntirish xati
13. Hisobotni taqdim etish muddatlari va tartibi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. Lex uz

2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2016 yil, 13 aprel. Lex uz

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.T.: Adolat, 2019 yil, 30 dekabr (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). Lex uz

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.**

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli Farmoni. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.10.2019 y., 06/19/5853/3955-son)/  
<http://lex.uz/docs/4567334>

5. 2019-2024 yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida ID-2722 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Lex uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. PF-60-son

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020 yil 24 fevral, PQ-4611-son.

8. "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi PQ-3946-sonli qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi qarori, 1999 yil 5 fevral, 54-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdag'i "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4633-son qarori. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz).

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdag'i "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tiziини tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6059-sonli Farmoni, 02.09.2020. <https://lex.uz/docs/4980311>.

14. 27.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, №705, 10.11.2020. <https://lex.uz/docs/5090474>

15. 28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘silgan qiyimat zanjirini yaratishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4549-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4641164>

16. 29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta –to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-14 son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5731033>

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

17. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz /-T.: O‘zbekiston, 2016.-56 b.

18. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” /-T.: O‘zbekiston, 2017.-48 b.

19. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” /-T.: O‘zbekiston, 2017.-488 b.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2022 yil 22 dekabr №258 (6922) 3 b.

21. O‘bekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2021 yil 29 dekabr. №262 (6871) 3 b.

22. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. -T.: O‘zbekiston, 2017. - 34 b.

23. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi-inson manfaatlarini ta'minlashning muxim omilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 7 yanvarda Prokuratura organlari xodimlari kuni oldidan sohaxodimlari bilan uchrashuvidagi nutqi.

### **Buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro hamda auditning xalqaro standartlari.**

24. 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 14.08.1998 da qayd etilgan, № 474

25. 1-sonli BHXS (IAS) "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish". 2007 yil 1 sentabrdan kuchga kiritilgan.

26. 13-son MHXS (IFRS) "Xakkoniq qiymatni baholash". 2011 yil may oyidan kuchga kiritilgan

27. 37-son BHXS(IAS) "Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar". 1998 yil 1 sentabrdan kuchga kiritilgan

28. 15-son MHXS (IFRS) "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum". 2018 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan.

29. 21-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga uni qo'llash bo'yicha yo'rqnoma". O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2002-yil 9-sentyabrdagi 103-son buyrug'iiga bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 23-oktyabrdan ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1181. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)

30. "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirgi tomonidan 14.08.1998 da qayd etilgan, № 475.

31. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi (BXMS № 3) «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» milliy standarti. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-avgustda 484-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

### **IV. Asosiy adabiyotlar**

#### **IV. Asosiy adabiyotlar**

32. Aliev U.E. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisodiyot", 2019.

33. Аликулов А.И. Харажатлар ҳисоби ва таҳлилиниң назарий ҳамда амалий масалалари. Монография.-Т. "Fan va texnologiya". 2011,

34. Бухгалтерский учет и анализ: Учебник / С.А.Сироткин, Н.Р. Келчевская. –М.:ИНФРА-М, 2019.
35. Бурсулая Т.Д. Учет выпуска готовой продукции. <https://www.audit-it.ru/articles/account/assets/a11/1017103>.
36. Иткин Ю.М., Егорычева И.Ф. "Учетная политика предприятия в Узбекстане".-Т.: Ассоциация бухгалтеров и аудиторов Узбекистана.2000 й.
37. Кондрakov Н.П. Самоучитель по бухгалтерскому учету.7-е изд., перераб. и доп. – М.: Проспект, 2021.
38. Каримов А.А., Исломов Ф.Р., Авлақулов А.З. Бухгалтерия хисоби. Дасрлик. - Т: Шарқ, 2004
39. Murtazaev O., Ahrorov F. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –Toshkent: “ILM-ZIYo”, 2017.
40. Елисур М.Ю. Экономика и бухгалтерский учет. Проф.модули: Учебник – М.: “Форум”, 2019.
41. Боронина Л.И. Бухгалтерский учет. Учебник. – М.: “Алфа-М”, 2017.
42. В.Бабурин., Земцов С.П.(Инновационный потенциал регионов России. Москва: КДУ, 2017
43. Пашерстник Н.В. Бухгалтерский учет на современном предприятии:учебно-практическое пособие. – М.: Проспект, 2011. - 560 с.
44. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: Fan va texnoligya, 2005.
45. Shodmonov Sh., Rahmatov M., Iqtisodiyot nazariyasi darslik. Toshkent: 2021 -yil
46. Н.Руднева Опыт создания структурированных кластеров в развитых странах (Электронный ресурс) // Экономика регион.2007
47. Vahobov A.V, Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: Sharq, 2010, 228-b.
48. Shakarov A. Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish (mulkchilikning turli xil shakllarida). Iqtisodiyot fanlari nomzodlik dissertatsiyasi Avtoreferati: -Т.: TMI -2000. -29 b.
49. Tashnazarov S.N.. Moliaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – Т. “Iqtisod-Moliya”, 2019.
50. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ko'rgazmali ma'ruza matnlari to'plami. SamISI., 2014.

51. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ko‘rgazmali ma’ruza matnlari to‘plami. SamISI.: 2014, 21-22 b
52. Urazov K.B., Po‘latov M.Ye. Buxgalteriya hisobi. Darslik.-T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, 558 bet
52. G‘ulomova F.F. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganuvchilar uchun qo‘llanma. 2-qayta ishlangan va qo‘srimchalar kiritilgan nashr. - T.: “Norma” MChJ, 2009. 496-b.
54. Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж.. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. Пер. с англ./Под ред.Я.С.Соколова.- М: “Финансы и статистика”. 2001.-416 с.
55. Херремов Ш.Р. Концепция развития каракулеводства в Туркменистане. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=18975767>.
56. Xodjaev J. 9 ta ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha 30 dan ortiq normativ huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. <http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-b-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.
56. Xayitov A. Klaster tizimi haqida: «Bizda bu borada aniq qonunning o‘zi yo‘q». <https://kun.uz/news/2019/09/11>
58. Yakubov I. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisodiyot” 2016 y.
59. Ortikov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.
60. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2019.
61. Salimov B.T., Yusupov M.S, Ishnazarov A. Mikroiqtisodiyot-2. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019.
- VI. Qo‘srimcha adabiëtlar**
62. Атабаева З.А. “Учетная политика организатсии и её связь с налоговым планированием” International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities Hosted from Hamburg, Germany <https://econferencezone.org> March 15th -16<sup>th</sup>, 2022.
63. Abulqosimov Н.Р. О‘zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashning ayrim masalalari//Iqtisod va moliya. – 2019. - № 2. – 27 b.33.
64. Гребмер, К. 2016 Глобал хунгер индех: Геттинг то зеро хунгер / К. вон Гребмер, Ж. Бернштейн, Д. Набарро и др. - Бони Вашингтон, DC анд Дублин: Уелтхунгерхилфе, Интернационал Фоод Полисий Ресеарч Институте, анд Сонсерн Ворлдидае, 2016.

65. Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M. Agroklaster: tashkil etilishning nazariy asoslari// Iqtisod va molia, 2014. №2. B.19-25.
66. Saidaxmedova N.I., Oziq-ovqat xavfsizligini taminlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va ulardan O'zbekistonda foydalanish illari. //Iqtisod va molia.-2019.№3.B.2-10
67. Yuldasheva N.T. Tayyor mahsulot sotilishi hisobini yanada takomillashtirish yo'llari. Ta'lim fi-doyilar. Elektron jurnal. ISSN: 180-2130. Vol.,1, ISSNE 1 may 2022.
68. Экономические термины. <https://neftegaz.ru/tech-library/economy/147119-gotovayaproduksiya/>).
69. Rizq-ro'zimiz bunyodkori bo'lgan qishloq xo'jaligi xodimlari mehnatini ulug'lash, soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish – asosiy vazifamizdir [https://kknews.uz/oz/docs\\_laws/documents/zbekcha-riz-r-zimiz-bunjodkori-b-lga](https://kknews.uz/oz/docs_laws/documents/zbekcha-riz-r-zimiz-bunjodkori-b-lga)
70. Paxta –to'qimachilik klasterlari uioshmasi sayti:  
<https://uzptk.uz/clusters/>

## VII. Internet saytlari

[https://ru.wikipedia.org/wiki/gotovaya produksiya](https://ru.wikipedia.org/wiki/gotovaya_produksiya).

<https://review.uz/oz/post/infografika-razvitie-ekonomiki-uzbekistana-v-2022>.

[https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-moliyaviy-hisobotning-sulqaro-standartlariga-otishi-yangicha-yondashuv-va-imkoniyatlar\\_190586](https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-moliyaviy-hisobotning-sulqaro-standartlariga-otishi-yangicha-yondashuv-va-imkoniyatlar_190586)

<https://www.agro.uz/yil-yakunlari-qishloq-xojaligi-2021/rtibga>

<https://www.agro.uz/yil-yakunlari-qishloq-xojaligi-2021>

A.I.ALIKULOV, U.T.ESHMURADOV, B.T.SHODIEV

**TARMOQ IQTISODIYOTI  
VA BUXGALTERIYA HISOBI**

o‘quv qo‘llanma

Toshkent, “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023, 264 bet

“Fan ziyosi” nashriyoti MCHJ

Litsenziya № 3918, 18.02.2021.  
Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30

Nashriyot direktori  
Muharrir  
Texnik muharrir

I.Xalilov  
N.Tojiqulova  
L.Fayziyev

Bosishga ruxsat etildi 29 dekabr 2023 yil.  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.  
Times New Roman garniturasи.  
Shartli hisob tabog‘i – 16,5. Nashriyot hisob tabog‘i – 15,0  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 12/69

**ISBN: 978-9910-743-8-5-6**

«Sogdiana ideal print» MCHJda chop etildi.  
Samarqand sh., Tong k.,55

978-9910-743-8-5-6

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9910-743-8-5-6.

9 07 8 9 9 1 0 07 4 3 8 5 6 12